

## So‘z boshi

Ulug‘bek rasadxonasi vayronalarining ochilishi sababli paydo bo‘lgan maqolalardan birida Ulug‘bekning shaxsi va uning “Samarqand rasadxonasida olib borilgan ishlarda tutgan o‘rni haqida ma’lumotlar nihoyat darajada kam” ekanligiga e’tibor qaratilgan edi<sup>1</sup>. Ulug‘bekning shaxsi, hukmronligi masalasi biror sharqshunos tarixchining monografiyasi uchun predmet ham bo‘lgan emas. Falakiyotchi olimlar uchun Ulug‘bekni astronomic jadval muallifi deb yozishganda, tabiiyki, uning hukmdorligi, tarixiy arbobligi masalasi e’tibordan chetda qolib kelgan. Falakiyotchi olimlar nazdida, eronlik bir tarixchi yozganidek, bir vaqtning o‘zida “Aflatun olimligini va Faridun hashamatini”<sup>2</sup> mujassam qilgan hokimiyatparast hukmdordan Temurning nabirasi taxtga kelgan birinchi yillaridanoq butun umrini matematika va astronomiyaga bag‘shlagan idealist olimga aylanib qolgan edi<sup>3</sup>. Ulug‘bek asos solgan madrasa havaskor sharqshunoslardan birining manbadan qilgan erkin tarjimasi ta’sirida “Iskandariya namunasi asosida tashkil qilingan gimnaziya muzeyi” ga aylanib qolgan (ya’ni, madrasa haqida noto‘g‘ri tasavvur paydo bo‘lgan - tarj.), deb yozadi.<sup>4</sup>. Aslida Ulug‘bek davri suhdayki, bu davr haqida ko‘pchilikka ma’lum bo‘lмаган bir-biridan xoli bir necha mustaqil manbalar bor va bular, astronom olimlar kabi turli farazlar va uydirmalar qilishga deyarli imkon qoldirmaydi. Biroq haqiqatan ham Ulug‘bek haqidagi ma’lumotlar otasi Shohrux va bobosi Temur haqidagi manbalardan ko‘ra kamroq. Masalan, bevosita Ulug‘bek saroyida yozilgan tarixiy

<sup>1</sup> Милованов. Астрономические познания. – Б.52.

<sup>2</sup> Мирхонд. Лакхнау нашри. – Б.1290; Осиё музей қўлёзмаси. 319 б – 320 а: Donishi Aflatun va hashamati Faridun jam’ dosht.

<sup>3</sup> Sébillot. *Prolegomenes*, I. Introduction. – P. CXXV: entrainé par l’amour de l’étude, Il abandonna promptement le terrain de la politique pour se livrer tout entier à sa passion pour les mathématiques et l’astronomie”. Hozirgi rus tadqiqotchilaridan biri bundan-da qat’iyroq qilib “Ulug‘bek butun hayotini ilmga bag‘ishlagan idealist olim bo‘lib, bu dunyoning odami emas edi”. deb yozad (Сикора. О памятнике Улуг-беку. – С.82.

<sup>4</sup> Humboldt, Kosmos. Bd II. – S.261. “гимназия” сўзи Хайднинг (Th.Hyde) таржимасида ишлатилган. Qiyoq qiling: Sébillot. Prolegomenes, I. Introduction. – P. CXXVI et CXXVIII.

asarga yoki Ulug‘bekni, uning saroyini, poytaxtini ko‘rgan biror sayyohning asariga ega emasmiz. Ulug‘bek davrida Movarounnahrda yashagan odamlarning xotiralari esa boshqalar tomonidan qilingan hikoyalar sifatida yetib kelgan. Temurning<sup>5</sup>, xatto Chingizzonning<sup>6</sup> tashqi qiyofalari haqida ancha bat afsil ma’lumotlarga ega bo‘lganimiz holda, Ulug‘bekning ko‘rinishi haqida manbalarda deyarli hech qanday xabar yo‘q. Balki qo‘lyozmalar ichida mo‘jaz tasvirlar (miniatyuralar) orasida Ulug‘bekning suvrati uchrar. Ammo bunday noyoblik haqida hali-beri biror ma’lumot keltirilganicha yo‘q. Buning ustiga ularda aks etgan qiyofalar tasvirlanayotgan shaxsning aynan o‘ziga o‘xshaydimi, buni ham yana-da ishonch bilan aytish qiyin. Biroq, ko‘ramizki, Temurning barcha hatti-harakatlari ko‘p jihatdan u tashkil etgan davlatning hayotini belgilab bergen. Temur hukmronligi davri hodisalari esa, Ulug‘bek amalga oshirgan ko‘p ishlarni, yutuq va yutqiziqlarni tushuntirish uchun bamisolli kalitdek. Shunday qilib, Ulug‘bek hayoti va hukmronligi tarixi bayonini unga bobosidan qolgan merosning qisqa tafsilotidan boshlashga to‘g‘ri keladi<sup>7</sup>.

---

<sup>5</sup> Айнитқса, Клавихода. Срезневсккий нашри. – Б.249-250. <Қнг: Ф.Лопес Эстраданинг янги нашри(1943). Ибн Арабшоҳ. Қоҳира нашриб. – Б.216-217. <1941 yilda Temur va Temuriylarning Go‘ri Mirdagi qabrlari qatori Ulug‘bekning qabri ham ochilganda haykaltarosh-antropolog M.M.Gerasimov Ulug‘bekning bosh chanog‘I asosidagi potreti(yuz qiyosi)ni ishlagan edi. Qarang: Герасимов. Основы восстановления... - С. 163-164. Портрет 166-бетда>

<sup>6</sup> Juzjoniy va xitoy Men Xunning menin Turkiston...imim II qism, 497-betda keltirilgan so‘zlari; hozir esa qarang: <Бартольд. Соч. Т.1. С. 527; хитой ьюаллифининг исми Мен хун эмас, Чжао Хун экани аниқланган: Бартольд. Соч. Т. I. 84-бет учун 5-изоҳ. Ю.Брегель>

<sup>7</sup> <Qarang: V.V.Bartol'd vafotidan keyin Temur tarixiga bag‘ishlangan A.Yu.Yakubovskiyning Temur nomli maqolasi; Греков – Якубовский. Золотая Орда. - С. 336-373; Строева. Борьба кочевой и оседлой знати; Стрева. Возникновение государства Темура. Манбаларнинг янги нашрлари ҳақидқ қаранг: Roemer. Neumere Veröffentlichungen; Тож ус-Салмон. Сўзбоши. <sup>1</sup>1-4. – Ю.Брегель>

## 1-bo‘lim

### 1. MO‘G‘UL SALTANATI VA CHIG‘ATOY DAVLATI

Amir Temur tuzgan davlat turk-mo‘g‘ul davlatchiligi va turk-mo‘g‘ul harbiy tizimining musulmonchilik, xususan, fors madaniyati bilan o‘ziga xos qorishuvidan iborat edi<sup>8</sup>.

Chingizzon va uning sultanati tarixiga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlardan keyin mo‘g‘ul istilosи haqida ko‘psonli yovvoyilarning o‘zlari uchun begona madaniyatlarni vayron qilishga qodir pala-partish, stixiyali harakati edi, deya baholash tamoman barham topdi<sup>9</sup>. Binobarin, ko‘chmanchilarining hayoti qanchalik odmi va sodda bo‘lib tuyilmasin, ibtidoiy yovvoyilar hayotidan jiddiy farqlidir. Zero, cho‘lda boy va kambag‘al ajralgan va oqibatda tabaqalar o‘rtasida ziddiyatlar, egalik qilib

---

<sup>8</sup> V.V.Bartold ijod qilgan davrda Markaziy Osiyo xalqlarining o‘ziga xos mushtarak madaniy o‘tmishini alohida tarixiy hodisa sifatida baholash odat emas edi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo tarixiy-madaniy jarayonlari mustaqil sivilizatsion hodisa deb baholanadi va bunga “fors madaniyati” tushunchasi torlik qiladi.

<sup>9</sup> Adabiyot uchun qarang: Бартольдю Туркестан. Ч.II. С.60 ва давоми. <Соч. Т. I, С.108ва давоми. Янги тадқиқотлар учун қаранг: ўша жойда. 112 бетдаги 4-изоҳ. Ю.Брегель>; Бартольд. Читнгизхан. Encycl.I. I, S.898.

turgan mol-mulkini, ayniqsa, tashqi dushmanlardan o‘z chorvasini qo‘riqlash ehtiyoji, yaylov uchun ulkan hududlarni egallashga qaratilgan qurolli to‘qnashuvlar, goho sodir bo‘lib turadigan buxroniy vaziyatlarda yagona shaxs yoki ayrim qavm-urug‘ atrofida birlashish zarurati ko‘chmanchilik ijtimoiy tizimining ibtidoiy jamiyatlardan keskin farqlantirgan. Odatiy ko‘chmanchilik hayot sharoitlarida davlat tuzumi haqida emas, faqat jamoachilik tuzumi haqidagina gapirish mumkin bo‘lsa, qisqa vaqt o‘tar-o‘tmas nafaqat kuchlidavlat hokimiysi, balki qudratli buyuk davlatchilik emas, xatto qulay kelgan holatlarda jahonga hukmdorlik g‘oyalariga ham aylanishi mumkin. Bunday g‘yani amalga oshirish uchun g‘oya egasiga qudratli va puxta tashkil qilingan kuch kerak, xalos. Ko‘chmanchilarning kundalik hayot tarzi esa bu kabi intilishlar uchun u qadar imkoniyat beravermaydi. Ko‘chmanchi sultanatlarning mustahkam va barqaror mavjudliginini ta’minlash uchun ularning hukmdorlari madaniy o‘lkalarga bosqinlar uyushtirish, bosib olib, talon-toroj qilish orqali o‘z fuqarosi talablarini qondirgan. Ammo bosib olingan mamlakatda ko‘chmanchilar, ayniqsa, ularning hukmron sulolalari, atrofidagi a’yonlari bilan birga astasekin yuksakroq madaniyat ta’siriga tusha boradilar. Biroq ko‘chmanchilar o‘zları bilan olib kelgan madaniyat bir yo‘la izsiz yo‘qolib ketmaydi. Chunki istilochilar ko‘chmanchi hayot erkinligini yuksak madaniyat ne’matlari bilan birlashtirishga harakat qiladilar. Ushbu intilish natjasи o‘laroq, hukmdor hamda uning qabiladoshlari bir tomonidan, ikkinchi tomonidan esa ularga tobe qilingan mahalliy aholi o‘rtasida o‘ziga xos munosabat shakllanadi. Istilochilarning o‘z yurtida, albatta tashqi madaniy ta’sirlar ostida shakllangan davlat tizimi bosib olingan mamlakatda o‘z taraqqiyoti uchun yanada qulay sharoitlarga ega b’libgina qolmay, balki egallangan yurtning an’anaviy siyosiy ideallari bilan raqobatiga muvaffaqiyat bilan qarshi tura oladi. Bugina emas, balki begona yurt tarixida asl vatanidagidan ko‘ra chuqurroq iz qoldiradi. Masalan, mo’g‘ul davlatchiligi bevosita Mo‘g‘uliston tarixiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmagan holda, Xitoyda,

Osiyo islomiy o‘lkalarida hamda Rossiyada nisbatan barqaror siyosiy tartib o‘rnatalishiga olib keldi<sup>10</sup>. Xuddi shu kabi Muhammad (Rasulilloh sav – tarj.) va ul zotning dastlabki xalifalari barpo etgan davlat Arabiston yarim orolidan ko‘ra fatx etilga o‘lkalar xalqlari taqdiriga ko‘proq ta’sir ko‘rsatgani ham ma’lum.

Kochmanchilar davlatlari orasida Chingizzon tuzgan davlat favqulodda hodisadir. Boshqa barcha holatlarda ko‘chmanchilar nisbatan kichik madaniy o‘lkalarni o‘z atroflariga birlashtira olgan bo‘lsalar, mo‘g‘ullar bir qancha madaniy o‘lkalarni, Hindiston, Suriya hamda Arabiston yarim orolidan tashqari butun Osiyo qit’asini, Sharqiy Ovruponi bosib oldilar va tarixda misli ko‘rilmagan ulkan saltanat yaratdilar. Bu kabi beqiyos natijalar boshida sonu miqdori katta bolmagan, yangi yerlarni bosib olishga ehtiyoli ham bo‘lmagan kichik bir xalq - mo‘g‘llar turgan edi. Qizig‘i shundaki, asl vatani bo‘lmish Mo‘g‘ulistonda qolgan mo‘g‘ullar uchun Chingizzon va uning avlodlari asl vatandan tashqarida olib borgan urushlar bilan deyarli qiziqmagانلار. Bu holat 1240 yillar chamasida yaratilgan, xitoy manbalarida *Yuan-chao bi-shi* deb ko‘rsatilgan mo‘g‘ul epic dostonida yaqqol ko‘zga tashlanadi<sup>11</sup>. Holbuki, Chingizzon va uning atrofida bo‘lmish davlat arkonlariga taalluqli deb hisoblanuvchi ma’lumotlarda asosan bosqinchilik, urush va ov o‘ljalari taqsimoti kabilar haqida gap boradi<sup>12</sup>. Zero xon atrofida xalqning birlashuvi, xon va davlat zodagonlarining vazifalari hamda huquqlarini ham mazkur maqsad belgilab bergan. Chingizzonning harbiy yutuqlari uni qaroqchilar to‘dasining etakchisidan jahonda tengi yo‘q ulkan saltanat sohibiga aylantirdiki, bu hol uning nomini hech bir sulola asoschisisiga nasib qilmagan ulug‘vor ardoq va e’zozlarga loyiq etdi<sup>13</sup>. Uning

<sup>10</sup> Qiyoṣ: Bartoľd. “Mir islamā. Soč. T.I. – B. 72. <Бартольд мұғұллур босиб олган мамлакатлар тарихида “Мұғұл давлатчилігі”нинг аҳамиятини бүрттириб күрсатған. Қ. Соč. T.II. Ч. 1. -С. 719. 13, 14-изоҳ>

<sup>11</sup> Shu o‘rinda V.V.Bartold ahmoniyalar bosqinchilik yurishlari paytida Eronning tub aholisi asosan o‘z yurtida qolgani holda bosib olingen mamlakatlarda tub siyosiy o‘zgarishlar kechganini eslatib o’tgan.

<sup>12</sup> Bartoľd B.B. Образование империи Чингизхана. ЗВРОАО, т. X. – С. 110-111. Қаранг: Bartoľd B.B. Соč. T. II. – С.

<sup>13</sup> Bartold Temuchin ismi o‘rniga Chingizzon unvoni berilgani va bu kabi unvonga uning avlodlaridan birortasi o‘zini munosib ko‘rmagani haqida eslatib o’tgan – tarj.).

irodasi hayot paytida ham, vafotidan keyin ham qat’iy qonundek edi.

Chingizzxonning avlodlaridan hech biri o‘zini u bilan bir qatorga qo‘yishga, unga sig‘inishni talab qilishga jur’at etmagan. Shunday qilib, sulola asoschisi qadimgi turk sultanatlari an’anasiga o‘xshatib, o‘zining asl ismini umuman siqib chiqargan unvonni qabul qildi. Holbuki, Chingizzondan keyingi mo‘g‘ul hukmdorlari taxtga kelgunlariga va taxtda o‘tirgan vaqtlarida bir xilda o‘zlarining asl ismlarida qolganlar. Xitoyda mo‘g‘ul hukmdorlar turgan paytlarda sulola maxsus nomlar bilan, hukmdorlari taxt unvonlari bilan atalgan Biroq Xitoydan tashqarida, xatto rasmiy hujjatlarda ham unvonlari bilan emas, asl mo‘g‘ulcha ismlari bilan atalgan<sup>14</sup>.

Mo‘g‘ul imperiyasi boshqa ko‘chmanchi sultanatlarga qaraganda na faqat hududlarining kengligi, balki uzoq umr ko‘rganligi bilan ham alralib turadi. V.V.Radlov buni Mo‘g‘ul davlatiga “ko‘plab o‘troq xalqlarning ulkan davlatlari qo‘shib olingan va (mo‘g‘ul davlati) tarmoqlanib emas, balki ({bnjyda, O‘rta Osiyoda, Eronda) bir qator mustaqil madaniy davlatlarga aylanib ketdi”, -deb tushsuntigan edi. Ammo Xitoydan tashqari mo‘g‘ul davlatinining davomiyligini biz ko‘proq Eronda kuzatamiz.

Mo‘g‘ullarninig Old (G‘arbiy – Tarj.) Osiyoda tuzgan davlatlarining iqtisodiy va madaniy hayoti haqida men o‘zimning boshqa ishlarimda yozgan edim<sup>15</sup>. Ma’lumotlarning ko‘rsatishicha o‘z davri mualliflarining butkul vayronagarchilik, ilmu ziyo, ma’rifatda tushkunlik haqida yozganlaridan farqli ravishda, Eron iqtisodiy jihatdan o‘sha vaqtida jahonning eng ilg‘or davlatlaridan biri edi, deyish mumkin. Shahar hayoti rivojlanishda davom etgan. Yangi-yangi savdo markazlari - shaharlar paydo bo‘lgan va ular mo‘g‘ullardan keyin ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Mamlakat Hindiston,

<sup>14</sup> Chingizzxonning o‘zi ham, undan qolgan ibratli so‘zlarga ko‘ra, qalban asl nomi Temuchin ekanini unutmagan. Bu haqda V.V.Bartol’d “Islom ensiklopediyasi” (T.I, -B.893) “Chingiz -Khan” maqolasida yozgan. Qarang: B.В.Бартольд. Соч. Т. – С. .

<sup>15</sup> Qiyos qiling; 1305 yilda Erondan Fransuz qiroliga yo’llangan mashhur yorliq. Qarang: yorliq matni Marko Polo kitobi. Matn,transkriptsiya, tarjimasi Pot‘yeda berilgan (Marko Polo, izd. Pot’ye, II, ilova № 6). <Yangi nashri: MostayerdCleaves. The Lettres. pp. 56-85. Yu.Bregel>. Yana: Книга Марко Полою Москва. 19 . – С.) da berilgan. Undan avvalgi nashrlari haqida qarang: Бартольд В.В. Соч. Т.

Xitoy bilan keng ko‘lamli dengiz savdosini yo‘lga qo‘ygan. Uzoq va Yaqin Sharq bilan savdo va madaniy aloqalar misli ko‘rilmagan darajaga ko‘tarilgan.

Arab xalifaligi tugagach madaniy hayotda musulmonlar bilan bir qatorda boshqa dinlar vakillari ham ishtirok eta boshladijar. Mo‘g‘ul hukmdorlari dunyoviy ilmlarga, ayniqsa, matematika, astronomiya, meditsina sohalariga homiylik qilishgan. Eronning Shimoli-G‘arbida asbob-uskunlari takomillashgan yangi rasadxonalar barpo etildi. astronomiyaga oid fors tilli asarlar Vizaniyada yunon tiliga tarjima qilindi<sup>16</sup>. Turli xalqlarning tarixiy rivoyatlari va hikoyalari ayrim xalqlar vakillari ishtirokida fors tiliga o‘girilib, hozirgacha ham tengi bo‘lmagan yig‘ma kitobga aylantirildi. Shu davrning muxtasham binolari mutaxassislarning fikricha musulmon arxitekturasining benazir yodgorliklariga aylandi<sup>17</sup>. Aniq fanlar, tarinavislik kabi sohalar rivoji ham mo‘g‘ul davridan avvalgiga nbsbstan bag‘oyat keng madaniy aloqalarning guvohligidir.

O‘rta Osiyoda mo‘g‘ullar hukmronligi davrida o‘zgacha bir ijtimoiy, madaniy hayotiy jarayonlar kechdi. Mo‘g‘ul davriga qadar O‘rta Osiyodan Farobi, Ibn Sino, Beruniy kabi faylasuflar, tabiatshunoslar, falakiyotchilar etishib chqqani, san’at sohalarida yuksak natijarga erishilgani holda<sup>18</sup>, mo‘g‘ullar davrida, bizga ma’lum bo‘lish darajasida, musulmon Movarounnaxri na ilm-fan va na san’at sohasida biror chuqur iz qoldirgan an’ana yaratmadı. Bu masalada Temur va uning vorislari butunlay Eron madaniyati ta’sirida edilar<sup>19</sup>. Musulmon ilohiyot ilmlari tarixida ham Eronning o‘rni alohida ahamiyatlidir. Musulmon oliv ruhoniy o‘quv muassasalari madrasalar xalifaliknning sharqiy mintaqalarida uning markaziy va g‘arbiy qismlaridan avval shakllandi. Bu masalada islom (O‘rta Osiyoda – tarj.) buddizm ta’sirida bolgani ehtimoldan xoli emas. Chunki (dastlabki) madrasalar Amudaryoning o‘ngu so‘l qirg‘oqlari bo‘ylab, xususan

<sup>16</sup> Bu haqda Suter. *Die Mathematiker*. S. 161 (№ 397) va 219 (№ 80); al-Battoni. Nallino nashri. I. -B. XXXI, 5-izoh; Krumbacher. *Bizantinishe Litteratur*. S. 622.

<sup>17</sup> Bular haqida ayniqsa batafsil ma’lumotlar Sarrening Denkmaller...asarida mavjud. **Yangi adabiyot kerak**

<sup>18</sup>

<sup>19</sup> Bartol’dning bu kabi xulosalari bugungi kunda jiddiy isloh talab qiladi. – tarj.

buddaviylik yetakchi mavqeini saqlagan Balx bilan tutash yerlarda paydo bo‘lgan edi<sup>20</sup>. Shu mintaqqa shaharlaridan biri Termiz to XV asrgacha diniy markazlardan biri sifatidagi mavqeini saqlagan. Mil. IX asrda Termizda Hadisi sharifning eng mukammallaridan birining muallifi Muhammad ibn Iso Termiziy, tasavvuf tariqatlaridan biri Hakimiyaning asoschisi Muhammad ibn Ali kabilar yashab ijod qilishgan. XIII asr boshida Muhammad Xorazmshoh abbosiylarga qarshi isyon ko‘targanda Termiz sayidlaridan biri A’lo al-Mulk Termiziyni xalif qilib ko‘targan edi. Ibn Battutaning xabar berishicha bir muddat movarounnahrning butun hokimiyyati ayni shu A’lo al-Mulk Xudovandzoda – Sohibi Termiz qo‘lida bo‘lgan<sup>21</sup>. XIV asrning ikkinchi yarmi -XV asr boshlarida Amir Temurning safdoshlari qatorida Termiz hokimlari xudovandzoda ikki aka-uka – Abu-l-Ma’oliy va Ali Akbar ismlari uchraydi<sup>22</sup>. Buxorodagi kabi diniy obro‘-e’tiborga tayangan sulolalar bir qator boshqa manzillarda ham bo‘lgan<sup>23</sup>. Ko‘plab ilohiyot ilmlarida obro‘li asarlarning mualliflari O‘rta Osiyoda yashab ijod qilganlar. Ularning avlodlari esa turli manzillarda sulolaviy sadrlar yoki shayx ul-islomlar bo‘lishgan. Masalan, Samarqandda Hidoyaning muallifi Marg‘inoniy avlodlaridan biri shayx ul-islom maqomida bo‘lgan<sup>24</sup>. O‘rta Osiyo xanafiy ilohiyotchi ulamolar bilan bir qatorda mo‘g‘ul davrida mu’taziliya vakillari ham bor edi. Kitobiy din ulamolari bilan bir qatorda omma orasida ulardan kam bo‘lmagan obro‘li turli tasavvuf tariqatlari mavjud edi. Tasavvuf oqimlarining xonaqonlari<sup>25</sup> mintaqah bo‘ylab, ayniqsa Buxoroning cho‘l bilan tutash yerlarida, Xorazm vohasida, qisman Balx atroflarida, Surxon vodiysi Chag‘oniyonda, Termizda keng tarqalgan edi. Shu manzillardan turib tasavvuf peshvolari o‘z ta’limotlarini keng tarqatish imkoniga ega edilar. Chunki cho‘l mintaqalari ko‘chmanchlariiga kitobiy ilohiyot bilimlaridan ko‘ra tasavvuf darveshlarining sodda va tushunarli targ‘ibotlari yaqinroq edi.

---

20

21

22

23

24

25

Eronda bo‘lgani kabi tadriiy ravishda asta sekin O‘rta Osiyoda ham islom madaniyati ko‘chmanchilarni o‘z ta’siriga tortishi tabiiy edi. Ammo bu jarayon O‘rta Osiyoda bir qator qarshilik ko‘rsatuvchi sabablar tufayli sust va sekin bordi. XIII asrdayoq Muborakshoh, Baroqxon<sup>26</sup> singari mo‘g‘ul xonlari Movarounnahrda ornashib, islomni qabul qilgan edilar. Biroq 1271-yildan boshlab qarib yarim asr davomida xonlar yana cho‘lga qaytib qarorgohlarini Ili daryosi bo‘ylariga qurib yashadilar va tangrichilik yoki shamanlik kabi o‘z dinlarida qoldilar. Ular o‘troq aholining farovonligini ta’minalash, ma’naviy ehtiyojlari uchun zarur darajada e’tiborli ham bo‘ldilar. Ayni shu Xaydu va Tuvaxonlar davrida Andijon shahri qurilib, XIV asrdayoq Farg‘ona vodiysining yirik shaharlaridan biri, Qoraxoniylar poytaxti bolgan qadimiy O‘zgan bilan raqobatda ustun kelib, uning dovrug‘ini pasaytirib qo‘ydi hamda vodiyning bosh shahriga aylandi. Tuvaxonning o‘g‘li Kebekxon (1318-1326) islom madaniyatini qabul qilishda yanada qat’iy qadam tashladi. U Movarounnahrga joylashib, o‘zi uchun saroy barpo qildi. Chingizzon o‘z vaqtida alohida e’tibor bilan qaragan Qashqadaryo vohasi uning vafotidan keyin Chig‘atoy ulusi xonlari va mo‘g‘ul harbiy boshliqlari yashab qolgan joyga aylandi. Naxshab (yoki Nasaf) shahridan ikki farsax masofada Kebekxon saroy qurdirdi. Mo‘g‘l tilida bu inshootning nomi “qarshi” bolib, hozirgi Qarshi shahrining nomiga aylandi<sup>27</sup>. Mazkur Kebekxon o‘z nomidan mo‘g‘ul xonlari orasida birinchi bo‘lib butun saltanat miqyosi uchun pul zabini yo‘lga qo‘ydi<sup>28</sup>. Bu tanga tizimi Eronda amal qilgan tanga tizimi namunasiga asoslangan edi<sup>29</sup>: kumush “dirxam” 1/3 misqol , “dinor” esa 6 dirxamga teng qilib belgilandi. Amir Temur va uning avlodlari davrida ham ushbu tangalar “keb/pakiy” deb atalar edi. Biroq Kebekxonning o‘zi islom dinini qadul qilmadi. Uning inisi Tarmashirin (1326-1334) islom dinini qabul qilib, musulmon bo‘ldi. Ibn Battuta 1333 yilda Tarmashirinni Naxshab atroflarida ko‘rgani haqida yozib qoldirgan<sup>30</sup>. Ko‘chmanchilik an’anlaridan bu qadar keskin uzilish Tarmashiringa qarshi qo‘zg‘alonga sabab bo‘ldi. Xon taxtdan ag‘darildi va

<sup>26</sup>

<sup>27</sup>

<sup>28</sup>

<sup>29</sup>

<sup>30</sup>

o‘ldirildi. Shundan keyin bir necha yil davomida xonlar o‘z qarorgohlarini Ili daryosi bo‘ylariga ko‘chirdilar. Xonlikda islom dini o‘zining hukmron mavqeini yo‘qotdi. Katta ehtimollik bilan aytish mumkinki, Chig‘toy ulusi xonlari Movarounnahr ustidan hukmronlikni to‘liq o‘z qo‘llariga olgan 1318-1334 yillarda yangicha atamalar bilan ma’muriy boshqaruv tizimi yuzaga kelgan. Samarqand, Buxoro viloyatlarida Erondagi singari mayda hududiy birliklarni anglatuvchi *tuman*, Farg‘ona va Koshg‘arda “o‘rchin”<sup>31</sup> (kelib chiqishi noma’lum) atamasi joriy etildi. Tuman atamasi (Turkiston o‘lkasida) Rossiya hukmronligi davrigacha, xatto 1880 yillargacha amal qilgani holda, o‘rchin atamasi asta-sekin yo‘qolib ketdi. Jumladan Samarqand viloyati Amir Temur davridagidek<sup>32</sup> XVIII asrda ham etti tumanga bo‘lingan edi. Bunday ma’muriy bo‘linish uchcun qanday belgi asos qilib olinganini aytish qiyin. Chunki tuman so‘zi harbiy sohada ham amal qilgan va 10 000 nafar askardan iborat harbiy bo‘linmani<sup>33</sup>, hisob-kitob ishlarida esa 10 000 dinor pulni anglatgan. Forsiyda *tuman* deb talaffuz qilingan. Biroq har bir tuman 10000 askar berishi yoki shuncha miqdordagi askar bo‘linmasining xarajatlarini ko‘tarishning imkonи mutlaqo yo‘q edi. Aftidan *tuman*<sup>34</sup> ma’muriy tizimi Erondagi kabi xon bilan birga Movarounnahrga kelgan urug‘-aymoqlar vakillari o‘rtasida yer-mulkulari taqsimoti bilan bog‘liq iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni anglatgan. Ibn Arabshohning ko‘rsatishicha, asosiy urug‘lar to‘rtta bo‘lgan: arlot, jaloyir, qavchin va barlos<sup>35</sup>. Sharofiddin (Ali Yazdiy)ning fikridan kelib chiqib aytish mumkinki, qavchin so‘zi urug‘ nomi emas, balki xonning shaxsiy minglik (gvardiyasining) nomi edi<sup>36</sup>. Mazkur urug‘lardan arlotlar hozirgi Afg‘onistonning shimoliga, jaloyirlar Xo‘jandga, Barloslar Qashqadaryoga joylashdilar. Har bir urug‘ boshlig‘i o‘z viloyatining hukmdoridek bo‘lgan. Bularning barchasi turklashgan mo‘g‘ul

---

<sup>31</sup>

<sup>32</sup>

<sup>33</sup>

<sup>34</sup>

<sup>35</sup>

<sup>36</sup>

urug‘lariga mansub qavmlar edi<sup>37</sup>. Sanab o‘tilganidan tashqari yana bir qator urug‘lar ham bo‘lganki, ular haqida yana to‘xtaymiz.

XIV asrning 40-yillarida Movrounnahrda, yana ayni Qashqadaryoda, o‘zi uchun Qarshi shahridan ikki qo‘nim g‘arbda Zanjirsaroy qasr-qo‘rg‘onini qurgan mo‘g‘ul xoni Qozonxon paydo bo‘lganini ko‘ramiz<sup>38</sup>. Uning mamlakatda mustahkam hokimiyat o‘rnatishga qaratilgan urinishlari mahalliy urug‘-aymoqlar yetakchlari qarshiligiga uchradi. Ulardan biri (amir) Qozog‘on Qozonxonga qarshi qo‘zg‘olon tug‘ini ko‘tardi va mo‘g‘ul shahzodalardan birini xon taxtiga o‘tqazdi.. Bir necha yil o‘tib, xijriy 747 (mil. 1346-47) yilda Qozonxon yengildi va o‘ldirildi. Hokimiyat amalda to‘laligicha Qozog‘on qo‘liga o‘tdi. Ammo uning hukmronligi faqat Movarounnahr bilan cheklandi. Chig‘atoyp boshqalar qismlarida hokimiyat dug‘lat urug‘I sardori qo‘liga o‘tdi. Fors tilli manbalarda bu kabi sardorlar “amir” unvoni bilan ko‘rsatilgan. O‘rtal Osiyo o‘troq eroniyzabon aholi ham ularni shunday atashgan bo‘lsa kerak. Ko‘chmanchilar esa ularni turkcha “bek” yoki nufuzli bekarga nisbatan qo‘llangan mo‘g‘ulcha “no‘yon” deb atashgan.

Yetib kelgan ma’lumotlarga ko‘ra har ikki davlatning harbiy tuzilishi deyarli bir xil edi. Qizig‘i shundaki, ko‘chmanchi va ko‘chmanchilik an’analarini saqlagan aholiga xos **chig‘atoyp** atamasi bu o‘lkada Chig‘atoyp avlodlaridan **bo‘lmish xonlar allaqachon yo‘q bo‘lib ketgan paytlarda ham saqlanib qolaverdi**<sup>39</sup>. Keyinchalik bu atama Movarounnahrdan Hindistonga siqib chiqarilgan Temuriylar sulolasining davomcilar bilan birga ketdi. Holbuki, Sobiq Chig‘toy ulusining sharqiy qismida, Shajarasi Chig‘toyga borib taqaladigan xonlik hokimiyati saqlangani holda, chig‘atoyp atamasi ishlatilmagan. Bu mintaqada ko‘xhanchilar o‘zlarini “mo‘g‘ollar” deb atasggan. Ushbu etnik atamadan forsiy va boshqa manbalarda Mog‘oliston atmasi paydo b’olgan. Ushbu **chig‘toy, mog‘ol** kabi rasmiy atamalardan tashqari kinoyali ravishda bir mamlakat aholisi tomonidan boshqa mamlakat

<sup>37</sup> Hozir bu urug‘lar haqida boshqa fikr etakchi o‘rinda. Yani, ular mo‘g‘ul qoshinlari va ma’muriy tizimida xizmat qilgan turkiy uruglar edi.

<sup>38</sup> **Qarshi** so‘zining ma’nosi haqida qarang: Н.Д.Миронов. ЗВОРАО, т. XIX. 1910. – С. XXIII.

aholisiga nisbatan qo‘llangan **karaunashlar**, ya’ni duragaylar (metislar), chiga‘toyilar esa mo‘g‘ullarni jetelar<sup>40</sup>, ya’ni “qaroqchilar”<sup>41</sup> deyishgan. Aftidan bu so‘zni mo‘g‘ullar XIV asr boshlarda ham ishlatishgan<sup>42</sup>. Bu hol XV asrda O‘rta Osiyo turkiylari oiladan, urug-aymoqdan, davlatdan bosh olib chqqan , o‘zini “erkin” hisoblagan qavmlarga nisbatan “qozoq” atamasini ishlatganlariga o‘xshaydi<sup>43</sup>. Har ikki davlatda ham mo‘g‘ul imperiyasi an’analri o‘z mavqeini asta-sekin musulmon madaniyatiga bo‘shatib bera boshladi. Ammo bu ‘volyutsion jarayon g‘oyat sekin kechgan va bir necha o‘zaro to‘qnashuvlarga, xalqning hukmdorlarga qarshi qo‘zg‘alonlariga ham sabab bo‘lgan

## 2-bo‘lim

### 1. ULUS AMIRLARI. AMIR TEMUR HUKMRONLIG

I358 yilda kuyovi tomonidan qatl qilingan<sup>44</sup> Amir Qozog‘onning o‘n ikki yillik hukmronligi o‘zidan keyingi davrga nisbatan ichki tug‘yonlarsiz, chig‘toyiylar bilan mog’ollar o‘rtasida jangu jadalsiz o‘tdi. Qozog‘n ko‘chmanchi el hukmdoridirk hayot kechirdi: qish faslida Amudaryo bo‘yidagi Soli-Saroyda (hozirgi Saroy qishlog‘i), yozda esa Munka<sup>45</sup> (hozirgi Baljuvon) shahri yaqinida qarorgoh tutgan. Ko‘chmanchilar yon-atrofdagi yerkarta bosqinlarsiz yashay olmaganlaridek, Qozog‘on ham asosan Hirot yoki Xorazm tomonlarga ko‘pincha muvaffaqiyatli yurishlar qilib turgan<sup>46</sup>.

Qozog‘on vafotidan keyin hokimiyat taxtiga uning o‘g‘li Abdulla keldi. Otasi davridayoq Samarqandda yashagan Abdulla poytaxtni

40

41

42

<sup>43</sup> Dashti qipchoq O‘zbek xonligi qarorgohidan Abu I-Xayrxondan yuz o‘girib ajralib ketgan qipchoq urug‘lari “qozoq”, ya’ni qochoqlik maqomiga o‘tganlar deb atalgan. Keyinchalik shu urug‘-aymoqlr atrofida uyushgan qipchoq toifa aholi qozoq xalqining bosh bo‘g‘iniga,. “Qozoq” so‘zi esa etnik nomga aylangan (Tarjimon).

44

45

46

Samarqandga ko‘chirmoqchi bo‘ldai. Boshqa amirlar unga qarshi bosh ko‘tardilar va bu kurashda u halok bo‘ldi. Abdulladan keyingi yillar Movarounnahr uchun mo‘g‘l xonlari o‘rtasida to‘xtovsiz to‘qnashuv, jangu-jadallar davriga aylandi. Tug‘luq Temurning 1360-1361 yillardagi Movarounnahrga yurishini hamda Amir Temurning Tug‘luq Temur yordamida Shahrisabz va Qarshi amiri martabasiga erishuvi davrning eng e’tiborli voqealaridan biri deb hisoblash mumkin. Yana muhim voqealardan biri Temur bilan amir Qozog‘nning nabirasi amir Husayn o‘rtasidagi ittifoq va ularning mo‘g‘l xonlariga qarshi qo‘zg‘oloni, Chinoz yaqinida Chirchiq daryosi yoqasida bo‘lgan jangda (1365) yengilishi<sup>47</sup>, Samarqandda sarbadorlar harakati va uning mog‘ol xonlari tomonidan bostirilishi (1366), XV asrdayoq shoirlik bilan nom chiqargan darveshsifat Qobulshohning xon etib ko‘tarilishi<sup>48</sup>, yangi xon Odil Sulton tomonidan uning taxtdan tushirilishi, amir Husaynning Balxda o‘zi uchcun qasr qurish niyati(1368), Temur tomonidan Husaynni amakisi Abdullaning taqdirini eslatib, bu niyatdan qaytarishga urinish, Balx qasrining buzib tashlanishi, poytaxtning (Temur tomonidan) Samarqandga ko‘chirilishi va bu yerda qo‘rg‘n qurilishi va shahar devorlarining mustahkamlanishi(1370) – bular Temurning Movarounnahr ustidan hukmronlikka erishuvi arafasidagi muhim voqealar tizimi edi.

Shunday qilib, Temurning (tarix sahnasida) ilk bora paydo bo‘lishidan to uning Movarounnahrni boysindirguniga qadar bor-yogi o‘n yil o‘tdi. Temurning yuksalishiga omil bo‘lgan shart-sharoit haqida hozircha (ya’ni XIX asr oxiri -XX asr boshida. – tarj.) quyidagilarni aniqlash mumkin: rasmiy tarixiy manbalar Temurning tug‘ilgan sanasini xijriy 736 sichqon yili, sha’bon oyining 25-kuni (milodiy 1336 yil, 9-aprel)<sup>49</sup>, otasining ismi Amir (yoki no‘yon) Tarag‘ay, onasining ismi Tekina xotun

<sup>47</sup> Manbalarda “Loy jangi” deb nom olgan bu to‘qnashuvda Amir Husaynning subutsizligi va maydonno tashlab qochgani sababli Temur saflari shekinishga majbur bo‘lgan.

<sup>48</sup> Bu xonning ta’rifini Osiyo muzeyi qo‘lyozmasi anonym Iskandarning 251-varag‘ida o‘qiyimiz: mardi abdolnihod va qalandar mizoj, malihu latif bud va ash’ori u imruz shuyrati tamom dorad.

deb ko'rsatadi<sup>50</sup>. Lekin mazkur manbalarda Temur hayotining 1360 yilgacha davri haqida hech qanday ma'lumot uchramaydi. Turkiy tilda Temur uchun yaratilgan she'riy voqenavislik asarida<sup>51</sup> ta'kidlanadiki, go'yo uning o'zi faoliyatining dastlabki bosqichi voqealari bayonini, o'quvchilar uchun aql bovar qilmas voqealar bo'lib tuyuladi degan ma'noda xronikaga kiritishni istamgan. Klavixo<sup>52</sup> hamda Ibn Arabshohlar<sup>53</sup> hikoyalaridan xulosa qiladigan bo'lsak, rasmiy xronikaning vazkur davr haqida jim qolishining sabablari boshqa bo'lib chqadi. Ya'ni Temur ham Chingizzon kabi o'z faoliyatini, ayniqsa Qozog'on vafotidan keying talo-to'p davrida, bir to'da qaroqchilar yetakchisi sifatida boshlagan. Qozog'on hukmronligi davriga oid manbalarda Amir Tarag'y va Temur haqida birorta ham ma'lumot uchramaydi<sup>54</sup>. Holbuki, Amir Tarag'ayning movarounnahr hamda mo'oliston amirlari bilan aloqalari bo'lgan. Nihoyat, Temur jtasining ana shu aloqalaridan foydalangan.

Tarag'ay Qashqadaryo vohasining Kesh (Shahrisabz) va Nasaf(Qarshi) ustidan hukm yuritgan barlos urug'i vakili edi<sup>55</sup>. Kesh ustidan Tarag'y emas, balki barlos urug'ning boshqa nufuzli vakili Xoji Barlos hukmron edi. "Zafarnoma"ning dastlabki tahririda Nizomiddin Shomiy Xoji Barlosni Tarag'ayning akasi deb ko'rsatgan<sup>56</sup>. Lekin bu Xoji bilan Tarag'ay tug'ishgan aka-uka degani emas. Zero, turklarda urug'doshlik ham qardosh oga-inichilik hisoblangan. Holbuki, baroslardan bir necha harbiy lashkarboshilarni Temur ham qardoshlarim ("aka-ukalarim") deb atagan<sup>57</sup>. Sharafiddin Ali Yazdiy<sup>58</sup> keltirgan shajarada Temur va Xoji Barlosning bobokaloni Chingizzon va Chig'atoylar zamondoshi Qoracho'r ekaninini ta'kidlaydi. Rashid ad-din ("Jome' at-tavorix"da) Qoracho'rni

---

50

51

52

53

54

55

56

57

58

harbiy lashkarboshilardan biri deb ko'rsatgani holda<sup>59</sup>, Temur tarixchilarini Chg'atoy ulusining to'jaqonli hukmdori bo'lgan deydilar. Qoracho'rning farzandlari va nabiralarini temuriylar davri manbalari hukmdorlar qilib na'riflashgani holda, temurdan oldingi davr manbalarida bular haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Biroq Temurning otasi va bobosi yaqin o'tmishga xos kishilar bo'lgani sababli, ular haqida yuqoridagi kabi rivoyatlar to'qishning iloji bolmagan, oddiy insonlar sifatida ta'riflangan<sup>60</sup>. Manbalarda Xoji Barlos va uning ajdodlari Keshda hukmronlikni qachon qo'lga kiritganlar, barloslar Qashqadaryoda Chig'atoy hukmdorlari Kebexon, Tarmashirin, Qozonxonlar bilan qanday aloqada bo'lganlar – bular haqida ma'lumotlar yo'q.

Ibn Arabshohning yozishicha, Temur Kesh yaqinidagi Xo'ja ilg'or qishlog'da tug'igan<sup>61</sup>. Bundan kelib chiqadiki, Tarag'y Kesh shahrining o'zida yashamagan. Tarag'ayning hayoti haqida ham ma'lumot kam. Uning taqvodor musulmon bo'lganligi, ulamolar va darveshlarga (so'fiylarga -tarj.), ayniqsa, "Zafarnoma"da<sup>62</sup> Shamsiddin Kulol, Ibn Arabshohda Shamsiddin Faxuriy<sup>63</sup> deb keltirilgan so'fiy avliyo bilan do'stona munosabatlari haqida ma'lumotlar bor. Bir kuni Temur Shamsiddin Kulol huzuriga kirsa, shayx muridlari bilan zikr tushayotgan ekan. Marosim tugagunicha u sabr bilan kutib turibdi. Zikrchilar uning bu taqvodorona sabri uchun duo qilishibdi. Temur hayotida erishgan barcha yutuqlarini birinchi galda o'sha duo tufayli deb hisoblagan<sup>64</sup>. Temur tarixida ba'zi ishoratlar uchrashini hisobga olsak, aftidan Tarag'ayning Chig'toy va Mo'g'ol boyonlari bilan do'stona aloqalari bo'lgan, Masalan, mo'g'ullar bilan bo'lgan 1364 yilgi to'qnashuv haqida gap borar ekan, Temurning otasi bilan amir Hamid<sup>65</sup> o'rtasida yaqin do'stlik munosabatlari

---

59

60

61

62

63

64

65

bo‘lgan. Tarag‘yning oilasi va Temurning birinchi xotinlari haqida batafsilroq ma’lumotlarga ega bo‘lganimizda edi, ularning chigatoyiy boshqa lashkarboshilar bilan aloqalari to‘g‘risida ham aniqroq ma’lumotlar bergen bo‘lardik. Temurning onasi mansub shajara haqida, qolaversa, Tarag‘ayning 1389 yilgacha yashab olamdan o‘tgan<sup>66</sup> boshqa xotini **Kadak** xotunning kelib chiqishi to‘g‘risida manbalarda ma’lumotlar uchramaydi.

1360-yilgacha Temurning 1376 yilda 20 yoshida<sup>67</sup> vafot etgan Jahongir va 1394 yili kurdrlarning qal’asini qamal qilish paytida halok bo‘lgan Umarshayx ismli ikki o‘g‘li bo‘lgan. “Zafarnoma”ga ko‘ra shu vaqtda Umarshayx 40 yoshda bo‘lgan<sup>68</sup>. Bundan xulosa qilish mumkinki, Umarshayx Jahongirdan katta bo‘lgan. Lekin barcha manbalarda, negadir Jahongir katta o‘g‘il deb ko‘rsatiladi. Umarshayxning onasi haqida hech qanday ma’lumot yo‘q. Jahongirning onasi Turmish og‘a ekani haqida Xondamir bergen majlumot bor xalos<sup>69</sup>. Tarag‘ay 1360 yilda vafot etdi va Kesh da dafn etildi. Keyinchalik Temur lome masjidi yaqinida yangi maqbara qurdirdi va otasining hokini unga ko‘chirib shayx Shamsiddin (Kulol) yoniga qo‘ydi<sup>70</sup>.

1360-dan boshlab to 1370-yilgacha Temurning (so‘fiy) shayxlar yoki islom dinining namoyandalari bilan aloqalari to‘g‘risida ma’lumotlar yo‘q. O‘sha o‘n yillik davomida Temur asosan harbiy ishlar bilan shug‘ullangan. U o‘zini harbiy harakatlar va ov bilan o‘n yoshidan boshlab chiniqtirgan edi. Chig‘atoiyilar va mo‘g‘ullar o‘rtasidagi kurashda goh bu tomonda, goh u tomonda turib qatnashgan. O‘zi uchun keraklii nufuzli odamlar bilan qarindoshlik rishtalarini bog‘l qilgan. ashga harakat qilgan. Atrofida asosan baroslardan iborat ishonchli odamlarni to‘plashga harakat qilgan va ular umrining oxirigacha sadoqat bilan xizmat qilganlar. Omadsiz, xatto ba’zan mutlaqo yolg‘iz qolgan damlarda ham, Temur hech qachon xushyorlikni

---

66

67

68

69

70

yo‘qotmagan. Ayniqsa 1262 yilgi voqealar Temur uchcun g‘oyat og‘ir kechgan edi. Shunda Qozog‘onning nabirasi Husayn bilan birga Temur Murg‘obda turkmanlar qo‘liga asir tushib, 62 kunni Mahan qishlog‘da o‘tkazgan edi<sup>71</sup>. Nihoyat, mahalliy hokim Alibek ularni asirlikdan ozod qilgan, biroq yolga zarur narsalar bilan ta’milamagan. Shu og‘ir kunlarda Temurga turkmanning sanjaariy urug‘I badavlart kishilaridan biri Muborakshoh yordam beradi. Su sababli Temurning avlodlari zamonida ham Muborakshohninh avlodlari hurmat-izzatda bo‘lishgan<sup>72</sup>. Amudaryo yoqasida tang ahvoldidan Temurni uning Buxoro atroflaridan kelgan opasi Qutlug‘ Turkon og‘a qutqarib qolgan. Temur 48 kunni Samarcandda opasining xonadonida yashirinib o‘tkazgan<sup>73</sup>. Shundan keyin Temur Husayn bilan birga 1000 jangchiga boshchilik qilgan holda mahalliy hukmdorning taklifiga javoban uning dushmaniga qarshi kurashida qatnashish uchun Seistonda paydo bo‘ladi. Bu yerda Temur bir umr unga azob bergan jarohatlar olgan: o‘ng qo‘lining paylari shikast topgani sababli qo‘li akashaklangan<sup>74</sup>. Klavixoning yozishicha Temur ikki barmog‘ini ham yo‘qotgqn<sup>75</sup>. O‘ng oyog‘i ham shikast topib, cho‘loq bo‘lib qolgan. Temurga nisbatan turkiy tilde *oqsoq*, forsiyda *lang* (cho‘loq) laqabi shundan paydo bo‘lgan<sup>76</sup>. Temur va chumoli haqidagi latifa shu sababli paydo bo‘lgan<sup>77</sup>. Temurning shikastlari haqida Ibn al-Arabshoh ham xabar beradi. Oradan yillar o‘tib, 1383 yili Temur Ceistonda uni kamondan otib yarador qilgan kishini uchratadi va uni kimonlardan o‘qqa tutib o‘ldirishga buyuradi<sup>78</sup>.

Nihoyat, ko‘p sarsonlik va qiyinchiliklarga qaramay, Temur va Husayn ichki va tashqi dushmanlarni engib, Movarounnahr ustidan hukmronlikni qo‘lga kiritdilar. Husayn bosh amir bo‘ldi, Temur esa uning o‘ng qo‘li bo‘ldi. Ular o‘tasidagi bitim avval boshdanq nikoh bilan mustahkamlangan edi. Murg

---

71

72

73

74

75

76 Noma'lum Iskandar qo‘yozmasida (Osiyo muzeyi qo‘lyozmasi 239 a varaq)da bunday deyilgan:

77

78

‘obda turkmanlar bilan to‘qnashuv haqidagi hikoyadayoq Husaynning singlisi Uljoy Turkon-og‘a Temurning xotini sifatida qayd etilgan<sup>79</sup> Ammo qarindoshlik ham ikki amirning o‘zaro to‘qnashuvining oldini ololmadi. Camarqandda sarbadorlar harakati bostirilganidan keyin Husayn Temurning do‘sstlariga ham og‘ir jarimalar solidi. Temur do‘sstlarining yordam bo‘lsin uchun bor-budini Husaynga topshirdi. Xatto xotini Uljoyning baldoqlarini ham ayamadi. Husayn bu taqinchoqni tanidi, ammo qaytarnadi<sup>80</sup>. Ko‘p o‘tmay, Uljpoy Turkon oga vafot etdi va ikki sobiq do‘sst o‘rtasidagi aloqa ham barham topdi<sup>81</sup>.

1366-1370 yillar davomida Temur goh Husayn bilan urush holatida bo‘lib, uning dushmanlari bilan yaqinlashadi, goh Husayn bilan yarashib, uning topshirig‘iga binoan o‘zining avvalgi ittifoqdoshlariga qarshi jangler olib bordi. Vaxsh va Panj oralig‘idagi Xuttalyon hukmdori Kayxusrav bilan Temur munosabatlari ayniqsa diqqatga molik. Husayn 1360 yilda Kayxusravning akasi Kayqubodni qatl qilgan edi. Kayxusrav 1361 yilgi m’g‘ullar bilan jangda xon tomonga o‘tgan, uning jiyani Tuman Qutlug‘ga uylanib kuyiv bo‘lgan edi<sup>82</sup>. Kayxusrav 1366 yilda Toshkentga kelgan paytda Temur Husayn bilan qasdlashib qolgan edi. Vaziyatdan foydalanib, Temur Kayxusrav bilan yaqinlashdi va o‘g‘li Jahongirni uning qizi Ruqiya xonakaga hamda Tuman Qutlug‘ga unashtirdi<sup>83</sup>. 1369 yilda esa Temur Husaynning sadoqatli xizmatida turgan bo‘lib, Kayxusravninig Husaynga isyonini bostirda va uni Oloy tog‘lari tomon qochishga majbur qildi<sup>84</sup>. 1370 yili Kayxusrav husaynga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan Temur bilan birlashdi va Qur’onda tan olingan qonga qon qasosi aqidasiga muvofiq<sup>85</sup> asir olingan Husayndan akasining xunini olish imkoniga ega bo‘ldi. 1372 yili Xorazmga qarshi urush paytida Xusayn

---

79

80

81

82

83

84

85

xiyonatda ayblanib, qo‘g‘irchoq xon Suyurg‘at mish yorlig‘i bilan qatl qilindi. Qatl *al-qisas* qoidasiga muvofiq Husuaynning navkarlari tomonidan amalga oshirildi<sup>86</sup>.

1370 yilda, ayni Husayn bilan kurash qizig‘in pallaga kirgan kunlarda Temur yangi ruhoniy homiy – Mir Sayid Barakaning etagini tutdi. Bu zotning kelib chiqishi haqida bir-biriga zid turli ma’lumotlar uchraydi. Mir Sayid Baraka Temur davlatida qolib, unga Andxoy shahri mulk qilib berildi. Bu mulk XV asrda ham sayidning avlodlari qaramog‘da bo‘ldi<sup>87</sup>. Sharafiddin Ali Yazdiyga ko‘ra<sup>88</sup> Sayid Baraka doimiy ravishda Temur bilan hanroh bo‘ldi. Vafotlaridan keyin ular ikkovi bir maqbaraga qo‘yildi. Temurning yuzini Cayid baraka tomon burib qoyildi<sup>89</sup>.

Temurning boshqa ruhoniy namoyandalar bilan aloqalari haqida ham bir qator ma’lumotlar mavjud. Temurning taxtga chiqishi bilan bog‘liq xabarlarda ko‘rsatilishicha uning yonida Cayid Baraka bilan bir qatorda Termiz sayidlari, xulovandzodalar Abu-l-Ma’oliy va Ali Akbarlar tilga olinadi<sup>90</sup>. Har holda bu sayidlар ham Sayid Baraka singari Temur hukmronligining oxirigacha ko‘rinishidan katta ta’sirga ega kishilar bolib qolishgan bo‘lar edi. Ammo 1371 yili bir necha amirlar - Temurga qarshi Samarqandda Abu l-lays, Termizdan esa Sayid Abu l-Ma’oliy bir qancha ruhoniylar qatori fitnada qatnashib, xiyonat qildilar. Temut fitnachilarga nisbatan oliyanoblik ko‘rsatib, shayxni Makkaga jo‘natdi, Sayidni esa davlatdan badarg‘a qildi<sup>91</sup>. Ammo tez orada sayidni kechirgan shekilli, 1372 yilgi Xorazmga yurishda Temur bilan birga edi<sup>92</sup>. Shundan keyin Termiz sayidlari Temurga sadoqatda qoldilar. 1404 yili

---

86

87

88

89

90

91

92

Garbga songgi yurishidan qaytishida Temur Termizda **xudovandzoda** Alo al-Mulk xonadonida qo‘noq bo‘ldi<sup>93</sup>.

Obro‘li ruhoniy pиру ustozlar Movarounnahrning Termizdan boshqa shaharlarida ham bor edi. Lekin ular orasida ona yurti Kesh va poytaxt Samarqand avliyolari Temur uchun alohida ahamiyatli edi. Mir Sayid Barakadan va *xudovandzodalardan* keyin 1403-1404 yil qishida Qorabog‘da turgan payti Temur huzuriga borgan ruhonir rahnamolar qatori Samarqand shayx ul-islomlari A,d ul-avval, uning amakizodasi Xoja Isom ad-din<sup>94</sup>, Kesh xojasi Xoja Afzal, Kesh shayx ul-islomining o‘g‘illari Abd ul-Hamid va Abd ul-Rahmonlarning nomlari qayd etilgan. Naqshibandiya tariqatining asoschisi mashhur Baho ad-din Temur bilan zamondosh bo‘lgani holda Buxoro ruhoniylarining Temur saroyi bilan qandaydir aloqalari bo‘lganligi haqida manbalarda biror ma’lumot yo‘q. 1383 yil voqealari haqidagi hikoyalarda Samarqandning Abd ul-Avvaldan oldingi shayx ul-islomi Abd ul-Malik (Abd ul-Avvalning amakivachchasi) eslatib o‘tiladi. Opasi Qutlug‘ Turkon og‘aning o‘limi munosabati bilan chuqur qayg‘uga botgan Temurga Abdu ul-Malik taskin berib nasihatlar qilgani qayd etilgan<sup>95</sup>.

Xurosonda din peshvolari Temurga favqulodda ajib tarzda peshvoz chiqadilar. Avliyo hisoblanuvchi darvesh Bobo Sangu 1381 yili Andxudda hayvon etining to‘s sh qismini Temurning oyog‘i ostoga tashladi. Temur buni yaxshilik alomati deb, Yerning ko‘ksi Xurosonni xudo unga in’om etajagi belgisi deb e’lon qildi<sup>96</sup>.

Hozirgi Ko‘hsondan janubroqda, Gerirud yoqasida joylashgan Toyobod qishlog‘ida so‘fiy Zayn ad-din Abu Bakr Toyobodiy yashar edi. Temur bu manzilga kelib, o‘sha so‘fiyga xabar yetkazib, u bilan ko‘rishmoq istagini bildirdi. So‘fiy esa “Temurda mening hech qanday ishim yo‘q, agar uning

---

93

94

95

96

menda ishi bolsa o‘zi kelsin”, deb javob beradi. Bu uchrashuv sodir bolgan. Keyinchalik Temur tarixchi Xofiz Abro‘ga bu haqda so‘zlab berar ekan<sup>97</sup>, din peshvolari bilan ko‘plab uchrashuvlarda ulardagi qo‘rquvni sezib turishini, ammo Toyobodiy bilan uchtashuvda o‘zida qo‘rquv his qilganini eslaydi<sup>98</sup>. Ibn al-Arabshoh ushbu uchrashuv tarixiga butun bir bob bag‘ishlar ekan, aytadiki, shayx huzurida tiz cho‘kib ta’zimda turganida shayx Temurning orqasiga qo‘lini qo‘yibdi. Shunda Temurga go‘yo osmon uzilib yerga tushgandek, yer bilan osmon o‘rtasida u ezilib qolgandek tuyilgani haqida keyinchalik o‘zi so‘zlab bergen ekan. Temur shayxning nasihatlarini tinglab bo‘lgach, undan nega xuddi shu kabi nasihatlarni o‘z shahringiz Hirot hokimiga ham qilmaysiz degan ma’noda so‘ragan paytda shayx shunday javob beribdi: “Biz unga nasihatlar qildik, ammo u quloq solmadi. Sizni xudo uning ustiga yubordi. Shuning uhcun sizga aytyapman. Agar siz ham quloq solmasangiz, sizning ustingizga xudo boshqasini yuboradi”, Bu hikoya Temur tomonidan va uning so‘zlari asosida tarixchilari tomonidan qanchalik bezab ko‘rsatilgan, bu haqda bir narsa deyish qiyin<sup>99</sup>. Binobarin, Temurning bundan keyingi barcha harakatlarida bu shayxning ta’siri kuzatilmaydi. Xuroson zabti odatdagidek shafqatsizlik bilan amalga oshirildi. Qo‘shni Bushangni urho bilan olishda uning barcha himoyachilari qirib tashlandi<sup>100</sup>. Ibn Arabshohning so‘zlariga binoan Temur erishgan barcha yutuqlari uchta pir-ustoz duolari tufayli deb hisoblagan<sup>101</sup> va Shamsiddin Kulol va Mir Sayid Baraka qatorida shayx Zayniddinni ham yuksak e’zozlagan. Biroq Temur tarixi manbalarida shayx Zayniddin 1381 yil voqealaeidan keyin biror marta eslatilmaydi. Holbuki, shayx Zayniddin yana sakkiz yildan keyin olamdan o‘tgan<sup>102</sup>.

Chingizzon qonunlariga qaraganda islom shariati ustuvor bo‘la brogan Shohrux Mirzo davrida ijod qilgan tarixchilar tabiiyki, Temurning

---

97

98

99

100

101

102

taqvodorligini hamda islom dini homiysi kabi sifatlarini bo‘rttirishga harakat qilishgan. Shubhasiz Temur ulamolar homiysi bo‘lgan, ular bilan oddiy inson kabi teng o‘tirib suhbatlar qilib turgan<sup>103</sup>. Payg‘ambar avlodlari (sayidlar)ga alohida hurmat-izzat ko‘rsatgan. Temur avlodlaridan tashqari<sup>104</sup> davlatda faqat sayidlarninggina hayoti mutlaqo dahlsiz hisoblangan<sup>105</sup>. Xofizi Abro‘ yana xabar beradiki, Temur din va shariatni mustahkamlash haqida qayg‘urgan. Uning davrida hech kim falsafa va mantiq bilan shug‘llanishga jur’at etmas edi<sup>106</sup>. Temur vaqflarning moliyaviy ishlariga aralashmas edi. Xofizi Abro‘ning falsafa va mantiq haqidagi fikrlari bo‘rttirilgan bo‘lsa kerak, chunki uning o‘zi boshqa bir o‘rinda Temur faylasuflarni qo‘llab quvvatlar edi, deb yozadi<sup>107</sup>. Dunyoviy ilmlardan tarixni Temur yaxshi bilgan. Ibn al-Arabshoh guvohlik berishicha, turkiy, fors va arab xalqlari tarixi bo‘yicha Temurning bilimi haqida u bilan suhbatlashgan tarixchi Ibn Xaldun chuqur taassurot olgan<sup>108</sup>. Shu bilan birga Temur tibbiyot va falakiyot ilmlarigan ham xabardor bo‘lgan<sup>109</sup>. Samarqandga olib kelingan olimlar orasida fanning shu sohalarida “o‘z davrining masih Buqroti” Husom ad-din Ibrohimshoh Kirmoniy, tabib, xijriy 808 (1405-1406) yili Ibn Arabshohga 200 yillik munajjimlik hisobini qilib chiqqanini aytganfalakiyotchi mavlono Ahmad ham bor edi<sup>110</sup>. Yana shu ham ma’lumki, Temur munajjimlikni tan olmagan. Qur’on bo‘yicha ta’bir qilishni ma’qul ko‘rgan<sup>111</sup>. Din himoyasiga qaratilgan harakati tufayli Temur Bag’dod, Tabriz, Sultoniya, Sheroz, Kirmon, Xorazm (Ko‘hna Urganch) kabi shaharlarda aysh-ishrat, maishat muassasalarini, ulardan xazinaga keladigan daromaddan qat’iy nazar<sup>112</sup>, ta’qiqlagan (manbalarda Samarqand va boshqa Temurga yaqin shaharlarda maishiy dargohlar haqida ma’lumotlar

---

<sup>103</sup>

<sup>104</sup>

<sup>105</sup>

<sup>106</sup>

<sup>107</sup>

<sup>108</sup>

<sup>109</sup>

<sup>110</sup>

<sup>111</sup>

<sup>112</sup>

uchramaydi). Aksariyat hollarda din Temur uchun uning haddi-harakatlarini dinparvarlikdan ko‘ra siyosiy maqsadlariga erishih vositasi ham bo‘lgan. Holbuki, Siriyada Temur Hazrati Ali va uning avlodlarini himoya qilgani uchun siriyaliklar uni shi‘a mazhabida deb o‘ylashgan<sup>113</sup>. Xurosonda sunna taqvosini tikladi<sup>114</sup> Mozandaronda esa, payg‘ambar sahobalari xotirasini taxqirlaganliklari uchun shi‘a darveshlarini jazoladi<sup>115</sup>. Musulmon ulamolar shunday (niyatini oldindan bilib bo‘lmaydigan – tarj.) hukmdor bilan suhbat paytida (qaltis ketib, jazoga tortilib qolishdan – tarj.) qo‘rqib turishlari tabiiy edi. 1403 yili Kura (daryosi bo‘yida – tarj.) bo‘lgan voqeа haqida Nizomiddin Shomiy bergen xabar shu ma’noda e’tiborga loyiq<sup>116</sup>: Temur ulamolarga murojaat qilib, nega ular avvalgi din peshvolari o‘z sultonlariga pandu nasihatlar qilganlari kabi unga (Temurga) nasihatlar qilishmayapti, debti. Bu gapga ulamolar shunday lavob berishibdi: hukmdor o‘z haddi-harakatlari bilan barchaga ibrat ko‘rsatmoqda va biz kabilarning nasihatlariga muxtoj emas. Nihoyat Tamurning so‘zlari astoydil ekaniga ishonch hosil qilishgach, ulamolar u yoki bu viloyatlarda ro‘y berib turgan davlatga xiyonat va boshqa xaromxo‘rliklar haqida axborot berishga jur’at etishibdi.

Temur uchun ulamolarning sadoqatidan ko‘ra jangovar safdoshlarining ishonchliligi muhimroq edi. Tabiiyki, Temur avvalo turkona<sup>117</sup> jangchi hamda hukmdor va nihoyat, imonli musulmon shaxs edi. Temur tasavvurida “tojik” (etno-ijtimoiy) tushuncha haqidagi tasavvur harbiy jasoratdan begona, dushman uchun xavfsiz odam degan tasavvur bilan uyg‘un edi<sup>118</sup>. Mo‘g‘uliy an'analar davomida Temur Chingizzon avlodlari xonardonlari bilan qarindoshlik masalasiga alohida ahamiyat berar edi. 1370 yilda o‘tmishd0shi Husaynning xaramini bosib olgach<sup>119</sup>, uning to‘rt xotinini, shular qatori

---

<sup>113</sup>

<sup>114</sup>

<sup>115</sup>

<sup>116</sup>

<sup>117</sup> Bartolbudda “mo‘g‘liy jangchi va kenas” iborasi ishlatilgan. Bizningcha Temurning shaxsini mo‘g‘ulga bog‘lash an‘anasidan voz kechish payti keldi. Uning “turning bosh bo‘g‘ini” haqidagi bayonoti buning isbotidir(tarj.).

<sup>118</sup>

<sup>119</sup>

Qozonxonning qizi Saroy Mulk xonimni (otasi Qozonxon vafot etgan yili besh yoshda, demak u Temurdan besh yoshga kichik bo‘lgan) ham o‘z xaramiga oldi. Saroy Mulk xonim Temurdan farzand ko‘rmadi<sup>120</sup>, lekin xonzoda sifatida saroyda ulug‘ malika maqomida bo‘lgan. Amir Husayn xaramida boshqa ayol , Husayn vafotidan keyin jaloyirlar amiri Bahromga uzatib yuborilgan Tarmashirin xonning qizi birinchi malika edi. Temur Saroy Mulk xonim orqali xon kuyovi – ko‘ragon unvoniga ega bo‘lgan va o‘z tangalarida bu unvонни qayd etar edi. 1397 yili Temur Mog‘oliston xoni Xizr xo‘janing qizi To‘kal xonimga uylangach<sup>121</sup>, u “kichk xonim” maqomida Saroy Mulk xonimdan keyin ikkinchi xonimga aylandi.

1370 yilda Suyurg‘at mish xon qilib ko‘tarildi<sup>122</sup> . 1388 yili Suyurg‘at mish vafotidan keyin taxtga uning o‘gli Sulton Mahmud o‘tqazildi<sup>123</sup>. Odatga ko‘ra Temur bu xonlarni Samarqandda xonaband xolda emas, balki safarlarda o‘zi bilan birga olib yurar edi. Sulton Mahmudxon 1402 yilda Anqara jangida qatnshgan va usmoniyalar Sulton Bayazidni asir olgan edi<sup>124</sup>. Sharafiddin Ali Yazdiyning xabariga ko‘ra Sulton Mahmudxon 1402 yilda vafot etgan<sup>125</sup>. Lekin Sharafiddindan bir muddat keyinroq yozgan Nizomiddin Shomiy Sulton Mahmudni hali hayot odam sifatda qayd etadi<sup>126</sup>. Noma’lum Iskandar qo‘lyozmasida<sup>127</sup> aytishicha, xon vafot etganidan keyin ham xotirasiga hurmat saqlab, yana bir yil Temur Sulton Mahmud nomidan tanga zarb ettirishda davom etdi. Har juma namozidan keyin xutbada Xonning nomiga xutba o‘qilar edi. Biroq Sulton Mahmuddan keyin Temur taxtga boshqa xonni ko‘tarmadi. Tantanavor vaziyatlarda hamda qo‘sishin oldida Temur mazkur xonlarni sharaflagani haqida biror ma’lumot yo‘q. Mo‘g‘ullar odatiga ko‘ra xonga ko‘rsatiladigan hurmat-izzat, sharaflovlarni Temur o‘zi qabul qilar edi<sup>128</sup>.

---

120

121

122

123

124

125

126

127

128

1370 yilda **Temurga** qasamyod qilganlariga qaramay, bir qator raqiblar bilan qattiq kurashlardan keyingina Temur chin ma'noda o'z xalqining hukmdoriga aylandi. Ayrim shaxslardan tashqari Movarounnahrning shimolidagi, jumladan Xo'jand atroflarida joylashgan jaloyirlar singari bir qator boshqa qabilalar ham Temurga bo'ysinishdan bosh tortishar edi. Masalan, jaloyirlar taqdiri og'ir kechdi. Hozirgi tushuncha bilan aytganda, jaloyir qabilasi parchalab tarqatib yuborildi. Ularning ulusi amalda yo'q qilindi. Qoldiqlari 1376 yilda turli amirlarning harbiy qismlariga sochib yuborildai<sup>129</sup>.

Temur avvallari Qozog'onning o'g'li Abdulla va nabirasi Amir Husaynlarni qal'alar qurish, shahrlar atrofini mudofaa devorlari bilan o'rash kabi Chingizzonning vasiyatiga zid harakatlari uchun ayblagan bo'lsa, endilikda o'z hukmronligining dastlabki qadamlaridanoq ularning ishini davom ettirdi: 1365/1366 yil qish oylarida Qarshi shahri atrofini devor bilan o'radi<sup>130</sup>, 1370 yilda Samarqandda devor va ark<sup>131</sup>, 1380 yilda Shahrisabzda mudofaa devori<sup>132</sup> va Oqsaroy binosini quzdirdi<sup>133</sup>. Shunga qaramay Temur (o'troqlikka qarshi – tarj.) chig'atoyilar bilan til topishib keta oldi, ulardan xojasiga sadoqatli, tashqi ko'rinishdan musulmon qo'shini tipidan farqli, ko'proq Chingizzonning qo'shiniga o'shab ketadigan intizomli qo'shin tuzishga erishdi. Klavixo bir necha o'rinda "chakatay"larning Temur davlatida alohida nufuzi haqida yozgan. Uning so'zlariga qaraganda "chig'toyilar o'z chorvasi bilan o'zlar istagan joyda yurishlari, qishin-yozin istagan joylariga yashahlari, ekin-tikin qilishlari mumkin b'lgan. Ular erkin va hukmdorga o'lpon to'laashmaydi. Cunki ular qachon hukmdor chaqirsa harbiy xizmatga tayyordirlar". Harbiy safarda ular bola-chaqasi va chorvasini ham o'zlar bilan birga olib yurishgan<sup>134</sup>.

Temur tarixida harbiy sohaga tegishli atamalar ko'p uchraydi, ammo ularning ma'nosi etarli ochiqlanmagn<sup>135</sup>.

---

129

130

131

132

133

134

135 Bugun bu masalada muhim ilmiy ishlar mavjud va ko'plab atamalar o'z izohini topgan. Qarang: H.Dadaboyev .

Yirik qabila to‘plari (uyushmalari) *el* yoki *ulus* atamasi bilan belgilanadi. Shunga o‘xhash holda *tuman* atamasi “o‘n ming” ma’nosida keladi. “Ming” forsiy “hazora” so‘zi bilan ifodalangan. Aftidan, bu s‘ozni turklar va mo‘g‘ullar ancha avval o‘zlashtirishhan. Nisbatan kichik harbiy bo‘linmalar mo‘g‘ulcha xo‘shun (qo‘shin) deb atalgan. Ma’lumotlarga ko‘ra Mo’olistonda 1000 kishilik bo‘linma xo‘shun deb atalgan<sup>136</sup>. Temur tarixining ba’zi o‘rinlariga ko‘ra Movarounnahrda *xo‘shun* 50 nafardan 100 nafargacha askar ma’nosida bo‘lgan<sup>137</sup>. Temur davrida ulkan namoyish maqomiga ega bo‘lgan *qurultoyga* va harbiy yurishga chorlash xabarları *tovachi* orqali tarqatilgan. Tovachi lavozimi eng yuqori mansablardan biri, xatto hukmdordan keyingi o‘rinda turgan<sup>138</sup>. Temur shunday odatni joriy etdiki, bunga ko‘ra, amaldorlar va sarkardalarga buyruq yetkazilganda ular buyruq olganları haqida alohida nom bilan atalgan hujjat - tilxat bergenlar<sup>139</sup>. Bunday odat Chingizzon davrida bo‘lgan emas.

Lashkar safi umuman turk-mo‘g‘ul qo‘shini tuzilishiga o‘xhash bo‘lgani holda, harbiy san’ati masalasida Temur nafaqat an’analarni saqlonchi, balki yangiliklar yaratuvchi hisoblanadi. To‘xtavishxon bilan 1391 yilda bo‘lgan jangda Temur qo‘shin safini ko‘z k‘orib, quloq eshitmagan tarzda, qandaudir maxsus etti qismga bo‘lib joylashtirgan<sup>140</sup>. Temur qo‘shining odatiy va, albatta, yashirib bo‘lmas yalpi harakatidan tashqari, uning bo‘linmalarini hech kim kutmagan yerda paydo bo‘lib qolar edi. Temur (jang paytida askarlar bir-birini tanib harakat qilishi uchun) askarlarga maxsus bosh kiyimi joriy etgan. Qo‘shin qismlarini har xil yerga joylashtiradi va birlashib uchrashadigan erlarini tayin qilib qo‘ydi. O‘zi esa g‘rbga, cho‘l tomonga emas, go‘yo Xo‘jand tomon yurish qilgandek harakat boshladi. Lekin yo‘lni to‘satdan boshqa tomonga burdi, qoshin qismlarini bir yerga to‘pladi va kutilmaganda Eronning chekka g‘arb qismida joylashgan Luristonda paydo bo‘ldi<sup>141</sup>. Temurning rasmiy tarixlaridai ushbu ayyorona (taktik) harakat haqida eslatilmagan. Lekin 1386 yili “uch yillik yurush” boshida Temur xuddi shu kabi mutlaqo kutilmaganholda Luristonda paydo bo‘lgan edi.

---

<sup>136</sup>

<sup>137</sup>

<sup>138</sup>

<sup>139</sup>

<sup>140</sup>

<sup>141</sup>

(Sharafiddin Ali Yazdiy bu voqea arafasidan boshlab shunday ta’fsilotni keltiradi – tarj.)<sup>142</sup>: Temur 1385 yili Samarqandga qaytadi, qishni Qarshi shahri yaqinida o’tkazadi, “ron ustiga yurishga qaror qiladi, Samarqandda qo’shin to‘playdi, Amudaryodan kechib o’tadi, Feruzko‘had to‘xtaydi, so‘ngra tovachiga har bir o’nlikdan ikkitadan askar olishni buyurib, qo’shining beshdan bir bo‘lagini Luristonga jo‘natadi.

Temur urushlari o‘ta shafqatsiz ravishda olib borilganiga qaramay, uning tarixlarida ayrim baxodirlarning jasoratlari, ularnih hukmdorga sadoqati, xatto dushmanlarga nisbatan oljanobliklari haqida epik tusdagi lavhalarni ham kuzatamiz. Bu lavhalar garbdagi ritsarlik jasoratlari haqidagi hikoyalariga o‘xshab ketadi. Masalan, 1378 eili To‘xtamish Temurning yordami bilan o‘z raqibi Temur Malik ustidan g‘alaba qilganida uning baxodirlaridan birini asir oladi. To‘xtamish bu baxodirni afv etib, o‘z xizmatiga olmoqchi bo‘ladi. Shunda baxodir xon oldlda tiz cho‘kib, deydi: “Temur Malik hayot ekan, men amir va hokim sifatida umrimning eng yaxshi onlarini yashadim. Seni uning taxtida ko‘rgan ko‘zlarni o‘yib olishni istardim. Agar sen menga himmat ko‘rsatmoqchi bo‘lsang, kallamni olishga buyruq ber va mening boshim ustiga Temur Malikning boshini qo‘y, tokim uning aziz va muborak boshi xaqir tuproqda qolmasin”<sup>143</sup>. Sadoqatli baxodirning isatagi bajo keltirilibdi<sup>144</sup>. Temurning ikki baxodiri, biri Jo‘ji xonzodalaridan biri Ebajo‘g‘lon, ikkinchisi Chig‘toy amiri Hamidning o‘g‘li Jalol<sup>145</sup> - suvsizlikdan holdan toyib turganlarida ikki qultum suv topishibdi. Ebaj bir qultum suvni ichibdi, ammo chanqog‘i bosilmay, Jaloldan uning hissasinin berishni so‘rabdi. Jalol shunda bir vaqtlar sazroda jaziramadan holdan toygan arab va fors musofir haqida Temurdan eshitgani hikoyani eslabdi. Arabning ozgina suv zahirasi qolgan ekan. Fors debdi: “man a shu bir qultum suv uni o‘limdan saqlab qolar ekan, agar arab shu suvni bersa, bu amal arablarning mashhur oljanobligining dalili bo‘lgan bo‘lur edi”. Arab javob berib: “ Mey yaxshi bilamanki, agar shu suvni senga bersam, men o‘lishim kerak bo‘ladi. Lekin arablarning sha’ni mening hayotimdan qimmatliroq”. Shunday qilib fors suvni olib tirik qolibdi. Jalol so‘z qotib: “Men o‘sha arabga taqlidan

<sup>142</sup>

<sup>143</sup>

<sup>144</sup>

<sup>145</sup>

suvimni senga beraman va bu ibratni Jo‘ji avlodlariga qoldiraman hamda Chig‘atoy ulusi sharafini sqlagan bolaman. Ammo sendan so‘rayman, hukmdor huzuriga qaytganingda bu haqda unga batafsil so‘zlab ber, toki hikoya yilnomaga kirsun”, - debdi. Ebaj va’da berib suvni olibdi va kuch quvvatini tiklabdi. Jalol nam mo‘jiza yuz berib, omon qolibdi. Ikkalalari Karbaloga etib Imom Husayn maqbarasini ziyorat qilishga Musharraf bo‘lishibdi. So‘ng Temur huzuriga qaytib, boshdan kechirganlarini so‘zlab berishibdi. Temur Jalolning jasoratini muborakbod qilibdi va uning otasi amir Hamidning xizmatlari xotirasini hurmat bilan eslabdi.

Bu hikoyalarning chin ma’noda tarixiy jarayonlarga aloqadormi yoki yo‘qligidan qat’iy nazar, bir narsa muhimki Temur armiyasida qahramonlik ideali bo‘lganligi aniq. Shunday hikoyalr, tabiiyki, Temur va uning o‘g‘llari haqida ham yaratilgan. Jismoniy nuqsonlariga qaramay, Temurning shaxsiy jasoratlari haqida ham ma’lumonlar bor. 1379 yili Urganch qamali paytida {orazm hukmdori Yusuf So‘fi Temurni yakkama-yakka janggi chorlaydi. Temur chaqiriqni qabul qilib, mudofaa xandaqi bo‘yiga otda keladi va raqibini janggi chaqiradi.. Ammo Yusuf so‘zida turmay, janggi chiqmaydi. Biroz vaqt o‘tib, Temurga Termizdan yangi pishgan tarvuzlar keltirishadi. Teut tarvuzdan dushmaniga ilinib, oltin taboqda Yusufga tarvuz jo‘natadi. Yusuf tarvuzni suvgaga uloqtirishga buyurib. Oltin taboqni eshik og‘asiga berishni buyuradi<sup>146</sup>. 1383 yili Seistonda Temur janggi kirmoqchi bo‘lganda amirlar yolvorib uni bundan qaytarishgan ekan<sup>147</sup>.

Temurning o‘g‘illaridan Umarshayx 1370 yilda 16 yosh paytidayoq Husayn bilan jangda jasorati bilan nom chiqargan edi<sup>148</sup>. Keyinroq esa Farg‘onada mog‘ollar bilan tez-tez jangler qilishga to‘g‘ri keldi. Noma’lum Iskandar qo‘lyozmasi muallifi Xofizi Abro‘ va Sharafiddinning Shohruxga yuksak ixloslari kabi Umarshayx va o‘g‘llarining extirosli muxlis sifatida Umarshayxning jasoratlari haqida ko‘p ma’lumotlarni beradi. Xatto Shohrux haqida aql bovar qilmas hikoyalar to‘qilganki, ularni Shohruxning o‘zi

---

<sup>146</sup>

<sup>147</sup>

<sup>148</sup>

rad etgan<sup>149</sup>. Unga ko‘ra 1393 yilda 16 yoshli shahzoda Shohrux Fors viloyati hokimi Mansur bilan qizg‘in jangda qatnashib, Mansurning kallasini Temurga olib kelgan emish<sup>150</sup>.

Ibn al-Arabshoh ishontirib aytishicha Temurning lashkari safida o‘zlari bilan butsanamlarini olib yuradigan butparastlar<sup>151</sup>, janglarda ishtirok etuvchi jangchi ayollar ham bo‘lgan<sup>152</sup>. Nima bo‘landa ham, chig‘atoyilar mog‘ollarni musulmon deb tan olmaganlari singari, chig‘atoy jangchilarini musulmonlar kofir deb tushunar edilar. Holbuki, musulmonchilik Mavarounnahrda Tug‘luq Temur davrida qror topgan edi<sup>153</sup>. Faqat Yunusxon davriga kelib, mog‘ollar orasida musulmonlarning o‘zaro urushlarida amal qilgan qoidalar tarqaldi. Jumladan, harbiy asirlarni qul qilib sotish ta’qiqlandi<sup>154</sup>. Shunday qilib. XIV asrda Chig‘atoy davlati musulmon davlat deb tan olinmagan. 1372 yilda Xorazm hukmdoru Husayn So‘fi Temurning elchisiga “Sizlarning podsholikingiz (hududi) – (biz uchun) urush maydoni (ya’ni, kofirlar mulki). Sizlar bilan jang qilish musulmonlarning burchi”, - degan ekan<sup>155</sup>. Temurning askarlari johiliya mo‘g‘ullari kabi o‘stirilgan sochlarini o‘rilgan holda orqalariga tashlab yurar edilar. 1400-1401 yilda Damashq qamali paytida Temurning nabirasi Sulton Husayn o‘zinikilarga xiyonat qilib, damashqliklar tomoniga o‘tganda, birinchi galda uning sochini kesishgan va kiyimlarini almashtirishgan<sup>156</sup>. Ibn Arabshoh Temurning amir Husaynning singlisi<sup>157</sup> bilan nikohidan tug‘ilgan, 1366 yili vafot etgan to‘ng‘ich qizlaridan biri Sulton-Baxt haqida “u erkakshoda, erkaklarni yomon ko‘radigan qiz edi”, -deb yozadi<sup>158</sup>.

Temur saroyida xotinlari va boshqa ayollarning maqomu darajalari musulmonchilik mt’yorlaridan ko‘ra ko‘proq mo‘g‘ulcha odatlarga mos kelar edi.

---

<sup>149</sup>

<sup>150</sup>

<sup>151</sup>

<sup>152</sup>

<sup>153</sup> Bu o‘rinda mog‘ollar o‘rtasida islomlashuv haqida gap bormoqda(tarj.).

<sup>154</sup>

<sup>155</sup>

<sup>156</sup>

<sup>157</sup>

<sup>158</sup>

Klavixo<sup>159</sup> hamda Ibn al-Arabshoh<sup>160</sup> 1404 yilda tashkil qilingan ziyofatlar haqida hikoya qilishar ekan, ularda saroy xonimlari – malika va boshqalar erkaklardan yuzlarini yashirmafan holda qatnashganlarin qayd etishgan. Shu malikalar va podhohoyimlar o‘zlar ham ziyofatlar uyuştirib turishgan va ularga mehmonlar taklif qilishgan. Temur Samarqand shahri tashqarisida o‘z xotinlariga va boshqa saroy malikalariga bag‘ishlab bog‘lar barpo qilgan. 1378 yilda Tuman aqoga Bo‘i Behisht<sup>161</sup>, 1397 yili To‘kal xonimga Bog‘i dilkusho<sup>162</sup>, o‘sha 1397 yilda boshqa malikaldan nabirasi, Mironshohning qizi ga atab Bog‘I Shimol<sup>163</sup> va boshqalar shular jumlasidan edi. Shu narsa ayonki, Temur hukmronligida ayollar davlat ishlariga ta’sir ko‘rsatisha olmas edi. Biroq, ba’zan ayrim bebosh shahzodalarga nisbatan Temurning g‘azabini sovitishga erishganlar<sup>164</sup>. 1391, 1393 yillardagi harbiy yurishlarida hamroh bo‘lgan xotini, mog‘ol Xojibekning qizi go‘zal Cho‘lpon Mulkni Temur qatl ettirgan. Ibn al-Arabshohning aytishicha, Temurning qulog‘iga uning xiyonati haqidagi gaplar yetib kelgan. Biroq rasmiy xabarlar Temur xonadonidagi bu voqeя haqida jim qoladilar.

Temur o‘z avlodlariaga tarbiyasiga alohida e’tibor bilan qaragan. Bu masalani u davlat ishi deb qaragan. Bolalar tarbiyasi ota-onasidan mutlaqo ajratilgan. Ayollar tug‘ishi kuni yaqinlashganda xomilador saroya keltirilib, unga ulkan mehribonliklar ko‘rsatilgan, tug‘ilishi bilanoq, chaqaloqni onadan olib uning tarbiyasi uchun mas’ul kishi qo‘liga topshirilgan. Bu shaxs bolaning yemishi, kiyim-boshi, barcha kerak narsalar ta’mini bilan shug‘ullangan. Ma’lum yoshga yetganda bola maxsus tarbiyachi – otabek qoliga topshirilgan. Otabek bo‘lajak hukmdor bilishi lozim bo‘lgan barcha narsalarga o‘rgatilgan<sup>165</sup>. Taxt vorisi bilan boshqa shahzodalar tarbiyasi o‘rtasida farq bo‘l ishi mumkin emas edi. Chunki taxt vorisligi masalasida maxsus nizom yo ‘ q edi. Bundan tashqari davlay butun xonadonga tegishli hisoblangan. Har bir shahzoda o‘z mulkida deyarli mustaqil hukmdordek ish yuritgan. Mulk hukmdorida isyon alomatlari

---

159

160

161

162

163

164

165

sezilganda, boshqa mulkdorlar bilan nizolashuv, viloyat tashqi yoki ichki dushmanlik tufayli ochiq-oydin xavf ostida qolish kabi hollarda sulola boshlig‘ining aralashuvi roy bergen. Temur hayot vaqtida shu kabi voqealar bolib turgan, zero, Temur farzandlari masalasida Chingizzon singari baxtli bo‘lmadi. To‘rt o‘g‘ildan ikki nafar to‘ng‘ichlari o‘zi hayon vaqtida vafot etdi. 1366 eilda tug‘ilgan uchinchi o‘g‘li 14 yoshidayq, 1380 yili Xuroson yurishida qatnashgan vas hu yili ushbu viloyat hukmdori etib tayinlangan edi<sup>166</sup>. Xotini O‘zbekxonning nabirasi bo‘lgani sababli Mironshoh ham Temur kabi ko‘ragon unvoniga ega bo‘lgan. Mironshoh hukmronlik qilgan paytda Xuroson poytaxti Hirotda bo‘lgan. 1393 yilda unga yanada yuksakroq martaba - “Xulogu taxti” ham unga berildi. Chunki Temur o‘sha yili Erondagi mo‘g‘ul Xulogular mulkinining egasiga aylangan edi. Shimoliy Eron Bag‘dod bilan birga, Kavkaz orti o‘lkalarini birlashtirgan bu ulkan hududning bosh shaharlari Tabriz va Sultoniyasi edi.

Mironshoh nafaqat otasi kabi jasorati bilan, balki unga xos makkorligi bilan ham ajralib turar edi. 1389-yili Samarqandda ziyofat dasturxini ustida hech narsa bo‘lmaqandek kulib turib Mironshoh Hirotda hukmdorlari Kurtlarning so‘nggi vakili Pirmuhammadning kallasini oldi. O‘zining bu qilmishini mastlikka yo‘yib qo‘ya qoldi<sup>167</sup>. Biroq. 1399 yil chamasi Mironshohning xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlar haqida Temur xabar topa boshladi. Xususan, 1396 -yili kuzida ov cho’I otdan yiqilgani sababli uning aqliy qobiliyatida nuqsonlar kuzatilgan. Boshqaruvidagi mamlakatda parokandalik boshlangan. Tashqi dushmanlar xavfi kuchaygan<sup>168</sup>. Otasidan o‘zlashtirgan vayronkorlik mayllari xadfli tus ola boshlagan. Klavixo<sup>169</sup> ishontirmoqchi bo‘ladiki, go‘yo Mironshoh, odamlar uning haqida gapisinlar deb inshootni buzdirgan emish. “Mirzo Mironshoh o‘zi hech harsa qilmagan, lekin jahonning eng yaxshi mu’jizalarini buzishga buyurdi”, - deb yozadi Klavixo.

---

<sup>166</sup>

<sup>167</sup>

<sup>168</sup>

<sup>169</sup>

Shu mahal Mironshohning xotini<sup>170</sup>, “xon qizi” eri ustidan shikoyat bilan, uning isyonga moyilligini qo’shib Samarqandga kirib keladi<sup>171</sup>. Davlatshoh Samarqandiy boshqa manbalarda uchramaydigan, lekin haqiqatligiga ishonish qiyin bo‘lgan bu voqealarni yorqin bo‘yoqlarda batafsil tasvirlagan. Xonzoda kelin qaynotasiga qonga bo‘yalgan ko‘ylagini ko‘rsatgan emish. Temur o‘g‘lining qilmishidan qattiq iztirobga tushib, yig‘lab yuboribdi va bir hafta hech kim bilan gaplashmabdi<sup>172</sup>. O‘z navbatida rasmiy tarixga ko‘ra Mironshox xotiniga qarshi xunuk aybnomalar bilan chiqadi. Biroq xotini ayblovlarni muvaffaqiyat bilan yo‘qqa chiqaradi, ayolmi, erkakmi – ig‘vogarlar qatl etiladi. Biroq bu ishlardan keyin ham ga‘zablangan xonzoda tinchanmay, Samarqandga tomon yo‘lga chiqadi<sup>173</sup>.

1399-yilgi bu voqealar Temurning songgi, uzoq muddatli (“yetti yillik” nomini olgan) Garb tomon yurish boshlashiga sabab bo‘ldi. Bu yurish Misr sultoni va “Rum qaysari” – Bazid ustidan galaba bilan yakunlandi. Mironshoh va uning aholisi Temurga qarshiliksiz bo‘ysindilar. Mironshoh taxtdan tushirildi. Uning maslahatchilari va quvnoq hayotidagi do‘słari qatl qilindai, nojo‘ya sarflangan mablag‘lar xazinaga qaytarildi<sup>174</sup>. Biroq bundan keyingi voqealar Temurga uning sulolasiga a’zolari orasida birdamlik g‘oyat darajada bo‘sh ekanligin ko‘rsatishi lozim edi. Yurishgajo ‘nay turib Temur Samarqandni jahongirning o‘g‘li Muhammad Sultonga, Farg‘onani Umar Shayxninh o‘g‘li Iskandarga<sup>175</sup> topshirda. Biroq 1399-1400 yilning o‘zidayoq ular o‘rtasida nizo chiqib, Muhammad Sultonning buyrug‘i bilan Iskandar Samarqandga keltirilib, qamoqqa tashlanadi. Shunda Iskandar 16 yoshda edi. Uning otalig‘I hamda birga kelgan 26 nafar navkari qatl qilindai<sup>176</sup>. Osha yilning o‘zida Temur Forsda Iskandarning akasini Pirmuhammadni taxtdan tushirdi. Bung a sabab qilib Pirmuhammadning yurishlardan biriga kasalligini bahona qilib chiqmagani va noma’lum maqsadda qandaydir zaharlar tayyorlagani ko‘rsatiladi. Pirmuhammadning

---

<sup>170</sup>

<sup>171</sup>

<sup>172</sup>

<sup>173</sup>

<sup>174</sup>

<sup>175</sup>

<sup>176</sup>

maslahatchilari qatl qilinadi. Uning o‘zi Temur huzuriga keltirilib, “Ulug‘ Devon” qaroriga muvofiq tayoq bilan kaltaklab jazolanadi<sup>177</sup>. 1401 yilda Iskandar ham xuddi shu kabi jazoga tortoladi<sup>178</sup>. 1400-yil oxirida Damashq qamali chog‘i Temurning nabirasi (qizining o‘g‘li) Sulton Husayn qamaldagilar tomoniga o‘tib, o‘zinikilarga qarshi jang qildi. Hali shahar olinmsdan orada shaboxunlardan birida Sulton Husayn qo‘lga olinib, Temur huzuriga keltiriladi. Bu gal ham Temur aybdorni tayoq bilan urib jazolashga buyurdi<sup>179</sup>.

1401-yili “Xulagu xonning taxti”ni<sup>180</sup> topshirish uchun Muhammad Sulton Temur huzuriga chaqiriladi<sup>181</sup>. U XV asr boshidagi, ayniqsa Kichik Osiyodagi harbiy harakatlarning faol qatnashchisi edi. Ammo 1403-yilda u kasallikdan vafot etdi<sup>182</sup>. “Xulagu xon taxti 1404 yili Mironshohning ikkinchi o‘g‘li Umarga taklif qilinda. Mironshohning qo‘shini hamda Garbiy Eronda va Mesopotamiyada qoldirilgan barcha shahzodalari unga bo‘ysindirildi<sup>183</sup>. Bularidan Pirmuhammadga 1403-yilga Sheroz qaytarib berilgan edi. Uning ukase Rustam Isfahonni, Mironshohning katta o‘g‘li Abu Bakr Bag‘dodga ega bo‘ldi<sup>184</sup>. Klavixo Mironshohni Sultoniyada ko‘rgani, lekin unda telbalik alomatlarini kuzatmagani haqida yozadi. Qolaversa, rasmiy tarix ham bir necha o‘rinda Mironshohning janglarda ishtiroki haqida ma’lumot beradi(ki, bu uning telbaligi haqidagi gaplar haqiqatga zidligiga dalolatdir - tarj.). Yana shu ma’lumki. Mironshoh Kastiliya elchilarini barcha qoidalarga rioya qilhan holda qabul qilgan, ularning podsholari sog‘lik-salomatligini surishtirgan<sup>185</sup>.

Temur taxt vorisi qilib, Jahongir Mirzonong o‘g‘lini, otasining o‘limidan 40 kun o‘tganda, 1376 yilda tug‘ilgan Pirmuhammadni tayin etdi<sup>186</sup>. Pirmuhammad Temurning tirik qolgan avlodlari orasida Mironshohdan keyin eng kattasi edi. Unga 1392-yilda

---

<sup>177</sup>

<sup>178</sup>

<sup>179</sup>

<sup>180</sup>

<sup>181</sup>

<sup>182</sup>

<sup>183</sup>

<sup>184</sup>

<sup>185</sup>

<sup>186</sup>

Xindikush tog‘ining Janubi-g‘rbidan Hind daryosigacha bo‘lgan yerlar - “Mahmud G‘aznaviy taxti” in’om etilgan edi<sup>187</sup>. Temurning bu kabi qator qarorlari shuni ko‘rsaytadiki, u nafaqat aybdor bo‘lib qolgan Mironshohga yoki ota oldida hech qachon ayb ish qilmagan kichik o‘g‘li Shohruxga nabiralariga ishongandek ishonch bildirmagan. Holbuki, Shohruh G‘arba yurishda qatnashib, Falastingacha borgan<sup>188</sup>. Temurning umri oxirigacha Shohrux Mirzo qachonlardir Mironshoh boshlagan Xuroson hokimligi martabasida qoldi. Bu viloyat Seiston va Mozandaron bilan qo‘sib unga 1397-yilda topshirilgan edi<sup>189</sup>. 1404 yilda Temur Shohruhni Samarqandga chaqirish masalasini to‘xtatgan edi<sup>190</sup>. Temurning Xitoy yurishiga tayyorgarlik bilan bog‘liq oxirgi siyosiy rejalarida ham Shohruxning eng kichik o‘g‘illarigacha alohida orin berilgani holda Shohruxning o‘zi e’tibordan chetda qoldi. Manbalar Temurning Shohruxga bunday munosabati sabablari haqida hech qanday ma’lumot bermaydi. Ammo Shohrux hukmronlik qilgan davrida amal qilgan o‘zining shariatga qattiq rioyasini va Chingizzon qonunlariga hurmati yo‘qligin Temur hayotligida namoyon qilganmikan, bu ma’lum emas. 1404 yilda Temur yuborgan Faxriddin Ahmad Tusiy Hirot hukumatini javobgarlikka tortib, ular orasida qattiq qatag‘on uyuشتirdi. Tarixchi Fasih Xavofiy bir qator xojilar mazkur taftish tufayli Ashparaga, Savronga surgun qilingani haqida yozadi<sup>191</sup>. Lekin bu voqelar Temur bilan Shohrux va uning otalig‘i Alo ad-din Alike ko‘kaldosh o‘rtasidagi munosabatga qanday ta’sir etgani haqida aniq ma’lumot yo‘q. Qizig‘i shundaki, keyinchalik “Temur menga ishonib, o‘g‘lining tarbiyasini menga topshirgan”<sup>192</sup> deb mag‘rur yurgan ushbu otalig‘ Alo ad-din Alike ko‘kaldosh Temur tarixi voqealrida biror marta tilga olinmaydi. Temur hayot vaqtida ushbu otalig‘ o‘zining chig‘atoy lashkarboshilaridan jiddiy farq qiluvchi xususiyatlarini namoyon qila olarmidi, bu haqda bir narsa deyish qiyin. Keyinchalik ko‘ramizki, uning ta’sirida chig‘atoyi lashkarboshilarning ko‘pchiligi Shohrux Mirzo tomonga o‘tdilar<sup>193</sup>.

---

<sup>187</sup>

<sup>188</sup>

<sup>189</sup>

<sup>190</sup>

<sup>191</sup>

<sup>192</sup>

<sup>193</sup>

Klavixo ishontirmoqchi bo‘ladiki, go‘yo Temur uning vorislariga qarshi kim bosh ko‘tarishi mumkinligini bilish maqasadida ikki marta o‘zini o‘ldiga chiqarib shov-shuv tarqatgan<sup>194</sup>. Sharq manbalari bunday ayyorlik haqida eslatishmaydi. Biroq uning o‘limi qanday srosimalik tug‘dirishi mumkinligi haqidagi fikr Temurning xayolini band qilganini tushunsa bo‘ladi. Bunga bevosita Ibn al-Arabshohning fors hokimlaridan biri, goh Temur tomonida turib janglarda qatnashgan, goh unga qarshi qurol ko ‘targan Iskandar Shayxiy bilan temur o‘rtasida kechgan suhbat haqida yozganlari e’tiborga loyiq<sup>195</sup>. Ammo Temurning ushbu tashvishlarida barlos urug‘ining o‘rni, yoki o‘zi barpo qilgan sultanatning taqdiri haqidagi o‘ylar qnachalik ekanini anglash qiyin. Zero, Temur urug‘chilik turmush tarzi hukmron muhitdan kelib chiqqani holda avvalo o‘zini shu urug‘vakili deb his etgan. Harbiy yutuqlari ortib borgani, musulmon madaniyati namoyandalari bilan yaqinlashgani sari uning dunyoqarashi kengaayib borgani tabiiy hol edi. Yana ma’lumki, Temur biror nomusulmon kimsadan ta’lim yoki tarbiya olgan emas. Lekin na rasmiy tarixlarda va na boshqa manbalarda uning dunyoqarashi qanday o‘zgarib borgani, umrining oxirida sultanat hayotini, hukmdorning davlat oldidagi majburiyatlari qanday bo‘lishi lozimligini qanday tasavvur qilgani aks etmagan. Bizga ma’lum so‘zlari, uning qarorlari va amallari asosida xulosa qiladigan bo‘lsak, Temurning ichki dunyosi va kechinmalari o‘tmishdoshi Chingizzon dunyosiga nisbatan tengsiz darajada murakkab va boy edi. Chingizzonning dunyoqarashi to umrining oxirigacha qaroqchilar to‘dasining boshlig‘i darajasida qoldi. Uning uchun odamlarini galabalar sari yetaklash, o‘ljalar jrttirish va taqsimlash, qiyinchilikni ham o‘rtada ko‘rish, omadsiz kunlarda barcha narsalarini, kiyim-kechagiyu xatto minib turgan otini ham odamlariga berish, baxtli kunlarda esa, xalqi bilan ulug‘ rohat farog‘atda bolish, ayniqsa o‘ldirilgan dushmanning otini minish, xotinlarini quchoqqa olish kabilar Chingizzonning dunyosini belgilagan. Buyuk yovvoyi o‘n kishilik navkarni boshqarish uchun lozim bo‘lgan xislatlar bilan butun bir imperuyni bosharish uchun kerak xislat o‘rtasidagi farqni bilmagan<sup>196</sup>. Temur esa birinchi galda hokimiyatparastligi chegara bilmagan zabit podshoh edi. “Olamning odamlar yashaydigan qismidan iborat borlig‘i

---

194

195

196

unga ikki podsho bolishiga arzimaydi”<sup>197</sup>, - degan so‘zlarni Temur aytgan deyiladi. Chingizzon umrining oxirigacha mo‘g‘ul tilidan boshqa tilni bilmay o‘tgan bo‘lsa, Temur turkey tildan tashqari fors tilini yaxshi bilganva bu tilde olimlar bilan suhbatlar qurgan<sup>198</sup>. Saroyida qissaxonlk ta’sis etgan<sup>199</sup>. Ushbu qissaxonlikda eshitganlari tufayli hamda tarixni yaxshi bilishi bilan tarixchi olim Ibn Xaldunni hayratga solgan<sup>200</sup>. Shatranj bilan qiziqqan va buni noyob san’at darajasiga ko‘targan<sup>201</sup>. Islomiy ilmlarni shu qadar chuqur o‘zlashtirganki, diniy ma’ruzalarda, masala-masoillr bahslarida qatnashgan<sup>202</sup>. Bularning bari Temur bilan uning harbiy mihti o‘rtasida kelishmovchiliklarga emas, aksincha xatto harbiy yutuqlarining omiliga aylandi<sup>203</sup>. Temur tarixiy bilimlaridan, o‘tmish ibratlaridan, yuqorida ko‘rganimizdek, lashkarni yangi jasoratlarga ruhlantirish maqsadida foydalangan. Bo‘ysindirilgan o‘lkalardagi jabr-zulm, talon-toroj ishlarini diniy aqidalar bilan oqlash, shu yo‘l bilan yanada ko‘proq o‘lja undirish boshqa har qanday urush olib boorish usullaridan ko‘ra foydaliroq edi. Temur tashkil qilgan ulkan harbiy kuch<sup>204</sup> o‘z dohiysiga so‘zsiz (Bartold “ko ‘r-ko irona” iborasini ishlatgan – tarj.) itoat etgan. Ammo zabit etikgan madaniy aholining Temurga munosabati murakkabroq bo‘lgan bo‘lsa kerak (Bartolmd “vroztno” so‘zini ishlatgan – tarj.).

Temurning hukmronligi o‘ta shafqatsiz usul va vositalar yordamida olib borilgan. Bular xatto yevropalik XV asr kishisi Klavixoni ham hayratga solgan. XX asr boshidagi yevropalikka qolsa, tasavvur qilish ham qiyinki, Temurning Isfizorni olgandan keyin 2000 tirik insonni birining usniga birini taxlab, ustidan loy va g‘sht bilanqoplab minora yasash<sup>205</sup>, Sivasda 4000 asirni tiriklayin ko‘mib tashlah<sup>206</sup> haqidagi buyruqlarini ijro etadigan odamlari bo‘lgan. Musulmon zabitning bu kabi ashaddiy vahshiyliklari oldida

---

197

198

199

200

201

202

<sup>203</sup> Bu o‘rinda V.V.Bartold mo‘g‘uliy an‘analarni tark etishga harakat qilgan chig‘atoyi xonlar (Abdulla va b.) urug’doshlari qarshiligiga uchraganini ko‘zda tutgan. Demak Bartold Temurning kelib chiqishini mo‘g‘ulga bog‘lash an‘anasida qolgan(tarj.)

204

205

206

yazichnik Chingizzxonning ommaviy qirg‘inlari ip esholmaydi. Shularga qaramay Temur o‘zi zabit etgan madaniy dunyo ahliga begona emas edi. Bir tomondan Temur shafqatsiz vayronkor bolib ko‘rinsa, ikkinchi tomondan u sidqi dil bilan bunyodkor ham edi. U ulug‘vor inshootlar querdirdi, muxtasham bog‘lar va ularda go‘zal binolar barpo etdi, vayron bolgan shahar va qishloqlarni qayta tikladi, yangi ariqlar qazdirdi, eski suv inshootlarini ta’mirlatdi. Rasniy tarixlarda qayd etilishicha, Temur ekin ekish mumkin bo‘lgan yerki bor, bo‘sh qolishiga yo‘l qo‘ymagan<sup>207</sup>. Uning vayronkorligi qanchalik bo‘lsa, yaratuvchanligi ham kishini shunchalik lol qoldirar edi. Musulmon memorchiligining eng yuksalgan davrlaridan biri Temur va uning avlodlari davriga to‘g‘ri keldi. Umuman qurilish uslubiga ko‘ra shu davrda Samarqandda barpo qilingan imoratlar aorsiy an’analarni davom ettirsa-da, hajmi va mahobati bilan ulardan ajralib turardi<sup>208</sup>. Mo‘g‘ul istilosidan keying davr musulmon me‘morchiligidagi avvalgi davrlardagiga qaraganda ulkan va hajmining katta bo‘lishiga intilish mayllari kuzatiladi<sup>209</sup>. Bu xususiyat faqat bosib olingan yurtlargagina emas, xatto Misr memorchiligidagi ham xos bo‘ldi<sup>210</sup>. Bu masalaga hech qachon Temur va uning avlodlari davridagidek izchil yondoshilmagan.

Temur saroylari oddiy aholi kirishi mumkin bo‘lmagan mustahkam qasrlar emas edi. Masalan, Samarqand qo‘rg‘ni ichida qudirilgan Ko‘ksaroy o‘z bag‘rida Temurning o‘zini kamdan-kam ko‘rgan bo‘lsa kerak. Temur hayot paytlarida ham, uning avlodlari davrida ham Ko‘ksaroy xazina va turma (qamoqxona) vazifasini o‘tagan<sup>211</sup>. Aftidan, Temur Samarqand tashqarisidagi qasrlarini, obod va ko‘rkam bog‘larini ko‘proq xush ko‘rgan. Hukmdor safarda bo‘lgan paytlarda bu bog‘lar boy va kambag‘alga barobar saylgoh vazifasini o‘tagan. Saroylarning devorlari anvoyi cuvratlar, Temur, o‘g‘illari va nabiralari, lashkarboshilarining janglardagi g‘alabalari manzaralari bilan bezatilgan<sup>212</sup>. Taxta Qoracha saroyi yanada ulkan bog‘lar bilan o‘ralgan edi. Samarqand va Shahrisabz o‘rtasidagi Taxta Qoracha dovoni ham shu saroyning nomi bilan ataladigan bo‘lib qoldi.

---

<sup>207</sup>

<sup>208</sup>

<sup>209</sup>

<sup>210</sup>

<sup>211</sup>

<sup>212</sup>

Saroy 1398-yili Samarqanddan etti farsah masofada barpo qilingan. Bog‘ yaratish uchun dovondan dara bo‘ylab tushib keluvchi buloq suvidan foydalanilgan<sup>213</sup>. Bog‘ shu qadar katta ekanki, Ibn Arabshoh latifaga o‘xhash bir gapni yozib qoldirgan. Go‘yo, bu bog‘da ot yo‘qolsa, olti oydan keyin topilar ekan<sup>214</sup>. Nafaqat Movarounnahrda va Xurosonda<sup>215</sup>, balki Mug‘on ch‘oli, Kobul daryo havzasi kabi olis erlarda ham ulkan suv inshootlari barpo qilingan<sup>216</sup>. Samarqand Temur nazdida jahonning eng buyuk va muhtasham shahari bolmog‘i lozim edi. Buni amalda yaqqol ko‘rsatish uchun Samarqang atroflarida dunyoning unga ma’lum bo‘lgan eng yirik shaharlarining nomlari bilan atalgan qishloqlar barpo etdi. Bular Sultoniya, Sheroz, Bag‘dod, Dimishq, Misr<sup>217</sup> kabilar edi. 1396 yilda “besh yillik” yurishdan qaytganida Temur aholini uch yillik soliqlardan ozod qilgan edi<sup>218</sup>.

Poytaxt Samarqandning farovonligi aholining turmush-hayotidagina emas, balki islomiy ilm egalari faoliyatida ham namoyon bo‘ldi. Al-Hidoyaning muallifi (Marg‘inoniy) avlodи bo‘lmish Samarqand shayx ul-islomi Abd ul-Malik shaxmat (shatranj ustasi) va oshiq o‘ynar hamda shoir edi<sup>219</sup>. Ya’ni u shariat man’ etmagan o‘yinlar ishqibozi edi. Temurning o‘zi O‘trorda (vafoti oldidan – tarj.) tavbaga kelgan paytida bu ikki o‘yinni rad etgan<sup>220</sup>.

Chig‘atoylardan tashqari barcha madaniy o‘lkalar aholisi Temurga soliq va o‘lponlar to‘labgina qolmay, balki uning harbiy yurishlarida qatnashganlar. Yurishlarda zabit etilgan mamlaratlar aholisidan olingan jangchilar ham ishtirok etgan. Asli Xurosonlik bo‘lgan Xofizi Abro‘ning ta’kidlashicha, Temur hech kimga xurosonliklarga ishonganchalik ishonmagan<sup>221</sup>. Binobarin, shubhasiz o‘sha manbaga

---

<sup>213</sup>

<sup>214</sup>

<sup>215</sup>

<sup>216</sup>

<sup>217</sup>

<sup>218</sup>

<sup>219</sup>

<sup>220</sup>

<sup>221</sup>

borib taqaluvchi ma'lumotlarga ko'ra Temur istilosiga jarayonida Xuroson ham boshqa o'lkalardan kam jabr ko'rmagan.<sup>222</sup>

### 3-bo'lim

#### ULUGBEKNING BOLALIK DAVRI

Temurning nabirasi, Shohrux Mirzoning to'ng'ch o'g'li Ulug'bek 1394-yilning 22-marti (xijriy 796-yil<sup>223</sup>) jumod al-avval oyining yakshanba 19 kuni Temurning Eron va G'arbiy (Old) Osiyo o'lkalariga besh yillik katta yurishi kunlari Sultoniya shahrida dunyoga keldi. Shu kabi yurish paytlarida ko'pincha Temur, unga doimo hamrohlik qiladigan xotinlaridan tashqari, qo'shin bilan birga yuradigan ug'rukning<sup>224</sup> (karvonning) bir bo'lagini, uning tarkibidagi boshqa xotinlari bilan birga Sultoniyada qoldirar edi. Ug'ruk Sultoniyada 11 oy turgan<sup>225</sup> 1393-94-yilda ham shunday bo'jdi. Ana shu manzilda 17 yoshli eri Shohrux Mirzodan xomilador, bobosi bir vaqtlar Chingizxonni o'limdan saqlab qolgan Qishliqning<sup>226</sup> avlodi bo'lmish Chig'atoy ulusi ulug'laridan biri G'iyyosiddin taxxonning qizi Gavharshod ag'oning ko'zi yoridi. O'sha G'iyyosiddin taxxonning yana ikki qizi 1392 yilda Umar shayxning ikki o'g'liga uzatilgan edi<sup>227</sup>. Shohrux Gavharshod og'aga 1388 yili uylangan edi<sup>228</sup>, biroq

---

<sup>222</sup>

<sup>223</sup>

<sup>224</sup>

<sup>225</sup>

<sup>226</sup>

<sup>227</sup>

<sup>228</sup>

Gavharshod uning birinchi xotini bo‘lganmi – ma’lum emas. Temur hayot vaqtiga oid manbalarda Shohruxning bu xotini to‘g‘risida biror ma’lumot uchramaydi<sup>229</sup>.

Shu vaqtda harbiy harakatlar Mesopotamiyada borayotgan edi. 1394 yil 16 aprel, payshanba kuni Mardin shahri Temurga bo‘ysindi. Ertasi juma kuni Sultoniyadan Saroymulk xonim nomidan elchi baxtli voqeа xabarini yetkazdi. Ushbu voqeani nishonlab Temur zabit etgan Mardin shahri aholisiga himmat ko‘rsatdi, xatto bitimga muvofiq shaharni tovon puli (kontributsiya)dan ham ozod qildi. Yangi mehmonga Muhammad Tarag‘ay<sup>230</sup> ismi berildi, biroq Temur hayot vaqlariyoq bu ism Ulug‘bek, ya’ni “beklarning ulug‘i”<sup>231</sup> tahallusi soyasida qolib, deyarli ishlatilmas edi. “bek” so‘zini (grammatik shakllarda beg- -tarj.), ko‘rib o‘tganimizdek, Temur davlatida turkiylar ishlatishar edi. Forslar esa mazkur mavqe bilan teng maqom nomini *amir* so‘zi bilan ifodalashgan. Temurning o‘zini ham *amir* deb ulug‘lashgan. Chig‘toyi lashkarboshilarning ba’zan sorsiy tilli tarixiy asarlarda keltirilgan so‘zlarida Temur haqida “*buyuk amir*”<sup>232</sup> iborasi qollangan. Bordiyu, “*buyuk amir*” sozi bek so‘zining turkiy tarjimasi bo‘lsa, demak bu “ulug bek”<sup>233</sup> iborasiga teng keladi. “Ulug‘bek” unvoniga Temurning o‘zagina loyiq bolgani holda Shohruxning o‘g‘liga u unvon berilganva bu unvon murg‘ak paytlaridayoq uning asl ismi o‘rnini bosgan, bu haqda biz hech qanday ma’lumotga ega emasmiz.

Sharafiddin Ali Yazdiy Ulug‘bekning bolaligi haqida o‘sha 1394 yilda Temurning boshqa kelinidan, Ulug‘bekning o‘gay onasidan tug‘ilgan Ibrohim haqida yozganchalik bat afsil ma’lumotlar bermaydi. Zero, Sharafiddin Ibrohim hukmiga berilgan viloyatda yashab ijod qilgan edi. Masalan, Ibrohimning

---

<sup>229</sup>

<sup>230</sup>

<sup>231</sup>

<sup>232</sup>

<sup>233</sup>

tug‘ilishi bilan bog‘liq hikoyada<sup>234</sup> u tug‘lishi bilanoq tarbiyasiga mas’ul etib tayinlangan otabekning ismi<sup>235</sup>, shu otabekning xotini, chaqaloqqa ko‘krak tutib boquvchi enaganing ismi qayd etilgan. Ulug‘bek haqida Temur tarixlarida bunday tafsilotlarni uchratmaymiz. Ulug‘bekning nomi qayd etilgan o‘rinlarda u bilan birga malika Saroy Mulk Xonim eslanadi. Aftidan, ukasi Ibrohimga homiylik Tuman aqoga topshirilgani singari, Ulugbekka homiylik qilish Saroy Mulk Xonimga ishonib topshirilgan ko‘rinadi. 1394-yilning may oyida malikalar va butun *uguruk* Armaniston va Kavkazortiga, Temur huzuriga chaqirilgan<sup>236</sup> va o‘sha yerda Ibrohim tug‘ilgan edi. Sentyabrdan ular Sultoniyaga qaytib kelishgan va bir muddat o‘tgach shu yerdan Temur huzuriga chaqirib olingan<sup>237</sup>. Bahorga chiqib, har ikkala malika bolalar bilan birga, 1394-yil kuzidan buyon Samarqandda turgan Shohrux huzuriga jo‘natilgan<sup>238</sup>. 1396-yilda bularning barchasi besh yillik urushdan qaytgan Temurni Xuzorda kutib olishgan<sup>239</sup>. Xindiston safari paytida Saroy Mulk Xonim va Ulug‘bek Temurni Kobulgacha kuzatib borishgan. Kobul yaqinidan 1398-yilda ularni Temur Samarqandga qaytarib jo‘natgan<sup>240</sup>. G‘iyosiddin Ali bu hikoyaga qo‘sadiki, Temur uchun suyukli nabirasidan ayrolik juda og‘ir bo‘lsa-da, ammo Hindistonning qaynoq iqlimi bolaning sog‘ligia xavfli bo‘lishidan qo‘rqan<sup>241</sup>.

1399-yil 30 mart yakshanba kuni malikalar va shahzodalai yurishdan qaytayotgan Hindiston fotixii Temurni Amudaryo bo‘yida kutib olishgan<sup>242</sup>. 1399-1404 yillrdagi “Yetti yillik yurush” vaqtida odatga ko‘ra malika va shahzoda *ugurukda* turishdi. Temur uchun cuyukli qishlik joyi hozirgi Yelisavetpol’sk guberniyasidagi Qorabog‘ edi<sup>243</sup>. Temur 1399-1400, 1401-1402, 1405-1404 qilgi qish fasllarini qorabog‘da o‘tkazgan. 1400- 1401 hamda

<sup>234</sup>

<sup>235</sup>

<sup>236</sup>

<sup>237</sup>

<sup>238</sup>

<sup>239</sup>

<sup>240</sup>

<sup>241</sup>

<sup>242</sup>

<sup>243</sup> (Hozrgi kunda Qorabog‘ Ozarbbayjon respublikasining ajralmas qismi – tarj.)

1402-1403-yillarda malikalar va shahzodalar uzoq vaqt Sultoniyada turishdi<sup>244</sup>.

1403-yili Ukug‘bek va yana ba’zi shahzodalar Temurni Arzirumda kutib olishdi<sup>245</sup>. Ulug‘bekning hayoti davomida G‘arb tomonga yetgan oxirga manzili shu bo‘lsa kerak. 1404 yilda malikalar va shahzodalar Feruzko‘h yaqinidan, ko‘p o‘tmay Temurnng o‘zi ham yetib kelgan Samarqandga jo‘natilgan.

Ulug‘bekning hayratomiz xotirasi isboti uchun Davlatshoh keltirgan hikoya ayni o‘sha Qorabog‘ qishlovlari bilan bog‘liq<sup>246</sup>. Qorabog‘da Ulu g‘bekning bolalik o‘yinlaridagi o‘rtog‘i Temurning qissaxoni bo‘lgan bir kishining xoharzodasi (singlisning o‘g‘li) edi. 1448-yilda o‘sha bolalikdagi o‘rtog‘i, endilikda shayx Orif Ozariy darveshona kiyimda Ulu’bekni Xurosonda sharaflash uchun kelganda, uning birinchi so‘zlaridayoq tanib, “sen bizning qissaxonimiz singlisining o‘g‘limisan?” – deb so‘radi va o‘sha uzoq yillardagi birqalikda kechgan sarguzashtlarni eslab ketdi<sup>247</sup>.

Qorabog‘da turish, boshqa Ga‘rb o‘lkalari Ulug‘ber uchun bolalik yillari xotirasi bo‘lib qoldi. Hayotining ikkinchi o‘n yilligidan boshlab unga G‘arbda Astroboddan nari biror yerda bo‘lish nasib etmagan. 1404-yil kuzida temur Samarqandga qaytganda Samarqand atroflaridagi dabdabali ziyoftlar, bir vaqtning o‘zida bobosining saroyiga kelgan Ispaniyaning, Xitoyning elchilarini ko‘rish Ulug‘bek uchun qaytarilmas o‘smirlilik xotiralari bo‘lib qoldi. Klavixoning hikoyasidan ma’lumki, elchilar qabul marosimlarida kichik yoshli shahzoda nabiralarining vazifalari elchilar qo‘lidan hukmdorlarining yorliqlarini olib, Temurga yetkazish va elchilarini Temur taxti oldiiga olib kelish bo‘lgan<sup>248</sup>. Temur mazkur triumfal (g‘labalar sharofati bilan) tantanalar bilan birga o‘zining eng rattasi 17, eng kichigi 9 yoshda bo‘lgan<sup>249</sup> besh nafar nabiralarining to‘ylarini o‘tkazgani haqida eslamaydi. Ular qatorida 10 yosgga

---

244

245

246

247

248

249

kirgan Ulug‘bek ham bor edi. Uning zavji (jufti xaloli) amakivachchasi Muhammad Sultonning qizi Oq‘a begin<sup>250</sup> edi. Shunda u necha yoshda edi – malumot yo‘q. Sharafiddin to‘y marosimini bat afsil tavsiflagan. Shayx Shamsiddin Muhammad al-Jaziriy xutba o‘qigani haqida eslatiladi. Bu Siriyalik olim usmonli Sulton Boyazid davlatida Bursa shahrida yashar edi. 1402 yilda Temur askarlari tomonidan asir olingan<sup>251</sup>. Nikoh marosimini Samarqand bosh qozisi Saloh ad-Din o‘tkazdi. Nikohlanuvchilarining roziliklarini so‘rab javoblarini eshitdi va e’lon qildi. Nikoh rasmiyatidan keyin mo‘g‘ulcha rasm-rusum asosida ziyo fat berildi: qadahlarda may, kosalarda qimiz va boshqa ichimliklar tortildi<sup>252</sup>. Tarixchi (Sharafiddin – tarj.) ishontiradiki, go‘yo to‘yi bo‘lgan bolalar ertasi kuni tundayoq nikoh munosabatlariga kirishib ketishgan emish va keying kuni Temurning o‘zi ularning xonalariaga borib ko‘rgan emish<sup>253</sup>. Lekin bu gap ishonchli emas. Voqealar davomidan ma’lumki, Ulug‘bek va ukase Ibrohim (u ham besh nafar to‘yi bo‘lgan nabiralardan biri edi) to‘ydan keyin ham murabbiyalari nazoratida qolishgan va Temurning vafotidan keyingina ajralishgan.

1404-yilning 21-noyabrida Samarqandni tark etgan Klavixo<sup>254</sup> Temurning harbiy tayyorgarligi va oxirgi harbiy yurishi haqida hech narsa yozmaydi. Holbuki, Temur Ispaniya elchiligi jo‘nab ketishidan olti kun o‘tib, 27-noyabr, payshanba kuni<sup>255</sup> Samarqanddan yo‘lga chiqdi. Klavixo tasavvurida Temur “Etti yillik urush” dan qaytgach Samarsandda qolgan va shu yerda vafot etgan<sup>256</sup>. Chunki ispaniyaliklar jo‘nashlari oldidan “ishonchli odamlar” dan Temyrni kasal, xatto o‘sal bo‘lib, o‘lim to‘shagida yotibdi, deb eshitgan ekanlar. Elchilar tahminicha, ularni tezroq ketkazishga harakat qilishganining sababi Temurning o‘limi haqida bilishmay qo‘ya qolishsin va

---

<sup>250</sup>

<sup>251</sup>

<sup>252</sup>

<sup>253</sup>

<sup>254</sup>

<sup>255</sup>

<sup>256</sup>

yo‘llari tushgan viloyatlaru mamlakatlarda bu gapni tarqatib yurishmasin<sup>257</sup>. Aslida esa Temur o‘sha kunlarda allaqachon niyat qilib qo‘ygan ulkan tadbirga – Xitoy ustiga yurishga tayyorlanayotgan edi.

Temur taxtga kelishidan ikki yil avval, 1368 yilda Xitoyda davlat to‘ntarishi ro‘y bergen edi. Mo‘g‘ullar suloasi Xitoyni tark etishi kerak edi. Chunki milliy xitoy Min sulolasini taxtga kelgan edi. Poytaxt Pekindan, musulmon va yevropa mualliflari yozganlariga ko‘ra “xonning shahri” Xonbaliqdan Nankinga ko‘chirildi.

O‘rta Osiyo bilan Xitoy o‘rtasida serqatnov savdo-karvon munosabatlari mavjud edi. Sharafiddin karvon yo‘llarini batafsil tasvirlaydi<sup>258</sup>. Temur bilan Xitoyning yangi Min sulolasini birinchi imperatori o‘rtasida siyosiy munosabatla Temur tarixi manbalarida ham, Xitoy manbalarida ham mavjud. Bu masala Min tarixi manbalarida batafsilroq yoritilgan<sup>259</sup>. Ularda 1387 yilda Temur nomidan elchilik missiyasi haqida ma’lumot berilgan. Elshining ismi Mavlono Xofiz deb qayd etilgan, Elchi o‘ttiz bosh ot, ikki tuyani o‘lpon sifatida topshirgan<sup>260</sup>. Shu kabi otlar va tuyalar keyingi har bir yilda yuborib turilgan. 1392 yilgi sovg‘alr qatoriga to‘qimachilik matosi o‘ramlari ham qo‘shilgan. Ushbu elchilik bilan mo‘g‘ullar davrida Gansuga ko‘chirilgan 1200dan ortiqroq musulmonlar Samarqandga qaytarilgan. !394 yilda Temur Xitoyga 200 ot jo‘natgan. Shu munosabat bilan Temurning Xitoy imperatori nomiga yo‘llagan yorlig‘ining xitoy tiliga tarjimasi birinchi marta qayd etilgan. Xitouy imperatoriga yorliqning mazmuni va bayon uslubini “ma’qul bo‘libdi”. Qaysi bir yilda, yili aniq ko‘rsatilmagan, Temur Xitoyga 1000 bosh ot yuborgan emish<sup>261</sup>. Xitoy

---

257

258

259

<sup>260</sup> Xitoy an‘anasiga ko‘ra elchilar sovg‘lari tobe mammalakatning o‘lponi deb tushunilgan. Bu Xitoyning azalii ‘Osmon osti buyuk davlatchilik” g‘yasining ko‘rinishi edi. Temur Xitoyga tobe sifatida emas, teng diplomatic munosabatlarda turgan. V.V.Bartol’d ham sovg‘larni o‘lpon deb bilgan.– tarj.).

<sup>261</sup> Shu o‘rinda xitoy manbalarida mubolog‘a qilingan ma’lumotlar ko‘p uchrashini hisobga ollish lozim. Ayniqsa, “tobe” hisoblanganlar haqida shunday yozishgan. Holbuki mahalliy manbalarimiz bu ma’lumotlarni tasdiqlamaydi – tarj.

tomoni bunga javoban qimmatbaho toshlar va qog‘oz pullar jo‘natibdi<sup>262</sup>. Ma’lumki, Xitoydan birinchi elchilik Temur huzuriga 1395-yilda kelgan. Elchilarning ismlarii An’ Chji-dao va Go Tszi deb qayd etilgan<sup>263</sup>. Samarqandga elchilar Koshg‘ar va Farg‘na orqali emas, balki Yettisuv orqali kelgan. Xitoya qaytish bu elchilik taqdiriga Temur vafotidan keyingina bitilgan ekan.

Qizig‘i shundaki, mazkur elchilik Temur tomonidan 1397 yil oxirida Sirdaryo bo‘yidagi qishlov paytida qabul qilingan. Elchilar ko‘p miqdorda sovg‘alar topshirishgan, Temurning marhamatiga sazovor bo‘lishgan va ortlariga qaytishga ruhsat berilgan<sup>264</sup>. Agar biz Xitoy elchilarining (Temur huzurida) ushlab qolningani haqida Xitoy manbalari ma’lumotlaridan bexabar bo‘lganimizda edi, bu so‘zlarga ko‘ra Xitoy elchilar qaytib yurtiga ketishgan deb hisoblagan bo‘lar edik. Temur tarixining shu va boshqa o‘rinlarida Xitoy imperatori masxara ohangida “To‘ng‘izzon”, ya’ni “Chochqa podsho” deb atalgan. Bu laqabning qayerdan paydo bo‘lgani ma’lum emas. Klavixo keltirgan talqin esa boshqa manbalar orqali tasdiq topmaydi<sup>265</sup>. Shohrux va Ulug‘beklar davrida Xitoy bilan munosabatlар do‘stona tus olgan paytlarda mazkur masxaraomiz laqab ishlatilmaydi.

Elchilikning qamab o‘tirilishi, albatta do‘stona munosabatdan dalolat emas edi. 1398 yil voqealar haqidagi hikoyalardan ma’lumki, Temur Xitoya yurish qilishni va u yerdagi “butparastlarni”<sup>266</sup> qirib tashlashni niyat qilgan. Chunki,

---

<sup>262</sup> V.V.Bartol’d bu pullarni elchilar Xitoyning o‘zida sarflashgan bo ‘Isa kerae, deb tahmin qiladi.

<sup>263</sup>

<sup>264</sup> Sharafiddin Ali Yazdiy II, - B.11. (Hozirgi nashrga qarash kerak – tarj.). Bartol’d “poluchili pozvoleniye udalit’sya” deb yozadi. Bu ibora Sharafiddindan tarjima qilingan. Aslida udalit’sya so‘zi “Xitoya qaytish”ni emas, balki Hukmdor huzuridan chiqishga ruhsat ma’nosini bildirgan. Diplomatiya tarixida bu ibora qadimdan bo‘lgan. Masalan, Sug ‘d podshosi “Varhuman Chag’oniyon elchisi Burgzodaga huzuridan chiqishga ruhsat berdi. So‘ng Choch elchisi so‘z uchun og‘iz ochdi”. Afrosiyob devoriy suratlari orasidagi elchilik missiyalarining Varhuman tomonidan qabul qilinishi aks etgan lavhada saqlangan yorliq matnidan bizning tarjimamiz. Bartol’d bu elchilik Xitoya qaytarilmagani sababini izlab, Temur tarixlarida Xitoy imperatoriga nisbatan “To ng‘iz xon” (Cho‘chqa podsho) iborasi oaydo bo‘lgani ustida to‘xtaladi. O‘z navbatida Klavixo bu taxqir so‘zning kelib chiqishini sharhlagan. Ammo boshqa manbalarda buning tasdiqi yo‘q. Masala shundaki, 1397 yilgi ulug‘ davlatchilik da’volari bilan kelgan Xitoy elchiligi Temur tomonidan noxush qabul qilingan va ortga qaytishiga ruhsat berilmagan – tarj. .

<sup>265</sup>

<sup>266</sup>

Xitoydan mo‘g‘ullar quvilib, Min sulolası taxtga kelganidan keyin Xitoyda musulmonlarning ahvoli yomonlashgani Temurga ma’lum edi. Buning ustiga Xitoy sulolası asoschisining musulmonlarga dushman kayfiyati haqida borttirilgan ma’lumotlar kelib turar edi. Masalan, 1399 yilda Temur Qorabog‘da qishlovda ekanida Xitoy imperatorining vafoti haqida yetib kelgan xabarga qoshimcha ravishda imperator arzimagan sababni bahona qilib 100 000 musulmonni qirib tashlagani va o‘z mamlakatida umuman musulmonchilikni butunlay y’oq qilgani aytilgan edi<sup>267</sup>. Klavixoning ma’lumoti<sup>268</sup> va xitoy manbalariga ko‘ra Xitoy imperatori Temur davlatidan o‘lpon talab qilishi baxslarga sabab bo‘lib turgan edi. Bundan tashqari Temurning Xitoyda mo‘g‘ullar hokimiyatini tiklash niyati bo‘lganmidi, noma’lum. Ammo Temurning mo‘g‘ul Chingiziylar bilan aloqalari bo‘lgan, biroq manbalarda bu aloqalar haqida ma’lumotlar g‘oyat kam va ziddiyatlardan xoli emas. Mo‘g‘ulmanbalari bilan ba’zi musulmon manbalarini solishtirib, xulosa qilish mumkinki, temur saroyida Mo‘g‘ulistondan qochqin xon Uljay Temur amir Temur saroyida yashagan. Temur vafot etgandan keyin mulkiga qaytgan va tez orada o‘z fuqarolari tomonidan o‘ldirilgan<sup>269</sup>. Temurning bu xonni Xitoya imperator qilib, Min sulolasini ag‘darish niyati bo‘lganmi – bu haqda manbalarda hech narsa deyilmaydi. Amir Temur Xitoy yurishiga chiqqan paytda xon Uljay Temur uning yonida bo‘lganmid, xatto bu ha ma’lum emas<sup>270</sup>. Sharafiddin esa Temur huzuriga safar qilib, Mo‘g‘ulistonga qaytgan boshqa shaxs, Uljay Temurning vorisi Taydli O‘g‘lon haqida yozadi. Sharafiddin aytishicha, Taydji O‘g‘lon Kobulga, Temur huzuriga 1398 yilda kelgan. Shu voqealara arafasida u “qoonga qarshi bosh ko‘targan va qalmoqlardan qochgan”<sup>271</sup>. Sharafiddin foydalangan manbalar ham shu voqealar bilan bog‘liq Taydji O‘g‘lonning kelishuni eslatadilar, ammo uni faqat Xitoydan kelgan elchi deb ta’riflaydi<sup>272</sup>. Sarafiddin yozishicha, Taydji O‘g‘lon

---

267

268

269

270

271

272

1404-yili Samarqandda Temur huzurida<sup>273</sup>, 1405 yil boshida O‘trorda bo‘lgan<sup>274</sup>.

Biroq Xitoy safarida unga biror vazifa yuklanganmi, bu haqda Sharafiddin biror narsa demaydi. Qaysi sharoitda va qachon Taydji O‘g‘lon Tmeur qo‘sini tark etigani ham Sharafiddinning hikoyasidan anglashilmaydi. Xitoyda mo‘g‘ul imperatorlari haqidagi bobida Sharafiddin islomni qabul qilgan Taydji O‘g‘lon Temurning vafotidan keyin qalmiqlar tomon qochib, ularga xon bo‘lgan, ammo bir necha kun o‘tgach o‘ldirilgan.

Temurning so‘nggi yurishi bilan bog‘liq siyosiy rejalaridan faqat shu ma’lum ediki, u Movarounnahrdan Sharqdagi Xitoy chegaralarigacha bo‘lgan hududlarda ikki yangi mulk tuzmoqchi bo‘lgan edi. Shu vaqtga qadar Temurning istilochilik harakatlari faqat Old Osiyo tomonga yo‘nalgan edi. Movarounnahrga qo‘sni Sharq tomondagi mog‘ollrga qarshi esa asosan chopqinlar va bosqinlar uyushtirilar edi. Farg‘ona avvaliga Umar Shayx, keyin uning o‘g‘li Iskandar hukmida chegara mulk edi. Temurning Mo‘g‘liston tomon yurishlari Farg‘ona va Sharqiy Turkiston orqali emas<sup>275</sup>, balki shimoliy yo‘l orqali Sirdaryo viloyati va Ettisuv orqali amalga oshirilar edi. Xitoy yurishi uchun ham Temur ayni shu yo‘lni tanlahni ko‘zlagan edi. Shu maqsadda chegaralarni sharq tomonga kengaytirib, XIV asrda ro‘y bergen taloto‘p davrida vayron bo‘lgan hududlarda dehqonchilik madaniyatini tiklashga qaror qilingan edi. 1397-98 yilning qishida Temur voris Muhammad Sultonga 40 000 lik qo‘sini berib, Ashparada<sup>276</sup> chegara qal’asi barpo qilish va dehqonchilikni tiklash vazifasini topshirdi<sup>277</sup>. Natijada chegara qal’asi yanada sharqroqda, Issiqko‘lda ham barpo qilindi. Muhammad Sulton bu chegara chizig‘idan foydalanib, mog‘ollar bilan kurash olib borishni mo‘ljallagan edi. Biroq uni bu ishdan to‘xtashga majbur qilib, shahzoda Iskandar Muhammad Sultonning Ashparadagi kuchlari yetakchilarini ham jalb qilgan holda, Farg‘onadan Sharqiy Turkiston tomonga g‘olibona yurish boshladi.

---

<sup>273</sup>

<sup>274</sup>

<sup>275</sup>

<sup>276</sup> Podshoik Rossiysi mustamlakachiligi davri ma’muriy bo‘linishi bo‘yicha Ashpara Sirdaryo viloyati bilan Ettisuv o‘lkasi chegarasida joylashgan edi – tarj.

<sup>277</sup>

Iskandarning bu o‘zboshimchalik bilan qilgan harakatlari<sup>278</sup> ikki shahzoda o‘rtasidagi, biz yuqorida aytib o‘tganimiz to‘qnashuvga sabab bo‘lgan shekilli. Muhammad Sulton va Iskandar G‘arba ketishgach, na Farg‘onada va na shimoli-sharqiy hududlarda bir muddat shahzodalardan birortasi turmadi. 1402 yilda “Turkiston chegarasi”ga Halil Sulton yuborildi<sup>279</sup>. Xitoy yurishi oldidan Temur chegara mintaqasini Shohrux Mirzoning norasida o‘g‘llariga topshirishga qaror qildi. Ulug‘bekka Toshkent, Sayram, Yani (Avliyo ota<sup>280</sup>, hozirgi Taroz), Ashpara va Xitoygacha bo‘lgan Mog‘liston yerlari tegdi. Ibrohim Koshg‘ar va Xo‘tan bilan birga Farg‘onaga ega bo‘ldi<sup>281</sup>. Biroq shahzodalar ularga atalgan mulklarga ketishmay, bobolari qarorgohida qolishaverdi.

Mog‘ollar uning nabiralariga bo‘ysinmasliklarini va yig‘ib tashkil qilgan 200000 lashkari<sup>282</sup> Xitoya yetmay turiboq, O‘rta Osiyoda mog‘ollar bilan jang qilishiga to‘g‘ri kelishini Temur bilar edi. Yurish rejasi haqida qo‘shin qismlarining joylashtirilishi asosida fikr yuritish mumkin. Asosiy kuchlar o‘ng qanotga, qishlov o‘tkazilgan Shohruxiya, Toshkent va Sayramga to‘plangan edi. Qo‘shin boshida Mironshohning o‘g‘li Halil Sulton va Umar Shayxnig o‘g‘li Ahmad turgan edi. Qoshinning so‘ol qanoti temurning nabirasi, qiziining o‘g‘li Sulton Husayn boshchiliguda Yassi va Savronda joylashgan rdi<sup>283</sup>. Temurning o‘zi qo‘shining markaziy qismi bilan dekabr oyini Oqsulotda o‘tkazib, shu oyning 25-kuni<sup>284</sup> O’tror tomon yo‘lga chiqdi va 14-yanvar 1405-yilda<sup>285</sup>, u yerga yetib keldi. Farg‘onada harbiy qismlar to‘plangani, Ashpara va Issiqko‘lda turgan bo‘linmalar, ulardagi asksrlar soni haqida ma’lumotlar yo‘q.

1404-1405-yilning qishi Turkistonda bo‘ladigan qishlarning eng qahratoni bo‘lgan. Dekabrdan fevralga qadar Amu va Sirdaryo kechuvlari muz bilan

---

278

279

280

281

282

283

284

285

qoplangan edi<sup>286</sup>. Qarib qolganiga qaramay, Temur qishki safar qiyinchiliklarini tiyrak va sog‘lom o‘tkazar ekan, umrining poyoni yaqinligi xayoliga ham kelmas edi. O‘trorda Oltin o‘rdadan qochgan To‘xtamishning elchisini qabul qilib, Xitoy urushidan qaytgach yana G‘arbga yurish qilishga va To‘xtamishni taxtga qaytarishga va’da ham berdi<sup>287</sup>. Temurning dardga chalinishi va o‘limiga asosiy sabab isinishga harakat qilib, haddan ziyod may ichgani bo‘lsa kerak<sup>288</sup>.

1405-yil 18 fevral, chorshanba kuni ro‘y bergan voqealar Temur tashkil qilgan sultanat taqdirida hal qiluvchi ro‘l o‘ynadi. Tog‘ qishlog‘i Bog‘istonda 1404 yilda tug‘ilgan Xoja Ahror, uning tug‘ilishi va otasi bu munosabat bilan tashkil etgan 1405 yilda qilgan ziyofat haqidagi hikoyalarda aytlishicha, ayni ziyofat chog‘ida Temurning vafoti xabari yetib kelgan ekan. Shunda shunday vahima ko‘tarilibdiki, odamlar qozondagi osh-ovqatni tashlab tog‘larga qochib ketishibdi<sup>289</sup>.

Bu hikoyaning amalda haqiqatga yaqinligi, albatta shubhali. Lekin bu hikoya 1405-yilning fevral-mart oylarida, to taxt vorisligi masalasi hal bo‘lgunicha Movarounnahr aholisining ruhiy holatini aniq ifodalaydi. Temur vafotidan keyin vorislarining marhum hukmdorning irodasiga itoati Chingizzon vafotidan keyin vorislarining itoatichalik bo‘lmadi<sup>290</sup>. Temur taxt vorisi qilib Pirmuhammadni tayin qilgani ma’lum edi. temur vafoti haqida xabarolingach, bu vorisni hech kim hukmdor sifatida tan olmadi, unung nomidan pul ham zarb qilinmadni. Viloyatlaydagi har bir noib xutbada ham, tangalarda ham Temur nomini o‘zining nomi bilan almashtirdi. 1-mart kuni<sup>291</sup> otasining vafoti xabarini olgach Shohrux ham shu yo‘lni tutdi. Temurning irodasini muqaddas bilib ado etishga qasam ichgan Amir Shohmalik va Shayx Huriddin kabi O‘trorda turgan qo‘sishin qo‘mondonlari ham Pirmuhammadni qo‘llab quvvatlamadilar.

---

<sup>286</sup>

<sup>287</sup>

<sup>288</sup>

<sup>289</sup>

<sup>290</sup>

<sup>291</sup>

Pirmuhammadning Qandahordan tezda yetib kelishiga umid qilish qiyinligidan kelib chiqib, Temurning xotinlarini kichik yoshli bolalari bilan Samarqandga jo‘natayotib, lashkarboshilar Samarqand darvozasini Shohruxga oolib berishni maslahat berdilar<sup>292</sup>. Bir muddat Temurning vafotini yashirib turish va harbiy yurishni davom ettirish mo‘ljallangan edi. (Mayit Samarqandga yashirin jo‘natildi). Qo‘shin O‘trordan chiqib, besh farsah sharqda joylashgan qishloq tomon yurdi<sup>293</sup>. Shu yerda markaz bilan so‘l va o‘ng qanot birlashmog‘i lozim edi. Sharafiddinning so‘zlariga qaraganda, lshkarboshilar Samarqandga Xitoyni poymol etib, ship-shiydon qilgachgina qaytishni niyat qilganlar<sup>294</sup>. Shohrux tarixinining mullifi noma]lum manbasida ko‘rsatilishicha birinchi galda eng yaqin maqsad mog‘ollarga zarba berish hamda Shohrux farzandlariga Temur hayotligida in’om etilgan yerlarni bog‘lab berish bo‘lgan<sup>295</sup>. Harbiy harakatlar maydoni Ulug‘bekka berilgan mulk hududlari bo‘lmog‘i ko‘zda tutilgan. Bu orada Ulug‘bek Temurning xotinlari bilan birga Samarqandga jo‘natilgani holda, Ibrohim Sulton qo‘shin bilan qoldi. Qo‘shin shu shahzoda bilan birga Sharq tomonga harakat boshlagan edi. Barcha bolinmalar birlashganidan keyin bosh qomondonlik Halil Sultonga topshirilishi lozim edi.

Temurning vafotini yashirishga qanchalik urinilmasin, qo‘shinning o‘ngu so‘l qanotlari O‘trordan darakchi kelgunicha allaqachon bilib bo‘lgan edi. Ikki qo‘shin boshida turgan shahzodalar yurishni davom ettirish o‘rniga, vaziyat taqozosi deb, qo‘llaridagi lashkardan taxt uchun bo‘lajak kurashda foydalanishni g‘animat bildilar. Sulton Husayn, aftidan, so‘l qanot qo‘shin tomonidan qo‘llab quvvylanishiga ishonmay, o‘ziga ishonib topshirilgan qo‘shin qanotini tark etib, 1000 kishilik bo‘linma bilan Samarqand tomon shoshildi. Uning harbiy qismi boshliqsiz qolib, tarqalib ketgan bo‘lsa kerak<sup>296</sup>. Bundan xabar topgan markaz qo mondonlari yurishni to‘xtatishga qaror qildilar, bu haqda ma’lum qilish uchun

---

292

293

294

295

296

malikalarga hamda Toshkentga choparlar yuborishdi. Malikalar borib yetgan yerlarida to‘xtab, lashkarni kutishlari kerak edi. Qo‘sinning o‘ng qanoti Samarqand tomon yo‘lga tushib, avvaldan kelishilgan yerda markaz bilan birlashmog‘i lozim edi<sup>297</sup>. Qo‘sinning markaz qismi o‘tishga va oldinlab ketgan malikalar hamda murg‘ak shahzodalarga yetib ulgurishlari bilan Sirdaryoning muzi sinib parchlanib ketdi. Shunda Toshkentda qo‘sinning o‘ng qanoti barcha bo‘linmalari qo‘mondonlari shahzoda Ahmad boshchiligida Halil Sultonga qasamyod qilganlari haqida xabar keldi.

1384 yilda tug‘ilgan Mironshohning o‘g‘li Halil Sulton Muhammad Sulton kabi “xon qizining o‘g‘li, Ulug‘bek singari Saroy Mulk xonim tarbiyasida ulg‘ayayotgan edi<sup>298</sup>. 1399 yili Xindiston ga‘zovoti paytidayoq o‘zining harbiy jasorati va salohiyatini namoyon etishga ulgurgan edi. O‘sha vaqtdan boshlab Halil Sulton Temurning eng suyukli nabirasi ekani va uning buyuk kelalajagi haqida gaplar tarqala boshlagan edi<sup>299</sup>. Uning “yetti yillik urush”dagi ishtiroki va “Turkiston chegaralari”ga jo‘natilgani haqida yuqorida aytib o‘tgan edik<sup>300</sup>. 1404 yilda Halil Sulton sevimli qiziga ruxsatsiz uylangani bilan Temurning g‘azabiga uchragan edi<sup>301</sup>. Shunga qaramay, Temur bu shahzodani juda qadrlagani sababli unga qoshinning muhim qismlarini ishonib topshirgan. Natijada dushman ustidan g‘alabaga erishgach, (Halil Sulton) Temur xonardonida kam uchraydigan darajalarda xayru saxovatlar ko‘rsatar edi. Sharafiddinning so‘zlariga zid o‘laroq, balki shuning uchun Halil Sultonni hukmdor deb e’lon qilganlar taxt uchun kurashlarga chek qo‘yishdan tashqari chindan taxtda uning o‘tirishini xohlashgandir.

Halil Sultonga qasamyod qilingani qo‘sinning markazi qomondonlari va o‘ng qanot o‘rtasida tortishuvlarni keltirib chiqardi. Markazchilar o‘ng qanotni, bular esa markazchilarni Temurning irodasini buzganlikda ayblardilar. Birirnchi

---

297

298

299

300

301

tomon Temur irodasiga bosinishlarini, lekin Halil Sultonga qasamyod vaqtincha chora deb oz'larini oqlashga urinishar edi. Xatto Toshkentda Pirmuhammadga qasamyod ham qilishdi. Ahdnomaga Halil Sultonning o‘zi ham imzo va muhrini bosgan holda chopar orqali Shayx Nuriddin hamda Shoh Malikka, undan zudlik bilan Pirmuhammadga topshirish buyurilgan<sup>302</sup>. Sharafiddin bu harakatlarni munofiqlik (ikkiyuzlamachilik) edi deb yozgan. Biroq tarixchi keltirgan ma’lumotlarga qaraganda, Shohmalik boshliq raqib tomonda Pirmuhammadning “huquqi” haqida umuman qayg‘urishmagan. Qo‘shtining markaz qismi o‘ng qanotga ergashmay, Pirmuhammadga qasamyod qilmadi. Toshkentdan jonatilgan choparni Shayx Nuriddin hamda Shoh Malik qarorgohida ushlab qolindi va u mart oyida ham Buxorodan chiqib ketmagan edi<sup>303</sup>.

Shayx Nuriddin va Shoh Malikning maqsadlari imkon qadar tezroq poytaxtni egallash, bu bilan Halil Sulton va uning qo‘shtini harakatlariga to‘sinqinlik qilish edi. Bunga erishildi ham: Halil Sulton qo‘shtinlari Sirdaryodan o‘tishi uchun Shohruxiyadan yuqoriroq joy belgilanib, qayqlardan iborat ko‘prik qurilgan edi. Qo‘shtin ko‘prikdan uch bo‘lak holda: ilg‘or Burunduq boshchiligidagi birinchi, asosiy qism Halil Sulton boshliq ikkinchi bo‘lib, dum qismi esa uchinchi bo‘lib Halil Sultonning sobiq otalig‘i, anchadan buyon undan ta’na-malomatlarga qolib yurgan Xudoydod Husayniy boshchiligidagi<sup>304</sup> o‘tishi kerak edi. Shayx Nuriddin hamda Shoh Malik bilan kelishilgan holda o‘z qismini o‘tqazib olgach, Burunduq ko‘prikni buzib tashladi. Xudoydod Husayniy o‘z qismi bilan Halil Sultondan ajralib, Ochiq Parkant tomonga ketdi<sup>305</sup>.

Ayni shu vaqtida Temurning Xitoya yurishi maqsadini davom ettirishga qoldirilgan qo‘shtining markaz qismi ortga qaytib, hech qanday to‘sqliarga uchramagan holda Samarqandga tomon harakatda edi. Ulug‘bekning Shoh Malik boshliq o‘ng qanoti, Ibrohimning Shayx Nuriddin boshliq so‘l qanoti Oqsulotdan

---

302

303

304

305

Qurchuq dovonigacha bomaylixotir, bemalol harakat qilishdi. Shu vaqt dan boshlab Soh Malik to 1411 yilgacha Ulug‘bekning homiysi bo‘lib qoldi. Bu lavozimlar Temur hayotligida tayin etilganmidi yoki yoq -bunisi ma’lum emas.

Shoh Malik va Shayx Nuriddinlar<sup>306</sup> avvaldan Samarqand voliylari bilan kelishmagan holda qo‘sinni Samarqand ostonasigacha olib kelishga botina olishmadni. Dovonga yetganda Shoh Malik qo‘sindan ajralib, Samarqand tomonga yo‘l oldi. Shu vaqt da Samarqand Temurning o‘zi tayin etgan Arg‘un shoh va Temurning jasadini O‘trordan olib kelgan Xoja Yusuflar nazoratida edi. Bular qat’iy turib Shoh Malikni Samarqandga kiritishmadni. Devor orqali xabar chqarib, taxtga qonuniy voris o‘tirgandagina shahar topshiriladi, deyishdi. Shoh malik ushbu javobni olib qo‘singa qaytib keldi. Bu orada qo‘sishin Zarafshondan shimol tomondagi Aliobod qishlog‘ga yetib kelgan edi<sup>307</sup>. Yana bir urinib ko‘risgga qaror qilindi. 3-mart seianba kuni avval Shohmakbk borgani Sungari Shayx Nuriddin samarvand sari yo‘lga tushdi. Darvoza oldiga kelib, muzokaralar uchun yonida odamlarisiz uni shaharga kiritishni so‘radi, ammo rad javobiyb oldi. Shundan keyin Sohruxning o‘g‘llaridan tashqari barcha shahzodalarni va malikalarni Samarqandga jo‘natishga qaror qilindi. Shundan keyin Shoh Malik va Shayx Nuriddin Ulug‘bekni, Ibrohimni hamda Temurning pullardan tashqari kiyim-kechak va qurol-aslahalari bo‘lgan<sup>308</sup> xazinasini olib, Buxoroga borishlari va unda mustahkamkanishlari lozim edi. Halil Sultonga xiyonat qilgan ilgor qismning boshlig‘i, akasi Buxoroda noib bo‘lib turgan<sup>309</sup> Rustam, Aliobodda ularga kelib qo‘shilgach, endi qarshilikka uchrmasliklariga ishonganlar<sup>310</sup>. Buxoro hajman Samarqanddan qolisgmas edi<sup>311</sup>. Sharafiddinning so‘zlariga ko‘ra amirlar Buxorodan Pirmuhammad huzuriga borishni mo‘ljallashgan. Bundan ham ko‘proq ular Shohrux bilan muzokaralarga kirishmoqni ko‘zlaganlar<sup>312</sup>.

---

306

307

308

309

310

311

312

5-mart<sup>313</sup> payshanba kuni qo'shin Alioboddan chiqdi. Bundan buyon Ulug'bek boshqa malikalar bilan Samarqandga jo'natilgan murabbiyasi (Saroy Mulk xonim) bilan umuman xayrashmog'i lozim edi. Keyingi kuni qo'shin Dobusiyaga yetib kelgan edi. Bu yerga Samarqanddan xabarchi keldi. Amir Shoh Malik va Shayx Nuriddinlarga ularni qonuniy voris kelmaguncha shaharga kiritilmagani sababini aytib, uzr izhori qildi va Halil Sultonga ham xuddi shu javob berilishini bildirdi. Shundan keyin Shoh Malik va Shayx Nuriddinlar amirlar ko'rilgan chorani to'g'ri bo'lgan deyishdi, lekin Rustsmni avvalroq jo'natib, o'zлari (uning ketidan) Buxoroga yurishda davom etishdi. Ikki-uch kun o'tar-o'tmas, hali Buxoroga yetib ulgurmay Halil Sulton Samarqand yo'lida hech qanday qarshilikka uchramabdi. (Buning ustiga) Sheroz qishlog'idayoq uni Samarqandning ulug'lari kutib olishibdi. Arg'un Shoh Zarafshon daryosi bo'yida Halil Sultinga shahar va qal'a va temur xazinasining kalitlarini topshiribdi<sup>314</sup>. Yangi hukmdorning Samarqandga tantanali kirish marosimi sal keyinroq, munajjim Badr ad-Din belgilab bergen 18-mart, chorshanba kuni bo'lib o'tdi<sup>315</sup>.

Sharafiddin Ali Yazdiyning ma'lumotiga ko'ra, Samarqand voliylari avval boshdanoq, Halil Sulton bilan kelishgan holda harakat qilishar edi. Bunday qarorga kelish shaharni Halil Sultonga topshirish masalasi, aftidan Toshkentda turgan qo'shining isyonи, Shoh Malik va Shayx Nuriddinlarning fitnalari ta'sirida ro'ybergan bo'lishi mumkin. Mazkur amirlarning bo'lajak taxt uchun kurashlarida Buxoroni qo'liga kiritgan holda undan tayanch nuqta sifatida foydalanishni ko'zda tutgan nayranglari ham alohida rol o'ynadi. Halil Sulton Sirdaryo ko'prigini tiklashga erishib u daryodan o'tgan paytida qo'shining ilg'or qismi qo'mondoni Burunduq Samarqanda Shoh Malikka berilgan zarbalar ta'sirida Halil Sulton huzuriga keldi va undan kechirim so'radi. Va shundan keyin Halil Sultonga qasamyod qildi. Unga tobe harbiy qismlar ham ibratiga qulq soldilar. Shoh Malik va Shayx Nuriddinlarning qo'shinchilari Alioboddan chiqib ulgurmasdanoq Aliobodga

---

313

314

315

bu xabar yetib kelgan edi<sup>316</sup>. Halil Sulton Samarcandni egallar ekan, Amir Temuring irodasiga hurmat yuzasidan Temuring vafot etgan vorisi Muhammad Sultonning o‘g‘li Muhammad Jahongirni “xon” deb e’lon qildi<sup>317</sup>. Aftidan, Temuring nabirasi Pirmuhammadning voris qilib tayinlangani undan avval Muhammad Sultonni voris etib e’lon qilinganichalik dovruq taratmagan shekilli<sup>318</sup>. Halil Sultonning bu qarori o‘ziga xos e’tiborli holat ediki, u birinchi bo‘lib “xonlik” martabasini Chingizzon urug‘idan Temur avlodlariga o‘tkazishga harakat qilgan edi.

Halil Sutonga Zarafshon daryosi bo‘yida topshirilgan Temuring xazinasini kaliti unga shaharning kalitidan ham muhimroq edi. O‘sha zamon kishilari uchun Temuring xazinasiga kim ega bo‘lsa, meros uchun kurashda o‘shaning qo‘li baland bo‘lishini va hatto ochko‘z chig‘atoylarning o‘zi tomonga og‘dirishi mumkinligi tushunarli edi<sup>319</sup>. Samarcandni egallagandan keyin Halil Sultonning imkoniyatlari yanada kuchaydi: O‘trordan Buxoroga Shoh Malik va Shayx Nuriddinlar olib kelgan, yurishlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan xazina ham, zabit etilgach, shahzodalar Ulug‘bek va Ibrohim Sutonga Temur taqsimlab berishni mo‘ljallagan Mo‘g‘liston ham, shahzodalarning shaxsiy buyumlari ham Halil Sultonning qo‘liga o‘tdi. Buxoro, o‘zlari kutganidek, Amir Shoh Malik va Shayx Nuriddinlarga qarshiliksiz bo‘ysundi<sup>320</sup>. Sharafiddin Ali Yazdiy hikoyasiga ko‘ra, shahzodalarning xazinasi joylashgan Buxoroga ega bo‘lish o‘ta muhim hisoblanar edi. O‘sha vaqtida Buxoro arki, X asrda bo‘lgani kabi ikki darvozaga ega edi<sup>321</sup> (hozir, ya’ni V.V. Bartol’d ushbu satrlarni yozgan paytda bиргина g‘arbiy darvoza mavjud – tarj.). Sharqiy darvoza bilan birga arkning yarmini Ulug‘bek va Shoh Maliklar egalladi. Arkning g‘arbini g‘arbiy darvoza bilan Ibrohim Sulton bilan birga Shayx Nuriddin qo‘lga kiritdi. Shaharning, uning darvozalari va minoralari bilan birga qo‘riqlash Rustam va uning birodari Hamza hamda boshqa qo‘mondonlarga topshirildi. Shahar mudofaa tizimini va arkni mustahkamlash choralarini ko‘rildi. Hofizi Abro‘ va

---

316

317

318

319

320

321

Abdurazzoq Samarqandiyilar hikoya qilishicha, Shohruh bilan Halil Sulton o‘rtasida tuzilgan shartnomadan ma’lumki, Ulug‘bek va Ibrohim Sultonlarga tegishli xazina o‘sha vaqtdayoq Samarqandda bo‘lgan. Biroq, xazina qachon Buxorodan olib ketilgani ma’lum emas. Noma’lum muallifga tegishli Shohruh tarixi kitobi<sup>322</sup> bu masalaga oydinlik kiritadi: Rustam Burunduq singari Halil Sulton tomonga o‘tib, shahar aholisini qurollantirdi va arkka hujum uyushtirdi, shu vaqtda har ikkala shahzoda bilan Shayx Nuriddin arkda edi. Shoh Malik esa o‘sha kuni Shohruxni Buxoroga tezroq kelishga ko‘ndirish uchun Xurosonga ketgan edi. Ikkala shahzodani o‘zi bilan olib Shayx Nuriddin, arkning va xazinaning taqdirini o‘z holiga qoldirib, hamrohlarsiz yolg‘iz qochib jon saqlagan. Xazinani esa bozor o‘g‘rilari talon-taroj qilgan<sup>323</sup>. Amudaryo tomon yo‘l ustida Shayx Nuriddin Shoh Malik bilan birlashdi. Daryo bo‘yiga yetkach, Shayx Nuriddin shahzodalar bilan birga Shohruh tomon shoshilinch jo‘nadi va u bilan Andxoy shahrida uchrashdi<sup>324</sup>. Amudaryo kechuvini qo‘riqlash uchun Shoh Malik sohilda qoldi.

Bu voqealar mart oyida bo‘lib o‘tgan edi, aprel oyidan boshlab Amudaryo bo‘yida harbiy harakatlar boshlanib ketdi. Noma’lum muallifning Shohrux tarixida<sup>325</sup> aytilishicha, ramazon oyida Halil Sulton Ko‘cha Malik<sup>326</sup> qishlog‘iga o‘tgan va u yerda ro‘zaning oxri (Iid ramazon) ni aprel oyi boshida bayram qilgan edi. U yerdan shavval oyining birinchi choragida Kesh viloyatining (Shahrисабз)<sup>327</sup> qishloqlaridan biriga borib joylashdi. shu yerdan turib, Halil Sulton Amir Shamsiddin, Xoja Yusuf, Mubashshar va Arg‘unshohlar boshchiligidagi o‘n ming kishilik harbiy tuzulmani Amudaryo bo‘yiga jo‘natdi. Bundan maqsad Shoh Malikdan Amudaryo kechuvida foydalanilgan qayiqlarni tortib olish va Diza kechuvini qo‘lga kiritish edi. Shoh Malik bilan birga besh yuz otliq bor edi, kuch kam bo‘lishiga qaramay u kechuvni qo‘lida saqlab qoldi. Yigirma kun davom etgan befoyda kurashdan so‘ng, Halil Sultonning roziligi bilan muzokaralar boshlandi<sup>328</sup>.

---

322

323

324

325

326

327

328

Aslida ushbu muzokaralarning boshlanishiga sabab boshqa edi, ya’ni Amudaryo bo‘yida, Shofirkon viloyatining qishloqlaridan birida<sup>329</sup> shubhasizki, kattagina qo‘sish bilan Shohrux Mirzo turgan edi. Shunga qaramay, Halil Sulton bilan Shoh Malik o‘rtasidagi muzokaralarda Halil Sulton o‘zini yengilgan deb hisoblamagan. Shu sababli, tinchlik sulhi o‘rnatish uchun Shoh Malik nomidan Shayx Nuriddin Halil Sulton huzuriga jo‘nadi. Shamsiddin va Arg‘unshohlar esa Shohrux Mirzo huzuriga jo‘nashdi. Shu o‘rinda, manbalarimizning tarixchi mualliflari Shohrux Mirzoga yon bosib xabarlar berishadi<sup>330</sup>. Halil Sulton nutqida uning tomonidan go‘yo Hirot hukmdori Shohrux Mirzoning ustuvor huquqlari tan olinganek qilib ko‘rsatishadi. Halil Sulton Shohrux Mirzoga shunday gaplarni yetkazishni buyuribdiki, Shohrux Mirzo Movarounnahri baribir ham o‘zining birodarlaridan yoki o‘g‘illaridan biriga topshiradigan bo‘lsa, nega axir Halil Sultonga bermasin, axir u ham begona emasku. Shohrux Mirzo bunga rozi bo‘ldi lekin Samarqandda saqlanayotgan Shohruxning o‘ziga uning o‘g‘illariga, Shoh Malik va uning sheriklariga tegishli bo‘lgan mol-mulkni qaytarish shartini qo‘ydi<sup>331</sup>. Biroq Halil Sulton 1405-yildan keyin zarb qilgan tangalarida Shohrux Mirzoning ustuvor huquqlarini aks ettiradigan biror belgi kiritmagan. Har holda Shohrux Halil Sultonga qarshi harbiy harakatlardan voz kechdi va unga Movarounnahri qoldirdi. Halil Sulton esa bundan ortig‘ini xohlamas edi, mol-mulkarni qaytarish haqidagi shart ham bajarilmadi. Shohrux tarixining noma’lum muallifi va undan foydalanib yozgan tarixchilar bu haqda hech narsa demaydilar. Biroq mazkur mol-mulkarni olish uchun jo‘natilgan elchilar safida bo‘lmish tarixchi Fasih Havofiy bu haqda alohida xabar bergen. Elchilarga mol-mulkni berish u yoqda tursin, hatto ularni Samarqandda bandi qilishga ham harakat qilingan. Biroq elchilar Samarqanddan qochishga erishib, bir kecha kunduz tinimsiz ot surishga majbur bo‘lishgan. Ikkinchikun o‘tib, elchilar Amudaryo kechuvidan oshib, Shohrux Mirzo huzuriga yetib keldilar<sup>332</sup>. Halil Sultonning bunday xatti-harakatiga, noma’lum muallifning

---

329

330

331

332

yozishicha, Shohrux Mirzoning Amudaryo bo‘yidan uzoqlashmay, birinchi qulay fursatdan foydalanib, Movarounnahrga bostirib kirish niyati sabab bo‘lgan ko‘rinadi. Mironshoh va Abubakrlarning g‘arbiy Erondan Xurosonga Halil Sulton bilan birlashish maqsadida yo‘lga chiqqanlari haqidagi xabar Shohrux Mirzoni bu niyatidan qaytishga majbur qilgan holat edi<sup>333</sup>.

Shundan keyingi yillar davomida Shohrux Mirzo va uning hukumati Halil Sultan bilan kurash olib bora turib, asl maqsadlaridan hech qachon voz kechmaganlar. Bu yo‘lda goh qurol bilan, goh diplomatic vositalar bilan harkat davom etgan. Ayniqsa, diplomatic vosita harbiydan ko‘ra ko‘proq ish bergen va ta’sirchanroq bo‘lgan. Samarqandning yosh hukmdori Halil Sulton bobosi Amir Temur va otasi singari makkor emas, balki soddadil va olivjanoblik xususiyatlari bor edi. Ba’zan, uning olivjanobligi soddalik va ishonuvchanlik darajasiga yetar edi. Hatto uning huzuriga kelgan dushmanlarini kechirar va ularga harbiy kuchlarni ishonib topshirar edi. Masalan, 1405-yil bahorida Shohrux Mirzodan Halil Sultonning Samarqanddagi barcha ishlaridan xabardor bo‘lish va har bir holatda uning qudratiga putur yetkazish bo‘yicha alohida maxfiy topshiriq olgan Shayx Nuriddinni qabul qilgan. Samarqandda Shayx Nuriddin qo‘liga qo‘shin topshirib shimol tomonga Amir Xudoydod isyonini bostirishga jo‘natgan. Shayx Nuriddin esa bir hafta o‘tib, uning ukasi Berdibek hokim bo‘lib turgan O‘tror shahrini bosib olgan<sup>334</sup>, binobarin, Amir Temurning joni mana shu Berdibek xonardonida uzilgan edi<sup>335</sup>. O‘trordan turib Shayx Nuriddin isyon ko‘targan Xudoydod bilan ham, Shohrux Mirzo bilan ham aloqalar bog‘lab turgan.

Sirdaryo ortida Xudoydoddan mustaqil holda Ashpara qo‘rg‘onining qo‘mondoni Allohdod isyon ko‘tardi. Amir Temurning vafoti haqida va Xitoyga yurish niyatidan qaytilgach, o‘z qo‘li ostidagi harbiy qism bilan kelishgan holda Ashpara qo‘rg‘onini tashlab chiqib ketdi<sup>336</sup>. Aprel oyi boshida Qulanchuk<sup>337</sup> bilan birga Halil Sultondan uning taxtga o‘tirgani haqida maktub oldi. Maktubda

---

333

334

335

336

337

Allohdod to unga Halil Sulton tez orada yuborishga va'da qilgan navbatchi bo'linma kelgunicha Ashparada qolib turishi buyurilgan edi. Ikkinci tomondan esa Xudoydod Allohdodga Ashparani tark etib, u bilan birlashishni taklif qilayotgan edi. Allohdod ayni shu taklifni qabul qildi. Qolaversa, Ashparaning tark etilishi Mog'olistonni zabit etish niyatidan ham voz kechmoqlik edi. Xudoydod esa allaqachon mog'ollar bilan sulh tuzib, Temur ulardan olgan barcha yerlarni qaytarib bergen edi<sup>338</sup>. Ashparadan ham avval, Issiqko'l bo'yidagi qo'rg'on ham tashlab ketilgan edi. Allohdod Ashparada qoldirgan kichik harbiy bo'linma ichida kelishmovchiliklar kuchayib, bu bo'linma ham Ashparani tashlab ketgan. Xudoydod va Allohdod birgalikda Mirzacho'l orqali Jizzax ustiga bosqin uyuştirib, Temurning otlari uyurini bosib oldilar. Allohdod u yerdan Samarqandga yurishni mo'ljallagan edi, Xudoydod bu yo'ldan uni qaytardi. Aslida Allohdoddan Halil Sulton Xudoydod bilan uning o'rtasini isloh qilishni iltimos qilgan edi. Allohdod bu taklifni avval rad etdi, Xudoydodga Halil Sultonning xatini ko'rsatib u bilan bitim tuzdi. Ammo bitimga xiyonat qilib, sherigini tashlab Halil Sulton huzuriga jo'nadi. Halil Sulton esa uni shu zahotiyog bosh amir (amir ul-umaro) etib tayinladi, Sirdaryo ortidagi barcha yerlar Xo'jand va Farg'ona Xudoydod qo'lida qoldi.

Bu voqealar aprel oyida ro'y bergen bo'lsa, may oyida Allohdod Shohruxning Pirmuhammadga qarshi urushida qatnashgan. Shohruxning Pirmuhammad bilan urushi Halil Sultonning xohishiga qarshi boshlangan edi. Chunki Halil Sulton Movarounnahr hukmdori bo'lib qolgani holda, Amudaryodan janubdag'i yerlarga hech qanday da'vosi yo'q edi. Pirmuhammad Halil Sultondan qanday huquq asosida Temur boshqa nabirasiga vasiyat qilgan yerga egalik qilayotgani haqida so'ragan paytida Halil Sulton shunday javob bergen edi: "Alloh taolo Amir Temurga hokimiyatni qanday bergen bo'lsa, menga ham shunday hokimiyat berdi"<sup>339</sup>. Shayxulislom Abdulavval Pirmuhammadni Xudoning irodasiga bo'ysunishga qanchalik undamasin, baribir u shayxga qulq solmadi<sup>340</sup>. Taxtning uchinchi da'vogari Sulton Husayin o'zining da'volaridan umid yo'qligiga avvalroq ishonch

---

338

339

340

hosil qilib, Halil Sulton bilan birlashdi<sup>341</sup>, Halil Sulton uni o‘ttiz ming askarga boshliq qilib Pirmuhammadga qarshi jo‘natdi. Ushbu yurishda Allohdod, Arg‘unshoh va boshqa amirlar qatnashdilar. Qo‘sishin 1405-yil may oyida yo‘lga tushdi va Balx shahrini egalladi<sup>342</sup>. U yerda bir kuni Sulton Husayin amirlarni huzuriga to‘plab ulardan ikkisini qatl qilishni buyurdi. Qolganlar, shu jumladan, Allohdod va Argunshoh yalinib-yolvorib, Sulton Husayinga xizmat qilishga va’dalar berib, jonlarini saqlab qolishdi. Sulton Husayin esa Samarqandga qo‘sishin tortdi. Halil Sulton 6-iyul kuni<sup>343</sup> Shahrисabzдан janubda joylashgan Chekdalik qishlog‘i yonida jangga kirishib, Sulton Husayin qo‘shinini tor-mor qildi. Jang paytida Allohdod va Argunshoh yana qaytib Halil Sulton tomonga o‘tdi. Halil Sulton qo‘sini dushmanni Balxgacha quvib borib<sup>344</sup>, bu shaharni ishg‘ol etdi, Sulton Husayinning barcha mol-mulki va haramini qo‘lga kiritdi. Sulton Husayin esa Aliobodga, Shopurakan va Andxoye hokimi, Temurning jiyani Sulaymonshoh huzuriga keldi va o‘ziga panoh topdi. Halil Sulton bu vaziyatga rozi bo‘ldi. Ammo Pirmuhammad Halil Sultondan yengilgan taxt da’vogari Sulton Husayinni topshirishni talab qilishda davom etdi. Talabi qondirilmagach, Pirmuhammad Sulaymonshohga qarshi uch ming kishilik otliq askar jo‘natdi. Sulaymonshoh Sulton Husayin bilan birga Shohrux huzuriga, Hirotga qochdi. Shohruxning fikricha, Pirmuhammad mutlaqo, Sulton Husayinni Sulaymonshoh Pirmuhammadga birinchi talabidayoq topshirishi kerak edi. Sulton Husayin qamoqqa tashlandi va keyinroq o‘ldirildi. Uning bosh chanog‘ining terisiga somon tiqib Pirmuhammadga jo‘natildi. Tanasining ayrim bo‘laklari Hirot bozoriga osib qo‘yildi<sup>345</sup>. Sulaymonshoh sovg‘a salomlar bilan Mironshoh va uning o‘g‘li Abubakrni o‘z mulklariga qaytishlarini so‘rab, g‘arbga jo‘natildi. Biroq bular Sulaymonshoh yetib borgunicha o‘z yurtlariga qaytib ketishgan edi. Sulaymonshoh yuborilgan sovg‘a-salomlarni o‘zlashtirib, Shohrux Mirzoga qarshi isyon ko‘tardi va Kelat shahrida mustahkamlanib oldi. Sulaymonshoh undan panoh izlagan Sulton Husayinning qatl etilishini o‘zining

---

341

342

343

344

345

sha'ni uchun ham haqorat deb e'lon qildi<sup>346</sup>. Isyonni bostirish uchun Shohruxning o'zi qo'shin bilan chiqishiga to'g'ri keldi. Uzoq muddatli kurashlardan keyin Sulaymonshoh Samarqandga qochdi<sup>347</sup>. Halil Sulton yaqindagina uning dushmaniga boshpuna bergen Sulaymonshohni qabul qildi va shundan keyin Pirmuhammad va Shohrux bilan bo'lgan urushda unga qo'shinining ilg'or qismini ishonib topshirdi.

Pirmuhammad Sulaymonshoh ustidan g'alaba qilib Balxni egallagach<sup>348</sup>, Halil Sulton tomonidan hech qanday qarshilikka uchramay, Movarounnahr uchun harakatlarda birlashish uchun Shohrux bilan muzokaralar boshladi. Shohrux bunga javoban, faqat bahorga chiqib harbiy yurishga otlanishi mumkinligini aytdi. Biroq o'zi xufyona Shopurgan va Andxoyga hokim qilib tayinlangan Ulug'bek boshchiligidagi ilg'or qismni Shoh Malik nazoratida harbiy yurishga jo'natdi. Shoh Malik Amudaryo ustidan ko'prik (qayiqlardan iborat bo'lsa kerak) qurishga erishdi va daryodan kechib o'tdi. Halil Sultonning chegara bo'linmalari boshliqlari bo'lmish Iso va Hizrxo'jalar asir olindi<sup>349</sup>. Ulug'bek ularning birini Pirmuhammadga, ikkinchisini Shohruxga jo'natdi<sup>350</sup>. Shoh Malikning bo'linmasi Qarshi va Huzorga yetib, ularning aholisini majburiy ravishda Amudaryoning janubiy sohiliga ko'chirdi. Bu bosqin haqidagi xabar Samarqanda vahima uyg'otdi. Buning ustiga Toshkentni egallagan Xudoydod mog'ollar bilan ittifoq tuzib, Samarqandga yurish qilishga tayyorlanmoqda edi. Shimoldan ushbu xavfga qaramasdan Halil Sulton shoshilinch Shoh Malikka qarshi yurish boshladi. Amudaryoga yo'l ustida ma'lum bo'ldiki, Xudoydod va mog'ollar o'rtasida janjal chiqib, Toshkent tomonidan Samarqandga yurish amalga oshmadi. Mog'ollar o'z yurtiga qaytib ketdi. Halil Sulton qo'shhinining asosiy qismi bilan Huzorda to'xtadi va u yerdan Amudaryo bo'yiga Sulaymonshoh boshchiligidagi o'n mimg kishilik qismni jo'natdi<sup>351</sup>. Ko'prik oldida Shoh Malik qoldirgan qorovul qism ustiga to'satdan hujum qilib, qayiqlarning bir qismini qo'lga kiritdi. Biroq Shoh Malik ham

---

346

347

348

349

350

351

jang maydoniga asosiy kuchlar bilan o‘z vaqtida yetib keldi va Amudaryo kechushi uning ixtiyorida qoldi. Sulaymonshohning iltimosiga ko‘ra, o‘zining harbiy qo‘shinlari bilan birga Amudaryo bo‘yiga keldi. Lekin kechuvni qo‘lga kiritishga erisha olmadi. O‘rtada jur’atsizgina jang bo‘lib, Halil Sulton Shoh Malik qarorgohiga Ulug‘bek uchun to‘nlar, belbog‘lar, sadoqlar (o‘qdonlar), qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan qilichlardan iborat sovg‘a-salomlar bilan sulh uchun elchilar jo‘natdi<sup>352</sup>. Bitimga muvofiq, Halil Sulton Samarqanddagi Shohruxga, uning o‘g‘illariga hamda Shoh Malik va uning yaqinlariga tegishli mol-mulkni qaytarish majburiyatini oldi. Shundan keyin Halil Sulton Samarqandga qaytdi. Shoh Malik va Ulug‘bek esa bitimga xilof ravishda Pirmuhammad huzuriga, Ko‘hitang degan joyda uchrashish uchun yo‘lga tushdilar<sup>353</sup>. Balki shu sabablidir, bu gal ham Halil Sulton mol-mulkni qaytarish haqidagi bitimni bajarmadi. Shartga muvofiq, Ulug‘bekka shu vaqtga qadar Samarqandda turgan yoshgina xotinini qaytardi<sup>354</sup>.

Pirmuhammad qarorgohida Shohrux Mirzo topshirig‘iga muvofiq, Shoh Malik harbiy yurishni 40 kunga kechiktirishni so‘radi. Bundan maqsad Shohrux Mirzo Pirmuhammadning qo‘shinlari bilan birlashishga ulgurmog‘i kerak edi. Bundan tashqari Shohrux harbiy yurishni bosib olinishi oson bo‘lgan Buxorodan boshlashni va undan Samarqanddga yurishni taklif qildi<sup>355</sup>. Aftidan, Shohrux va Shoh Malikning Buxoroda ishonchli odamlari bo‘lgan. Bu maslahatga qarshi o‘larоq, Pirmuhammad hoziroq to‘g‘ridan to‘g‘ri Samarqandga yurishga qaror qildi. Pirmuhammadning atrofidagi a‘yonlari unga Shoh Malik uchun Samarqanddagi o‘ziga, Shohruxga va Ulug‘bekka tegishli mol-mulkni olish, hamda u yerda asira bo‘lgan onasini qutqarish muhim, (boshqa narsa uni qiziqtirmaydi), deb uqtirishar edi.

Biroq, tarixchi ishontirib aytganiga qaraganda, lashkar Qarshi tomon y’ol olgan. Bundan xulosa shuki, Pirmuhammad qarorgohida Shoh Malikning maslahatlari keskin rad etilmagan. Pirmuhammad bilan Shohrux qo‘shinlari

---

352

353

354

355

Buxoroda birlashuvi ham Pirmuhammadning qaysarligi sababli emas, balki Halil Sultonning harakati jadalligi tufayli amalga oshmagan.

Ular o‘rtasidagi jang 1406-yilning 20-fevral kuni Qarshi shahri yaqinida bo‘lib o‘tdi<sup>356</sup>. Sarafiddin Ali Yazdiy foydalangan noma’lum muallifning Shohrux tarixiga bag‘ishlangan asarida yozilishicha, shoh Malikning jasorati tufayli g‘alabaga yaqin turgan Pirmuhammad qo‘shinidan unga xiyonat qilib bir necha amirlarning (manbada nomlari keltirilgan) qochishi<sup>357</sup> sabab jangda Halil Sultonning qo‘li baland keldi. Pirmuhammad Balxga. Shohmalik bilan Ulug‘bek Murg‘ob bo‘yida turgan Shohrux huzuriga Xurosonga qochdilar. Shu vaqtida Shohrux Pirmuhammad bilan kelishuv asosida Samarqandga yurish boshlamoqda edi. Biroq qochqinlin shu qadar shoshilinch bo‘lgan ro‘y bergani shundan ma’lumki, Pirmuhammadning qarorgohi uning barccha xotinlari va xarami bilan birga Halil Sulton qo‘liga o‘tdi. Barcha xotinlar Halil Sultonningadolati va mehribonchiligidan himoyat topdilar<sup>358</sup>.

Jangdan keyin Halil Sulton Shohruxga u bilan sulhda qolish istagini aytish uchun odam yubordi va Amudaryodan shimoldagi yerlarga dushman bostirib kirgani sababli jang qilishga majbur bo‘lganinini bildirinb, uzrxohlik qildi. Shohrux ham o‘z navbatida bitimga sodiq qolajagini, biroq uning mulki chegaralari Halil Sultonning amirlari Sulaymonshoh va Arg‘unshoh bo‘linmalari tomonidan buzilganidan noroziligin vas hu sababli urushga kirganini bildirdi (Sulaymonshoh va Arg‘unshohlar bo‘linmalari Shopurakan va Andhoygacha kirib kelgan edi). Har ikkala hukmdor Amudaryo bo‘yiga suljni yangilash uchun o‘z amirlarini yubordilar<sup>359</sup>.

Shohrux Murg‘ob bo‘yidan Hirota qaytdi. Shohmalik bilan Ulug‘bek Shohruxning ko‘rsatmasiga muvofiq bir oy Badhezda turib turdilar. Shu yilning o‘zida ular amir ul-umaro Sayid Xojanining isyonini bostirishda qatnashdilar.

---

356

357

358

359

Isyonning sababi may oyida Shohmalik himoyati ostida Ulug‘bekning “Alibek Xurosoni va Ali Mu’ayyad Xurosoni”ga<sup>360</sup>, ya’ni Hirot viloyatining o‘rta va shimoliy qismiga hokim etib tayinlanishi edi. Shu bilan birga Shohmalik va Ulug‘bek qish faslini Astrobodda o‘tkazish haqida buyruq olishdi<sup>361</sup>.

1407-yil bahorida Shohrux Mironshohning o‘g‘li Umarning isyonini bostirishga otlandi. Umar o‘ziga in’om etilgan Mozandarondan Xurosonga bostirib kirgan edi. 18-aprel kuni Jom atrofidagi jangda Mirzo Umar tor-mor etildi<sup>362</sup>. Shundan keyin Mozandaron ham Ulug‘bek mulkiga qo‘sib berildi. Ehtimolki, Mirzo Umar Xurosonga hujum qilgan paytda Ulug‘bek otasining huzuriga Hirotga qochib turgan. Umar engilgach, Ulug‘bek Tus shahriga jo‘nadi. 1407 yilda Ulug‘bekning iltimosiga ko‘ra Shohrux yana Mozandaronga, o‘sha yurt hokimi Pir-podshoh qo‘zg‘olonini bostirish uchun yurish qildi. Shohrux qo‘sini Shohmalik Mashhadda, Ulug‘bek esa Kuchanda kutib oldi<sup>363</sup>.

Pirmuhammad qo‘slnlari ortga chekinganidan keyin ham ular ortidan g‘oliblar quvg‘ini to‘xtamagan<sup>364</sup>. Halil Sulton shimoldan unga xavf solib turgan dushmanlarni qaytarishga kirishmoqni ma’qul ko‘rdi. Sirdaryo havzasini bosib olgan isyonchilardan tashqari, Movarounnahrga 1405-1406-yilda Xorazmni olgan, bosqinlar qilib Buxoro ostonalargacha borgan Oltin o‘rda tatarlari ham xavf solmoqda edi<sup>365</sup>. Xo‘jand va Shohruxiya Halil Sulton Cirdaryoga kelgan paytida o‘z ixtiyorlari bilan unga bo‘ysinishdi<sup>366</sup>. Toshkent uzoq vaqt qamaldan so‘ng, ochlik tufayli taslim bo‘lishga majbur etildi. Toshkentdan shimol tomon yurishda davom etgan Halil Sulton Shrарапxonada to‘satdan Xudoydod va Shayx Nuriddinlar hujumi tufayli, shunday katta yo‘qotishga uchradiki, natijada ortga qaytishga majbur bo‘ldi. Voqealar davomdan ma’lumki, Halil Sulton Sirdaryo atrofidagi yerlarda harbiy qismlar qoldira olmagan. Shayx Nuriddin Xudoydod

---

360

361

362

363

364

365

366

bilan kelisholmay qolib, Sig‘noqqa ketib qoldi va Halil Sulton bilan muzokara qilishga kirishdi<sup>367</sup>. Shayx Nuriddinga, uning iltimosiga javoban Halil Sulton Temurnung bevalaridan biri Tuman qg‘ani jo‘natdi. Bu ishlarning barchasidan qat‘iy nazar. Xudoydod Shohrux bilan muzokaralarni to‘xtatmadı.

Shohrux Mirzoning 1407-yildagi harakatlari ham Halil Sultonning shimolga yurishdan shoshilinch qaytishiga sabab bo‘lgandir, balki. Qarshi jangidan roppa-raso bir yil o‘tib, 1407-yilning 22 fevralida<sup>368</sup> qotil Pirali Toz<sup>369</sup> qo‘lida Pirmuhammad halok bo‘ldi. Shohrux Mirzo o‘zini Pirmuhammad xuni uchchı da’vogar deb e’lon qildi, vaziyatdan foydalanib, Balx shahrini egalladi<sup>370</sup>. Shohruxning harakatlari Halil Sultonda shubha uyg‘otdi va u Termizga kelib Amydaryo bo‘yida eski qal‘ani tikladi<sup>371</sup>. O‘z navbatida Shohrux 1370-yilda Temur buzdirib tashlagan Balx arkin tiklattirdi. Shu harakatlar asnosida har ikki tomon bu gal ijobiy yakun topgan muzokaralarni ham davom ettirdilar. Daryo yoqasida Halil Sulton tomondan Allohdod, Shohrux tomondan Amir Muzroblar uchrashib, sovg‘a-salomlar almashishdi va o‘z poytaxtlariga qaytishdi.

Shohrux tomonidan bu sulk samimi emas edi. Hirot hukmdori Movarounnahrni qo‘lga kiritish uchun zamin tayyorlab, Halil Sultonning dushmanlari bilan aloqalarni davom ettiraverdi. Bu fitnakorlikka Samarqandda qo‘shin ichida va xalq orasida yosh hukmdor Halilga nisbatan turli ig‘volar paydo bo‘lgani ham qo‘l keldi. Mamlakatda ocharchilik boshlangani ham gap-so‘zlarga yana bir sabab bo‘ldi<sup>372</sup>. Shunday ko‘gilik Xurosonning ham boshiga tushdi, biroq tezkor choralar ko‘rilib, aholiga yordam berildi, vaziyat o‘nglandi<sup>373</sup>. Halil Sulton tashqi istilolarsiz ulkan qo‘shinni boqishi lozom edi. Bu esa Temurdan qolgan xazinaning tagini ko‘rsatib qo‘ymoqda edi. So‘ngra Halil Sultonning suyukli xotini Shodimulk davlatning mablag‘lari sarfiyotida va boshqa davlat ishlarini hal

---

367

368

369

370

371

372

373

qilishda ortiq darajada katta hissa qo'shayotgani Samarqandda shov-shuvlarga sabab bo'lmoqda edi. Shodimulk homiyligi tufayli Trmurning safdoshlarni yo'qotish hisobiga past tabaqa vakillari yuqori lavozimlarga ko'tarilaayotgan edi. Malika himoyasidagi qandaydir Bobo Turmush to'laqonli vazir darajasiga chiqib, oliv maqomdagagi amaldorlar Allohdod va Arg'unshohlarni ham mensimay qo'ygan. Ayni Shodi Mulk Halil Sultonni Temurning bevalarini amirlar va bahodirlarga uzatib, ularni o'ziga tarafdar qilishga ko'ndirdi. Yuqorida keltirilgan Shayx Nuriddin va Tuman og'a haqidagi ma'lumot ko'rsatadiki, bunday qaror amirlar uchcun Sharaf hisoblangan. Lekin Halil Sulton bevalarni go'yo tengsiz darajada ulardan ijtimoiy mavqeい past kishilarga zo'r lab uzatgan. Shodi Mulkka nisbatan Ibn al-Arabshoh keltirgan og'ir aybnomaning biror izi forsiyzabon manbalarda uchramaydi. Arabshoh yozishicha, Shodimulk Temurning bosh xotinlari SaroyMulk xonimni va To'kal Xonimni zaharlab o'ldirgan<sup>374</sup>.

Halil Sulton hokimiyatining puturdan keta boshlashiga Shohruxning Buxoro shayxlari bilan doimiy aloqlari ham ta'sir etmay qolmas edi. Buxoro darveshchiligi\* tarixchisi xabar beradiki\*\*, Buxoro naqshibandiya so'fiylarining piyri Muhammad Porso Shohrux bilan "musulmonchilik ishlarini o'nglash masalalarida" doimiy aloqada bo'lgan. Bu aloqlarga chek qo'yish uchun Halil Sulton Muhammad Porsoni, ko'chmanchi chorvadorlar orasida islomni yoyois uchun cho'llarga chiqib ketishga buyurdi. Shayx bunga rozi bo'ldi, biroq avval Buxoro avliyolarining qabrlarini ziyyarat qilishini aytib, shart qo'ydi. Ayni shu payt Halil Sultonga jang qilish uchun joy tanlash taklifi bilan Shohruxdan maktub yetib keldi. Shayx bu maktubni Buxoroning jome masjidida o'qib berishni, so'ngra Samarqandga jo'natishni buyurdi. Ko'p o'tmay Halil Sulton mag'lub bo'ldi.

---

374

\* Muallif Xojagon tasavvuf tariqati vakillarini ko'zda tutgan – tarj.

\*\* Bartol'd manoqib muallifining nomini keltirmagan – tarj.

Bu hikoyada faqat Shoxrux bilan Buxoro shayxlari o‘rtasida aloqalar haqidagi qismi ishonchli deyish mumkin. Biroq Shohrux Halil Sultonni janggi chorlab maktub yozmagan. Aslida 1409-yil bahorida chindan ham Xuroson va Mavarounnahr qo‘sishnlari to‘qnashuvi kutilayotgan edi. Bordiyu, shunday bo‘lganda ham voqealar Buxoro orqali hal qilinishi mumkin emas edi. Chunki Shoyrux qo‘sishnlari bilan Badxizda, Halil Sulton esa Shahrisabzda turgan edi<sup>375</sup>.

Bu orada Xudoydod yana qaytadan xuruj qilib, O‘ratepani olgani haqida xabar keldi. Shohrux bilan kurash tayin bo‘lib turgani holda shimolga u qadar katta bo‘lmagan kuchni ajratish mumkin edi. Xudoydodga qarshi Allohdod va Arg‘unshoh boshchiligida uch ming kishilik bo‘linma jo‘natildi<sup>376</sup>. Ular Xudoydodga Jizzahda duch kelishdi, lekin janggi kirishmay turib Halil Sultonga qo‘sishimcha kuch kerakligi haqida xabar yo‘lashdi. Bu gal endi Halil Sultonning o‘zi bor-yo‘gi 4000 jangchi bilan yo‘lga chiqdi. U yurishga otlangach, Shahrisabzda qancha qo‘sish qolgan va bu qo‘sish kimga ishonib topshirilgan – bular haqida hech qanday ma’lumot yo‘q. Ibn al-Arabshohga ko‘ra Sultoniyada, Abdurazzoq Samarqandiyya ko‘ra<sup>377</sup> Sheruz qishlog‘ida kutilmaganda Xudoydod kuchlari ustun holda Halil Sulton ustiga hujum qildi va uni asir tushirdi. Ibn Arabshohning aytishicha, Xudoudod bilan Allohdod bu masalada oldindan kelishib olishgan edi. Halil Sultonning asir olinishi 1409-yilning 30-martida ro‘y berdi<sup>378</sup>. Shu zahotiyoy Xudoydod Samarqandni egalladi va Halil Sulton nomidan barchani o‘ziga bo‘ysinishini talab qildi. Shahrisabzda turgan qo‘sish Xudoydodga bo‘ysinmadi va tarqalib ketdi. Shu sababli Shohrux Mirzo hech qanday qarshilikka uchramay kirib keldi.

Shohrux 1409-yil 7-aprel kuni yurish boshlagan edi<sup>379</sup>. 22-aprel kuni<sup>380</sup> Amudaryo bo‘yiga yetdi. Daryodan kechuv paytida Unga Xudoydoddan elchi

---

375

376

377

378

379

380

kelib, agar Movarounnahrni Shohrux Muhammad Jahongirga bersa, Halil Sultonni va Shodimulkni unga topshirishini ma'lum qildi<sup>381</sup>. Bu shartga qanday javob berilgani ma'lum emas. Ammo Amudaryo bo'yidan bir bo'linma Xisorga jo'natildi, Shohruxning o'zi qolgan qismlar bilan Huzorga yo'l oldi. Qo'shin Ko'hitangda paytidayoq Shohrux qarorgohiga Shodimulk keltirildi. Huzorga yetganlarida ma'lum bo'lishicha Xudoydod asir Halil Sultonni o'zi bilan olib Samarqandni tark etgan. Allohdod, Arg'unshoh va Bobo Turmushlar Samarqand qo'rg'nida qolishdi. Hokimiyatni esa shayx ul-islom Abd al-Avval o'z qo'liga oldi. Unga bo'ysingan Allohdod va boshqalar Shohrux bilan kurashishdan voz kechdilar<sup>382</sup>. Huzordan Shohrux bir necha amirlarni, shu jumladan o'zining tarbiyachisi otaliq Alo ad-din Alika Ko'kaldoshni Samarqandga jo'natdi<sup>383</sup>. O'zi esa Jomga yo'l oldi. U yerda Shohruxni Muhammad Jahongir boshliq shahzodalar kutib olishdi. Shunday qilib, Shohrux Mirzo 13-may kuni<sup>384</sup> Samarqandga kirib keldi. Shohmalik va Ulug'beklar Shohrux bilan birga edilar. Ulug'bekni Samarqandga Shohmalik rahnamoligida hukmdor etib tayinlash ko'zda tutilgan edi. Lekin bu haqda yil oxirida, Shohrux Samarqanddan ketishi oldidan tantanali ravishda e'lon qilindi.

Samarqandda Shohrux Mirzoga Shayx Nuriddin kelib qo'shildi. Shohrux bilan kelishuvga muvofiq Shayx Nuriddin O'trordan Buxoroga yurish qildi. Biroq u Xudoydod tomonidan tor-mor qilindi. Bu voqeal Shohrux Samarqanddan ketishidan oldin ro'y bergen edi. Shunday qilib Shayx Nuriddin Samarqandga qo'shinlarisiz yolg'iz kirib keldi.

Poytaxt Samarqand to'rt yil muqaddam Halil Sultonning qo'liga o'tgani kabi qon to'kilmasdan Shohrux hukmiga o'tdi. Biroq bu gal g'olib Shohrux Halil singari oliyjanoblik ko'rsatish niyati yo'q edi. Ikki o'zaro raqbotlashib turgan guruh vakillari, malikalar va amirlar bir xilda shafqatsiz jazoga tortildi<sup>385</sup>.

---

381

382

383

384

385

Allohdod va Argunshohlar qynoqqa solinib, ulardan xazinaga tegishli mablag‘larni qaytarish talab qilindi so‘ngra qatl etildi. Davlat boshqaruv xodimlaridan Xoja Yunus Semnoniy ham qatl etildi. Malika Shodimulk qynoqqa solinib, sharmanda qilinib shahar bozorlaridan olib o‘tildi. Bobo Turmush shafqatsiz qynoqlar davomida bir kuni qorovullar zanjirband holda uni katta hovuz yonidan olib o‘tayotganlarida o‘zini suvga tashlab halok bo‘ldi.

Samarqand olingandan keyin isyonkor amirlar va Halil Sulton uchun boshipana bo‘lib turgan Sirdaryo bo‘yi hududlar muammosi ko‘ndalang turgan edi. Xudoydod Halil Sultonni Farg‘onaga, vodiyning bosh shahri Andijonga olib ketdi va juma namozida xutbada o‘zining nomini qayd etishni talab etdi. Xudoydodning o‘zi, Toshkent orqali bo‘lsa kerak, yordam so‘rash uchun mog‘ollar huzuriga jo‘nadi. Halil Sulton esa Xudoydodning o‘g‘li Abdulxoliq nazoratida qoldi. Xudoydodning ikkinchi o‘g‘li Allohdod Shohruxiyaning hukmdori edi. Shohrux Xudoydodni qanchalik ixtiyoriy ravishda bo‘ysunishga da’vat qilmasin, barchasi bekor ketdi. Bunga javoban Xudoydod o‘z dushmani Shayx Nuriddinni bog‘langan holda jo‘natishni talab qildi<sup>386</sup>. Keyingi voqelardan ko‘rinadiki, Shohrux istasa ham bu talabni bajara olmas edi. Shundan keyin Shohrux qo‘sini bilan Sirdaryo bo‘yiga yurish qildi hamda bir bo‘linmani Shohmalik ishtirokida Shohruxiyaga, ikkinchi bo‘linmani Xo‘jandga jo‘natdi. Shohruxning o‘zi yoz oylarini O‘ratepada o‘tkazdi. Mog‘ollar Halil Sultonga hurmat ifodasini ko‘rsatib, sovg‘a-salomlar, shu jumladan oltin kursi (taxt) yubordi. Ibn Arabshoh<sup>387</sup> ishontirib aytishiga ko‘ra, mog‘ollardan Halil Sulton harbiy yordam olmadi chunki u Abdulxoliq bilan birga taxminan Oloy vodiysiда joylashgan Alla yoki Alloko‘h qasriga jo‘nashi kerak edi. O‘sha qasrda uni Shoh Malik qamal qildi. Qamal tugagach tuzilgan bitimga ko‘ra Shoh Malik ortga chekindi. o‘z navbatida Halil Sulton Shohrux huzuriga borishga vada berdi, lekin O‘trorga ketishni afvzal bildi. Bundan sal avval Shohruxning roziligi bilan Shayx Nuriddin O‘trorga qaytgan edi. Farg‘ona bilan O‘tror orasidagi masofani

---

386

387

mog‘ollar yordamida bosib o‘tgan shekilli. Mog‘ollar yordamiga umid bog‘lagan Xudoydod ular tomonidan o‘ldirilib kallasi, Ibn Arabshohning aytishicha<sup>388</sup>, Halil Sultonga, Abduazzoq Samarqandiyning aytishicha<sup>389</sup>, Shoh Malikka jo‘natildi. Shoh Malik Xudoydodning kallasini uning o‘g‘li, Shohruxiyaning sobiq hukmdori Allohdodning kallasi bilan birga Shohruxga jo‘natdi. Bu demak, Shohruxiya Shoh Malik tomonidan olingani edi. Xudoydodning o‘g‘li Abdulxoliq esa, keyingi hikoyalarda bayon qilingan voqealarga ko‘ra, Sirdaryo ortidagi viloyatda to vafotiga qadar hukmronlik qildi.

Shohrux Xo‘jandgacha yetib bordi va u yerdan Oqsulatga qarab yo‘l oldi. Shu yerda Shayx Nuriddin Shohrux Mirzo huzuriga kelishga va’da bergen edi. Biroq Shayx Nuriddin O‘trorda qolishni afvzal bildi. Oqsulatdan O‘trorga qarab yo‘l ustidagi Uzunota<sup>390</sup> degan manzilda Halil Sulton Shohrux huzuriga keldi. Bundan sal avval Halil Sulton bilan bitim tuzish uchun Shoh Malik va Alike ko‘kaldoshlar O‘trorga kelishgan edi. Bitim Shayx Nuriddin vositachiligidan tuzilgan edi. Halil Sulton o‘ziga ajratilgan Ray viloyatidagi mulkiga jo‘natildi, xotini Shodimulk ham qaytarib berildi. Hijron davrida Halil Sulton forsiy g‘azallar bitib, o‘z dardini ifoda etib yurar edi<sup>391</sup>. 1411-yil 4-noyabrda<sup>392</sup> yuz bergen vafotiga qadar Halil Sulton Ray hokimi sifatida yashadi. Erining o‘limidan keyin yashashni istamagan Shodimulk o‘z joniga qasd qildi. O‘smirlik chog‘laridan boshlab jangovar jasoratlari bilan shuhrat qozongan Halil Sulton, yevropalik bir sharqshunosning ta’riflashicha, ojiz, “hissiyotparast cho‘pon bola” emas edi. Biroq uning hayoti va hukmronligi davridagi romantik lavhalar chindan ham u yashagan davr xususiytiga begona edi. Halil Sulton bilan tuzilgan bitimga muvofiq 1409-yilda harbiy harakatlar to‘xtadi. Samarqandni tark eta turib Shohrux Ulug‘bekni shahar hukmdori deb e‘lon qildi. Shohruxning ikkinchi Ibrohim Balx hukmdoriga aylandi, Muhammad Jahongir Hisor va Amudaryo

---

388

389

390

391

392

bo‘yidagi Solisaroy hukmdori bo‘ldi. Umarshayxning o‘g‘li Ahmad Farg‘ona hukmdori bo‘ldi. Ahmaddan tashqari barcha shahzodalar murg‘ak va kichik yoshda bo‘lganliklari sababli ularga ajratilgan mulklarni amirlar boshqaradigan bo‘ldi. Samarqanddagi haqiqiy hokimiyat amir ul-umaro, ulug‘ adolatpesha, oliyanob no‘yon Shoh Malikka ishonib topshirildi. Ulug‘bek Samarqandning vorisiy shayx ul-islomlariga ehtiromi komil ko‘rsatishi lozim edi. 1409-yil 24-dekabr kuni<sup>393</sup> Shohrux Mirzo Hirota qaytib keldi. Shoh Malikning ulug‘ martabaga ko‘tarilishi bilan, Hisor taxtida o‘tirgan kishik yoshdagি hokim Muhammad Jahongirning<sup>394</sup> homiysi, O‘tror voliysi Shayx Nuriddin kelisha olmadi. 1410-yil bahorida Shayx Nuriddin va Muhammad Jahongir Shoh Malik va Ulug‘bekka qarshi yurishga chiqib, 20-aprel yakshanba kuni<sup>395</sup> ularni Samarqanddan g‘arbda joylashgan Qizilrabot degan manzilda qattiq mag‘lubiyatga uchratishdi<sup>396</sup>. Mag‘lub etilgan qo‘sishin Qoratepa tomonga va undan Samarqand bilan Shahrisabz oralig‘idagi tog‘larga tomon chekindi. G‘oliblar uchun poytaxtga yo‘l ochilgan edi<sup>397</sup>. Ertasi kuniyoq Samarqand darvozasi yoniga muzokaralar uchun Shayx Nuriddinning vakili keldi. 25-aprel kuni Shayx Nuriddinning o‘zi Shayxzoda (hozir Poyiqaboq deb ataladi) darvozasi yoniga keldi. Lekin shayx ul-islom boshchiligidagi shahar aholisi Shohruxning ruxsatisiz darvozani ochmasliklarini bildirishdi, shunday qilib shahar dushmanga topshirilmadi. Lekin Shayx Nuriddin shahar atrofidagi yerlarni bosib olib, Samarqanddan shimol tomonda joylashgan Temurning Bog‘i Dilkushodagi qasrida bir necha kun yashadi. Shayx Nuriddinning istagi bo‘yicha uning qarorgohiga Hisor hokimi Muhammad Jahongir keltirildi<sup>398</sup>. Lekin sobiq “xonning” kelishi ham Samarqandliklarni shaharni topshirishga majbur etolmadi. Samarqanddan tashqari Amudaryoga qadar bo‘lgan yerlar isyonchilar qo‘liga o‘tdi. Buxoro va Shahrisabzga Shayx Nuriddinning noyiblari jo‘natildi. Ulug‘bek

---

393

394

395

396

397

398

esa Kalif shahriga chekinishga majbur bo‘ldi ( XVIII asrga qadar Kalif shahri hozirgidek o‘ng qирг‘оqда emas, balki Amudaryoning chap qирг‘оq‘ida edi)<sup>399</sup>. Bundan tashqari Termiz hokimi, ilgari Halil Sultonga xizmat qilgan Mizrob Shohrux Mirzoga sodiq bo‘lib qolgan edi. Shohruxning qo‘shini yetib kelgunga qadar Shayx Nuriddin Kalifga va Termizga yuborgan bo‘linmasi bu shaharlarni olib ulgurmadi.

Shohrux Hirotdan 9-may kuni yurish boshlagan edi, lekin negadir Kalifga 20-iyun kuni yetib keldi. Termiz yaqinida Shohrux qo‘shini emin-erkin qarshiliksiz daryodan kechib o‘tdi. Ulug‘bek amir Mizrob bilan birga Termiz harbiy bo‘linmasini ham olib Shahrisabz tomonga yurish boshladi. Asosiy kuchlar bilan Shohrux ular ortidan asta-sekin harakat qildi, Shohruxning kelgani xabarini olgach, Shayx Nuriddin Samarqand tomonga chekindi. Shu zahotiyoy, Shoh Malik unga hujum qilib mag‘lubiyatga uchradi. Shoh Malikning yengilgan qo‘shinning ulkan o‘ljalari va barcha qurol-aslahasi Shayx Nuriddin qo‘liga o‘tdi. Shoh Malik Samarqand tomonga qochdi lekin uni shahar a’yonlari uni shaharda qolishga rag‘bat qilmay, o‘zi bilan zodagonlarni olib ketganlikda ayblab, ta’na va ma’lomatlar bilan qarshi oldilar. Shahrisabzni olgandan keyin Shohrux Samarqandga yaqinlashdi. Farg‘ondan Ahmad besh yuz otliq bilan bo‘lsa-da, Shohruxga kelib qo‘shildi. Mazkur Qizilrabot yonida Jom anhorchasi bo‘yida 12-iyul shanba kuni Shayx Nuriddin va Muhammad Jahongir qo‘shinlari bilan jang bo‘lib o‘tdi<sup>400</sup>. Shohrux Mirzo jangda shaxsan qatnashib to‘liq g‘alabaga erishdi, lekin 23-iyul kuni urushni tugatishni Shayx Nuriddin va Shoh Malikka qoldirib shaharni tark etdi. Qaytar chog‘i yo‘lda Shahrisabzdan Mizrob boshchiligidagi Hisorga harbiy bo‘linma jo‘natdi. Avgust oyi boshida<sup>401</sup> Shohrux Hirotgaga qaytib keldi. Hisorda qiyinchiliksiz tartib qayta tiklandi. Muhammad Jahongir to 1433-

---

399

400

401

yilda sodir bo‘lgan vafotiga qadar Hisor hokimi bo‘lib qoldi<sup>402</sup>. 1413-yilda<sup>403</sup> Shohruxning qizi Muhammad Jahongirga uzatilgan edi.

Shoh Malikning Shayx Nuriddinga qarshi yurishi 1411-yilda ro‘y berdi<sup>404</sup>. Ulug‘bek Mirzo Sirdaryo havzasida bo‘lgan na ushbu yurishda va na keying davrda ro‘y bergen harbiy harakatlarda qatnashmagan. 1411-yilda Shayx Nuriddin Sovronda turgan edi. Shoh Malik yaqinlashganini bilib u jangsiz mog‘ollar tomonga qochib ketdi. Shoh Malik uning qo‘shinlari orqa qorovul qismigagina yeta oldi. o‘z navbatida Shoh Malik ham viloyatni mustahkam egallab olish imkoniga ega bo‘lmay, orqaga qaytishi lozim edi. Shoh Malik Shayx Nuriddin buni eshitishi bilanoq, Mog‘olistondan qaytib, Xudoydodning o‘g‘li Abdulxoliqqa Shoh Malikning yo‘lini to‘sishni buyurishiga ishonar edi. Abdulxoliq bu topshiriqni muvoffaqiyat bilan bajardi. Hatto Shayx Nuriddinni asir olishi mumkin bo‘lgan vaziyatda ataylab, uning mog‘ollar tomon qochishiga imkon berdi. Binobarin Shoh Malikning haddan ziyod kuchayib ketishini manfaatli deb hisoblamadi va uning dushmani Shayx Nuriddinning tirik qolishini maql bildi. Bu vaziyat Temuriylar sulolasи hokimiysi nufuzining qay darajada pasayganligini yaqqol namoyish qildi.

Abdulxoliq o‘sha yili vafot etdi<sup>405</sup> va Shoh Malikning tavsiyasi bilan o‘rniga boshqa odam tayinlandi. Bu odam o‘z vazifasiga tezda kirishib ketmadi, chunki vaziyatdan foydalaniб Mog‘iston xoni Muhammad chegaradosh viloyatga hujum boshladi. Xonning ukasi Shohjahon boshchiligidagi<sup>406</sup> o‘n besh ming kishilik qo‘shin Sayramni qamal qildi va O‘tror atrofidagi Qorasomon degan yergacha yetib bordi<sup>407</sup>. Shoh Malik ikki ming kishilik bo‘linma bilan dushmanning orqa tomoniga kutilmaganda zarba berish uchun navkarlaridan birini jo‘natdi (navkarning ismi manbada Shoistam deb ko‘rsatilgan). Bo‘linma

---

402

403

404

405

406

407

Piskentdan<sup>408</sup> Talasga<sup>409</sup> jo‘natilgan edi. Aftidan, bo‘linma tog‘ yo‘llari orqali yetib borib, u yerda turgan mog‘ollarni tor-mor qilgan, katta o‘lja, shu jumladan, o‘n ikki ming otni qo‘lga kiritgan. Shulardan yarmini Shoh Malikka jo‘natgan<sup>410</sup>. Bu omadsizlik mog‘ollarni Sovran qamalini to‘xtatishga majbur qildi, lekin yurish to‘xtatilmadi. Bu gal qo‘sish boshida Muhammadxonning o‘zi chiqdi. Yani (Talas vodiysida, Avliyootaga yaqin joy) va Sovran (Iskandar tog‘ tizmasidan cho‘l tomonga yo‘nalgan, Qoratov tog‘i bilan Talas Olatovi o‘rtasidagi adirliklar ko‘zda tutilsa kerak) o‘rtasidagi Qulanboshi degan yerga yetib bordi<sup>411</sup>. Xon Shoh Malik bilan sovg‘a-salomlar almashib, Shayx Nuriddinni qo‘llab-quvvatlamaslikka va’da berdi. Shayx Nuriddin mog‘ollardan ajralib, besh yuz otliq bilan Sovranga<sup>412</sup> kirib keldi. Bu yerda Shayx Nuriddinning qo‘liga shunday kuchlar kelib qo‘sildiki, Shoh Malik mog‘ollar bilan bitim tuzgan holda Sovranga yaqinlashib, bu shaharni to‘g‘ridan-to‘g‘ri egllay olmadi. Balki Temurning bevasi ham shu shaharda ekani Shoh Malikni bundan to‘xtatgan bo‘lishi mumkin. Hofiz Abro<sup>413</sup> badiiy tafsilotlar bilan shahar minoralarining tepasidan turib, Tuman og‘a Shoh Malik bilan suhbatlashgani, Amir Temur haqida so‘z ketganda yig‘lab yuborgani, Shoh Malik bilan Shayx Nuriddin o‘rtasida muzokaralar qanday borgani, ular uchrashuvga qanday kelishib olgani, har biri ikkitadan navkar bilan qal’a devori yonida uchrashgani, Shayx Nuriddin Shoh Malik qo‘s Shinida birga xizmat qilgan paytidagi sobiq qadrdon do‘sti bilan qanday qilib quchoqlшиб ko‘rishgani<sup>414</sup>, oldindan tayyorgarlik ko‘rgan Shoh Malik to‘satdan yerga bosib olgani, bundan mutlaqo bexabar amirni chaqqonlik bilan chavaqlab tashlagani haqida talay ma’lumotlarni beradi.

Shunday qilib, Shohrux va Ulug‘bekka bo‘ysunmagan Movarounnahrning oxirigi lashkarboshisi yo‘q qilindi. Shoh Malik o‘z vazifasini ado etdi. Bundan

---

408

409

410

411

412

413

414

maqsad uning faoliyati natijalaridan Ulug‘bek bemalol istefoda etish, buning uchun Movarounnahrning eng kuchli amiri yo‘q qilinishi edi. Sovran devorlari yonida ro‘y bergen xiyonat Shohrux va Ulugbek uchun Shoh Malikni yo‘q qilishda asosiy bahonaga aylandi.

Ulug‘bek bilan uning homiysi Shoh Malik o‘rtasidagi munosabatlar bir vaqtlar Halil Sulton bilan Xudoydod o‘rtasida kechgan munosabatlarga o‘xshash xususiyat kasb etdi. Mog‘ollar bilan bo‘lgan urush paytidayoq Shoh Malikning yo‘qligidan foydalanib, Ulug‘bek otasi Shohruxga amirning xatti-harakatlari ustidan shikoyat yetkazgan edi. Shohrux Mirzo taniqli amirlardan biri Sayid Alitarxonni vaziyatni tekshirish uchun Samarqandga jo‘natdi. Sayid Alitarxon Shoh Malik mamlakatni yaxshi bosharayotgani Ulug‘bekka yaxshi maslahatlar berayotgani, bu esa Ulug‘bekning izzat-nafsiga tegayotgani, bundan esa g‘araz niyatli kishilar foydalanayotganligi kabilarni aniqladi<sup>415</sup>. Mog‘ollarga qarshi harakatlar paytida Shoh Malik Ulug‘bekka zimdan e’tibor qaratshni davom ettirgan va zanjirband asirlarni Samarqandga yuborib turgan. Samarqandda esa ular o‘sha yili yoz oyi iyungacha Badxizda turgan Shohruxga jo‘natilgan. Movarounnahrdan kelgan yaxshi xabarlar ta’sirida Shohrux o‘z qo‘smini bilan, 22-iyul kuni<sup>416</sup> Hirotdan yo‘lga chiqdi. Avval Balxga qarab yurdi, 10-sentyabr kuni<sup>417</sup> Amudaryoni qayiqlardan iborat ko‘prik orqali kechib o‘tdi. Uni Qashqadaryoda Ulug‘bek va Samarqand zodagonlari kutib olishdi. Samarqandga kelgach, Shohrux Cho‘ponota tepaliklari yon boshidagi Konigil mavzesida qarorgoh qildi.

Shohrux kelgach, oradan olti kun o‘tib unga Shayx Nuriddinning kallasini olib kelishdi. Shu zahotiyoq Shoh Malik Samarqanddan chaqirib olindi va Ibn Arabshohning xabariga ko‘ra, qattiq ta’na-malomatlar bilan qarshi olishdi. Shayx Nuriddinning bevosita qotili Shoh Malik kaltaklab jazolandi. To uni kechirgunga qadar Shohrux uning yuziga qaramadi. Shoh Malikning qaytarib chaqirib

---

415

416

417

olinishiga unga nisbatan qilgan xiyonatidan g‘azabdan ko‘ra marhum Shayx Nuriddinning qarindosh-urug‘lari muzokaraga kelishni istamasliklari sabab bo‘ldi. Shoh Malik Samarqandga qaytishi bilanoq chindan ham Shayx Nuriddinning ukasi Shayx Hasan nomidan vakil kelib Shoxruxga itoat etishini bildirdi. Shohruxning talabi bilan malika Tumanog‘a Samarqandga keltirildi. Shundan keyin Shohrux Samarqandni tark etdi, o‘zi bilan malika Tumanog‘ani va Shoh Malikni olib ketdi. Noyabr oyida Shohrux Hirotaga yetib keldi. Otasi jo‘nab ketishidan oldin Ulug‘bek chin ma’noda vaziyatning xo‘jayini sifatida otasi sharafiga ziyofat va qimmataho sovg‘alar berdi. 17 yoshlik shahzoda Ulug‘bek otalig‘i Shoh Malik rahnamoligidan qutilib Amudaryodan shimoli-g‘arbdagi Sig‘noqqacha, shimoli-sharqdagi Ashparagacha hududlarning to‘laqonli hukmdoriga aylandi.

## ULUG'BEK – HUKMDOR. TASHQI ALOQALAR

1411- yildan 1447-yilgacha 36 yil davomida Ulug'bek tangalarida va albatta, xutbada ham davlat boshlig'i sifatida otasi Shohruxning nomi qayd etilgan yurtda hukmronlik qildi. Bir necha marotaba Hirotg'a otasiga ta'zim bajo etish uchun brogan<sup>418</sup>. Shunga qaramay, zamondoshlari uni noib yoki viloyat xokimi deb hisoblashmagan. (Jizzahdan Samarqandga chiqaverish yo'l boshi) Ilono'tdi darasidagi 1425-yilga oid qoyatosh bitigida Shohruxning nomi umuman eslatilmagan holda Ulug'bek "buyuk sulton, barcha xalqlar podsholari ustidan go'lib, allohning yerdagi soyasi..." deb ta'riflangan<sup>419</sup>. 1427-yilda Ulug'bekka bag'ishlab yozgamatematikaga oid asarida olim G'iyosiddin Jamshid Koshiy Ulug'bekka nisbatan "buyuklarnin buyugi, barcha xalqlarning buyuk hukmdori, odillrning eng adolatlisi, oljanoblarning eng oljanobi, olimlarning sulton'i, arabu ajam yurtlar sulton'i, sharqu g'rb sulton'i" ba hokazo maqtovlar bilan sharaflagan<sup>420</sup>.

Temur saltanatida uning vafotidan keyin iloji yo'dek ko'ringan yakka hukmdorlik (an'anasi) tashqi ko'rinishda asta-sekin Shohrux nomi bilan tiklana boshladi. Temurning boshqa farzandlaridan tarqalgan avlodlar (siyosiy maydonda) hech qanday ahamiyatga ega bo'lmay qoldilar. Ba'zilari, ulardan birining 839-xijriy (1436-37-nchi milodiy) yilda Shohruxga atab yozgan she'riy asaridan ma'lum bo'lishicha, xatto g'aribona yashaganlar<sup>421</sup>. Biroq Shohrux Temurdan farqli o'laroq, nomigagina hukmdor edi. Davlatni asosan uning xotini, Ulug'bekning onasi Gavharshod begin va unga tobe amaldorla boshqarar edi. Dastlabki yillarda Shohrux barcha harbiy kuchlarning qo'mondoni bosh amir (amir ul-umaro)ni almashtirishga qurbi etmadni. Bu mansabga tayin qilingan ikki amir hukmdorga qarshi isyon ko'targach, qatl qilindai. Ammo 1407-yilda

<sup>418</sup><sup>419</sup><sup>420</sup><sup>421</sup>

bu lavozimga qo‘yilgan Jaloliddin Feruzshoh 1442 yilgacha boshqaruv hukmini o‘z qo‘lida saqlay oldi. Shohrux Mirzo shariatga sodiq shaxs sifatida marosim qoidalariga hamda harbiy san’at masalalariga e’tiborsiz qarar edi. Shu sababli bosh amir Shohrux huzurida saroy ishlari va harbiy masalalarni to‘liq o‘zi boshqarar edi<sup>422</sup> (Bu o‘rinda V.V.Bartol’dni to‘la-to‘kis haq deb bo‘lmaydi. Davr manbalari asosida olib borilgan tadqiqotlar Sohruxning yirik davlat arbobi sifatidagi faoliyatini asoslash uchun yetarli ma’lumotlar bermoqda. Qarang: X.T.Fayziyev. Shohruxning tashqi siyosati.... – tarj). Samarqandda Shohruxning vakillari bo‘lmagan ko‘rinadi. Chunki yasovul harbiy masalalar bo‘yicha buyruq va topshiriqlarni, otasidan farqli ravishda, mo‘g‘liy an’analarga sodiq bo‘lgan<sup>423</sup> Ulug‘bekning o‘zidan olar edi<sup>424</sup>. Hirotda esa 1417-yildan boshlab ommani boshqarish ishlari tepasida uzoq muddat (orada ayrim tanaffuslar bilan)<sup>425</sup> no Shohruxning vafotiga qadar G‘yosiddin Pir Ahmad Xavofiy turgan edi. Ulug‘bekning 1441-yilda vafot etgan<sup>426</sup> vaziri Nosir ad-din Nasrulloh Xavofiy G‘yosiddin Xavofiyning qarindoshi edi shekilli. Tarixchi Fasih Xavofiy uning kelib chiqishini zodagonlardan, olijanob, odamlarga mehribon shaxs edi, deb ta’riflaydi<sup>427</sup>.

Samarqandda (Ulug‘bekning) vaziri Hirotda bo‘ysinganmi yoki yo‘q – ma’jumotga ega rmasmiz. Davr qurilishlari, saroy hayotining dabdabaliligi va boshqalardan xulosa qilish mumkinki, mamlakat daromadlari Hirotda jo‘natilmay, Ulug‘bek ixtiyorida qolgan. E’tiborli holat shuki, Ulug‘bek davrida bir vaqtning o‘zida Shohrux nomidan tanga zarb qilingani holda, chingiziy “qo‘g‘rchoq” xonlar nomidan yorliqlar berib turilgan. Amir Temur davrida mazkur xonlar butun saltanat hukmdorlari hisoblanishar, Temurga bo‘ysingan barcha hududlarda tangalardan tortib, to xutbagacha o‘sha xonlarning va ular

---

422

423

424

425

426

427

bilan birga Temur nomiga o‘qilar edi<sup>428</sup>. Bundan farqli ravishda Samarqandni o‘ziga meros qilgan Halil Sulton Chingiziylardan xon ko‘tarish o‘rniga Temur avlodidan chiqqan vakilni xon qilib tayin qildi. Bu Muhammad Jahongir edi va ushbu”xonlik” maqomi Halil Sulton vafoti bilan barobar barham topdi. Hirotda Shohrux huzurida “qo‘g‘irchoq xon bo‘lmagan. Tarixchilar va shoirlar aksariyat hollrda Shohrux va unng avlodlarini xon deb ulug‘lashar edi<sup>429</sup>. Leki sulola vakillari bu unvonni rasmsn o‘zlashtirganlari to‘grisida aniq ma’lumot yo‘q. Aks holda “xon”lar Samarqandda ham qolishlari mumkin bo‘lmas edi. Ulug‘bek davrida “xon”lar harbiy yurishlarda qatnashmas edilar. Ular, nazarimizda, shaharning sharqiy tomonidagi so‘lim manzilda joylashgan “xon qo‘riqxonasi” deb atalmish joyda qulf-kalit ostida yashashgan. Temuriylar tarixchilari bu xonlar haqida yozisgmaydi va ularning ismlarini ham qayd etishmagan. Noma’lum muallif Iskandar qo‘llanmasida aytishicha, Sulton Mahmud xondan keyin uning o‘g‘li Abu Sa‘id bo‘lgan va u ushu asar yozilayotgan 1409 va 141 yillarda hali hayot edi<sup>430</sup>. biroq, Abu Sa‘id xon unvoniga ega bo‘lganmi yoki yo ‘q – ma’lum emas. Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”da<sup>431</sup> aytishicha, 1428 yilda Samarqandda qandaydir Satukxon xon bo‘lgan, lekin uning nasl-nasabi haqida hech narsa ma’lum emas. O‘scha 1428-yili Ulug‘bek Mazkur Satukxonni Mog‘listonga jo‘natib yuborgan ekan va uning o‘rniga boshqa kishini Samarqandda xon qilib ko‘targan<sup>432</sup>. Shohi zindaga kiraverish peshtoqidagi 838- (1434-35-milodiy) yilga oid yozuvda Ulug‘bekning murg‘k o‘g‘li Abd ul-Aziz “xon” deb atalgan<sup>433</sup>. So‘nggi marta Chingiziylardan Samarqandda “xon” qilib ko‘tarish Ulug‘bek o‘limidan keyin 1449-yilda ro‘y bergen<sup>434</sup>, lekin manbada uning ismi qayd etilmagan<sup>435</sup>. Ulug‘bekning, bobosi Temur singari, Chingiziylar bilan qarindoshlik yuzasidan o‘zini ko‘ragon deb

---

428

429

430

431

432

433

434

435

atagan. Bu unvon na Shohruxda van a uning boshqa og‘ilarida bore di. Ulug‘bek esa Sulton Mahmudning qizi, ona tomonidan O‘zbekxonga borib taqaluvchi birinchi xotini tufayli o‘zini ko‘ragon unviniga haqli hisoblagan bo‘lishi mumkin. Ulug‘bekning shu malikadan 1412-yilning 19-avgustida tug‘ilgan<sup>436</sup> qizi, katta buvisi kabi “xonzoda” deb atalar edi<sup>437</sup>. Sulton Mahmudxonning qizi Oqsultonbekaga uylangani<sup>438</sup> Ulug‘bekka ko‘ragon unvoni uchun yanada ko‘oproq huquq bergen edi. Biroq bu nikoh qachon tuzilganligi noma’lum. Holbuki, Ulug‘bekni Xofizi Abro‘ o‘zining 1417-yilga<sup>439</sup> qadar yozib bitirgan asarida *ko‘ragon* deb atagan<sup>440</sup>. Hirotga borib-kelib turganini hisobga olmaganda, Ulug‘bek temuriylar sultanatining boshqa viloyatlariga bormagan. Shohruxning yurishlarida ulug‘bek jo‘natgan erdamchi qismlar qatnashgan. Ulug‘bekning o‘zi esa, xatto uning hudulari yaqinida bo‘lganda ham, harbiy harakatlarda qatnashmagan. Movarounnahrda osoyishtalik o‘rnatilganidan keying voqealar davomida birinchi darajali masala Temur vafotidan keyin dasht o‘zbeklari tomonidan egallangan Xorazmda Temuriylar hukmronligini tiklash edi. 1413-yil boshida bu masalani Shohmalik Movarounnahrdan<sup>441</sup> yuborilgan qo‘sish ishtirokida bu masalhal qildi. Oltin O‘rdada ro‘y bergen o‘zaro ichki nizolar sababli hech qanday qarshiliksiz Shohmalik Xorazmda Temuriylar hukmronligini tikladi va aprel boshida Hirotga qaytdi. Ko‘p o‘tmay, Shohmalik Xorazm hokimi etib tayinlandi va o‘rniga o‘g‘lini qoldirib, 1426 yilda sodir bo‘lgan vafotiga qadar shu lavozimda qoldi. Ulug‘bekdan farqli ravishda Shohmalik shohruxning Garbga yurishlarida qatnashib, viloyatidan tez-tez safarlarga chiqib turgan. Ulug‘bek o‘zining ustozи, homiy otalig‘Shohmalik bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarida bo‘ldi. Xorazmga Shohmalikka yordam uchun yuborilgan qoshin 1418 yilda Samarqandga qaytib kelgan<sup>442</sup>,

---

436

437

438

439

440

441

442

degan ma'lumotlar ham bor. 1419 yilda Ulug'bek Buxoroga borganida Shohmalik navkarlar orqali salomlar yo'llab, unga qarchigaylar sovg'a qilgan<sup>443</sup>.

1413-yilda Shohrux bilan Iskandar o'rtasida Temuriylar sultanatining qayta birlashuviga olib kelgan urush urush oshlandi. Bu urushga Samarqanddan faqat (jangavor) fillar yuborildi. Movarounnahrda va Xorazmda turgan qo'shinlar chegaralarni qo'riqlash maqsadida o'zлari turgan yerda qoldirildi<sup>444</sup>. Farg'ona hukmdori shahzoda Ahmadni maslahatlashish bahonasi bilan Ulug'bek Samarqandga chaqirdi. Ulug'bekning mizojini bilgan Ahmad qo'rqib, Samarqandga kelishga jur'at etmadi. Ulug'bek Andijonga muzokaralar uchun amirlaridan biri Bayazid parvonachini yubordi. Shunday shart qo'yildiki, Ahmad bir necha kundan keyin o'z o'g'lini, garov sifatida bo'lsa kerak, Samarqandga jo'natishi lozim edi. 30 yoshga yetmagan Ahmadning katta yoshda o'g'li bo'lishi gumon edi. Ahmad va'dasini bajarmadi Ulug'bek qo'shin bilan Farg'onaga bostirib kirdi Ahmad qal'alarda qo'shin qoldirib, o'zi tog'larga qochdi. Ulug'bek Axsi va Andijoni olib u yerlarda o'z noiblarini qoldirib, ortga qaytdi. U ketgach Ahmad qo'shin bilan o'z viloyatiga keldi. Mog'olardan olgan yordamchi qo'shin bilan O'sh yonida Ulug'bek qoldirgan qoshini yengdi lekin Andijoni ololmadi U olib kelgan mog'ol qo'shini Farg'onani talon-toroj qilib Mog'olistonga qaytdi Ahmad Koshg'ar shahrida qoldi<sup>445</sup>. Ulug'bek Umar shayxning boshqa og'illariga qarshi kurashish uchun Farg'onaga o'z tashabbusi bilanmi yoki Sohruxning topshirig'i bilan yurish qildimi, bu bizga ma'lum emas. Shohrux esa, har holda bu ish uchun Ulug'bekka tanbeh bermadi. Lekin mas'ullikni ham zimmasiga olmadi. 1414-yilda Ulug'bek Hirotg'a otasi Shohrux tahti oldiga ta'zim bilan kelganida ukasi Boysunqur bilan yonma-yon birga edi. Tarixchi guvohlik berishicha, Shohrux shunday og'illari borligidan quvongan ekan<sup>446</sup>. Bu ham o'z navbatida Shohrux Ulug'bekning Farg'naga yurishda

---

443

444

445

446

ayblamaganidan dalolatdir. Biroq, 1415-yili<sup>447</sup> Shohrux Ahmadning, Farg‘onada asir olingan navkarlaridan birini Koshg‘arga, xojasi Ahmad huzuriga maktub bilan yuborib, 1414 yilgi voqealarni o‘z vaqtida to‘xtatish uchun Shohrux yo‘qligida anglashilmovchilik tufayli r‘oy bergen, deya uzrroxlik qilgan. So‘ngra o‘sha maktubda Ahmadni Hirotga taklif qilgan va butunlay kechirganini ma’lum qilgan<sup>448</sup>. Ahmad Koshg‘rda noib qoldirib, 1416-yil<sup>449</sup> bahorda hirotga keldi<sup>450</sup>. Farg‘onani unga qaytarish haqida so‘z ham bo‘lmadi. Aksincha Hirotda u qamoqqa olinib, boshqa shahzodalar bilan mayxo‘rlik ustida, go‘yo isyonkor gaplar gapirib, fitna uyg‘otgan, deb ayblandi. Shahzoda Ahmad ozod qilinib Makkaga jo‘natildi. Har holda Ahmad Makkadan qaytgani haqida biror ma’lumot yo‘q. Shundan 13-14 yil keyin yozgan Xofiz Abro‘ Ahmadni vafot etgan deb ko‘rsatgan<sup>451</sup>. Ahmad Koshg‘arda qoldirgan noib Shayx Ali to‘g‘on mazkur 1416 yilda Ulug‘bek bilan muzokaraga kirishib, “buyuk Amir Temur ruhi” panohiga kirdi. Ulug‘bek Koshg‘arga o‘z noiblarini Siddiqn va Alini yubordi. Shayx Ali To‘g‘n Koshg‘arni ularga topshirib, o‘zi Samarqandga keldi<sup>452</sup>. Ulug‘bek o‘sha 1416-yil 17- yoki 18 mart kuni qo‘shini bilan Sirdaryo bo‘yida Shohruxiya ro‘parasida turgan edi<sup>453</sup>. Oy oxirida daryordan kechib o‘tib, o‘ng qirg‘oqda bir necha kun qarorgoh tuzdi. Shu kunlarda Xorazmdan Oltin O‘rdada To‘xtmishning o‘g‘li Jabbor Berdi taxtga chiqqani, ilgari Temur xizmatida bo‘lgan Chingiz O‘g‘lonning mag‘lubiyati haqida xabarlar keldi. Bular Ulug‘bekni yurishni to‘xtatib ortga qaytishiga sabab bo‘ldi. 22 aprel kuni Samarqandga kirib keldi<sup>454</sup>. Aslida (Dashti qipchoqqa) o‘zbeklar ustiga yurish mo‘ljallangan edi.

---

447

448

449

450

451

452

453

454

Dasht o‘zbeklariga qarshi yurish 1419 yilga mo‘ljallangan edi. May oyida<sup>455</sup> o‘zbek shahzodasi, Temur urush olib brogan O‘rusxonning nabirasi Bo‘rak Ulug‘bek huzuriga yordam so‘rab keldi. Ulug‘bek uning qaytishiga izn bergach, dushmanlariga qarshi kurashida yordam ko‘rsatdi<sup>456</sup>. Balki shu voqeа sababli Ulug‘bek Samarcandda maxsus boshliq qilib dorug‘ani qoldirib<sup>457</sup>, o‘zi safarga otlangandir. Aftidan yurish uzoq vaqtga mo‘ljallangan edi. Qo‘shin Samarcandan avgust oxirida yo‘lga chiqdi<sup>458</sup>. Chinoz yaqinida 5-sentabr kuni qo‘shin Sirdaryodan kechib o‘tdi va Toshkentdan o‘tib Burlaq degan yerga etganida o‘zbeklar qo‘shini tarqab ketgani<sup>459</sup> haqida o‘sha qo‘shindan qochib o‘tgan navkarlardan xabar olindi. Bu xabarni savdogarlar ham tasdiqlashdi. Natijada Ulug‘bek safarni 22 oktabrga<sup>460</sup> qoldirishga qaror qildi va poytaxtiga qaytib keldi. Ozbek qo‘shini tarqalib ketgach, bo‘rak unga ajratilgan yordamchi kuch bilan, Ulug‘bekning asosiy kuchlari ishtirokisiz ham maqsadiga erisha oladi, deb tahmin qilingan ko‘rinadi. Bu tahmin o‘zini to‘la oqladi. 1423 yili Badhizda turgan Shohruxga Bo‘rakning muvaffaqiyatlari haqida Xorazm orqali kelgan xabarga ko‘ra Bo‘rak o‘zbek xoni Muhammadning o‘rdasini bosib olgan va O‘zbek ulusining ulkan bo‘lagi ustidan hukmronga aylangan. Bo‘rakning Mutlaq g‘labasi va “ota-bobolar taxtiga ega bo‘lgani” haqida xabar Ulug‘bekka 1425-yil boshida yetib keldi<sup>461</sup>.

Bo‘rakni o‘zining noibi hisoblagan Ulug‘bek o‘zbeklar tomonidan Movarounnahr xavfsizligi yetarli darajada ta’minlangan, degan holda o‘z e’tiborini boshqa tomonga, mog‘ollarga qaratdi. Mog‘olistonda ham, O‘zbek ulusidagi singari ichki nizolar avjida edi. Bular haqida Ulug‘bekka Koshg‘ardagi noib Siddiq xabar etkazib turar edi. 1416-yili Ulugbek saroyida Mog‘istonning yangi xoni, Muhammadxonning<sup>462</sup> vorisi Naqshi Jahon (Sham’i Jahon o‘gli)

---

455

456

457

458

459

460

461

462

nomidan elchilar keldi. O’sha yili noyabr oyida jo‘nab ketib, qishni Ulug‘bek Chirchiqda o’tkazdi va Xo‘jand yaqinida(?) turgan paytida harbiy mulohazalardan kelib chiqib, yurish boshlamadi. Qishlov vaqtida uning ixtiyorida bo‘lgan bir qancha Chingiziy o‘zbek asirlarni ozod qilib, vatanlariga jo‘natib yubordi. Shundan keyin 1418 yil fevralida Samarqandga qaytdi<sup>463</sup>. Mart oyida Mog‘ol xoni vafoti haqida xabar keldi. Aprel oyida Koshg‘ardagi noibdan batafsil ma’lumot olindi. Naqshi Jahon dushmani Vaysxon bilan jangda halok bo‘lgan ekan. Uning o‘rniga kelgan yangi xon Ulug‘bekka shoshilinch elchi yuborib, “hamjihatlik va yaxshi tilaklar” izhor etdi. Ulug‘bek esa bundan avvalroq, iyul oyidayoq Samarqand qo‘rg‘nida bandi etilgan mog‘ollarni ozod qilib yuborgan edi<sup>464</sup>. 1419 yili Shohruxning kenja o‘g‘li o‘n yetti yoshli Jo‘qi bilan mog‘ol malikasi o‘rtasida nikoh barpo bo‘ldi<sup>465</sup>. O’sha yili avgust oyida<sup>466</sup> Mog‘olistonda yana isyon ko‘tarilgani, dug‘lat amiri Xudoydodning qizi hukmdorga, aftidan, Vaysxonga qarshi<sup>467</sup> qo‘zg‘olon ko‘targani haqida Ulug‘bekka xabar keldi. Bu qo‘zg‘lon zimdan uning noiblari tomonidan uyshtirilgan va Ulug‘bek qo‘llab quvvatlagan bo‘lishi ham mumkin. Xudoydodning o‘zi esa kuzda Movarounnahrga o‘z navkarlarini yubordi va Ulug‘bek Oltin O‘rdaga yurish paytida ularni qabul qildi<sup>468</sup>. 1420-yilda Vaysxon bilan yana bir shaxzoda - Shermuhammad o‘rtasida Mog‘liston taxti uchun kurash bo‘lib o‘tdi. Ayni shu taloto‘p kunlarida Mog‘oliston orqali tarkibida Ulug‘bekning ham elchilarini bo‘lgan Temuriylarning elchilik missiyasi o‘tib bormoqda edi<sup>469</sup>. Elchilikning xavfsizligi Xudoydod tomonidan ta’milanmoqda edi<sup>470</sup>. Ulug‘bek o‘sha yili iyun oyida niyat qilgan Mog‘olistonga yurishida Xudoydodning xarbiy yordamiga ham umid bog‘lagan shekilli<sup>471</sup>. Biroq yurish hali boshlanmay turiboq, q’shin Sirdaryordan kechib ulgurmasdanoq qoldirildi. Bunga sabab kutilmaganda

---

463

464

465

466

467

468

469

470

471

Mog‘olistondan do‘stlik taklifi bilan mog‘ol amirlaridan iborat elchilar kelishi edi. Ular orasida keyinchalik Malik Islom nomi bilan mashhur bo‘lgan amir ham bor edi, Shu yili Ulug‘bek shohruxning G‘arbgaga yurishida qatnashish uchun 10 000 jangchidan iborat qo‘sishni jo‘natishi lozim edi<sup>472</sup>. Buning ustiga Ulug‘bek o‘z manfaati yo‘lida foydalanishni ko‘zlagan mog‘listondagi tazt uchun kurashda Vaysxon tantanasi bilan yakulandi. Ulug‘bek Samrqandga qaytishi bilan mog‘olistonda mag‘lub bo‘lgan Shermuhammad va bir necha amirlar kelishdi<sup>473</sup>. Ular bilan Sadri Islom ham bore di. Ulug‘bek avvaliga Shermuhammadni shartli muxtor asir holatda saqladi<sup>474</sup>. OKtyabr oyida shahzoda qochishga uringanda, uni majburiy qaytarib kelingan edi<sup>475</sup>. Biroq, dekabr oyida<sup>476</sup> Ulug‘bek uni ozod qildi. Bu safar, balki Ulug‘bekning amirlari yordamidadir, Shermuhammad Vaysxonni engib, Mog‘iston taxtini qaytarib oldi. Bu haqdagi xabar Ulug‘bekka 1421 - yilning may yoki iyun oyida yetib keldi<sup>477</sup>. O‘sha yili Temuriylar qo‘sishlarining Mog‘iston chegaralaridagi muvaffaqiyatlari haqidagi xabarlar ham olindi. 1420-yil oxirida yoki yanvar oyi boshlarida Koshg‘ardan Rux/h(?) qal’asi olingani haqida ma’lumot keldi. Biroq Rux/h qal’asining qayerda joylashgani, qanday qal’a ekani haqida aniq ma’lumot yo‘q. 1421-yil<sup>478</sup> oktyabrida Andijondagi noib ham harbiy yutuqlar haqida xabar yubordi.

Shunday qilib, Ulug‘bek Movarounnahrga chegaradosh har ikki ko‘chmanchi davlat taxtiga o‘ziga tobe shaxslarni – Bo‘rak va Shermuhammadni o‘tqazishga erishdi. Lekin bir vaqtlar To‘xtamish Temurning umidlirini qanchalar puchga chiqargan bo‘lsa, bu xonlar ham Ulug‘bekka shu qadar sadoqat ko‘rsatmadilar. Shermuhammad Mjvarounnahrga hujum qilmadi, lekin o‘zining Ulug‘bekka tobelligini tan olmaslikka moyil edi<sup>479</sup>. Ulug‘bek uchun shu sababning

---

<sup>472</sup>

<sup>473</sup>

<sup>474</sup>

<sup>475</sup>

<sup>476</sup>

<sup>477</sup>

<sup>478</sup>

<sup>479</sup>

o‘ziyoq biror arzimas bahona bilan mog‘ollarga qarshi urush boshlashga yetarli bo‘ldi<sup>480</sup>.

!416 yili Ulug‘bek koshg‘arga yuborgan noiblaridan biri bekrit qabilasidan chiqqan Ali edi. 1423-yilda shu shaxsning o‘g‘li mog‘ollar tomonga qochib o‘tdi. Ulug‘bek uni qaytarib berishni talab qildi. Muzokaralar Shermuhammadxon bilan emas, Sadri Islom unvonidagi amaldor bilan olib borildi. Ulug‘bek yurishi tafsilotlaridan ma’lumki, bu shaxs yana bir amaldor Malik Islom bilan birgalikda Balxash ko/li yaqinidagi Olyinko‘l degan joyda ulkan yer-mulkлага egalik qilganlar<sup>481</sup>. Sadri Islom 1424 yilda qochoqqa uning aybi uchun afv so‘rab chopar yuborishga va’da berdi. Bordiyu, iltimosi rad etilsa, Ulug‘bekning irodasiga bo‘ysinishini ma’lum qildi. Biroq, va’da qilingan elchilik na bahorda, na yozda kelmadi. Kuzda Ulug‘bek Mog‘olistonga yurish hozirligini ko‘ra boshladi. Lekin bu ish oldidan amir Hamzani Xurosonga, Shohruxni o‘z rejasi ehtimolidan xabardor qilish va ruxsatini olish uchun jo‘natdi. Shohrux o‘g‘lining maqsadini ma’qulladi. Ulu‘gbek 8-noyabr<sup>482</sup> kuni yurish boshlaab, Shohruxiya tomon harahatlandi va qishlovni u yerda o‘tkazishga qaror qildi. Avvalo Samarqand, Shahrisabz, Qarshi, Buxoro harbiy qismlari jamlandi. Movarounnahrning boshqa qo‘sishlari bular ketidan harakat qilishi lozim edi. Qo‘sinning markaz qismi Ulug‘bek bilan birga Sirdaryo bo‘yida Shohruxiya yaqinida, o‘ng qanot – Farg‘nada, so‘l qanot esa O‘trorda qishladi. Shu qishlov paytida Ulug‘bek huzuriga Bo‘rakning ota-bobolari taxtini qaytarib olganligi xabari hamda sovg‘salomlar bilan elchilar keldi. Ulug‘bek elchilarni sovg‘alar bilan kuzatish bilan barobar o‘zining nomidan elchilarni qo‘shib jo‘natdi.

Harbiy yurishga tayyorgarlik haqida Hirotg‘a xabar yetganda Shohrux avval o‘zi bergan roziligidan qaytib, uning elchilari ikki marotaba Ulug‘bek qarorgohuga kelishdi. Ulug‘bek esa bu harakatlar otasi roziligi bilan boshlanganini eslatishga va agar, Sirdaryo bo‘yida shuncha qo‘sish to‘planib

---

480

481

482

turgani chog‘da yurish bekor qilinsa, dushmanlar nazdida ojiz ko‘ronish xavfi borligini aytib, (qarorida qolishini asoslashga harakat qildi). Elchilar shu javobni olib, Hirotga qaytdilar. Shohrux fikridan qaytmadi, biroq o‘g‘lini o‘z hukmiga bo‘ysinishga majbur ham qilmadi.

Yurish 1425-yil 17-fevral kuni boshlandi<sup>483</sup>. Qo‘shin Chinoz yaqinida Sirdaryodan kechib o‘tdi va Toshkentga yetib keldi. Shu yerda qo‘shinning Markaz qismi bilan o‘ng va so‘l qanotlari birlashdi. Mog‘ollar Ashparada qishlashgan edi. Bu chegara manzil aftidan sal avval ularning qo‘liga otgan bo‘lsa kerak. U yerdan Tug‘temurning o‘g‘li Ibrohim boshchiligidagi ilg‘or qism Talas tomonga yo‘lga chiqqan edi. Ulug‘bek ularga qarshi 30 000 kishilik bo‘linmani jo‘natdi. Dushmanni g‘aflatda qoldirib, to‘satdan bostirib borish uchun yo‘llarda gulxan yoqishni ta’qipladi. Bo‘linma bir-ikki qyulni talon-toroj qilgandek ko‘orinish hosil qilib o‘ljalar bilan qaytmog‘i lozim edi. Dushmanda tasodifiy hujum kabi taassurot qoldirilishi kerak edi. Biroq bu xufyona harakat natija bermadi. Uylari talangan xonadon vakillaridan bir kishi qochib borib, mog‘il Ibrohimga “chig‘atoylar qo‘shini yaqin” degan xabarni yetkazdi. Ibrohim Issiqko‘l tomonga shoshilinch chekindi. Qizilsuv bo‘yida (bu manzil, voqealar davomidan ayon bo‘lishicha, Oqsuv bilan Buam darasi orasidagi daryolardan biri yoqasida bo‘lsa kerak) chigatoyi qismlar 3-mart kuni<sup>484</sup> mog‘ollarning bir bo‘limiga yetib oldilar<sup>485</sup>. O‘ljalar bilan ortga qaytib, Ashparada to‘xtadilar va Ulug‘bekning asosiy qo‘shinini shu yerda kutib olishga qaror qildilar. Ibrohim Buam darasiga etib oldi. U yerda dug‘lat amiri, bir vaqtlar Temur bilan jang qilgan Qamariddinning o‘g‘li Jahonshoh turgan edi. (Ulug‘bek kelayotganini bilgan) Jahonshoh qochib qolmoqchi bo‘lib turganida Ibrohim uni chig‘toylarga qarshi jang qilishga va o‘ljalar olishga ko‘ndirdi. 5-mart dushanba kuni<sup>486</sup> oqsuv bo‘yida mog‘ollar chig‘atoy qismlari ustiga bostirib keldilar. Jang bo‘lib o‘tdi va chig‘toylar foydasiga hal b’ldi. Ibrohim, uning ikki o‘g‘li va jiyani halok bo‘ldi.

---

483

484

485

486

G‘oliblar mag‘lublarning kallalaridan minora yasadilar. Ibrohimning kallasini Ulug‘bekka jonatdilar va o‘zлari Ashparaga qaytdilar. Jahonshoh Chongkeminga chekindi.

Ulug‘bek asosiy kuchlari bilan Ashparaga keldi va keying harakatlarga tayyorgarlik uchun bu yerda o‘n kun to‘xtadi. Arslonxo‘ja tarxon boshchiligidagi bei ming kishilik tuzilmani Jahonshohga qarshi jo‘natdi. Arslonxo‘ja Cho‘ngkemindan Issiqko‘l tomon qochib ulgurgan Jahonshohga ueta olmadi. Arslonxo‘ja asosiy qo‘shindan uzoqlashib ketmaslik uchun Jahonshohni ta’qib qilishdan voz kechdi. Bundan tashqari Arslonxo‘ja dushman qismlari qandaydir dovon oshib<sup>487</sup>, Chilek va Charin<sup>488</sup> oralig‘da turgan mog‘ollar qarorgohiga borib qo‘shiladi, degan gaplardan ham xabardor edi. Qandaydir chiqib borich qiyin bo‘lgan tog‘lik manzilda Arslonxo‘ja dushmanni yakson qilib, oljalar bilan Chilekda Ulug‘bekning asosiy qismlari bilan birlashdi<sup>489</sup>. Bu yerga u Cho‘ng Kemin orqali yetib kelgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emnas. Ulug‘bek Chilekka qadar jiddiy qarshilikka uchramay yetib bordi. Bosib o‘tgan yo‘li bo‘yicha ma’lumki, u Chu daryosini kechib o‘tgan. Eng qisqa yo‘l Kastak dovoni orqali bo‘lgani holda, dovondan qor ketmagani tufayli boshqa yo‘lni tanladi. Bu yo‘l tahminan hozirgi (Bartol’d ushbu satrlarni yozayotgan vaqtdagi – tarj.) pochta yo‘oliga to‘g‘ri kelsa kerak. Oqsuvda mashvarat bo‘ldi. Dastlab Oltinko‘lga, Sadri islom va Malik Islom ustiga yurish taklifi qo‘yildi. Ko‘pchilik bunga qo‘silmadi Ikkinchи taklifga ko‘ra m og‘ollarning asosiy kuchlariga yetib, ularni yo‘q qilish, Shermuhammadning qochib qutilishiga yo‘l qo‘ymaslik masalasiga kelishildi. Chilek va Charin o‘rtasidagi voqealar batafsил bayon qilingan. Ammo ularda keltirilgan bir necha geografik nomlarning o‘rnini aniqlashning iloji yo‘q. Hozirgi xaritalarda ular uchramaydi. Chilekdan qo‘sinning 1000 kishilik ilg‘or qismi va shaboxun (razvedka) qilish uchun 20 otliq olg‘a jo‘natildi. Yo‘lda olov yoqvaslik qat’iy tayinlandi. Ehtiyyotgarlikka xojat ham qolmagan ekan, Abishga

---

487

488

489

borgunch yo‘lda bo‘linma biror dushmanni uchratmay, Ulug‘bek huzuriga qaytib keldi. Ulug‘bek Abishga boraverishda Buralg‘u degan joyda tosh va tuproqdan *obu*<sup>490</sup> deb atalmish qorovul minorasi qurishni buyurdi. Abishdan turib Ulug ‘bek shaxsan o‘zi shu yaqin atrofda tepalikda turgan mog‘ollar ustiga yurish qildi. Lekin to‘qnashuv bo‘lmasdanoq mog‘ollar qochib qolishga va ularga yetishning iloji qolmagan edi. Abishdan keyin Qo‘smbuloq degan joyda Ulug‘bek huzuriga amir Xudoydoddan tobelik bildirib elchilar keldi. Ular sovg‘a-salomlar bilan kuzatib qo‘yildi. Bundan biroz keyinroq Arpa yozi degan manzilda Ulug‘bek Jahonshohning Issiqko‘lda ekanini, uning yo‘lini to‘smoq uchun Sadri Islom va Malik Islomlar bilan birlashmoqchi ekanini bildi. Bunga qarshi Jahonshoh Mulki chegarasidagi Santosh dovonini egallash uchun harbiy bo‘linma yubordi<sup>491</sup>. Dovonda Jahonshohning ilg‘or qismi bilan to‘qnash kelindi. Erkaklari qirib tashlanib, ayollar va bolalar asir olindi. Arpa yozidan Ulug‘bek Chrinni kesib o‘tib, Toshbo‘ynoq va Qizilsuvga yetganda huzuriga Xudoydod keldi. Ilgari Ulug‘bek Xudoydodning samimiyligiga ishonmas, xatto, zarur bo‘lsa, uni kuch bilan olib kelish uchun 1000 kishilik harbiy bo‘linma ham yuborgan edi. Lekin Xudoydod o‘z oyog‘I bilan kirib keldi va izzat-hurmat bilan kutib olindi<sup>492</sup>. O‘sha yerda Ulug‘bek Sadri Islom va Malik Islomlar Oq Quyosh (Ili daryosi bo‘lsa kerak)<sup>493</sup> bo‘yida turishganini, maqsadlari u yerdan harakatlanib, Shermuhammad qo‘shini bilan birlashuv ekanini bildi. Ularga qarshi Ulug‘bek 20 000 ming askar va qo‘shimcha Santoshda turgan 3000 kishilik bo‘linmani yubordi. Ammo dushmanlar o‘z vaqtida Teke<sup>494</sup> suvini kechib ulgurib qolishdi. Ularni ta’qib qilish maqsadga muvofiq deb topilmadi. Amir Xudoydodning iltimosiga ko‘ra qishda qattiq aziyat chekkan bir qism odamlarini Ulug‘bek askarlari nazorati ostida Samarqandga jo‘natildi. Xudoydodning o‘zi Ulug‘bek huzurida qoldi. Uning eng yaqin mulozimi Shoh Darvesg ko‘kaldosh mazkur 20 000 ming kishilik bo‘linmaga qo‘shib yo‘l boshlovchi qilib jo‘natildi. Shoh Darvesg ko‘kaldosh ilgari

---

490

491

492

493

494

Ili daryosi yoqasida turgan qo'shin endi tog'da mustahkam o'rnashgani, Shermuhammad esa Tekes ortida oilasi, karvoni, poda, suruv, uyurlarini qoldirib, kuchlarini Kenmontepada to'hlagani kabilarni aniqladi<sup>495</sup>. Ketmontepa yonida ikki qo'shin o'rtasida jang bo'lib o'tdi. Lekin manbalarda Ulug'bekning qo'shini turgan joy Bo'gutu daryosi yoqasi, boshqa bir necha manzillar nomlari kabi ko'rsatiladi. Yo'l ustida Ulug'bek askarlari sonini dushmanga vahimali darajada ko'p qilib ko'rsatish uchun har bir jangchiga besh joyga gulxan yoqishni buyurdi. Ko'chmanchilarda bu harbiy ayyorlik usulining alohida nomi ham bor<sup>496</sup>.

Jang tafsilotlariga qaraganda, Ulug'bek yaxshi qo'riqlangan qarorgohida tog'osha tepadan tushib keladigan dushman hujumini kutmoqda edi. Har ikki tomondan hujumkor harakatlar qo'shirlarning o'ng qanotlari orqali olib borildi<sup>497</sup>. Jang mog'ollarning mag'lubiyati bilan yakunlandi. Asirlar Ulug'bek huzuriga keltirildi va uning farmoni bilan qirib tashlandi. Mog'ollarni uzoq muddat kuchdan qoldirish maqsadida ularning pod ava suruvsalarini, mol-mulklarini bosib olindi va mog'ollarning "Qarshi" \* deb atalmish yozlik qarorgohi tomon yurish buyurildi<sup>498</sup>. Og'irlashib ketgan o'g'ruqning harakati sust edi. Ulug'bekning o'zi ilg'or qism bilan Oq Quyosh (Ili) daryosini kechib o'tdi<sup>499</sup>. Qo'shining bir qismini Ili daryosining quyi tomoniga jo'natdi. O'zi esa bir necha daryolarni ko'priksiz kechib Tekes tomonga yurdi. Buning uchcun avval Ilining so'l qig'og'iga otib, keyin Tekesni kechib o'tgach, Kunges<sup>500</sup> qirg'og'iga etgan. Bu yurish davomida tog'da yashiringan bir necha mog'ol harbiy to'dalari qirib tashlandi. Kungesdan Ulug'bek Qarshi tomon yo'oldi va u yerdan ortga qaytdi.

Qo'shining qaytishini uning ortida ro'y bregan voqealar tezlashtirgan shekilli. Santashni qo'riqlash uchun qoldirilgan qismning chaqirib olinishidan

---

495

496

497

\* Mo'g'ul tilida "saroy, qo'rg'on" ma'nosi "qarshi" so'zi bilan ifodalanadi. Bu o'rinda hozirgi Qashqadaryo viloyatining ma'muriy markazi Qarshi shahri ko'zda tutilayotgani yo'q. – tarj.

498

499

500

foydalanim, Jahonshoh issiqko‘ldan chiqib usbu dovon orqali osha borib. Xudoydodning Ulug‘bekaskarlari qo‘rig‘da Savarqandga jo‘natilgan odamlariga hujum qilish, mol-mulkini tortib olish harakatiga tushdi. Bu haqda bilgach, Ulug‘bek tezda g‘arb tomonga qo‘shin jo‘natdi. Tez orada ma’lum bo‘ldiki, Jahonshoh muvaffaqiyati davomida Abish tomonga yurmay, Issiqko‘lga qaytdi.Uning yo‘lini to’siish uchun Ulug‘bek ikki saf qo‘shin yubordi. Biri Arslonxon boshchiligidagi Buam darasi orqali, ikkinchisi boshqa yo‘ldan<sup>501</sup> harakat qildi, Issiqko‘lning janubi bo‘ylab bo‘lsa kerak. Arslonxon Jahonshohning Issiqko‘ldan chiqib, Qo‘chqor vodiysi va Lumgal orqali Ga‘rbga ketganini bilib, izidan ta’qib qilishga qaror qildi. Ikkinci bo‘linmaning boshliqlari Muhammad, Iskandar, Shoh Vali faqat dushman qochganini bilishar. uni qauvib yetishga harakat qilishar, lekin ularga to‘satdan hujum qilib qolishi mumkin deb sira ham o‘ylashmas edi. Xatto qo‘shinlari janovor safda ham emas edi. Shu vaqt to‘satdan ahonshoh qo‘shini ular ustga tashlandi. O‘shinning katta qismi shu zahotiyog qochishga tushdi. Kam sonli qolgan boshliqlargina amallab qarshilik ko‘rsatib turishar edi. Tezlik bilan Arslonxonnin yetib kelishi sababli Bo‘linma omon qoldi. Arslonxon do‘stlari og‘ir ahvolda qolganini bilib, Jumgal orqali ayni vaqtida yetib kelgan edi. Mog‘ollar esa uning kelayotganini uzoqdan ko‘riboq tog‘ tomonga qo‘chib qolishdi. Shu paytda Ulug‘bek Issiqko‘lning shimolida Temur qurgan qal’ada edi<sup>502</sup>. Voqeadan xabar topib. Yordam uchun 2000 otliqdan iborat jangchi jo‘natdi. Ammo dushmani quvib yetishning iloji bo‘lmadi. Uquvsizliklari uchun Muhammad, Iskandar va Shoh Valiyalar Ulug‘bekning darg‘zab dashomlariga uchradilar. Keyinroq Xudoydodning yon bosishi tufayli afv etildilar. Qarshi qo‘rg‘onida saqlangan, aytishlaricha, Xitoy imperatorlari ular uchun katta pul va’da qilgan ikki bo‘lak nefrit toshini olib<sup>503</sup>, Samarqandga yetkazish vazifasi topshirilgan 2000 kishilik bo‘linma boshqa yo‘ldan ketgan ko‘rinadi. Ikki bo‘lak nefrit Samarqandga yetkazilgach, Temurning qabriga o‘rnatalgan<sup>504</sup>.

---

501

502

503

504

Ulug‘bekning harbiy yurishidan yodgorlik sifatida ushbu tosh yuzasidagi bitigdan tashqari Ilono‘tdi darasida qoyaga o‘yilgan mashhur bitik qolgan. Biroq bu bitik haqida yozma yodgorliklarda eslatilmaydi.

Ulu bek Samarqandga 27-iyun kuni yetib keldi. Yurishning muvaffaqiyatli yakuni bir necha kun bayram qilindi. Erishilgan galaba haqidagi xabar allaqachon Hirotga ham yetib brogan, Sohrux va uning hukumai a’yonlarining xavfsirashlariga chek qo‘yilgan edi. Shohrux uning ruxsatisiz amalga oshirilgan yurishdan norizolik kayfiyatidan chiqib, mamnun bo‘ldi. 28 oktyabrdan<sup>505</sup> Ulug‘bek Hirotga keldi. Shohrux uni dabdaba bilan kutib oldi. Bu yerda ham erishilgan g‘alaba bayram qilindi. Ulug‘bek Hirotda Hirotda 10-noyabrgacha<sup>506</sup> bo‘lib, bir haftadan keyin Samarqandga yetib keldi.

Ulug‘bekning Harbiy shon-shuhrati uzoq cho‘zilmadi. Dasht O‘zbek xonligida 1425 yilda Ulug‘bekka sadoqat va’da qilgan uning noibi Bo‘rak 1426 yili Sirdaryo bo‘yidagi Jo‘ji avlodlariga tegishli bo‘lgan va faqat Temur davrida Chig‘atoy davlatiga qo‘shib berilgan yerkirada da’vogarlik qilib bosh kotardi. Chig‘atoy tarixchilaridan biri, muallifi noma'lum Iskandar qo‘lyozmasida XIV asr o‘zbek xonlaridan biri, Sig‘noqda dafn qilingan Erzene Sasi Bo‘ke o‘g‘li O‘tror, Sovron, Jand, Barchkent<sup>507</sup> shaharlarida ko‘plab xudoga ma’qul xayrli ishlar qilgan, madrasalar, xohaqa, masjidlar qurgan emish<sup>508</sup>. Jand, barchkent shaharlari XIV asr oxiriga kelib yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lsa kerak. Lekin Sig‘noq yana bir necha asr davomida ahamiyatini yo‘qotnagan. 1377 yilda bu yerda Bo‘rakning bobosi, Temur qo‘llab quvvatlagan holda To‘xtamish bilan urush olib borgan O‘rusxonning qarorgohi bor edi. Sig‘noqning tiklanishini O‘rusxonga bog‘lashadi. Shu sababli Bo‘rak shariatga muvofiq va odatga ko‘ra Sig‘noq shahri bobosidan meros sifatida unga tegishli bo‘lishi kerak deb da’vo qildi. Ulug‘bek Bo‘rakning da’volari haqida o‘z noibi Arslonxo‘ja tarxondan eshitdi va dasht

---

505

506

507

508

o‘zbeklari ustiga yurishga qaror qildi. Bu haqda Shohruxni xabardor qildi. Bu gal ham Shohrux o‘tgan safar ikkilanib bo‘sса ham Ulug‘bekka yordam kuchi jo‘natgani kabi, boshqa o‘g‘li Jo‘qi boshchiligidа 1727-yil 15-fevralida yordamchi kuch jo‘natdi<sup>509</sup>. Jo‘qi Samarqanddan Sig‘noq yo‘lida Ulug‘bekka kelib qo‘sildi. Birlashuvdan keyin ikkala shahzoda o‘zlarini shu qadar qudratli his qildilarki, xuddi 1425 yilda Ulug‘bekning lashkarboshilari Jumgalda hech qanday ehtiyot choralar ko‘rmay xotirjam turganlarida B rakdan elchilar afv va tinchlik so‘rab kelib, itoat bildirganlrida rad javobi berilgani kabi beparvolik ko‘rsatdilar. Sig‘noq yaqinidagi adirlikda o‘zbeklarning ko‘p ham katta bo‘lmagan qo‘sini shahzodalarga hujum qildi. Chig‘atoylar ga‘flatda qolishib, qochib qolishdi. (Shahzodalar qismlari yolg‘izlanib qoldi). Ulug‘bek bilan Jo‘qini jang maydonini qutqarib olib chiqishdi.

Ulug‘bekning mag‘lubiyati Movarounnahrda shunday holatni uyg‘otdiki, Samarqandda bir shu’ba paydo bolib, mag‘lub qo‘singa shahar darvozasini ochmaslikni talab qildi. Oliy amakdorlar vaziyatni o‘nglashdi. Ulug‘bek va Jo‘qi Samarqandga qaytishdi. G‘oliblar Samarqandgacha yetib kelmasalarda, mamlakatni talon-noroj qilishdi. Hirotga bu xabar mart oyidayoq yetib brogan edi<sup>510</sup>. 2-aprel chorshanba kuni Ulug‘bekning elchilari Hirotga borishdi. Shohrux 21-fevral kuni yomon niyatli kishi tomonidan unga yetkazilgan jarohatdan to‘la tuzalib ketmagan edi. Biroq o‘g‘liga harbiy bo‘linma va pul mablag‘jo‘naatdi. Kasalmand shahzoda Jo‘qi Samarqandda qoldi. Ulug‘bek Jo‘qiga tegishli Qandahor va Hirot qo‘silarini o‘zining qo‘sini qo‘sib oldi. Sirdaryodan kechib o‘tib, Toshkentga keldi vas hu yerda o‘zbeklar dashtga qaytib ketganini eshitdi. Shunday qilib xavf ortda qoldi. Shunga qaramay 28-may kuni Hirotdan qo‘sini bilan Shohrux yo‘lga chiqdi. O‘g‘li Boysunqur u bilan birga edi. Uning qo‘sini bilan birga kelayotgani Ulug‘bekni tashvishga solib qo‘ydi. Ulug‘bek Movarounnahrni undan olib, otasi Boysunqurga beirishi mumkinligidan xavfsiraganedi. Ulug‘bekning astoydil xohishi bilan Boysunqur Balxdan Hirotga

---

509

510

qaytib ketdi<sup>511</sup>. Shunga yaqin vaqtida Shohruxning qo'shini Amudaryo bo'yiga yetdi. Qo'shin 200 dona qayiq yordamida amalga oshirildi. Kechuv bir oyga yaqin davom etdi. Ulugbek o'z qo'shinin Toshkentda qoldirib, o'zi otasi huzuriga Termizga keldi.. Shohruxning qo'shin ahvoli haqidagi savoliga javoban Ulug'bek otlarning katta qismidan ajralganini aytib berdi. Shohrux Toshkentdag'i qo'shinni tarqatib yuborishga buyurdi.

Shohrux Samarqandga kelib, u yerda 6-o'ktabr dushanba kunigacha turdi<sup>512</sup>. Mag'lubiyat uchun aybdorlar javobgarlikka tortilib, tayoq bilan kaltaklandi. Ulug'bek qattiq tanbehlardan keyin bir muddat noiblkdan chetlatildi. Biroq (otasining) himmati va oljanobligi yuzasidan hukmronlikni qaytarib oldi.

1427-yildagi tanbeh va dashnomlar Ulug'bek hukmronligining keying davrida chuqur iz qoldirdi. Keyingi yigirma yil davomida o'zi mustaqil holda birorta ham harbiy yurish qilmadi. U jo'natgan bo'linmalarning harakatlarida ham aytarlik yaxshi yutuqlar ko'rinnadi. Shu davr oxiriga kelib xatto mog'ollar ham, dasht o'zbeklari ham Ulug'bekning hududlariga javobsiz bosqinlar qiladigan bo'lib qolishdi. Xatto 1425-yildagi G'olibona yurish ham unga qisqa muddatli harbiy shon-shuhrtan boshqa jiddiy foyda keltirmadi. O'sha yurish haqidagi manbalardan ma'lumki, Ulug'bek urush maydoni mog'olistondan shoshilinch qayta boshlagan. Uning ortidan harakatlangan bo'linmalarning ba'zilari jiddiy zarar ko'rdilar. Ishg'ol qilingan yerlarda garnizonlar qoldirish, qal'alar qurish, ko'chmanchilarining biylarini itoatga keltirish – bu kabi choralar ko'rilmagani haqida gapirmasak ham bo'ladi. Ulugbekka boysingan dug' lat amiri Xudoydod u bilan birga Movarounnahrga ketdi, u yerdan, Makkaga jo'nadi va Madina shahrida vafot etdi. Xudoydodning qarindoshi bo'lmish tarixchi Muhammad Haydar Vaysxonga uning xiyonatini xatto oqlaydi. Zero, Vaysxon Xudoydodning ko'p vaqtadan beri orzu qilgan xaj ziyoratiga ruxsat bermagan va Xudoydod shu yo'l bilan bu niyatiga erishgan emish<sup>513</sup>. Xudoydodning boshqa

---

511

512

513

qarindoshlari unga ergashib, Ulug‘bek bilan aloqalarga kirishmadilar. Xudoydodning o‘g‘li esa, otasining xiyonatiga qaramay, Vaysxon tomonidan Mog‘olistonning “ulus amiri” etib tayinlandi<sup>514</sup>.

Shermuhammadxon tez orada kasallikdan vafot etdi<sup>515</sup>. Shundan keyin hokimiyat qaytadan uning sobiq raqibi Vaysxon qo‘liga o‘tdi. Ulug‘bek unga qarshi Samarqandning “qo‘g‘irchoq” xoni Satukxonni qo‘sish bilan Mog‘olistonga jo‘natdi. 1429-yil chamasi (yoki arafasida) Issiqko‘l bo‘yida Satukxon bilan bo‘lib o‘tgan jangda Vaysxon halok bo‘ldi. Biroq Satukxonning o‘zi ham Koshg‘arga qochib, u yerda Xudoydodning o‘g‘li Qoraqul Ahmad Mirzoning shahar ustiga bosqini paytida o‘ldirildi. Qoraqul Ahmad Mirpzo Ulug‘bek qo‘sini tomonidan asir olinib, Samarqandga jo‘natildi va u yerda nimtalab o‘ldirildi.

Bularni hikoya qilgan yagona tarixchi Muhammad Haydar voqealar vaqtini tayin qilib ko‘rsatmagan. Bundan tashqari chig‘toular va mog‘llar o‘rtasida Koshg‘ar uchun kurashda Qoraqul Ahmad Mirp zoning bosqini, uning asir olinishi kabi voqealarning or‘ni qanday bo‘lgani mavhumligicha qolgan.

Muhammad Haydarning so‘zlariga qaraganda<sup>516</sup> dug‘lat amiri, Xudoydodning nabirasi Sayid Ali va Ulug‘bekning noibi bo‘lmish Oqsuv hukmdori o‘rtasida Koshg‘ar uchun kurash davom etgan. Sayid Aliga qarshi 30 000 lik qo‘shindan 7000 kishini olib Muhammad Shoyista yurishga chiqdi. Jang Koshg‘ardan uch farsah masofada bo‘ldi. Chig‘atoylar o‘z boshliqlarini qoldirib, jang maydoninidan qochdilar va shu sababli, tarixchi aytishicha, mog‘ollarda “**salay begum**”, ya’ni ‘men amirimni tashlab ketaman”, - degani ekan. Aholi qochoqlarni shaharga kiritishibdi. Mog‘llar esa, viloyatni tflon-toroj qilib, o‘ljalar bilan qaytib ketishibdi. Keyingi eil yana shunday bosqin uyuştilildi. Shahardagi noib devordan tashqari chiqmadi va dushmanga (mog‘llarga) yurtni bemalol talashlarga jim qarab turaverdi. Mog‘ollar qo‘sni

---

514

515

516

qasrlardan birini egalladilar va oljalar bilan qaytdilar. Muhammad Haydar xabariga ko‘ra, 1416 yili Temuriylarga Koshg‘arni topshirgan Xo‘ja Sharif, endi yordam co‘rab Samarqandga jo‘nadi. Ulug‘bek Koshg‘ardagi noibini chaqirib oldi, o‘rniga boshqasini, Pirmuhammad ismli kishini qo‘ydi. Mog‘ollar uchinchi marta bostirib kelib yurtni talaganlarida Pirmuhammad ham ularning yo‘lini to‘sma olmadi. Uchinchi bora yo‘qotilgan hosil tufayli Koshg‘ar yurti ochlikka mahkum bo‘lish xavfi paydo bo‘ldi. Xo‘ja Sayid roziligi bilan aholi mog‘ollar bilan muzokaraga kirishdilar. Pirmuhammadni bog‘lab Sayid Aliga topshirildi va u o‘ldirildi. Sayid Ali Koshg‘rga kirib keldi va tarixchining aytishicha bu yerda 24 yil, to vafotiga qadar hukmronlik qildi. Uning vafot yili tarixchi (Muhammad Haydar) Koshg‘arda bo‘lgan paytida hali mavjud maqbarada ko‘rsatilgan xijriy 862 yilda ro‘y bergen edi. Bundan kelib chiqadiki, Sayid Ali Koshg‘arni xijriy 838-, milodiy 1434- yoki 1435-, aniqrog‘i, 1435-yilda bosib olgan<sup>517</sup>. Chunki mamlakatni gorat qilingani ekinlar hosilga kirgan vaqtida ro‘y bergen edi. Bu sanalar bo‘ycha fikr yuritilsa, bu vaqt tarixchining Temuriylar Koshg‘arda 40 yil davomida hukmronlik qilganlar, degan xabari bilan mos kelmaydi<sup>518</sup>. Muhammad Haydar kitobida xronologik chalkashliklar tez-tez uchrab turadi. Voqealr bayonidagi izchillik ham ba’zan shubha uyg‘otadi, zero, asosan u XVI asr o‘rtalarida og‘zaki naqlardan foydalanib yozgan. Koshg‘arning mog‘llar tomonidan bosib olinishi tafsiloti umuman to‘g‘ri yoritilgan. Chindan ham ko‘chmanchilar XIII asr boshida nayman hukmdori Kuchlukxon boshchiligidida shaharlarni bosib olmay turib, ularni qamal qilgan holda yetishtirilgan hosilni ketma-ket yo‘qilish yo‘li bilan taslim bo‘lishga majbur qilgan edi<sup>519</sup>. tog‘lar orqali Farg‘ona va boshqa madaniy mintaqalardan ajralib joylashgan Koshg‘arga yetarli miqdorda oziq-ovqat etkazish imkonsiz deb tan olingan edi. Yashagan va ijod qilgan yillari mazkur voqealarga yaqin bo‘lgan mualliflar Temuriylar qanday qilib Koshg‘arning qo‘ldan ketishihaqida hech narsa demaydilar. Abdurazzoq Samarqandiy asardan ma’lumki, 1434-yilda Ulug‘bek Mog‘olistonga yuborgan

---

517

518

519

qo‘shiiн “g‘alaba bilan”<sup>520</sup> qaytib kelgan. Lekin erishilgan yutuq nimadan iboratligi sharxlanmaydi. Mog‘olistondan Samarqandga Vaysxonning o‘g‘li Yusuf boshchiligida Mog‘olistondan qochoqlar kelgani haqida Muhammad Haydardan tashqari Bobur Mirzo ham yozgan voqeа-hodisalar haqida Abdyrazzoq deyarli hech nima demaydi. Vaysxon v Satukxonning o‘limidan keyin Mog‘olistonda Vaysxonnig ikki murg‘ak o‘g‘li Yunus va Eson Bo‘ka tarafdorlari o‘rtasida kurash bo‘lib, Eson Bo‘ka tarafdorlari yutib chiqdi. Yunus bilan birga uning tarafdorlari boshliqlari Erazan, Miraki Turkman hamda 3-4 ming oila<sup>521</sup> Ulug‘bek huzuriga qochdilar. Emishki, Ulug‘bek bundan avvalroq o‘g‘li Abdul Azizni YUnusning singlisiga uylantirgan. Ulug‘bekning buyrug‘i bilan mog‘ollar boshliqlarining jonlari xiyonatkorona olinibdi (ularni bir darvozadan oziq-ovqat, kerak-yaroq bilan ta‘minlashga va’da berib, arkka kiritihisib, chiqbsh darvozasida tutib bog‘lashibdi). Qatl qilinganlardan qolganlarning bir qismini asir qilinib, boshqa ko‘plarini turli viloyatlarga tarqatib yuborishibdi. Yunusni o‘ljaning beshdan bir hissasi bilan Shohrux huzuriga jo‘natildi. Xirotda shahzoda yaxshi kutib olinib, keyin Garbga jo‘natildi. Bir yil u yerda Turkman sultonи Jahonshoh huzurida turgach, Shohrux o‘g‘li shahzoda Ibrohim huzuriga uning o‘limidan 5-6 oy oldin Sherrozga keldi va 1435-yil 5-6-may kuni sodir bo‘lgan vafotiga qadar shu yerda yashadi. Boburning bu so‘zlariga qaraganda Samarqanddagи mog‘ollar boshliqlarining qирг‘ини 1433-yilda<sup>522</sup> bo‘lgan ko‘rinadi. Mog‘ollarda bu voqeа shunday chuqur iz qoldirganki, xatto yil hisobini shundan boshlash odati paydo bo‘lgan. Abdurazzoq Samarqandiyning mog‘ollarga qarshi harbiy qism yuborilgани, Koshg‘ар uchun mog‘ollar bilan chig‘atoylar o‘rtasidagi kurash haqidagi xabarları shu voqealar bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Ulug‘bek o‘limidan keyingacha ham yashagan Esan Bo‘ka xon bo‘lgan davrida mog‘ollar Temuriylar hududlarida hech qanday qarshilikka uchramay, biror bir zazolanmay talon-toroj ishlarini davom ettiraverilar. Muhammad Haydar mog‘ollar Olabuqa va Issiqko‘lda qal’alar qurib, biridan

---

520

521

522

Farg‘naga, ikkinchisidan Sayram tomonga, xatto Turkistongacha bosqinlar qilish uchun foydalanishgani haqida yozgan<sup>523</sup>. Ulug‘bekning umri poyonida ro‘y bergen mojarolar davrida Esan Bo‘ka bir muddat Andijonni olgan va Konibodomgacha bostirib kelgan<sup>524</sup>.

1427-yildan keying davr uchun Ulug‘ bekning o‘zbek xonlari bilan aloqalari haqida ma’lumotlar yana-da kamroq<sup>525</sup>. 1429-yily Shohrux G‘arbiy Eronda turgan paytida Ulu bekdan Bo‘rakxon o‘lgani haqida xabar kelgan. Bo‘rakxon qandaydir Sulton Mahmud o‘g‘lon qo‘lida o‘lgan ekan. Sulton Mahmud o‘g‘lonning o‘zini ham yana bir Muhammad G‘oziy o‘ldiribdi<sup>526</sup>. Bo‘Rakxon mamlakatni talon-toroj qilib yurgan, ammo o‘z yerlarini Temuriylar yerlari hisobiga kengaytirishga harakat qilmagan. Masalan, Sig‘noq Ulug‘bekning qo‘lida qolgan. Bu shaharni 20 yil o‘tgach o‘zbekning yangi xoni Abulxayrxon olgan<sup>527</sup>. Abulxayr 1428 yilda Sibirning qayeridadir xon qilib ko‘tarilgan edi. Raqibi Bo‘rakxon o‘lganidan keyin uning qo‘shinlari Temurylar davlati chegaralari sari yaqinlasha boshlagan. Lekin dastlsbri harakatlari Movarounnahrga qarshi qaratilmagan edi. Sirdaryonong quyi oqimidan tashqari Abulxayrxonni qishlik uchun qulay joy sifatida Xorazm va Kaspiy bo‘ylari qiziqtirar edi. Qishlik qarorgohdan turib madaniy mintaqalarga bosqinlar qilib turilar edi<sup>528</sup>. 1430/31 yilda bir muddat Abulxayrxon Urganch bilan birga Xorazmning shimoliy qismini bosib olishga erishgan. Shunda Xorazmning Kat va Xivadan boshlab janubiy qismi Temuriylar ixtiyorida qolgan edi. O‘zbek xonligi tarixchisining yozishicha, iqlim sharoiti sababligina Abulxayrxon (Xorazmdan) chiqib ketishga majbur bo‘lgan emish. Abdurazzoq Samarqandiy esa boshqacha tushuntiradi: Shohrux Mirzo yuborgan qo‘shi dashtliklarni quvib chiqarib, ularni ta’qib qilgan holda mamlakatini ship-shiydon qilib qaytgan<sup>529</sup>. Abulxayrga tobe

---

523

524

525

526

527

528

529

qavmlardan tashqari Temuriylar mulkiga Abulxayrdan ajralib chiqqan “qozoq” deb atalmish ururg‘lar ham hujum qilib turganlar. Sharq qo‘lyozma manbalarida “qozoq” degan atama ayni shu vaqtidan boshlab paydo bo‘lgan<sup>530</sup>. Qozoqlarning bir qismi mog‘liston tomonga ketib, Eson Bo‘ka tomonidan Chu daryosi bo‘ylariga joylashtirildi<sup>531</sup>. Boshqa qismi esa, Astrobodga hujum qildi. Bu yerda bosqinlarni qaytarish uchun Shohruxning farmoyishi bilan ko‘plab harbiy bo‘linmalar shahzodalar yoki mashhur amirlar boshchiligidagi qishlik manzillarda turishar edi. Bu harakatlarda Movarounnahr qismlari qatnashganmi yoki yo‘q – ma’lum emas.

XV asrning 40-yillaridan boshlab Sirdaryo bo‘ylab o‘zbeklarning harakatlari jonlandi. Shohrux vafot etgan kunlarda Abulxayrxon Sig‘noq, So‘zak va O‘zgandga o‘z noiblarini qo‘yib ulgurgan edi<sup>532</sup>. Keyingi voqealar, ayniqsa Abu Sa’id bilan Abdulla o‘rtasidagi kurash haqidagi xabarlardanxulosa qilish mumkinki, o‘sha kunlarda Temuriylar davlatining chegara shahri Turkiston bo‘lgan.

Nisbatan uzoqdagi sharq davlatlari bilan Shohrux va Ulug‘bek davrida Temuriylar davlati tinch, savdo-sotiq munosabatlarini olib borgan. Xitoya yurish masalasi Temur vafot etishi bilanoq to‘xtagan. Temur tutqun qilgan xitoy elchilar Halil Sulton vaqtida ozod qilib, jo‘natib yuborilgan va ular 1407-yilda Xitoya yetib borgan edilar. Ular bilan Xitoya Halil nomida Xudoydod ismli kishi elchi bo‘lib brogan<sup>533</sup>. Shu vaqtga yaqi yana bir elchilik Shayx Nuriddin nomidan imprtator uchun ot va tuyalar bilan iborat sovg‘a bilan Xitoya borgan. Bir vaqlar 1395 yilda Temur ushlab qolgan elchilik tashrifi boshlig‘i An’ Chji-dao rahbarligida 1408-yilda Xitoydan yangi elchilik keldi. 1409-yilda elchilik Hirotg‘a yetib keldi va Temurning o‘limi munosabati bilan ta’ziya izhor qildi<sup>534</sup>. O‘sha

---

530

531

532

533

534

1409 yilda elchilik Xitoyga qaytib bordi<sup>535</sup>. Ushbu elchilik bilan birga Hirotdan va Samarqanddan Xitoyga javob elchiligi ham brogan edi. 1410-yilda Beshbaliq orqali o‘tgan. 1421 yilda Hirotgaga yetib kelgan va favqulodda dabdaba bilan (odamlarga uylari devorlarini gilamlar va ipak matolar bilan bezash buyurilgan edi) kutib olingan elchilik o‘sha Beshbaliq orqali yurgan elchilar bo‘lsa kerak<sup>536</sup>. Elchilarning G‘arbgaga safarlari bir qancha muddat davom etgan ko‘rinadi. Xiyoy imperatori maktublarida Sohrux bilan Halil Sultonga o‘zaro nizolarini to‘xtatish, sulh tuzish xaqida ko‘rsatmalar bergan. Bo-a-er-xin-tay boshliq elchilar Xitoyga 1413 eili qaytdi. Ular bilan Hirotdan to Sherozgacha shaharlarning elchilari Xitoyga bordi<sup>537</sup>. Keyingi yili Xitoydan yana elchilar jo‘natildi va ular 1415 yilda Xitoyga qaytib keldi. Bu elchilik missiyasi bilan birga Hirotdan, Samarqand, Sheroz elchilari Xitoyga keldi. Xuroson tarixchilari Hirotgaga kelgan elchilar haqida hech nima deyishmagan. Hirotning yangi elchilik missiyasi 1416-yilda Xitoyga borgan. O‘sha 1416 yili Xitoydan Samarqand, Andhoyga<sup>538</sup>, Hirotdan va Isfahonga<sup>539</sup> elchilar jo‘natilgan va 1417 yili xitoyga qaytib brogan. Xofiz Abro‘ va Abdurazzoq Samarqandiy ktoblaridan<sup>540</sup> ma’lumri, elchilar Hirotda aprel oyoda bo‘lishgan. May oyining 11-kuni elchilar bilan xayrlasguv marosimi o‘tkazilib, ziyofat berilgan. 7-may juma kuni<sup>541</sup> Hirotgaga kelgan Ulug‘bek ham ushbu ziyofatlarni tashkil qilisgda ishtirok etgan. Xitoy elchilari bilan birga Ardashir tovachi elchi qilib jo‘natilgan. Samarqanddan ham elchilar yuborilgan. Ardashir tovachi 1419-yil 13-oktabrda<sup>542</sup> Hirotgaga qaytib keldi. U bilan birga Xitoyning yangi elchiligi keldi. Hirotgaga keta turib avgust oyida elchilar Ulug‘bekka atalgan sovg‘a-salomlar bilan Samarqandda bo‘lisgdi. Ziyofat berilgandan keyingi 23-avgust kuni<sup>543</sup> bu yerdan chiqib ketisgdi. Oktyabr oyida Hirotdan qayta turib,

---

535

536

537

538

539

540

541

542

543

Xitoy elchilari yana Samarqandga kirishdi. Hirotdan 1419-yilning 4-dekabruda<sup>544</sup> jo‘nagan javob elchilik missiyasida Ulug‘bek ham bor edi. Elchilar 1420 yil 6-fevralida Samarqandga kelib<sup>545</sup> bildilarki, ikki oy muqaddam, hali o‘zлari Samarqandda turgan kunlaridayoq Ulug‘bek Xitoyga o‘z elchilarini jo‘natgan ekanini bildilar. Xitoy elchilari 25-fevral kuni Samarqanddan chiqb jo‘nadilar<sup>546</sup>. 1420-yil dekabridan 1421 yil may oyigacha Pekinda bo‘lgan elchilar imperatorga Ulug‘bek sovg‘a qilgan oyoqlari oq, tanasi qora (to‘riq) otni ko‘rishgan ekan. Elchilik tarkibi Shohruxdan ikki nafar, Ulug‘bekdan ikki nafar, Boysunqurdan ikki nafar, Suyurg‘at mish va Shohmalikdan I nafardan elchilardan iborat edi. Boysunqur elchilaridan biri G‘yosiddin Naqqosh tomonidan yozilgan kundalik Xitoy haqida ehg mufassil va eng ommabop (mashhur) musulmon manbasidir<sup>547</sup>. XV asrning ikkinchi choragida elchiliklar biroz sustlashdi. Xitoyliklar buni imperatorning siyosatidagi o‘zgarish bilan izohlaydilar. Xaram og‘asi Li Guy orqali imperatordan Shohrux nomiga yo‘llangan maktubda aloqalardagi tanaffus yo‘llardagi to‘sinqinliklar tufayli, to‘g‘rirog‘i, O‘rta Osiyodagi beqarorlik ekanligi qayd etilgan<sup>548</sup>. 1432 yilda aloqalar tiklangan deb hisoblandi va imperator savdogarlarga homiylik qilishni iltimos qilgan. Hirotdan elchi 1427-yilda, Smarqanddan 1430-yilda borgsn bo‘lsa, Li Guy har ikki shaharga ham borishi belgilangan edi<sup>549</sup>. Xitoy tarixida imperator Chjen Tunning Ulug‘bekka 1445 yilda Ulug‘bekka yozgan maktubi ham keltirilgan.

Xitoydan xarid qilib olib chiqiladigan asosiy tovar XV asrda yuksak takomil darajasiga yetgan chinni edi<sup>550</sup>. Ulug‘bekning shahar tshqarisida Cho‘ponota adirliklari yaqinidajoylashgan bog‘laridan birida qurilgan ayvonning

---

544

545

546

547

548

549

550

ichki devorlari bezagi Movarounnahrga Xitoydan bir necha marta qatnab keltirilgan chinni bilan bezatilgan edi<sup>551</sup>.

1421/22 yilda Ulug‘bek Buxoroda Tibetdan kelgan elchilarni qabul qilgan. Afsuski, bu haqda uch-to‘rt og‘iz so‘z bilan aytib o‘tilgan. Elchilikning maqsadi, bosib o‘tgan yo‘li, Ulug‘bekning saroyida buning biror taassuroti haqida hech qandaq xabar yo‘q<sup>552</sup>.

### ULUG‘BEK DAVRIDA ICHKI ISHLAR (SIYOSAT ...degan ma’qulmikan?)

Harbiy sohada qilgan ishlardan ko‘ra Movarounnahrning farovonligi va poytaxtning gullab yashnashi uchun qyg‘urishda Ulug‘bek ko‘proq bobosii izidan bordi. Samarqand uning davrida Temur davrida qanday yashagan bo‘lsa shunday yashashda davom etdi. Ulug‘bekning saroyi Hirotdagi Shohrux saroyiga mutlaqo o‘xshamas edi<sup>553</sup>. Hirotda hukmdor oddiy musulmonlar qatori o‘zini olomondan hech qanday himoya qilmay juma namoziga chiqar edi. Natijada 1427-yilda uning joniga qasd ham qilingan edi<sup>554</sup>. Ramazon oyida, xatto safarda ham, ro‘zani kanda qilmasdi. Haftaning to‘rt kuni – dushanba, payshanba, juma va shanba kunlari Saroya qorilar chaqirilib, xatmi Qur’on qilinar edi<sup>555</sup>. Shohruhni balog‘at darajasida musulmon podshoh deb hisoblashar edi. Yuz yilda bir keladigan dinni yangilovchi degan hadisni unga nisbat berishar edi<sup>556</sup>. Din, shariat man’ etgan maishatlar qattiq ta’qib qilinar edi. Shaharda ikki muhtasib bo‘lib, ularga to‘liq erkin harakat imkoniyati berilgan edi. Xatto xususiy xonadonlar ichkarisidagi hlatlarga vuhtasiblar aralashmasligi kerak degan eski qoidaga ham rioya qilinmasdi. Hirot muhtasiblari zodagonlar uylariga ham kirib, may (chog‘ir) topishsa, olib chiqib, to‘kishar edi. 1440-yili faqat shahzodalar Jo‘qi va

---

551

552

553

554

555

556

Shohruxning nabirasi Alo ud-davlanning yerto‘lalarida chog‘ir (may) borligi, lekin muhtasiblar kirishga jur’at qilmayotganlari haqida Sohruxga xabar yetdi. Shohrux shaxsan otga minib, muhtasiblar va ularning mulozimlari bilan birga, shahzodalarining maylarini ozi guvohligida chiqarib to‘ktirgan<sup>557</sup>.

Samarqandda esa bu vaqtda ziyofat, aysh-ishrat, musiqa, qo‘sish, o‘yinkulgi davom etar edi. Boshqa shaharlarning boy-badavlat zodagonlari Samarqanddan mutribu mug‘nniylarni, xofizlarni chaqirtirishar edi. Xoja Ahror manoqibida XV asr 20-yillarida Toshkentlik boylardan biri Samarqanddan sozandalar va xofizlarni chaqirib ziyofat bergani haqida ma’lumot bor<sup>558</sup>. E’tiborli joyi shuki, Samarqand Shayx ul-islomi IsomiddinAbdul Malik o‘g‘li, Abdul Abbalning vorisi<sup>559</sup> Ulug‘bekning tarafini olar edi. Ulug‘bekni dindan qaytganlikda ayblab hujunm qilib turgan darveshlarning sardori o‘z aybnomasini endi shayx ul-islomga, islom dinining rasmiy boshlig‘iga qarshi qaratdi. Shayx ul-islom bir kuni xammom qurib bitirgani sharofati bilan ziyofat uyuqtirib, unda ayol qo‘sishchilar ham ishtirok etgan. Ulug‘bek tayinlagan muhtasib lavozimidagi Said Oshiq shayx ul-islomga qattiq ta’na bilan murojaat etib, “islomdan bexabar shayx ul-islom, qaysi mazhabda erkaklar bilan ayollar birga o‘tirib qo‘sish aytsin deyilgan?” – deb so‘rabdi<sup>560</sup>.

Samarqand shayx ul-islomining hayot tarzi yagona hodisa emas edi. XII asrdan Buxoro sadri jahonlari<sup>561</sup> davridan boshlab O‘rta Osiyoda biz ruhoniy arboblarining oshib-toshgan isrofgar hayoti musulmonlar uchun havasga aylangan edi. Buxoro sadri jahonlari ham, Samarqand shayx ul-islomlari ham aholining zodagonlaridan edilar va Ulug‘bek davrida oliy hokimiyat ular tomonida edi. Xalq ommasining manfaatlari himoyachilar so‘fiy darveshlar tariqatlarining shayxlari, xususan, naqshibandiyalar edi<sup>562</sup>. Chunki din peshvolari

---

557

558

559

560

561

562

zodagonlarning rahnamolariga aylangan edilar. Turkistonda so‘fiy darveshchilikning din peshvolari bilan kurashi G‘arbiy Osiyodagidan boshqa xususiyat kasb etdi. G‘rbda din peshvolari shariatga qat’iy rioya qilishni talab qilsalar, darveshlar yoki so‘fiylar diniy aqidalarni birmuncha erkin talqin qilishni talab qilar edilar. Masalan, Eronda (Turonu Turkistonda ham – Tarj.) so‘fiylik degan so‘z diniy erkin fikrlash, din ahkomlarini erkin talqin qilish ma’nosi bilan sinonimdek bo‘lib qoldi. Bu yerda ayni darveshlar shariatni himoya qilib, oliv hokimiyat vakillarinhamda hamda rasmiy din peshvolarining shariat ahkomlarini buzishda ayblab chiqar edilar va bu bilan xalq ommasining manfaatlarini himoya qilar edilar. Yevropada izchil communistlar ilm-fan va san’atga oddiy xalq munosib emas, deya rad etganlari kabi XV asrda Turkistonda darveshlar ham kitobiy ilmni, shu jumladan ilohiyot ilmini ham isnisno qilmagan holda, rad etganlar<sup>563</sup>.

XVI asrda yozilgan O‘rtta Osiyo darveshlari haqidagi “Rashahot ul- ‘ayn-ul hayāt” kitobida darveshlarning Ulug‘bekka va shayx ul-islomga nisbatan dushmanlik kayfiyatini ifodalovchi ko‘plab hikoyalar mavjud. Xatto, Halil Sultonning mag‘lub bo‘lishiga, natijada Ulug‘bekning taxtga kelishiga sabab bo‘lgan Buxoro darveshlarining yetakchisi shyx Muhammad Porso ham Ulug‘bek va shayx ul-islom e’tiboridan chetda edi. hadis isnodlarini (ularning to‘g‘riligini tekshirish uchcun) kelgan Shamsiddin Muhammad ibn Muhammad al-Jazariy<sup>564</sup> Samarqandga kelganida Ulug‘bek buyrug‘i bilan Muhammad Porso chaqirtirilib, hadislar qanday sanadlar orqali, kimning so‘zidan yozib olinayotgani haqida hisobot talab qailagan. Bu sinov Samarqand shayx ul-islomi Isom ad-din va boshqa olimlar ishtirokida o‘tkazildi. Muhammad Porsoning bir necha isnodlari Shamsiddingga shubhali tuyilganda Muhammad Porso shayx Shamsiddinning kutubxonasidan u o‘zi tan oladigan musnadni keltirishni so‘raydi. Hech qachon Shamsiddinning kutubxonasida bo‘lmagan Muhammad Porso kitobning qaysi jovonda turishini, qaysi sahifasida o‘sha hadis keltirilganini, isnodi kimga nisbat

---

563

564

berilganini oldindan aniq aytgani hammani hayratga slogan ekan<sup>565</sup>. Mshhur shayxlardan biri Nizomiddin Homush o‘g‘li sodir qilgan gunoh uchun shayx ulislom va Hukmdor tomonidan ta’qibga uchragan. Shayxning o‘g‘li xaram ayollaridan biri bilan (Ulug‘bekning xaramimi yoki boshqa – aniq emas) shariatga xi洛f ravishda aloqada ayblanib qochib ketgan edi. O‘g‘lini himoya qilishda ayblangan shayx otning sarisiga boshyalahg xolda otirg‘zib Ulug‘bek huzuriga keltirilgan. Ulug‘bek shu payt Bog‘i Maydonda ekan, shayxni behurmat tarzda qabul qilib turli so‘lar bilan ta’na malomatlar qilibdi. “Bu so‘zlaringga, mening javobim bir so‘z: mei musulmonman. Menga ishonsang, yaxhsil, ishonmasang qalbing nimani buyursa, o‘shani qil”, - debdi shayx. Bu so‘zlar Ulug‘bekka shunday ta’sir etibdiki, u shayxni ozod qilishni buyuribdi. “Rashahot”ning muallifi Ali Safiy bu borada {oja Ahrorning s’zlarini keltiradi. Bunga ko‘ra shayxni xaqrarat qilgani uchun Ulug‘bek ko‘plab baxtsizliklarga uchragan va ko‘p o‘tmay o‘g‘li tomonidan o‘ldirilgan emish<sup>566</sup>. Shu voqeal bilan bog‘liq hikoya qilinishicha, shayx ul-slomning o‘g‘illari iltimosiga ko‘ra Nizomiddin ularning og‘ir kasal yotgan otasining yoniga kelgan va unung dardini xudodan so‘rab o‘ziga olgan. Shundan keyin shayxul-isлом tuzalib ketgan. Endi shayx Nizomiddin Ulug‘bekning g‘azabiga uchrab baxtsizlikka uchraganda shayx ul-isлом unga qayishmagani uchun, Nizomiddin duosini qaytib olgan ekan, shu zahotiyoq shayxning joni uzilibdi<sup>567</sup>.

Xoja Ahror manoqibi muallifining hikoya qilishicha, Xoja yoshligida Ulug‘bekning amaldorlari nomonidan darveshlarga qilingan zulmga guvoh bo‘lgan. Ulug‘bekning sariyida aybdorlarni yerga yotqizib kaltaklab jazolaydigan keksa yasovul bo‘lgan ekan. Bir kuni u Toshkentga shayxning avlodlarini ko‘rish uchun kelishi xabarini jo‘natib, mozorda to‘planishni buyuribdi. 17 nsfar shyxzodalar to‘planishibdi. Ular orasida eng kichigi {oja Ahror eken. Yasovul kelib shayxzodalarni birma-bir yerga yiqita boshlabdi. Birgina {oja ahror

---

565

566

567

chaqqonlik bilan zARBaga chap berib, qutulib qolibdi. {ojaning epchilligi yasovulga yoqib qolib, unga boshqalar oldida imtiyoz beribdi. To‘planganlarga qarata gapirganda faqat Xoja ahrorga qarb so‘zlabdi. Xoja uning epchilligiga hayron qolgan o‘rtoqlariga avval Xoja Hasan Attorga murid bo‘lgani, ustozining sabaqi botin (meditatsiya – Tarj.) ilmuni o‘zlashtira olmagani uchun ustozи unga “saroylarda sultonlar xizmatida bo‘lajagini, bu orqali jabrdiydalarga yordam berajagini” hamda Ulug‘bekning amirlaridan biri Sa’id huzuriga borajagini bashorat qilganini aytib beribdi<sup>568</sup>.

Bu hikoyalarda qaysi bir voqeа qanchlik chin yoki haqiqatga to‘g‘ri keladi - buni aytish qiyin. Davlatshohda eslatilishicha, Xoja Hasan Attor Ulug‘bek davrining shayxlari oarsida yetakchi edi<sup>569</sup>. Xoja Ahror faqat Samarqanddagina u bilan yaqin lashmog‘ mumkin edi. Xoja Ahror 22 yoshida, ya’ni 1426 yilda Samarqandga jo‘nagan edi<sup>570</sup>. {oja Hasn Attor bir muncha muddat Shohruk saroyida bo‘lib, 1423 yilda Sherozda vafot etgan<sup>571</sup>. E’tiborli holat shuki, Ulug‘bek davrida “yosh shyxzodalar”, ya’ni shayxlarning avlodlari harbiy intizomga bo‘ysingan holda yasovul nazoratida bo‘lganlar<sup>572</sup>. Buning ustiga Ulug‘bek saroyida bosh shayxlar hurmat-e’tiborda edilar va ularning tavsiyalari, yo‘riqlariga alohida e’tibor berilar edi.

Nizomiddin Homush va Hasan Attordan tashqari Ulug‘bek davrining ulug‘ shayxlaridan biri Ya’qub Charxiy edi va u ham Xoja Ahrorning ustozlaridan biri sanalgan<sup>573</sup>. Ustozi Bahouddin vafotidan keyin Ya’qub Charxiy avval Badaxshonga, keyin Chag‘oniyonga ketgan<sup>574</sup> va Samarqand saroyi bilan aloqalari bo‘lmagan. Darveshchilikning markazlaridan Buxoroning siyosiy jarayonlarga ta’siri kuchli bolg‘an. Ko‘rib o‘tganimizdek, Buxoro ruhoniylari Ulug‘bekning o‘tmishdoshini taxtdan tushirishda alohida rol o‘ynadilar va xatto

---

568

569

570

571

572

573

574

ulug‘bekka qarshi qo‘zg‘olon ham Buxorodan chiqqan edi. Ulug‘bek Buxoro darveshlarining ahamiyatini yaxshi tushunar edi va ularning e’tiborini qozonishga harakat qilar edi. Buxorodagi Ulug‘bek madrasasi qurilgan vaqtiga ko‘ra uning qurdirgan imoratlari qatorida birinchisi edi. 1419-yil 28-noyabrdha Buxoroda biganida Ulugbek shu binoda to‘xtagan, talabalarga va “munosib kishilar”ga sovg‘a-salomlar tarqatgan<sup>575</sup>.

Ulug‘bekning Samarcanddagi qurilish inshootlariqatorida diniy muassasalarning o‘rni alohida. Bu toifa qurilishlar uchun Samarcandning Buxorodagi singari hozirda Regisnon atalmish bozor maydoni tanlahgan. XV asrda bu atama bo‘lmagan shekilli. Abdurazzoq Samarcandiy bu joyning nomini “Ikki atik (arabcha yozish kerak) boshi” deb atagan. O‘sha vaqtda bu maydonda bozor joylashgan edi<sup>576</sup>. Imoratdagи yozuvdan ko‘rinadiki, qurilish 820 (1417)-yili boshlanib, 823 (1420)-yilda bitirilgan. Xofiz Abro<sup>577</sup> hamda Abdurazzoqlar ham qurilish poyoniga yetgan yilni shunday ko‘rsatishgan. Muhtashamligi Temur inshootlaridan qolishmaydigan, badiiyligi va mustahkamligi jihatdan xatto ulardanda a’loroq bu koshonaning me’mori kim bo‘lgani ma’lum emas<sup>578</sup>. Imorat ikki qabat, to‘rt gumbazli, har burchagida minorali edi. Xujralari ikki xonali – har bir talaba uchun alohida xona mo‘ljallangan<sup>579</sup>. Shunday qilib, Samarcanddagi va Buxorodagi Ulug‘bek madrasalari uning inshootlari va umuman boshqa qurilishlarl orasida eng umri uzoqlari (siafatid hozirgacha mavjud). Bu ikki madrasa hanuz o‘zining ta’lim muassasasi vazifasini unab turgani holda, Ulug‘bek qurdirgan boshqa inshootlar izsiz yo‘qolgan<sup>580</sup>. Buxoroda 1841-1842 yillarda bo‘lgan Xanikov bergen ma’lumotga ko‘ra Ulug‘bek madrasasida 80 ta xujra bo‘lgan. Talabalar bir yilga  $3 \frac{1}{2}$  tilla stipendiya olishgan. Buxoro Ulug‘bek madrasasining qurilganidan to XIX asrgacha vaqt ichidagi haoli-ahvoli, taqdiri haqida manbalarda biror ma’lumot uchratmadim. Samarcanddagi madrasa haqida

---

<sup>575</sup>

<sup>576</sup>

<sup>577</sup>

<sup>578</sup>

<sup>579</sup>

<sup>580</sup>

keyingiroq (XIX asr) xabarlarga ko‘ra Ulug‘bekning o‘zi ham dars bergan<sup>581</sup>. Nisbatan qadimiyroq manbalar bu haqda hech narsa demaydi<sup>582</sup>. XVI asr yodgorligida Ulug‘bekning o‘zi sgaxsan qurilishda qatnashgani haqida eslatib o‘tilgan xalos<sup>583</sup>. Shu asar muallifi Ulug‘bek madrasasi mudarrisi sifatida falakiyotchi olim Qozizoda Rumiy nomini keltiradi<sup>584</sup>. Aftidan bu o‘sha qozii Rumdirki, Samarqandda ma’ruzalar o‘qigan vaqtida uning ma’ruzalarini tinglashga 817- (1414) yilda tug‘ilgan<sup>585</sup>, hali u vaqtda yosh Ablurahmon Jomiy kelgan ekan. Zayniddin Vosifiyning aytishicha Ulug‘bek madrasasining mudarrisi qilib mavlono Muhammad Havofiy tayinlangan. Qurilish ishlari oxirlab qolganda kim unga mudarris etib tayinlandi deya Ulug‘bekdan so‘rashganda u munosib odam topib qo‘yiladi deb javob, bergan. Shunda g‘isht uyumlari orasida bir holat “loy-chang bosgan kiyimlarda o‘tirgan odam”<sup>586</sup> “men bu lavozimga loyiqlaman”, - debdi. Ulug‘bek uning kimligi, nimaligini surishtirib, uning bilimdonligiga isgonch hosil qilibdi va hammmga olib borib, munosib kiyimlarkiygizib olib kelishni buyuribdi. Madrasa ochilishi kunida Muhammad Havofiy mudarris sifatida ma’ruza qilibdi. Ishtirok etgan 90 kishidan bu ma’ruzani faqat ikki kishi – Qozizoda Rumiy bilan Ulug‘bek tushunishgan ekan. Xoja Ahror manoqibida kelgan ma’lumotga ko‘ra, Ulug‘bek madrasada o‘qigan, lekin dunyoviy kitobiy ilmlardan hafsalasi pir bo‘lgan Abu Sa’id Avboxiy<sup>587</sup> eshon bilan tanishganidan song madrasadagi o‘rtoqlariga o‘ziga tegishli narsalarni va kitoblarni ularga tashlab ketmoqchiliginibildirgan<sup>588</sup>. Bundan ko‘rinaduki, Ulug‘bek madrasasi kitobiy ilohiyot va dunyoviy ilmlarmarkazi bolgan va darveshchilik qarashlariga zid bo‘lgan\*. Davlatshoh yozishicha madrasada 100 nafardan ortiqroq talaba bo‘lgan. XVI asrda talabalar yanada

---

581

582

583

584

585

586

587

588

\* Bartol’d so‘fiylik ta’limotlariga salbiy ko‘z bilan qaragan. Asar davomida ko‘p o‘rninda bu munosabat yaqqol seziladi. Tasavvuf ta’limotlarini reaktsion hodisa deb qoralsh, bumunosabat bilan sovet davridagi quvg‘in va qatag‘onlarni tarix unutgani yo‘q - Tarj.

ko‘paygandirki, mudarrislar soni 10 nafarga yetgan. Bosh mudarris Samarqand olimlarining boshlig‘i hisoblangan<sup>589</sup>. 1580 yilda madrasaga Abdullaxon tashrif buyurgan<sup>590</sup>. XVII asr oxiridagi siyosiy-ijtimoiy beqarorlik davrida madrasa tanazzulga ketgan. XVIII asr boshida huvillab qolgan<sup>591</sup>. Shundan ko‘p o‘tmay, arkni bosib olgan isyonchilar madrasaning arkdan balandroq turgan ikkinchi qabatini buzib yuborishdi<sup>592</sup>. 1752 yilda amir (keyinroq xon qilib ko‘tarilgan) Muhammad Rahim bo‘sh turgan madrasalarni don omborxonalariga aylantirgan<sup>593</sup>. XIX asrga kelibgina madrasalarni va ularning vaqflarini tiklash harakati boshlandi. Amir Haydar davrida madrasalarda yana talabalar paydo bo‘ldi. N.P.Ostroumov xabar berishicha, 1906 yilda Ulug‘bek madrsasida yiliga 40 rubl maosh bilan ikki mudarris va 10 rubl bilan 60 nafar talaba bo‘lgan. Binonig darsxona qismi bebandligi sababli darslsr talabalarning yotoq xohalarida olib borilgan<sup>594</sup>. Madrasa oldidagi o‘sha maydonda Ulug‘bek darveshlar uchun xonaqo qurdirgan. Boburning guvohlik berishicha xonaqo dunyoda tengi yo‘q baland gumbazi bilan shuhrat qozongan<sup>595</sup>. Xonaqoning keyingi taqdiri yoki loaqal uning XVII asrgacha qandaydir qoldiqlari haqida ham ma’lumotlar yo‘q. Xijriy 1028 (1619) yilda o‘sha joyda Sherdor madrasasi qurilgan paytda xonaqo allaqachon yo‘q edi\*. Sherdorning janubiy fasadiga yondosh (?) holda qandaydir gumbazli xona bo‘lgani, u esa xijriy II asrda yashab o‘tgan shia imomi Muhammad Sodiq ibn Ja’farning maqbarasi ekani aytildi. Biroq nisbatan ilgariroq davrga oid manbalarda bu maqbara haqidagi xabar uchramaydi. Xonaqo haqida Ulug‘bek madrasaga qilgan e’tiborichalik qayg‘urmagandir deyishga hech qanday asos yo‘q. Abdurazzoq madrasa ham, xonaqo ham mo‘l-ko‘l vaqflar bilan ta’minlangani haqida yozadi. Vaqflardan keladigan daromad ular uchun

---

589

590

591

592

593

594

595

\* Sherdor madrasasi qurilgan maydon satxi Ulug‘bek madrasasi maydini satxidan 1,5 m baland. Demak, Sherdor Ulug‘bek xonaqosi vayronasini tekislab shibbalangan maydonustidda turibdi. – Tarj.

sarflanadigan mablag‘dan ko‘p bo‘lgan. Sarfdan ortgan mablag‘ hisobidan har ikki muassasaga tegishli maxsus moliyaviy jamg‘arma – kapital shakllangan<sup>596</sup>.

Bobur Samrqandda bo‘lgan paytida Ulug‘bek madrasasidan janub tomonda Masjidi muqatta’ deb atlgan masjid bo‘lgan. Uning devorlari, shifti o‘ymakor jiloli taxta parchalari bilan bezatilgani uchun shunday nom olgan, chunki qit‘a so‘zi arabcha “parcha” demakdir. Masjid qibłasi bilan Madrasa qibłasi bir-biridan kattagina farq qilgan. Masjidning qibłasi yulduzlar harakatini kuzatib aniq belgilangani sababli ishonchli deb hisoblangan<sup>597</sup>. Keyinchalik bu bino xalifa Umar I ning o‘g‘li Abdulla nomi bilan bog‘lanadigan yoki “Moviy masjid” deyiladigan bo‘lib qoldi. Bu o‘rinda Abdulla nomi berilgani eskiroq davr manbalarida tasdiqini topmaydi<sup>598</sup>. Moviy masjiddan shimol tomonda, u bilan Ulug‘bek madrasasi o‘rtasida Abu Sa’idxon madrasasi bo‘lgan va undan (Bartol’d ko‘rgan vaqtda – tarj.) “Childuxtaron” deb ataluvchi Shayboniylar xilxonasigina saqlangan<sup>599</sup>.

Chindan ham Ulug‘bek hukmronligi davrida yangi masjidi jome paydo bo‘lgan. Lekin ulug‘vorlikda birinchilik o‘sha davrdaham, keyinchalik ham Temur jomesi (Bibixonim)da qolaverdi<sup>600</sup>. Biroq masjid surilishi Ulug‘bek nomi bilan emas, balki Shohrux Mirzoning otalig‘i, 90 yoshga kirib 1440-yilda 14-oktabr, juma kuni vafot etgan Alika Ko‘kaldosh<sup>601</sup> nomi bilan bo‘liq. Bu zodagon inson aftidan, davlat boshqaruvi ishlari bilan shug‘ullanmagan. O‘zining obro‘siga va boyliklarini jabrdiydalar himoyasiga qaratgan. Unga kimki haqsizlikka uchragan yoki jabr ko‘rgan – murojaat qilsa albatta yordam olgan. Biror amaldorning adolatsizlik qilgani qulog‘ga yetsa, albatta vaziyatni o‘nglash chorasini ko‘rardi. Adolatsiz amaldorlar undan qo‘rqar edilar<sup>602</sup>. Alika ko‘kaldosh nomi bilan yana Hirotda madrasa, Marvda bir qator Baqo‘i xayr va

---

596

597

598

599

600

601

602

imorati xayrlar ham bo‘lgan<sup>603</sup>. Aliko Ko kaldoshning faoliyati Temuriylar sultanati bilan chrgaralanmagan. OldOsiyoda, Misrda bir qator erlarni sotib olib, dehqonchilik ishlarini rivojlantirgan. Shohrux undan bu qadar sarf-xarajatlarning boisini so‘raganida u “Men hukmdorimning shon-shuhratini tarqatyapman. Odamlar Shohruxning xizmatkori uzoq ellardan yerlar sotib olyapti deb gapirsinlar”, - deb javob bergan ekan<sup>604</sup>. Samarqandda uning qudirgan jome masjidi haqida XVI asr yodgorligida eslanadi. Masalan, 936-(1529 / 30) yilda Ko‘chkinchixon o‘sha masjidda marmardan minbar o‘rnatgan<sup>605</sup>. Fmmo bu masjid XVIII asr oxirida vayron holatga tushdi<sup>606</sup>. Hozir xatto qurilgan joyi qayerdabo‘lgani ham aniqlangan emas<sup>607</sup>. Bordi-yu shunday bo‘lsa, o‘sha masjid Bobur eslatgan “Masjidi Muqatta” yoki “Masjidi Umar” bo‘lishi ehtimol<sup>608</sup>.

Madrasa va xonaqo yaqinida Ulug‘bek “Mirzo xammomi” nomi bilan Bobur davrida mashhur bo‘lgan xammomni qudirgan. Xammomning saxni rangba-rang toshlar bilan bezatilgan ediki, bunaqasi na Samarqandda van a Xurosonda bor edi<sup>609</sup>. Bu binoning izi ham qolmagan<sup>610</sup>.

Manbalarda shahar doirasida Ulug‘bek qurgan boshqa iinshootlar haqida hech qanday xabarlar yo‘q. Manbalar xatto Ulug‘bek davrida Temuriylar dahmasiga aylangan Go‘ri Mirda amalga oshirilgan ta’mirlash va o‘zgartishlar haqida ham xabar bermaydi<sup>611</sup>. Ulug‘bekning shahar tashqarisidagi qurilish isglari haqidagi xabarlar bo‘yicha biz Boburdan minnatdor bo‘lmog‘imiz lozim<sup>612</sup>. 1908 qilda qazib ochilgan rasadxonadan, bu haqda quyiroqda to‘xtaymiz, g‘arbroqda “Bog‘I Maydon” joylashgan edi. Boburning xabariga zid o‘laroq, Xofizi Abro‘ning so‘zlariga qaraganda, bu bog‘ Temur davridayoq bor edi. Uning yonida

---

603

604

605

606

607

608

609

610

611

612

Xofizi Abro‘ “Mirzo Ulug‘bek bog‘i” degan so‘zlarni keltiradi<sup>613</sup>. Balki bu Temurning murg‘ak nabirasi uchun qurgan bo‘gidir. Bog‘I Maydonning o‘rtasida ikki qabatli Chil stun (“Qirq ustun”) imorat bo‘lgan. Bu atama shu tipdag‘i imoratlar uchun odatiy nom bo‘lgan. Quyi qabat qisman o‘rma(!) naqshli, qolganlari tekis ustunlardan iborat bo‘lgan. Torttala burchakda mezanasimon minoralar bo‘lib, ular orqali yuqoriga chiqilgan. Yuqori qabatda katta ayvon bo‘lib, to‘rt tomonga ochiq edi. Imoratning tag kursisi toshdan bo‘lgan. V.L.Vyatkinning aniqlashicha, Chil stun Siyob arig‘ining o‘ng qirg‘g‘ida, Afrosiyobning eng baland do‘ngligi ro‘parasida, “ya’ni qadimiy Samarqand arki xarobasi to‘g‘risida joylashgan”. “Xalvoysi yo‘li bo‘ylab biroz narida “Bog‘i Maydon”ning devoridan qisman qoldiqlar saqlangan”<sup>614</sup>. Bog‘i Maydon bilan yonma-yon. Cho‘pon ota tepaliklari yaqinida yana bir bog‘cha, unda ayvon, ayvonda esa, bo‘yi 14-15 tirsak, eni 7-8 nirsak, qalinligi 1 tirsak taxt o‘rnatilgan bo‘lgan. Bu tosh uzoqlardan keltirilgan. Aytishlaricha, uning o‘rtasida ushbu tosh shu yerga keltirilgandan keyin paydo bo‘lgan teshigi bor edi. Yuqorida aytib o‘tganimiz ichki devorlari chinni parchalari bilan bezatilgan ayvon ana shu bog‘chada joylashgan edi.

Temur davridagi kabi Ulug‘bek davrida ham shahar tashqarisidagi saroylar shohona ziyofatlar maskani bo‘lgan. Temur davridagi singari bu ziyofatlarda din, shariat ahkomlariga rioya qilinmagan. Bu esa din peshvolarining g‘azabiga sabab bo‘lgan. Temur davrida ochiq ifodalanishi haqida gap ham bo‘lishi mumkin bo‘magan bu nafrat (g‘azab), Ulug‘bek davrida oshkora tus olgan. Kichik o‘g‘li Abdul Azizning xatna to‘yi munosabati bilan Ulug‘bek aholini tarxonlik bilan siyladi (ya’ni, soliqlardan ozod qildi). Koni gil mavzesida zodagonu avom nayxo‘rlik qildi. Ulug‘bek saroyida ham ziyofat davom etayotganda muxtasib Sa‘id Oshiq kelib Ulug‘bekka “Sen dinni (islomni) yo‘q qilib kofirlar udumini o‘rnatding”, deya qattiq ta’na-malomatlar qildi. Bunga javoban Ulug‘bek jahlini tiyib turib debdi: “Sen o‘z sa‘idlik oliy nasabing va bilimldonliging bilan qarib

---

<sup>613</sup>

<sup>614</sup>

shu yoshlarga kelding. Endi esa shahidlik martabasiga erishmoqchimisan? Lekin men sening bu istagingni bajo keltirmayman”, - debdi<sup>615</sup>.

Muxtasiб uchun boshqa bir ziyoфat chog‘da shayx ul-isломga qilingan malomat, taxqir so‘zlar og‘ir oqibatlarga olib kelishi, qimmatga tushmog‘ mumkin edi (qarang 104-bet). Shayx ul-isлом shikoyat bilan Ulug‘bekka murojaat qildi. Ertasi kuni Ulug‘bek xaqoratchi Sa‘id Oshoqni sud qilish uchun qozilar kengashini chaqirdi. Bu haqda xabar Ulug‘bek oldida hurmatga sazovor, hukmdorga mamlakat holi-ahvoli haqida xabarlar yetkazib turishga haqli bo‘lmish din peshvolaridan Abul Fatx Deyarga yetibdi. Ulug‘bekdan voqeа tafsilotini eshitgach u ham Ulug‘bekni haq deb, muhtasib bepisand so‘zлari uchun jazoga loyiқ deb topibdi. Shu vaqt Ulug‘bek huzuriga jangchilardan biri kelib, akasining beva xotiniga ko‘chmanchilar odatiga ko‘ra uylanmoqchi ekani, lekin ayol bunga rozi emasligini, aksincha bazzozga tegmoqchiliginи aytib shikoyat qilibdi. Ulug‘bek shu zahotiyoy qasovulga bu ishni topshirib, jangchining talabi qondirilsin, debdi. Voqeа ustida bo‘lgan Abul Fatx Deyar Ulug‘bekka uning qarori shariatga to‘g‘ri kelmasligini, kuyov va kelin tomonlar roziligesiz nikoh o‘qish mumkin emasligini aytibdi. Bu Ulug‘bek davrida din ahkomlari buzilish holatlari bo‘lib turgani haqida muhtasib aytgan so‘zlar haq ekanligiga ishonch hosil qilish mumkinligiga dalolatdir.

Manbalarda keltirilgan ushbu latifanamo hikoyalar to‘la-to‘kis hayotiy ekanligiga ishonish qiyin bo‘lsa-da, fmmo bu shariat peshvolari ruhoniylarning Ulug‘bekka munosabatlari qanday bo‘lganini aniq ifodalaydi. Xalifai roshidindan keyin barcha musulmon hukmdorlar ruhoniylar nazaridaadolatsiz va bu hukmdorlar huzurida, sha’nini baland tutgan har qanday dindor o‘z qadridan voz kechmay turib, qozi lavozimiga ko‘tarila olmas edi. Ulug‘bekning o‘zi Buxoro shayxlaridan biri Husomiddin Shoshiyni qozilik lavozimoga majbur qilib o‘tqazgan ekan<sup>616</sup>.

---

615

616

Samarqandda qozilik lavozimida Shamsiddin Muhammad Miskin o‘tirar edi. Uningadolatparvarligi va jasorati quyidagi hikoyadan ma’lum: ko‘psharq hukmdorlari kabi Ulug‘bek ham xazinadan cavdogarlarga fouydan hissa olib kelishlari uchun pul bergen. Ulug‘bek dan savdo ishlari uchun qimmatbaho tosh olgan bir savdogar faoyda hissasini berib ulgurmay, qarzini uzmay turib vafot etibdi. Ulug‘bek uning merosiga ega bo‘lmoq maqsadida guvohlarni yig‘ibdi. Bu haqda eshitgan qozi saroy mulozimlaridan birini chaqirib, Ulug‘bekka quyidagi so‘zlarni yetkazishni buyuribdi: “Bu ishni qo‘zg‘atib, guvohlar yig‘ish sizga ko‘p faoyda keltirmaydi. Chunki masalaning mohiyati menga tushunarli. Agar har qanday bo‘lganda ham sizning faoydangizga qaror chiqarib berishimni xohlasangiz, meni sovuq kunda qo‘l-oyog‘imni bog‘lab to hushimdan ketgunimcha muzdek suvga solib qo‘ying. Shundagina men savdogarning mulkini sizga olib berish haqida hukm chiqarib beraman”, - debdi. Bu so‘zlar ta’sirida Ulug‘bek mazkur ishni qo‘zg‘ashdan voz kechibdi<sup>617</sup>.

Ulug‘bek va qozi o‘rtasidagi kechgan latifanamo voqeа hikoyasi yoki Ulug‘bek muhtasib o‘rtasidagi to‘qnashuv har holda shariat peshvolari Ulug‘bekni o‘lariga ashaddiy va ongli dushman deb bilmas edilar. Lekin musulmonchilik nuqtai nazaridan Ulug‘bek ayni risoladagidek barcha qarorlari shariat bilan asoslanadigan hukmdor emas edi. Leki u o‘z irodasini shariatdan va xudodan ustun qo‘yadigan darajada johil ham emas edi<sup>618</sup>.

Ulug‘bek davrida xalq ommasining ahvoli haqida biz yanada kamroq. ma’lumotga egamiz. Davlatshohga ko‘ra yerdan olinadigan soliq miqdori eng kam darajaga tushirilgan va bu dehqonchilik ahli turmush darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan<sup>619</sup>. Lekin Ulug‘bek sanoat va savdodan foyda uchun *tmg‘ga* alohida e’tibor bergen<sup>620</sup>. Ruhoniylar nazdida Ulug‘bekning tamg‘aga e’tibori uning dinga xilof ishi hisoblanar edi. Zero, bu kabi soliqlar musulmon dunyosida,

---

<sup>617</sup>

<sup>618</sup>

<sup>619</sup>

<sup>620</sup>

jumladan Movarounnahrda ham, shariatga nisbatan jinoyat hisoblanar va hukmdorlar tomonidan ruhoniylar foydasiga bekor qilinar va yana qayta tiklanar edi. Ulug‘bek davrida har holda ma’lumki, tamg‘a solig‘i hech biror marta bekor qilingan emas.

Samarqand va Buxorodan tashqari biror yerda Ulug‘bek qurilish ishlari qilgani haqida manbalarda ma’lumotlar uchramaydi<sup>621</sup>. Uning tomonidan Zarafshondan Mirzaariq<sup>622</sup> qazdirilgan degan hikoya ham manbaviy tasdiqiga ega emas. Harbiy yurishlaridan tashqari Ulug‘bek o‘z mulki bo‘ylab xabar olib aylangani ham ma’lum emas. Bunday holatda Ulug‘bek xalqning mehrini qozonishi qiyin edi. Biroq shunga qaramay, 1447 yilgacha uning davlatida qo‘zg‘lonlar bo‘lmajan. Faqat umrining oxirgi pallasida o‘g‘li Abdul Azianing haddi-harakatlari va umuman Ulug‘bekning irodasidan tashqari hodisalar halqning va lashkarning undan yuz o‘girishiga sabab bo‘ldi.

## ULUGBEKNING ILMIY FAOLIYATI VA SHAXSIY HAYOTI

Islom olamida, agar musulmon mualliflar Arastuning podshoh shogirdi Iskandarni (Aleksandrni) qiyos qilmasalar, Ulug‘bekdan boshqa taxt egasi – olim podshoh bo‘lmajan<sup>623</sup>. Ulug‘bekda ilmiy faoliyatga moyillik qachon, kimning ta’sirida shakllangan? – degan savolga manbalarda aniq ma’lumot yo‘q. Bu ma’noda Ulug‘bek birinchi murabbiyasi Saroymulk xonimdan yoki bobosi Amir Temurdan minnatdor bo‘lguvlik ham emas edi. Qolaversa, Ulug‘bek amir Shohmalik tarbiyasida bo‘lgan vaqtlarida ham ilm bilan shug‘ulangan bo‘lishi ehtimoldan yiroq. Bolalik va ilk bosqich yoshlik yillarida Temuriylar shajarasining boshqa vakillaridan Ulug‘bekning bilimda o‘zib ketgan jihatni ham yo‘q edi. Ko‘proq ehtimol shuki, u ilm bilan Movarounnahr hukmdori bo‘lganidan keyin shug‘ullana boshlagan. Ulug‘bek davrida hali Samarqandda

---

621

622

623

Temur tomonidan olib kelingan fors madaniyati vakillaridan ko‘pi bor edi. Ulug‘bekning aniq fanlarga qiziqishi mo‘g‘ullar hukmronligi davrida Eronda rivojlangan aniq fanlar vakillari ta’sirida yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin<sup>624</sup>. Ma’lumki, Mo g‘g‘ul xonlari amaliy ahamiyatini hisobga olib aniq fanlar rivojini qo‘llab quvvatlaganlar. Nisbatan yuksak madaniyat davri farzandi Ulug‘bek din va adabiyot oldida o‘zining barcha zamonlar, barcha xalqlar uchun birdek qadrli bo‘lgan, dirlarning va tillarning borligi yoki yo‘qligidan qat’iy nazar<sup>625</sup> aniq fanlarning ustunligi va ahamiyatidan kelib chiqqan. Ulug‘bekning musulmon madaniyati vakillari antiq fanlar bo yicha ‘ziyolilikni Homersiz, Sofoklsiz, Evripidsiz, Herodotsiz, Fukididsiz, Polibiysiz Suqrot, Aflatun, Arastu, Evklid, Ptolomrylardan o‘rgangan”, degam fikri e’tiborga loyiq, lekin tubdan xato edi<sup>626</sup>.

Ulug‘bekning dastlabki muallimi Samarqandda yashagan “zamona Aflatuni” Salohiddin Muso ibn Mahmud Qozizoda Rumiy edi. Boshqa ustozи G‘yosiddin Jamshid ibn Mas’ud Ulug‘bek tomonidan, Qozizoda Runiy maslahati bilan Koshondan chaqirtirib olingan edi. Abdurazzoq yana bir koshonlik – muin-ad-din<sup>627</sup> ham chaqirib olinganini aytadi. Lekin Ulug‘bekning o‘zi bu haqda eslatmaydi. Bu olim Koshonda o‘z maktabini tashlab kelgan shekilli. Zero, falakiyotcho olimlar orasida uning o‘g‘li Mansur Koshiy va uning shogirdi Abdu ul-Ali ibn Muhammad Birjandiy<sup>628</sup> nomlari uchraydi. Qizig‘i shundaki, Xondamir Ulug‘bekning xodomlaridan koshonliklarning nomalarini keltirgani holda samarqandliklar haqida eslamaydi<sup>629</sup>. Abdurazzoq 823 (1420)-yilda madrasa va xonaqo qurilishi haqida yozar ekan, rasadxona qurilishi haqida ham aytib o‘tgan<sup>630</sup>. Bundan rasadxona chindan ham o‘sha yili qurilgan, degan xulosa chiqadi. Dorn va Brokkelmanlar Qozizoda Rumiyning 1412 yilda vafot etgani haqidagi ma]lumotlari shubhasiz xato. Ulug‘bekning yozishicha Qozizoda Rumiy

---

624

625

626

627

628

629

630

G‘iyosiddin Jamshiddan keyin vafot etgan. G‘iyosiddin Jamshidning Ulug‘bek xizmatiga kelgan yili ikki xil sana bilan belgilanadi. 818-yilning zu-l-qa’da (1416-yil yanvar) oyida G‘iyosiddin Jamshid Sulton Iskandarga (Qora Quyunlilar sulolasidan bo‘lsa kerak)<sup>631</sup> bag‘ishlab astronomiyaga oid asbob-uskunalar haqida kichik bir risola yozgan. Demak o‘sha vaqtida G‘iyosiddin Jamshid Ulug‘bek xizmatida emas edi. 830-yil, jumod ul-avvalning 3-kuni (1427-yil 2-mart) G‘iyosiddin Jamshid Ulug‘bek kutubxonasi uchun matematikaga oid asar yozib tugatgan edi<sup>632</sup>. Demak uning Samarqandga chaqirib olingan yili 1416-yildan keyin va 1427-yilgacha vaqt oralig‘idagi qaysidir yilga to‘g‘ri keladi. G‘iyosiddin Jamshidning asari s zboshisida u yozgan asarlar ro‘yxati, ular orasida birinchi galda “Elxoniylar zijiiga Xoqoniylar ziji takmillari”<sup>633</sup> nomli asari qayd etiladi. Ya’ni bu asar mashhur Nosiriddin Tusiy tuzgan zija tuzatishlar kiritgan. G‘iyosiddin Jamshidning asar bag‘shlagan “Xoqoni” Shohrux Mirzo bo‘lsa kerak. Muallif Samarqandga kelishdan avval bir muddat Hirot saroyida yashagan bo‘lsa ehtimol.

G‘iyosiddin Jamshidning astronomic jadvali saqlqnigan, binobarin, uning Ulug‘bek zijiidan farqlari qanchalik bo‘lgan – bir narsa deyish qiyin. Har holda Ulug‘bek astrinomiyadan shu qarajada bilimlarni egallagan ediki, G‘iyosiddin Jamshid bilan ilmiy mubohasaga (munozaraga)kirisha olgan<sup>634</sup>. Shunday xabar borki, G‘iyosiddin Jamshid tashqi ko‘rk va muomalada iltifotli bo‘lmagan. Ulug‘bek u bilan muomalada bilimi hurmati yuzasidan dag‘alliklariga sabrli bo‘lgan<sup>635</sup>. Biroq matematik asarining Ulug‘bekka bag‘ishlangan sahifalarida G‘iyosiddin Jamshid shunday nozik uslub qollaydiki, unda hukmdor “muqaddas ruh sohibi”, “komil inson”, “farishta misol hamda (payg‘ambar) Muhammad hislatlari egasi”<sup>636</sup> sifatlari bilan ulug‘laydi<sup>637</sup>. Shu bilan birga

---

<sup>631</sup>

<sup>632</sup>

<sup>633</sup>

<sup>634</sup>

<sup>635</sup>

<sup>636</sup>

<sup>637</sup>

Shohrux Mirzo tirik bo‘la turib ajab bir tarzda Ulug‘bekning “xalfaligi va sultonligini rub ul-maskunda abadiy bo‘lishini tilab” duolar qiladi<sup>638</sup>.

G‘iyosiddin Jamshidning vafot etgan vaqtin aniq ma’llum emas. Syuter bu voqeani tahminan XV asrning 30-yillari oxiri, xilriy 840 yil deb hisoblaydi<sup>639</sup>. Qozizoda Rumiy esa undan keyin, rasadxona qurilisgi bitmagan va zij hali yozib bo‘linmay turib vafot etgan. Bu o‘rtada Ulug‘bek o‘ziga “zamonasining Ptolomeyi” unvoniga ega Alo ad-din Ali ibn Muhammad Qushchi ismli yangi yordamchi topdi. “Qushchi” laqabi bu olimning ov qushi parvarishiga javobgar saroy mulozimlari oilasidan ekaniga ishorat qiladi<sup>640</sup>. Ali Qushchi uni “o‘g‘lim”<sup>641</sup> deb atagan Ulug‘bekdan anchf yosh edi. U astronomiyaga ustozita’sirida qiziqib qolgan va bu shunchaki ustozga yoqish uchun emas edi. Chunki Ali Qushchi umrining oxirigacha bu ish bilan shug‘ullandi. Ali Qushchi Ulug‘bek uchun shunchaki ilmiy isgda hamkasb, balki yain do‘sht ham edi<sup>642</sup> va undan sir yashirmas edi.

1908-yilda qoldiqlari V.L.Vyatkin tomonidan qazib ochilgan rasadxonaning tuzilishi manbalarda (Abdurazzoq va Bobur Mirzo va qisman Ulug‘bekning asarini sharxlovchilar) xabarlar juda kam saqlangan. Bino qoldiqlari qazishmalari ham bu masalada aytarli natija bermadi<sup>643</sup>. Er ostida joylashgan ulkan kvadrant ochildi. Yozma yodgorlik ma’lumotiga ko‘ra kvadrantning balandligi Stambuldag‘i Ayo Sofiya ibodatxonasi balandligiga teng bo‘lgan<sup>644</sup>. Imorat butunasiga Boburning yozishicha uch qabatli bo‘lgan<sup>645</sup>. Abdurazzoq ma’lm qilishicha, rasadxona to‘qqiz osmon, to‘qqiz osmon doirasi graduslarga, minutlarga, sekundlarga, soniyanini o‘ndan biriga osmon gumbazining aylanishi, etti sayyora, sobit yulduzlar, iqlimlarga bo‘lingan yer

---

638

639

<sup>640</sup> Ali Qushchi emas, Qutchi, degan izoh ham mavjud va bu uni turkiy qavmlardan biri – qutchi urug‘I vakili deyishga asos qilib ko‘rsatiladi. – tarj.

641

642

643

644

645

kurrasi, tog‘lar, dengizlar, sahrolar va boshqa tasvirlar bilan bezatilgan<sup>646</sup>. “Binaqushi dilpazir va ruqumi benazir” kabi so‘zlariga qaraganda, rasadxonada Marog‘a rasadxonasingagi kabi<sup>647</sup> alohida globuslar va xaritalar emas, balki devoriy suratlar bo‘lgan. Yuqorida eslab o‘tilgan kutubxona rasadxonadami yoki biror qasrda bo‘lganmi mutlaqo ma’lum emas. Rasadzonaning ish o‘rinli xodimlari, uning qoshida XIV asr boshida Tabrizdagi G‘azanxon rasadxonasingagi kabi dunyoviy ilmlar o‘rgatiladigan maktabi bormidi, bular haqida hech qanday ma’lumot yo‘q<sup>648</sup>.

Ulug‘bek zижини tuzish 841-xijriy (1437) yilda yakunlangan deb hisoblanadi<sup>649</sup>. Lekin Ulug‘bek jadval ustida umrining oxirigacha (841 (1449)<sup>650</sup> ishslashda davom etgan. Jadvalning o‘zidz tuzilgan vaqtini ko‘rsatilmagan. Ba’zi o‘rinlarda muallif o‘z hisoblari uchun boshlang‘ich sifatida foydalangan 841-yil eslatiladi<sup>651</sup>. Lekin xitoy va musulmon eralarini qiyos qilish munosabati bilan 847-yil Shavval oyining 8-kuni (1444-yil 28-yanvar) Shan-Ven’ tsiklining boshi sifatida qayd etilgan<sup>652</sup>.

Ulug‘bek rasadxonasi Nosiriddin Tusiyning 1259-yili qurilgan<sup>653</sup> va 1300-yilda G‘zanxon borib ko‘rgan paytda<sup>654</sup> ishlab turgan Marog‘a rasadxonasidek ilm-fan taraqqiyitiga ta’sir ko‘rsata olmadi. Ulug‘bek rasadxonasi uning asoschisi halok b ’lishi bilanoq faoliyatini to‘xtatgan. Ulug‘bekning yagona shogirdi Ali Qushchi Samarcandni tark etdi va 879- (1474)-yilda Qustontinusda (Konstantunopolda)vafot etdi<sup>655</sup>. Qozizoda Rumiyning nabirasi Maryam Chalabiy ham Ulug‘bek asarlarining shorixi bo‘lgan<sup>656</sup>. Ulug‘bekdan keyin “haqiqiy falakiyotchilar qolmadi. Ularning o‘rnini muvaqqitchilar, ya’ni masjidlarda

---

646

647

648

649

650

651

652

653

654

655

656

taqvim tuzuvchilar egalladi”<sup>657</sup>. Ulug‘bekning asari hisoblashda ota aniqligi bilan ajralib turadi, lekin unda fors astronomi Qutbiddin Sheroziy<sup>658</sup> asarlaridagi kabi fanning yangi yo‘nalishini belgilovchi izlanishlar kuzatilmaydi.

Ulug‘bek astronomiya bilan qanchalik qiziqmasin, butun vaqtini, juda bo‘lmasa bo‘sh vaqtlarini bu ishga to‘liq bagishlagan deyish qiyin. U ashaddiy ov ishqibozi edi. XI asrdagi Saljuqiy Malikshoh<sup>659</sup> singari ov qilgan o‘ljalarining ro‘yxatini tuzib yurgan. Ulug‘bekning noyob xotirasi isboti uchun Davlatshoh hikoya qiladiki, bir kunio‘sha ro‘yxat yo‘qolib qolibdi. Ulug‘bek uni xotirasidan qayta yozib tiklabdi. Keyin yo‘qolgan daftar topilibdi. Undagi ro‘xatni yangisi bilan solishtirishsa, bor-yo‘g‘I uch-to‘rtta farq chiqibdi<sup>660</sup>. Ulug‘bekning Buxoroga qishki safarlari asosan qush ovi maqsadida amalga oshirilgan<sup>661</sup>.

Shohruxning boshqa o‘g‘illari singari Ulug‘bekning ham fors adabiyotidan bir qadar bilimlari bo‘lgan. U bilan Boysunqur hamda Ibrohim o‘rtalrida adabiyot masalalari bo‘yicha yozishmalar bo‘lgan<sup>662</sup>. Fors adabiyotining eng yirik vakillaridan Ulug‘bek Nizomiyni, Boysunqur esa Xusrav Dehlaviyni afzal ko‘rgan. Bu masalada ikkovlari bahslashar edilar<sup>663</sup>. Ulug‘bekning adabiy didi hozirgi (Bartol’d ijod qilgan vaqtdagi – tarj.) Yevropa fors adabiyoti bilimdonlarining didiga yaqin edi. Boysunqur esa zamondoshlari orasida adabiyot bilimdoni va nozik san’at ishqibozi sifatida ko‘proq shuhrat qozongan edi<sup>664</sup>. Davlatshoh Ulug‘bekning yoki uning o‘ramidagilarning yana uch fors shoiri haqidagi fikrlarini keltiradi, lekin o‘zi bularning haqiqatligiga ishonmaydi<sup>665</sup>. Movarounnahrda yashagan, Ulug‘bek bilan zamondosh bo‘lgan forsiygo‘y shoirlaridan eng mashhuri Ismatulloh Buxoriy bo‘lib, Halil Sulton taxtdan tushirilganidan keyin Ulug‘bekni sharaflashdan bosh tortib, saroyni tark etdi ,

---

657

658

659

660

661

662

663

664

665

qolgan umrini rasmiy doiralardan yiroqda o‘tkazdi. Biroq boshqa shoirlar uni yo‘qlab huzuriga borib turishar va ustoz deb hisoblashar edi<sup>666</sup>. Ulug‘bek saroyida Kamok Badaxshiy shoirlar podshosi deb hosoblanar edi. Davlatshoh guvohlik berishicha, u ijod qilgan vaqtida Komil Badaxshiy she’rlari Movarounnahrda mashhur edi<sup>667</sup>. XIX asrda Abu Tahir Xoja Ulug‘bek ham forsiyda she’rlar yozgan deb ta’kidlaydi va bir she’rni namuna qilib keltiradi<sup>668</sup>. Davlatshoh esa shaxsan Ulug‘bekning she’riyati haqida hech narsa demaydi<sup>669</sup>. Temuriylar davrida fors she’riyatiga taqlid qilib\*, turkiy sheriyat yaratishga harakat qilgan Chig‘atoy shoirlarining devonlari Ulug‘bekning e’tiborini qozonganmidi, bu bizga ma’lum emas. Shu shoirlardan biri devoni bizgacha yetib kelgan<sup>670</sup> Sakkokiy Halil Sulton va Muhammad Porsolar bilan birga Ulug‘bekni sharaflab she’rlar yozgan. Bu shoir bir she’rida xokisor bir kayfiyatda Ulug‘bekdan yordam so‘ragan<sup>671</sup>. Boshqa bir she’rida Ulug‘bekning bilmdonligini qadimgi dunyo olimlaridan yuqori qo‘yadi. Uchinchi she’rida esa “mendek turkiy shoirni va sendek olim podshohni yaratish uchun charxi falak hali ko‘p aylanishi kerak”, - deudi<sup>672</sup>. Ulug‘bek haqida o‘sha davr turkiy shoiri Lutfiy ham eslaydi<sup>673</sup>. Ulug‘bek bu she’rlarni qanday qabul qilgani, ona tili turkiyda badiiy she’riyat paydo bo‘layotganiga rag‘bat bildirganmi, bular haqida ma’lumot yo‘q.

Bizgacha yetib kelmagan bir tarixga oid asar ham Ulug‘bek novi bilan bog‘liq. Bu asar “To‘rt ulus tarixi” deb atalmish, ya’ni, mo‘g‘ul imperiyasi parchalanib, natijada yuzaga kelgan Xitoy va Mo‘g‘ulistondagi “Buyuk yurt”, Jo‘ji va avlodlari tuzgan Oltin O‘rda, Xulogularning Erondagi davlati, O‘rta Osiyoda Chig‘atoyva uning avlodlariboshqargan davlatlar tarixiga bag‘ishlangan asar edi. Ulug‘bek sahxсан bu asarni yozishda ishtirok etgan bo‘lishi gumon.

---

<sup>666</sup>

<sup>667</sup>

<sup>668</sup>

<sup>669</sup>

\* Chigatoy shoirlarini forsiy she’riyatga taqlidchilar qilib ko‘rsatish Bartol’dning turkey she’riyatning mustaqil ildizlariga yevropacha bepisandligini ko‘rsatadi. – tarj.

<sup>670</sup>

<sup>671</sup>

<sup>672</sup>

<sup>673</sup>

Xondamir Shohrux davrida “bir ulug’ inson Ulug‘bek nomidan tarix yozgan edi”<sup>674</sup>, -deb aniq-ravshan yozib ketgan. Kitobning mazmuni haqida Xondamir undan keltirgan ko’plab iqtibosalr hamda London qo’lyozmalaro orasida saqlangan qisqartirilgan tahriri orqali bilishimiz mumkin<sup>675</sup>. Kitob muallifi Rashididdin, Nizomiddin Shomiy asarlaridan foydalangan. Mo‘g‘ul imperyasi tarixi oldidan Rashididdindagi kabi turk-mo‘g‘ul xalqlri tarixi berilgan<sup>676</sup>. Nizomiddin Shomiy asarlarini muallif o ‘zi yashagan davr voqealari bilan to‘ldirgan: “buyuk yurt xonlari ro‘xatiga beshta yangi nom qo‘shilgan”<sup>677</sup>. Bulardan bittagina beshinchi ism – Adayxon<sup>678</sup> tarixiy asosga ega. Bu ismlar o‘z ro‘yxatini Taydzi o‘g‘londa to‘xtatgan Sharafiddin Ali Yazdiyda yo‘q (qarang yuqorida – 46-bet). Jo‘ji ulusi tarixi qismida Nizomiddin Shodibek bilan qo‘shib keltirgan yigirma besh ism davomiga yana o‘n to‘rt ism qo‘shilgan<sup>679</sup>. Bu ro‘yxat Sarafiddinning 831- (1428-) yil bilan tugagan royxatidan ko‘ra to‘liq va ishonchliroq. “To‘rt ulus tarixi”da qayd etilgan xonlar ismlariga qiyos qilganda Sharafiddinda uch ism tushib qolgan<sup>680</sup>. Sharafiddinning ro‘xatidagi oxirgi xon (Muhammadxon Darveshxon o‘g‘li) ismi davomiga “To‘rt ulus tarixi”da yana to‘rt xon ismi qo‘shilgan. Bular: Davlatberdi Tosgtemir o‘g‘li, Bo‘rak (yoki Barak), G‘iyosiddin Shodik o‘g‘li, Muhammad Temurxon o‘g‘li, ya’ni “Ko‘chek (kichik) Muhammad”<sup>681</sup>. Bu xonlar tarixi haqida hech qanday ma’lumotga ega bo‘lmasligi sababli muallif ularning ro‘yxatini keltirish bilan cheklangan.

Chig‘atoy ulusi tarixi bayonida Sharafiddin Ali Yazdiy hukmdor Ergena Xotunni Ariq Buqanining qizi deb ko‘rsatgani xató edi. “To‘rt ulus tarixi”da bunday xatolik yo‘q<sup>682</sup>. Ergene xotunning otasi ismi Rashididdin bo‘yicha keltirilgan<sup>683</sup>. 1358-1370 yillar oralig‘idagi qo‘g‘irchoq xonlarning Xondamirdagi va London

---

<sup>674</sup>

<sup>675</sup>

<sup>676</sup>

<sup>677</sup>

<sup>678</sup>

<sup>679</sup>

<sup>680</sup>

<sup>681</sup>

<sup>682</sup>

<sup>683</sup>

qo‘lyozmasidagi royxatda Qobulshoh odil Sultondan keyin qilib xató keltirilgan<sup>684</sup>. Demak bu xató “To‘rt ulus tarixi”ning yo‘qolgan aslida bo‘lgan. Barcha belgilariga ko‘ra “To‘rt ulus tarixi” Sharafiddin Ali Yazdiy asaridan mutlaqo mustaqil asardir. Ulug‘bek nomi bilan bog‘liq bu asar bir qadar adabiy asar sifatida hamda tanqidiy tahlil uchun material sifatida baholanishi mumkin bo‘lgani holda, xatto asl nushasi topilgan taqdirda ham, mo‘g‘ul imperiyasi tarqalib ketgach paydo bo‘lgan davlatlar tarixini to‘liq ochib berishga da’vo qilgulik yodgorlik vazifasini bajara olmas edi.

Samarqandda tabobat sohasi vakillaridan eng obro‘lisi qandaydit mavlolno Nafis edi. E’tiborlisi shuki, Shohrux davri hirotda tabobatda diniy yo‘nalish aks etdi. Bu yo‘nalish amerikadagi “xristian ilmi” yo‘nalishiga o‘xshab ketadi. 1441 yil iyul oyida Hirotda olim, hamda “kasallarni imonu-ixlos bilan dini yo‘lda o‘qib tuzatadigan” pokdomon tabib ham bo‘lmish Shamsiddin Muhammad vafot etdi.

Ko‘rib chiqiladigan masalalardan biri –oilaviy munosabatlarda Ulug‘bek odatdagidek sharq mustabid hukmdorlaridan qanchalik farq qilganligi masalasi qolmoqda. Xondamirning so‘zlariga qaraganda<sup>685</sup> Ulug‘bekning besh nafar xotini bo‘lgan va ulardan uchtasining ismlar berilgan:

- 1) Öge begin (yoki Öge beka), Muhammad Sultonning qizi, Ulug‘bekning 1404 eilda, o‘yoshlik chog‘ida uylangan birinchi xotini. 1419 yilda vafot etgan va otasi qurban madrasada<sup>686</sup> otasi qabri yoniga dafn etilgan, ya’ni bu Go‘ri Mir inshooti hovlisida bo‘lishi mumkin, biroq saqlanib qolgan emas. 1412 yili Öge begin birinchi homilasi paytida Hirotgaga olib kelangan. Shu yerda 19 avgust juma kuni u o‘zining Habiba (yoki Hasiba) Sulton, boshqacha qilib otasi Muhammad Sulton xonlar avlodidan ekani tufayli Xonzoda begin deb unvon olgan birinchi qizini dunyoga keltirgan. Xondamirning aytishicha bu malika qiz ikki yoshida vafot etgan. Agar shunday bo‘lsa uning xuddi shu nom va shu unvonga

---

684

685

686

ega singlisi bo‘lgan<sup>687</sup>va u Yirotga 1438 yilgacha yashagan. 1438 yili Ulug‘bek bu qizini Samarqandga chaqirtirib olgan<sup>688</sup>. 1439 yilda esa u yana Hirotga qaytib ketgan<sup>689</sup>.

- 2) Oq Sulton xonika. Nomidan tanga zarb qilingan Qo‘g‘rchoq hukmdor Sulton Mahmudx onning qizi. Ali Sushchiga ishorat qilib Mirxon keltingan hikoya shu malika bilan bog‘liq bo‘lsa kerak<sup>690</sup>. Go‘yo Ulug‘bek folbinlik “ilm”larining ustasi Muhammad Ardistoniydan yaqin kelajakda bo‘ladigan hodisalar haqida so‘ragan emish,Folbin kishi oldida gapirmasligini bildirib, shu yerda hozir turgan Ali Qushchiga ishorat qilganmish. Shunda Ulug‘bek “Ali Qushchi mening do‘stim, uning oldida gapireshing mumkin”, - deganmish. Folbin Ulug‘bekka bir necha kundan keyin xotinlaridan birini o‘ldirishini, “xon qizi” bo‘lmish ikkinchisidaan ajralishini bashora qilibdi. Ulug‘bek ikkinchi bashoratga ishonmabdi. Chunki “xon qizi”ni juda yaxshi ko‘rar va doim birga ekan. Qachonki bir necha kun o‘tib birinchi bashorat haqiatga aylanganda “xon qizi” (kundoshi yo‘q bo‘lganidan) xursandligini<sup>691</sup>barilla izhor qilganidan g‘azabga kelgan Ulug‘bek unga taloq berib yuboribdi. Roviy tusda bo‘lishiga qaramay bu hikoyadan anglashiladiki, Ulug‘bek xotinlaridan biribi, sobiq xonning qizini qattiq sevgan va oilaviy fojialardan biri tufayli bu sevgi barham topgan.
- 3) Husn Nigor Xonika. Halil Sultonning qizi<sup>692</sup>. Bundan tashqari yana olti nafar joriyalar sanab ko‘rsatiladi:
  - 1) Rokiya Sulton xonun. Ulug‘bekning Oqbosh va Sulton Baxti ismli kki qizining onasi.
  - 2) Mehr Sulton, Sorbug‘ o’g‘li Tavkelning qizi.

---

687

688

689

690

691

692

- 3) Davlat Baxt-Saodat, Buyan Ko‘kaldoshning qizi/ Undan Ulug‘bekning Qutlug‘ Turkon og‘a ismli qizi bo‘lgan.
- 4) Davlat Sulton, Xond Sa’id qizi.
- 5) Baxtti, o‘zbek Kosunning qizi.
- 6) Davlat Baxt, Shayx Muhammad barlosning qizi.

Ulug‘bekning qizlari qatorida Abu Sayid Mirzo 855- (1451-) yilda Samarqandni olganidan keyin o‘zbek xoni Abulxayrxonga xotin bo‘lgan Robi‘a Sulton Begim nomini Xondamir eslatmaydi. Robi‘a Sulton Begim Abulxayrxondan keyinchalik xon b‘lgan Ko‘chkunchoixon va Suyunchixon ismli ikki o‘g‘il ko‘rdi<sup>693</sup>. Turkistonda dafn qilingan va maqbarasi hozir ham mavjud<sup>694</sup>. Qizig‘I shuki, Xondamir Ulug‘bekning qizlari haqida yozganida ularning onalari haqida ma’lumot beradi, lekin ikki shahzoda o‘g‘il – Abdullatif va Abdul Azizlar qaysi xotin yoki joriyadan tug‘ilgani ma’lum emas:

- 1) Abdulla, 1420-yilning iyul oyoda<sup>695</sup> tug‘igan. Ko‘p yashamagan shekilli, manbalrda ma]lumotlar uchrmaydi.
- 2) Abdyrrahmon. 1421-yilga<sup>696</sup> Buxoroda tug‘ilgan. 1432-yili Samarqandda vafot etgan<sup>697</sup>. Mirxondning aytishicha, bu shahzoda 1425-yili Mog‘oliston yurishidan qaytayotgan Ulug‘bekni kutib olish marosimida qatnashgan.
- 3) Abdullatif. Ulug‘bekning bo‘lajak qotili va vorisi. Uning tug‘ilgan yili ko‘rsatilmagan. Malika Gavharshod rahbarligida tarbiyalanayotib, 1437-yilda Hirotda uning xatna to‘yi bo‘lgan<sup>698</sup>. 1439-yilda boshqa shahzodalar bilan birga Misr elchilarini tantanali qabul marosimida qatnashgan<sup>699</sup>. 1441-yilda Boysunqurning o‘g‘li Alouddavlaga ko‘rsatilayotgan alohida mehribonlik munosabatiga baxillik qilib, murabbiysi (Gavharshod) bilan arazlashib qoladi va Samarqandga,

---

<sup>693</sup>

<sup>694</sup>

<sup>695</sup>

<sup>696</sup>

<sup>697</sup>

<sup>698</sup>

<sup>699</sup>

otasi huzuriga ketib qoladi<sup>700</sup>. 1442- yil boshida malikaning o‘zi “undan olib qo‘yishgan o‘g‘li”ni talab qilib, Samarqandga yo‘l oladi<sup>701</sup> va Abdullatifni qaytishga ko‘ndirib, Hirota olib ketadi<sup>702</sup>. Ulyg‘bekning faqat shu o‘g‘lidan nabiralari bor edi. 1457- va 1464-yillarda ularning taqdiri ha m otasi va bobosi taqdiri kabi fojiali tugadi.

- 4) Abdul Aziz. Uning ham tug‘ilgan yili aniq emas. U Abdullatifdan yosh ekani ma’lum<sup>703</sup>. \*38- (1434-1435-) yildayoq u xon unvoniga ega edi. Uning nomidan imoratlar ko‘tarilgan edi (Qarang: 73-bet). Abdul Aziz Samarqandda otasining huzurida o‘sgan. Shu yerda tantanali ravisgda uning xatna to‘yi nishonlangan (Qarang: 113-bet). Keltirilgan 1433 yilgi voqeа haqidagi hikoyadan ma’lum bo‘ladiki, Ulug‘bek o‘sha vaqtdayoq Abdul Azizga mog‘ol xoni Vaysning qizini kelin qilishga tanlab qo‘ygan ekan.

Ma’lumotlar ko‘rsatadiki, farzandlarni sultanat sohibining saroyida maxsus tayinlangan murabbiy nazorati ostida tarbiyalash an’anasiga Shihrux davrida Temur davridagidek izchil rioya qilinmay qo‘ygan. Abdurahmon va AbdulAzizlar otasi saroyida Samarqandda ulg‘ayishdi. Shohrux, to‘g‘rirog‘i uning amalda davlat ishlari boshida bo‘lgan xotini Gavharshod har bir shahzodadan ularning katta o‘g‘illarini Hirota saroyida to‘plab ushlashga harakat qilgan bo‘lsa kerak. Ulug‘bekning yosh xotini tong‘ich farzandini tug‘ishi arafasida Hirota olib kelingani ham shu bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Shu sababdan Abdurahmon va Abdul Azizning tarbiyasi Ujug‘bekka qoldirilgani holda, Abdulatif, balki Abdulla ham, Hirota tarbiyalishgan bo‘lsa ajab emas.

Huzurida ulg‘ayib bo‘y ko‘rsatgan ikki o‘g‘lidan biri Abdul Azizni tabiiyki, Ulug‘bek alohida yaxshi ko‘rar edi. Ulug‘bekning bu farzandiga mehri balki **erkatoy yosh shahzodaning 1449 yilda qilgan beboshliklariga,**

---

700

701

702

703

alaloqibat otasining fojiasiga asosiy sabab bo‘lgandir. Abdullatif esa mutlaqo boshqacha mizojli yigit edi. Otasi kabi shuhratparast va iqtidorli edi. Ilm-fanga qiziaar, olimlar bilan suhbatlshar, astronomiya, she’riyat,tarix bilan shug‘ullanar edi<sup>704</sup>. Abdullatif ukasidan farqli ravishda serg‘ayratligi, dushmanlarga qo‘rquv soluvchi, maqsadiga o ‘ta qat’iyat bilan erishuvchi yigit edi. Rivoyat ham borki, oatasi bilan uning o‘rtasida avval boshdanoq qandaydir ishonchszilik bo‘lgan. Ikkovlari ham astronomiya bilan shug‘ullanishar va ikkovi ham go‘yo bir-birlariga xavfli burjlariga ishonishgan emish<sup>705</sup>. Har ehtimolga ko‘ra bu rivoyat, 1449 yilgi vaoealardan keyin paydo bo‘lgandir. 1448 yilga qadar Abdullatif bilan Ulug‘bekning manfaatlari o‘zaro mos edi. Ayni shu yildan boshlab to fojiali yakungacha ularning yo’llari ajraldi.

## 7-BO‘LIM

### ULUG‘BEK UMRINING POYONI VA TURKISTON HAYOTIDA YANGI DAVRNING BOSHLANISHI

Ulug‘bek otasi hayot paytlarida imperiya (saltanat) saroyida vaqtinchalik mehmon sifatidagina bo‘lar, umum davlatga tegishli, jumladan taxt vorisligigi kabi, uning uchun Shohruxning kenjasи sifatida boshqa Temuriylardan ko‘ra yanada ko‘proq muhim masalalar muhokamasida bevosita qatnashmas edi. Shohruxga kelsak, u Temurga nisbatn ancha ulugroq yoshgacha umr ko‘rdi. Biroq uning Temyrda bo‘lgani kabi ochiq e’lon qilib qo‘eilgan taxt vorisi yo‘q edi. Malika Gavharshodning suyuklisi Boysunqurning 1417-yil 7-iyunda tug‘ilgan<sup>706</sup> o‘g‘li Alouddavla edi. Buni ochiq-oydin e’lon qilishga Gavharshod otasi Ulug‘bek manfaatlarini himoya qiluvchi Abdullatifning Hirotda ekanligi sababli qo‘rqar edi. Bundan tashqari Hirot taxtiga Balx hukmdori, Shohruxning

---

704

705

706

1401 yoki 1402-yilda tug‘ilgan<sup>707</sup> o‘g‘li Muhammad Jo‘qi ham da’vogar edi. Shohruh ko‘nglining bir chekkasida Muhammad Jo‘qini taxt vorisi etish fikrida edi. Lekin amaldagi hokimiyat qo‘lida bo‘lgan Gavharshod Alouddavla va Abdullatiflar devon ishlariga qatnashganlari holda, Jo‘qini bu ishlarga yaqinlashtirmas edi. 1444 yilda shohruh o‘ir kasalga yo‘liqib, ana ketdi, mana ketdi bo‘lib, uning o‘limini kutishayotgan edi. Muhammad Jo‘qi Balxdan shoshilinch hirotgaga yo‘lga chiqdi. Kelib bildiki, malikaning qat’iy talabi bilan harbiy kuchlar qo‘mondoni FeruzShoh taxt vorisi sifatida tan olib Alouddavlaga qasamyod qolibdi. Kutilganiga qarshi o‘laroq, Shohrux sog‘ayib ketdi, ammo Muhammd Jo‘qi o ‘sha yili 848- (1444-1445) vafot etdi. sababldir Feruzshohninh hukmdor nazaridan qolishi balki uning vaqtidan avval qasamyod qilganidir. Uning o‘limidam keyin lashkar qo‘mondonligi o‘g‘li qo‘liga o‘tdi. Navbatdagi voqealarning ko‘rsatishicha, taxt vorisligi masalasi 1444-yildan keyin ham ochiqligocha qoldi. Shohruxning katta hamda yagona tirik qolgan o‘g‘li sifatida Ulug‘bekning huquqjarini poymol qilib, Alouddavlani voris deb e’lon qilishga jur’at etisholmas edi.

1446-yilda Boysunqurning o‘g‘li shahzoda Sulton Muhammad bobosiga qarshi qo‘zg‘lon ko‘tarib, Xamadonni, Isfaxonni qo ‘lga olib, Sherozni qamal qilgani sababli qarib qolgan Shohrux ’arbga yurishga chiqdi<sup>708</sup>. Alouddavla hirotda qoldi. Gavharshod va Abdullatiflar Shohrux yonida qoshin bilan birga edilar. G‘rbiy Eronda Sohrux hech qanday qarshilikka uchramadi. Sulton Muhammad tog‘larga qochdi. Qo‘zg‘lon aybdorlari qattia jazolandilar<sup>709</sup>. Gavharshodning talabi bilan Savada e’tiqodli mominu muslim Shohrux bir necha sayidlarni qatl qilishga buyurdi. Bungan a Temur van a Ulug‘bek jur’at etolmagan bo‘lishardi. Keyinchalik Shohrux avlodlarining qirilib ketishini sayidlarning qarg‘shi bilan bog‘liq b’lgan deb tushuntirishlar boshlandi.

---

707

708

709

Qishki qarorgohda turganida Shohrux yana kasal bo‘lib qoldi va 1447-yil 12-mart yakshanba kuni vafot etdi<sup>710</sup>.

Gavharshod Ulug‘bekka yaxshi ko‘rinish uchun lashkar boshlig‘i lavozimini qabul qilishni Abdullatifdan so‘radi. Abdullatif shu zahotiyoy otasiga chopar yubordi va o‘zi bosh bo‘lib turgan o‘ng qanotni tark etib, qoshinining bosh bayrog‘i osniga kelib turdi. O‘z navbatida Gavharshod ham hirotda turgan Alouddavлага yashrin holda chopar yubordi. Ulug‘bek bu xabarni olishi bilan qo‘sishin to‘plab Amudaryo tomon yo‘lga chiqdi. Abdurazzoqning so‘zlariga qaraganda, Shohruxning birgina tirik qolgan o‘g‘li sifatida<sup>711</sup> Ulug‘bek otadan qolgan barcha yerlarga o‘zi ega bo‘lishi lozim, jiyanlardan hech biri bunga haqli emas deb hisoblagan. Ulug‘bekdan oldinroq Amudaryodan Muhammad Jo‘qining o‘g‘li Abu Bakr Mirzo kechib o‘tdi. Muhammad Jo‘qi vafotidan keyin Balx viloyati uning o‘g‘llari Muhammad Qosim va Abu Bakr o‘rtasida bo‘lingan edi<sup>712</sup>. 1422 yilda<sup>713</sup> tug‘ilgan birinchisiga Balx, 1427-yil 18-noyabrda tug‘ilgan ikkinchisiga Amudaryodan shimoldagi Xuttalyon, Arhang, Soli Saroy tekkan edi. Shohruh vafotidan keyin u Balx, Bag‘lon, Shpurkon, Qunduz kabi akasining yerlarini ham bosib oldi. Ulug‘bek yosh shahzodani qarorgohiga chaqirib olib, unga qizini berishni va’da qildi. Abu Bakr bo‘lajak qaynotasi qarorgohida qandaydir makkorona niyatlarda fosh qilinadi va Samarqandga jo‘natib, Ko‘ksaroy qasriga qamab qo‘yildi. U yerda keyinchalik Ulug‘bekning buyrug‘i bilan o‘ldirildi<sup>714</sup>. Ulug‘bek Amudaryodan o‘tib Balxni oldi. Shu vaqtda unga Abdullatifning omadsizliklari haqida xabar keldi.

Abdullatif Shohrux qoshini boshlig‘i qabul qilib, isyonchilar bosimini to‘xtatishi lozim edi. Boysunqurning 1422 yilda tug‘ilgan o‘g‘li Abulqosim Bobur bilan Shohruxning qizidan Muhammad Jahongir o‘g‘li Halil Sulton qo‘sindan ajralib, o‘rdu bozorni, ya’ni qoshinining asosiy ugurugini (obozini)

---

710

711

712

713

714

talashdi<sup>715</sup> va Xuroson tomonga qochishdi. Abdullatif qo'shining qolgan qismida bir necha qatllar uyushtirib, intizomni tikladi va Shohrux vafotining uchinchini kuni Sharqqa qarab yurish boshladи. Ulug'bek esa abdullatif Xurosonning garbiy chegarasidan shimolga , Nis ava Obivard orqali Samarqandga yuradi va Shohrux jasadini shu yerga olib keladi, deb tahmin qilgan edi. Ray va Semnon oralig'ida Abdullatif Gavharshod ni va uning tarafdorlari tarxonlarni qamoqqa olishni buyurdi. Damg'onda Abdullatif birinchi marotaba qarsilikka uchradi. Shahar kuch bilan olindi. Bistomga kelganda unga ma'lum bo'ldiki, Jurjonda turgan qism o'zbeklarga qarshi Abulqosim Boburga bo'ysingan. Shundan keyin Bobur Mozandaronni egallagan. Natijada Abdullatifga bu yer orqali Samarqandga yo'l berk. Shundan keyin u yo'lida davom etib, Nishopurga yetib bordi. Bu yerda Mashhad Alouddavla qo'shini tomonidan egallangani haqida xabar oldi.

Alouddavla Shohrux vafotini eshitishi bilan Ulug'bekdan qo'rqib o'zini hukmdor deb e'lon qilishga jur'at etmadi. Har juma kuni masjidlarda Shohrux xotirasiga duolar qilinishi ko'zda tutilgan edi. Abdullatifning qilmishlarini, xususan, Gavharshod bilan qo'pol muomalasini eshitgach, Alouddavla taxtni egallahsha jazm qildi. Shohrux xazihasini qo'oshinga tarqatdi<sup>716</sup> va Mashhadga bo'linma jo'natdi.

1447-yil 29 aprel kuni Nishopur yaqinida Abdullatif to'satdan Alouddavla qo'shini hujumiga uchrab yengildi va asir olindi. Asir Abdullatifni o'zi bilan olib, bandilikdan ozoda bo'lgan Gavharsho Hirota qarab yo'l oldi. Yo'l usti :om yaqinidagi Sa'dobod degan joyda Alouddavla tomonidan kutib olindi. Abdullatif Hirota keltirilib Ixtiyoriddin qal'asiga qamaldi. Shohruxning jasadi Gavharshod madrasasiga, Boysunqur maqbarasiga dafn qilindi<sup>717</sup>. Shundan keyin Hirota qo'shini Alouddavla boshchiligidida shimoli-sharq tomon Ulug'bekka qarshi otlanib, Murg'ob daryosini kechib o'tdi.

---

715

716

717

Shu voqealar ta’sirida Ulug‘bek o‘zining lashkarboshilari maslahati bilan bundan nari yangi yerlarni bosib olish niyatidan qaytdi va Alouddavla bilan muzokara yo‘lini tutdi. Nizomiddin Mirak Mahmudni yuborib Alouddavla bilan muzokaralarda “seni ham men o‘g‘limdek ko‘raman, Hirotgta nisbatan hech qanday yomon niyatim yo‘q”, - degan fikrlarni yetkazdi. O‘z navbatida Alouddavla ham urushni davom ettira olmas edi. Chunki Garb tomondan Jom yaqinida Hirotning qorovul qismini yo‘q qilgan Abulqosim Bonur Hirotgta xavf solmoqda edi. O‘rtada bitim tuzildi. Bunga ko‘ra Alouddavla chegaralari bundan avval ham<sup>718</sup>, keyin ham ko‘p marotaba Eronning shimoli sharqdagi chegarasi Murg‘ob havzasi bolganidek, Chechektu<sup>719</sup> (“Gulzor yer” – tarj.) degan joy belgplandi. Abdullatif ozod etilib, otasi huzuriga jo‘natildi. Balx hamda Amudaryoning o‘ngu so‘l qirg‘ogidagi tobe bo‘lmish viloyatlar bilan birga unga topshirildi<sup>720</sup>. O‘sha yilning o‘zida Alouddavla bilan Abulqosim Bobur o‘rtasida bitim yuzildi. Bunga binoan ikkala shahzoda mulklari o‘rtasida chegara sifayida Kuchan tan olindi.

1447-1448-yil qishida avvalo Abdullatif bilan Alouddavla o‘rtasida, harbiy harakatlar boshlanib krtdi. Alouddavla bitim shartiga binoan Abdullatifni ozod qildi, lekin shartga xilof ravishda asir qilingan navkarlarni va boshqa mulozimlarini garov sifatida ushlab qoldi. Bundan tashqari Chechektugagi chegara qorovul vanzili boshlig‘i Abdullatifning dushmani Mirzo Solih, Umar Shayxning nabirasi, Pirmuhammadning Nishopur jangida qatnashgan o‘g‘li edi.

Shular hammasi Abdullatifni harbiy g‘animchilik harakatlariga undadi. Mirzo Solih engilib Hirotgta qochib bordi. Alouddavla Abdullatifning asir navkarlarini qatl etishga buyurdi. Qish bo‘lishiga qaramay, Alouddavla Balxga yurish boshladi. Abdullatif chekinishga, Balxga kirib yashirnishga va Ulug‘bekdan yordam so‘rashga majbur bo‘ldi. Ulu‘bek Alouddavlaga, urush boshlamay turib, Abdullatif ustidan Samarqandga shikoyat qilsang bo‘lmasmidi,

---

<sup>718</sup>

<sup>719</sup>

<sup>720</sup>

qabilida xabar yuborib, tanbeh berdi. Ulu‘bekning talabi bilan Alouddavla Hirotga qaytishga rozi bo‘ldi. Lekin yangi hujum ehtimolining oldini olish uchun mulki chegaralarini mustahkamlash harakatiga kirishdi. Chechektuda qal'a qurildi. Qish tufayli g‘isht xumdonlari qurishning ilojini topmay, langar (sayyohlar uchun qurilgan imorat)ninh g‘ishtin hovuzini va beva-bechoralar uchun mo‘ljallangan boshqa binolarni buzdirdi<sup>721</sup>. Hirotga qaytgach, Alouddavla urushdan jabr ko‘rgan aholining turmushini yaxshilash harakatini qildi<sup>722</sup>.

1848-yil bahorida Abdullatif bilan birga Ulu‘bekning o‘zi urush harakatlarini boshladi. Ota-bola 90 000 asksr to‘pladi<sup>723</sup>. Alouddavla ularga qarshi chiqib, Hirot yaqinidagi Tarnab degan joyda janggi kirishdi<sup>724</sup>. Jang Ulu‘bekning to‘la g‘alabasi bilan tugadi. Alouddavla Mashhadga, u yerdan Kuchanga qochdi va akasi Abulqosim Bobur qoshida panoh topdi. Mag‘lubiyat haqida eshitishlari bilan Hirotda qolgan harbiy lahskarboshilar Gavharshod bilan birga shaharni tark etishdi. Ulu‘bek birgina Neretu qal’asida qarshilikka uchrab, uni qamal bilan oldi. Abdullatif ham Ixtiyoriddin qal’asini kuch bilan oldi. Hirotdan Ulu‘bek G‘arbgaga qarab yurishni davom ettirdi va Mashhadni qarshilikka uchramay qo;lga kiritdi, ammo Alouddavla Shohrux davrida qurgan I’mod qal’asini ololmadi. Bahorda, hali Ulu‘bekka qarshi yurish boshlamay turib bu qal’ada Alouddavla o‘z xazinasini qoldirgan edi<sup>725</sup>. Mag‘lub bo‘lgach, xazinani olib ulgurib, askarlariga tarqatib yubordi. Ayrim muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, Ulu‘bek yurishni davom ettirdi. Radkanda uni Abulqosim Boburning elchilari kutib olishd. Bobur Ulu‘bekni o‘zining hukmdori deb bilishini, xutbaga uning nomini kiritishini va Ulu‘bek nomidan tanga zarb qilishini bildirdi. Ulu‘bek elchilarni hurmatini ado etib jo‘natdi, lekin harbiy harakatlarini to‘xtatmadidi<sup>726</sup>. Iafaroinda Ulu‘bek nimagadir to‘xtab, 20 kun vaqtini shu yerda o‘tkazdi. Osha yerdan Abdullatifni Bistomga va Astrobodga jo‘natdi. Abulqosim Bobur

---

721

722

723

724

725

726

Damg‘onga qochdi. U yerda Ulu‘bek Ibrishim daryosi ko‘prigi orqali o‘tib, Mashhadga qaytib kelibdi, deb eshitibdi. Abdurazzoq Ulu‘bekning bu harakatini chekinish hisoblab, katta xató edi, deb baholaydi. Chunki o‘zi shunday ham uning dushmalari Alo ad-din va Boburlar Iroqqa qochishni mo‘ljallab turishgan edi, ularning barcha yerlari Ulu‘bekka qolayotgan edi. Ulug‘bek ortida ulkan mamlakatni qoldirib yurishni davom ettirishdan qo‘rqqani ham bejiz emas edi. Chunki keying voqealar ko‘rsatganidek, uning hokimiyati u qadar mustahkam emas edi. Uning qaytishi Xurosondagi isyonkor kuchlarni bir muddat tiyib turdi-ku, biroq, ikkinchi nomondan qochoqdagi shahzodalar uchun yangitda kuch bag‘shlagandek bo‘ldi.

Ulu‘bekning Xurosonni zabit etishi mahalliy ruhoniylarga ma’qul bo‘limgani uning Hirot saux ul-islomi bilan uchrashuvida ma’lum bo‘ldi. Shayx ul-islom Bahor ad-din Alo ad-dinga Ulug‘bek bilan uning o‘rtasida vositachilik qilishni topshirgan, lekin shayx Tarnab jangi arafasida Ulu‘bek bilan uchrashuvga ulgurmagan edi. Shayx bilan uchrashuv jangdan keyin Childuxtaron (Ko‘shk)da ro‘y berdi. Lekin Ulu‘bek askarlari shayxni to‘nadilar. Ulu‘bek shayxning palankinini qaytarib berishni buyurdi va imkon boricha ko‘nglini olish harakatini qildi. Ammo shayx noroziligicha qoldi va go‘yo Ulu‘bekni qozining shariatga muvofiq chiqargan hukmi asosida o‘z o‘g‘li o‘ldiradi, deya bashorat qilgan emish.

Xuroson yurishi chindan ham Ulu‘bek bilan Abdullatif o‘rtasida nifoq soldi. Tarnab jangida Ulu‘bek Abdullatifga chap qanotni. O‘ng qanotni esa shunchaki nomiga Abdul Azizga topshirgan edi. Abdullatif jangda g‘alabaga o‘zining jasorati bilan katta hissa qoshgani holda, Ulu‘bek g‘alaba haqida turli mamlakatlarga yo‘llangan maktubni Abdul Aziz nomidan tuzdirdi<sup>727</sup>. Hirotda Abdullatif o‘zini yanada ko‘proq taxqirlangan hisobladи. Shohrux davrida Ixtiyoriddin qal’asi Abdullatifning mulki deb, I‘mod qal’asi esa Alouddavlaniki hisoblanar edi. 1446 yili Abdullatif bobsi Shohrux bilan G‘rbga keta turib, o‘z

narsalarini: bir necha ming misqol chiqadigan oltin, kumush buyumlar, 200 tuman pulni ixtiyoriddin qal'asida qoldirgan edi. Xuroson yurishi vaqtida Qal'ani Abdullatif oldi. Shunga qaramay Ulu‘bek o‘g‘liga o‘z narsalarini olishga ruhcat bermadi<sup>728</sup>. Umuman Shohrux davrida Hirotda oliv maqomlarda<sup>729</sup> yurgan Abdullatif endi o‘z otasi tomonidan kansitilayotgandek edi. O‘g‘li bilan munosabati orqali Ulu‘bek dushmanlar ustidan g‘labadan keyin Hirotda Abdullatifni qoldirishni, hirotliklarga Shohrux davri o‘tganini, endi bundan buyon Hirot Temur davridagidek tobe vilotat bo‘lib qolajagini bildirib qo‘ymoqci bo‘lgan.

Ulu‘bekning chekinishi Abulqosim Boburni Damg‘ondan sharqqa yana yurish qilishga ruhlantirdi<sup>730</sup>. Abdullatif Bistomdan Nishopurga chekiinishga majbur bo‘ldi. Bu shunchalik shoshilinch bo‘ldiki, qaysidir to‘xtash manziilda Abdullatifning dovuli va bayrog‘I qolib ketibdi. NIshopurda Abdullatif kasal bo‘lib qoldi. Ulu‘bekka uni ayyorlik qilyapti, otasiga nisbatan qandaydir shum niyati bo‘lsa kerak, deb yetkazishibdi. Ulu‘bek Shahzodasini Mashhadga chaqirtiribdbi. Unu zambilda ko‘tarib olib kelishganda, uning ahvolini ko‘rgan Ulug‘bek bu gaplar ig‘vo, tuhmat ekaniga ishonch hosil qilibdi<sup>731</sup>. Mashhadda Ulug‘bek noyabr oyigacha turdi. Neretu qal’asida betinchlik haqida xabar tufayli Ulug‘bek Hirotda qaytishga, Mashhadni Abdullatifga topshirishga qaror qildi.

Neretudagi isyonning aybdori otadan qochib Shirvonshoh huzuridan boshipana topgan, 1432-yilda dengiz orqali (Kaspiy bo‘lsa kerak), Astoboddan o‘tib, Shohruh huzuriga kelgan<sup>732</sup> Qora quyunlu turkman sulolasining sultonı Iskandarning o‘g‘li Yor Ali edi. 1432 yilda u Hirotda yangi kashf etilgan qandaydir harbiy uskunani sinab ko‘rishda qatnashgan<sup>733</sup>. Yigitning husni olomonda kuchli ta’sir qoldirganini Shohrux o‘sganda payqagan edi. Bir muddat

---

728

729

730

731

732

733

o‘tib, Yor Ali qamoqqa tushadi va Samarqandga jo‘natiladi<sup>734</sup> va u yerda 1448 yilgacha qoladi. Nima uchun 1848-yilda Ulu‘bek uni Xuroson yurishiga olib ketgan va Neretu qal’asi olingach o‘sha yerga qamoqqa qo‘ygan – sababi ma’lum emas. O‘sha qal’ada Gavharshod bilan Hirotdan qochgan, lekin Ulug‘bek askarlari tomonidan ushlangan<sup>735</sup> lashkarboshi Sulton Abu Sa’id ham bor edi. Uning odamlaridan biri qal’aga ichiga arracha solib pishirilgan non kiritadi<sup>736</sup>. Sulton Abu Sa’id va Yor Ali kishanlarini arralab oolib turmadan chiqishadi, qorovullarni o‘ldirishadi, qal’ani undagi xazina bilan birga bosib olishdi, pullar yordamida trafdarlar yig‘ib, to‘g‘ri Ulu‘bek nomidan Boyazid parvonachi boshchilik qilib turgan Hirotda qarab yurishadi. Boyazid parvonachi ixtiyoridagi kucg yetarli emas edi. U tojigu turk aholini, kimda ot-ulov bo‘lsa barchani otlanishga buyurdi. Hirotdan shimoli-sharqroqda joylashgan Karuxda lashkar engildi. Shundan keyin dushman Hirotni qamal qildi. Shahar himoyasida ochiq jangdagidan ko‘ra xalq lashkari foydaliroq chiqdi. Dushman bir hamla qilganda “Samarqand turklari”<sup>737</sup>, ya’ni Ulu‘bek askarlari qochib qolganida Boharz<sup>738</sup> tojik kamonchilari hujumni to‘xtatdi. Shahar qamalining 17-kuni Ulu‘bek yetib keldii va dushmanlar Neretuga chekinishga majbur bo‘ldi. Ulug bek qozg‘alonnima uchun muvaffaqiyat qozongani sababini tekshirishga buyurdi. Hirot atrofidagi aholi dushmanga yordam bergenlikda ayblandi. Buning uchun uch kun davomida shahar atrofida talon-toroj qilishga ruxsat berildi. Shundan keyin aholi bo‘m-bo‘sh uylariga qaytishga ruhsat oldi. Xonavayron bo‘lgan aholi oziq-ovqat, kiyim-kechakdan, buning ustiga sovuq kunlarda nochor ahvolda qoldi. 28-hoyabr bayram kuni bir darvesh Ulu‘bekning oti oldiga tushib yugurub borar ekan unga “Ey, adolatli shoh, sen darveshlarga ajoyib bayram qilib berding. Umring va saltanating umri uzun bo‘lsin”<sup>739</sup>der ekan. Davlatshoh ta’kidlaydiki, 1848 yilda Xuroson Ulu‘bek lashkarlari talon-toroj qilganlaridan keyin shuday qaqroq suvsiz

---

734

735

736

737

738

739

xarobaga aylandiki, XV asr oxirida tarixchi o‘zi yashagan vaqtida ham xarobalarning izlari saqlangan ekan<sup>740</sup>. Hirot va uning atroflari Ulu‘bek ketganidan keyin yana badtarroq zarar ko‘rdilar.

Hirotda Ulu‘bek yana bir muddat turdi, lekin hokimiyatini mustahkamlhsiga ulgurmadi. Mashhadga Abulqosim bobur yaqinlashganda Abdullatif shaharni ship-shiydon qilib, otasi huzuriga hirotga keldi. Yor Ali va uning tarafdarlari hereto qal’asida qolishdi. Ulu‘bek askarlari qal’ani ololmagan shekilli. Nihoyat, o‘zbek Abulkayrxon Ulu‘bek va o‘g‘illari yo‘qligidan foydalanib, Movarounnahrga bosqinlar uyuştirdi. U Samarqand ostonalarigacha yetib keldi va shahar atroflarini talon-toroj qildi. Abdurazzoq Samarqandiy ning so‘zlariga qaraganda o‘sha (amazon oyining yigirmanchi kunlarida) Ulug‘bek askarlari Hirot atroflarini talayotgan edilar<sup>741</sup>. Abulkayrxon tarixchisi Samarqand volysi amir Jaloliddin Bayazid o‘g‘li (bu o‘sha yili Hirot shahri volysi bo‘lgan Bayazid bo‘lsa kerak) va shahar zodagonlari xonga sovg‘a-salomlar bilan peshvoz chiqib, “Ulug‘bek xonning noiblariga xayrxoh, ittifoqchilikning va itoatkorlikning barcha shartlarini bajaradi”, -deb bayonet qilishgan<sup>742</sup>, deb yozadi. Lekin Ulug‘bekning noibi o‘z hukmdorining sha’nini xon oldida bunchalik yerga urishga, bunga jiddiy zarurat ham yo‘q bo‘lgan holatda, jur’at etishi amri nahol edi. Ko‘chmanchilar, aytish mumkinki, avvalgi safardagi kabi poytaxtdan sovgasalomlarsiz qaytdilar, lekin mamlakatni yalashda davom etdilar.

Shunday bir vaziyatda Ulu‘bek Shohruh jasadini va otasi Gavharshodning madrasasida qoldirgan ba’zi qimmatbaho narsalarni<sup>743</sup> olib Hirotdan qaytdi. Abdullatif Hirotda qoldirildi. Qaytish ham yo‘qotishlarsiz o‘tmadi. Amudaryoga tomon yo‘lda qo‘smini bilan Mashhaddan Saraxsga kelgan Abulqosim Bobur shu shahardan turib Marv tomonga jo‘natgan Hinduka boshchiligidagi harbiy bo‘linmasi Ulug‘bekka yetib oldi. Hinduka Ulug‘bek karvoniga katta talofat

---

740

741

742

743

yetkazibgina qolmay, nufuzli amirlaridan biri idiku-Temur o‘g‘li Ibrohimni asir qilib olib ketdi. Amudaryodan qayiqli ko‘prik yoki sol orqali kechuv ustida dasht o‘zbeklari hujum qilib, Ulug‘bek ug‘urugini bir qismini bosib oldilar va ko‘p sonli asirlar olib qaytdilar. Ulug‘bek qishning qolgan qismini Buxoroda o‘tkazdi. Buxorodan turib Shohrux jasadini Samarqandga jo‘natdi va mayit Temuriylar maqbarasiga (Go‘ri Mirga) dafn qilindi<sup>744</sup>.

Abulqosim Bobur Saraxsga tomon yurishda davom etayotib, Abdullatifga qarshi Hirota harbiy bo‘linma yubordi. Otasi ketganiga 15 kun bo‘lgan kuni Abdullatif Hirotni tark etib Andxoy orqali(Ulu‘bek ham shu yo‘dan yurgan edi) Amudaryo tomon yurdi. Daryodan o‘tgan vaqtida o‘ziga mulk qilib berilgan Balxga qaytish to‘g‘risida Ulug‘bekdan buyruq oldi.Bundan u g‘oyat mamnun bo‘ldi, chunki otasiga ro‘baro‘ bo‘lishdan qo‘rqayotgan edi.

Abdurazzoqning yozishicha, Abdullatifning Bistomda, Mashhadda, Hirotda vaqtida yordam ko‘rsatmagani uchun otasiga qattiq ginasi bo‘lgan<sup>745</sup>. Bu esa haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Ulug‘bek chekinishga majbur bo‘lgan vaziyat aniq-ravshan ediki, u o‘g‘liga yordam berish imkoniga ega emes edi. Holbuki, Ulug‘bek Hirotni juda qattiq qadrlar edi va, nihoyat, Abdullatifga ishonmaganida, Hirotni unga qoldirarmgan bo‘lar edi.

Abulqosim Boburning Hirotni egallagan bo‘linmasi shaharni taladi. Uch kundan keyin Neretudan Yor Ali keldi. Uch kun qamaldan keyin Hirot Yor Ali qo‘liga o‘tdi. Shaharda Abulqosim Bobur kelgunicha Yor Ali 20 kun hukm surdi. Boburdan yengilgan Yor Ali shahar markazida Chorsu yonida qatl qilindi. Bu voqealar xijriy 852-yilning so‘nggi kunlrida,ya’ni 1449 yil fevral oyining ikkinchi yarmida bo‘lib o‘tdi<sup>746</sup>.

Abdurazzoq Sanarqandiyning so‘zlariga ko‘ra 1848-yil voqealaridan keyin qo‘shin ichida hamda aholi orasida Ulug‘bekning obro‘-e’tibori tushib ketgan.

---

744

745

746

Ulug‘bek 1449-yil bahorida Xurosonni qaytarib olish uchun harakatini yangidan boshlamoqchi edi. Ammo buning o‘rniga o‘g‘li bilan urush qilishiga to‘g‘ri keldi.

Katta viloyat hukmdori sifatida Abdullatifga bir necha kichik viloyatchalar hokimlari shahzodalari bo‘ysinar edi. Shulardan biri Temur avlodi, lekin kelib chiqishi aniq ma’lum bo‘lmagan Mironshoh 1449 yil bahorida qo‘zg‘alon ko‘tardi. Uni Abdullatif bostirdi. Abdullatif o‘ldirilgan shahzoda Mironshohning buyumlari orasidan go‘yo Ulug‘bekning xatini topib olganmish. Xatda Ulug‘bek shahzodani qo‘zgalonga da’vat qilganmish<sup>747</sup>. Abdullatif Ulugbekdan batamom ajralib, Amudaryodagi sol va qayiqlarni qo‘lga olganda, o‘z viloyatida savdosotiqlan tushadigan daromaddan Samarqandga ajratiladigan hissani – tamg‘ni, (ayniqsa, Hindiston bilan karvon savdo yo‘li ustida joylashgan Balx tamg‘asi masalasiga, Ulug‘bek doimo alohida e’tibor qaratib kelgan) bekor qilganida ana shu “topib olingan” xatni ro‘kach qilar edi<sup>748</sup>.

Abdullatif ustiga yurish qilishga majbur bo‘lgan Ulug‘bek Samarqandni kichik o‘g‘li Abdul Azizga qoldirdi. Ulug‘bek qo‘s Shinida 1433-yil 19-martda-tug‘ilgan, Shohruxning o‘g‘li Ibrohimdan nabira bo‘lmish Abdulla ham bor edi. Otasi Ibrohimning 1435-yil 4-may kuni ro‘y bergen vafotidan keyin Abdulla Fors viloyati hokimi hisoblanar edi. !447 yili Shohrux qo‘sShini Forsdan chiqib ketganidan keyin viloyat Sulton Muhammad qaramog‘iga o‘tdi. Abdulla Sharqqa jo‘nadi. 1448 yilda Alouddavla qo‘s Shinida bo‘ldi. Tarnab janggi arafasida Ulug‘bek tomoniga o‘tdi. Davlatshohning aytishicha, Ulug‘bek unga qizlaridan birini bergen<sup>749</sup>.

Ulug‘bek va Abdullatif qo‘s Shinlari uzoq muddat, Davlatshohga k‘ora uch oy Amudaryoning ikki qirg‘ida yuzma-yuz turgan. Orada ayrim bo‘linmalar daryordan o‘tishga harakat qilib, to‘qnashuvlar bo‘lib turgan. Lekin har gal Abdullatif tomonning qo‘li baland kelib turgan. Shunday to‘qnashuvlardan birida Abdulla asir olinadi. Ulug‘bek bir tomonidan Abdullatif bilan urushib tursa,

---

747

748

749

ikkinchi tomondan qo'shini ichida chiqayotgan isyonlarni bostirishiga to'g'ri kelmoqda edi. Buning ustiga Ulug'bek bilan birga amirlarning Samarqandda qolgan oilalariga Abdul Aziz zulm qilayotgani haqida xabar keldi. Amirlarning g'azabi shu qadar ediki, xatto Ulug'bekni tutib Abdullatifga topshirishga ham tayyor edilar. Norizolarni bir amallab tinchitildi: Abdul Azizga ogohlantirish va do'q-po'pisalar bilan maktub jo'natildi<sup>750</sup>. Ko'p o'tmay qo'shining orqa qismida Ulug'bekni Samarqandga qaytishga majbur qilgan boshqa bir harakat boshlanib ketdi. Bu harakatning boshlanishi, rahbarining shaxsi haqida yetarli aniq ma'lumot yo'q: turkmanlarning arg'un qavmi yigirma besh yoshli<sup>751</sup> Mirzo Abu Sa'id deganni o'ziga sardor qilib AbdulAziaz o'tirgan Samarqandni qamal qildi. Abu Sa'id go'yo Mironshohning nabirasi, Sulton Muhammadning o'g'li ekan. Lekin Mironshohning Temur tarixida berilgan o'g'llari ro'yxati<sup>752</sup> ichida Sulton Muhammad ismi yo'q. Aytildiki, Abu Sa'id doimo Ulug'bek bilan birga yurgan.

Biroq bo'lib o'tgan barcha voqeal-hodisalarda uning nomi (negadir) uchramaydi. U Amudaryoda Abdullatif bilan bo'lgan urushda qatnshgan va o'sha yerda arg'unlar bilan Ulug'bek qo'shinidan ajralib chiqib ketgan emish. Bu o'rtada Abdurazzoq aytadiki, Ulug'bek arg'unlearning qo'zg'aloni haqida Samarqand qamal qilinganidan keyin bilgan<sup>753</sup>. Qolaversa, ko'p katta sonli bo'lмаган bir turkman qabilasining qo'zg'aloni balki Ulug'bekni Samarqandga butun qo'shini bilan qaytishga majbur qila olmagan bo'ladi\*.

Shubhasiz, Ulug'bekning qaytishiga Samarqanddan olingan yangi xabarlar sabab bo'lgan: Abdul Azizga qarshi harakatlar shu qadar keng ko'lam oldiki, Ulug'bek Samarqanddan uzoqda qolishi mumkin emas edi. Qo'zg'alonda Abdul Azizdan jabr ko'rghan harbiy tabaqa vakillari hamda Abu Sa'idga qasamyod qilgan arg'un qabilasigina qatnshgan deyish to'g'ri bo'lmas. Chunki avval boshdanoq Abu Sa'id diniy, xucucan Buxoro din peshvolari doiralardan tayanch topgan edi.

---

750

751

752

753

\* Bu o'rinda Bartol'd "gap arg'unlar qo'zg'alonda emas, balki boshqa sabablar bor edi, demoqchi. Tarj.

Ushbu doira Temurning haqqoniy, yoki o‘ylab topilgan (soxta) avlodni Mirzo Abu Sa’id nomzodini Ulug‘bekka qarama-qarshi qo‘ygan bo‘lsa kerak.

Ulug‘bek Samarqandda tinchlik o‘rnatishga erishdi. Abu Sa’idni cho‘lga qochishga majbur qildi. Ketma-ket yana Abdullatifga qarshi safarga chiqdi. Bu gal Abdul Azizni o‘zi bilan birga olib ketdi. Samarqandda shahar boshlig‘i qilib Mironshoh qavchi tayinlandi<sup>754</sup>. Bu o‘rtada Abdullatif Amudaryoni kechib o‘tib, Temizni va Shahrisabzni egalladi. Bu yerda unga mahalliy harbiy kuchlar kelib qo‘shildi. Ota va bola o‘rtasida jang Samarqand yaqinidagi Dimishq qishlog‘i yonida sha’bon oyida<sup>755</sup>, ya’ni 1449-yilning sentabr-o‘ktabr oyi o‘rtasida bo‘lgan. Ulug‘bekning qo‘shini yengildi. Ulug‘bek Shahar arkiga yashirinishga harakt qildi. Lekin Mironshoh Qavchin uning qarshisida darvozani qulfladi. Ulug‘bek Abdul Azizni birga olib, bir necha navkar himoyasida shimolga qarab yuzlandi va shohruxiya qal’asiga keldi. Qal’a dorug‘asi Ibrohim mamluk Po‘lod o‘g‘li uni qal’aga kiritmadigina emas, balki tutib bog‘lab Abdullatifga topshirmoqchi ham bo‘ldi. Shundan keyin Ulug‘bek tasnim bo‘lib o‘zini Abdullatifga topshirishni Afzal ko‘rdi va Abdul Aziz hamda o‘0z tarafdorlari bilan Samarqandga qaytib keldi. Abdullatif avvaliga otasining Makkaga ketishiga ruhsat berdi. Unga hamroh qilib, avvalroq haj qilgan amir Muhammad Xisrav degan kishini qo‘shib berdi. Ayni vaqtda mag‘lub bo‘lgan podsho ustidan yashirin sud uyushtirildi. Abdullatif kishi ko‘ziga otasining taqdirini hal qilgan bu ishlardan o‘zini chetda tutdi. Temur davridagidek Chingiziylardan qandaydir mafluk qashhshhoq kimsani xon deb e’lon qilindi. “Xon” oldida yana bir noma’lum Abbas icmli, otasi Ulug‘bekning buyrug‘i bilan qatl qilingani kimsa tiz chokib<sup>756</sup>, shariat bo‘yicha uning Ulug‘bekdan xun talab qilish huquqini tasdiqlashni so‘radi. Xon shariatda nima deyilgan bo‘lsa, ado etilsin, deb buyurdi. Din peshvolari shu asosda tegishli fatvoni tayyorladilar. Unga Samarqand qozisi Miskindan tashqari barcha imomlar imzo chekdilar. Ulug‘bekning qudratli paytlarida noma’qul ishlardan dadil

---

754

755

756

to‘xtatgan qozi shu kishi edi. Bu qozi yana bir bora jasorat ko‘rsatishga o‘zida kuchh topib, Ulug‘bek ustidan chiqarilganadolatsiz hukmga muhr bosmadi.

Ulug‘bekning o‘limi haqida uning hamrohi bo‘lmish xoji Muhammad Xisravdan eshitganlari asosida Mirxondbatafsil ma’lumot beradi: Ulug‘bek xoji bilan birga kechqurun otliq holda yo‘lga chiqqan. Kayfiyati yaxshi, har xil gaplardan gaplashib, suhbatlashib borishgan. Ular hali uzoq ketmay, sulduzlar urug‘dan bir chig‘toy ularni quvib yetib, xon nomidan Ulug‘bekning safari uchun zarur narsalarni tayyorlab, ortlaridan yetkazib ulgurishlari uchun shu yaqindagi qishloqda toxtash haqida buyruqni yetkazibdi. Go‘yo Ulug‘bek shunday munosib tarzda safar qilsinki, buni “turku-tojik” ma’qullasin. Buyruqdan xayron bo‘lgan Ulug‘bek yaqin qishloqda to‘xtashga majbur bo‘ldi va xonadongan biriga kirdi. Sovuq edi. Ulug‘bek olov yoqishni va go‘sht pishirishni buyurdi. Navkar yoqqan olovdan bir uchqun sachrab. Ulug‘bek po‘stining bir chetini kuydiribdi. Ulug‘bek olovga qarab turkiyda “*sen ham bilding*” debdi. Ulug‘bek (beixtiyor) yomon narsalarga keta boshlabdi. Xoji uni har qancha urinsada, tinchlantira olmabdi. Birdan eshik ochilib, yonida bir kishi bilan Abbas kirib kelibdi. Ulugbek uni ko‘riboq, jon holatda tashlanib, Abbasning ko‘ksiga musht tushiribdi. Abbasning sherigi Ulug‘bekni ushlab qolib uning yelkasidan “oltoy po‘stini”ni tortib tushiribdi<sup>757</sup>. Abbas arqon qidirib chiqqan paytida Xoji Ulug‘bek tahorat qilib ulgursin uchun eshikni zanjirlabdi. Abbas qaytib kelganda Ulug‘bek bog‘lab tashlangan holda sudrab xovliga olib chiqilgan edi. Xoji va boshqa hamrohlar o‘zlarini burchak-burchakka urib yashirinishgan ekan. Abbas Ulug‘bekni yonib turgan chioroq oldiga otirg‘izib, qilichning bir zarbi bilan halok etibdi. Xoji va navkarlar Samarqandga qaytib kelishibdi. Ular Ulug‘bekning jasadini o‘zlari bilan olib kelishganmi, kim, qachon va qayerga dafn qilingan – bular haqida Mirxondbatafsil ma’lumot bermagan. Davlatshohning yozishicha Ulug‘bek 853 yil

ramazonning sakkizinchi kuni (25-o'ktabr) kuni qandaydir suv bo'yida o'ldirilgan<sup>758</sup>.

Agar Eronda o'sha kunlarda o'zaro urush olib borayotgan bo'lmasalar edi, ota bilan o'g'il o'rtasidagi kurashga sulolaning boshqa vakillari ham aralashgan bo'lardilar. Sulton Muhammad Fotsdan yurich qilib, Xurosonga keldi va akasi (Abulqosim) Boburning lashkarini Mashhad va Jom orasidagi Farhodjirdda mag'lub etdi<sup>759</sup> va Hirotni qo'lga kiritdi. Ulug'bek bilan urush oldidan (Abulqosim) Boburga do'stlik izhori bilan elchi yuborgan<sup>760</sup> Abdullatif endi Sulton Muhammadni g'laba bilan qutlab, unga Xuroson nukmronligida, o'ziga Movarounnahr hukmronligida baxt-saodat yor bo'lishini niyat qildi. Sulton Muhammad Ulug'bekning o'limini eshitib esankirab qoldi, ammo Abdullatifga qarshi urush ochishga jur'at etmadi.

### Gacha k'ordim

Otadan tashqari Abdullatif ukasi Abdul Azizni ham o'ldirdi. U otasi o'limidan uch kun o'tib o'ldirildi. Bu gal hakamlik, ulamolarning fatvolari kabi obro'li rasmiyarlarga xojat ham bo'lmadi: Samarqand olingan kuni Ulug'bekning to'rt amiri Abdullatif tomon Sulton shoh barlos va uning o'gli Jaloliddimn Muhammad boshchiligida ketayotgan guruhga yetib oldi, Sulton shoh barlos ham, jaloliddin ham yarador bo'lib, asir olindi. Sulton shoh barlos Samarqand yo'lida vafot etdi. O'g'li esa ikki yoki uch kun o'tib o'ldi. Abdullatifning buyrug'i bilan torttala amir qozilok sudiga berildi<sup>761</sup> va qatl etildi. Mirzo Abdulla afv etildi va qamoqda qoldirildi. Abdullatif tomonidan asir olingan Abu Sa'id ham qamoqda qoldi. Qishga kelib Abdullatifning hokimiyyati to'la ta'minlangandek

---

758

759

760

761

bo‘ldi. Xatto o‘zbeklar **Movarounnahrga** bosqinlar qilishga jur’at qila olmay qolishdi. Abdurazzoqing so‘zlariga qaraganda, ular har qishda Samarqandga besh farsahgacha yaqinlasha olardilar. Endi Abdullatifdan qo‘rqib, yuz farsah masofaga ham kelmay qo‘ydilar<sup>762</sup>.

1449-1450 yil qishida Samarqand hayoti Ulug‘bek davridagidan mutlaqo boshqacha tus oldi. Abdullatif otasi kabi dunyoviy fanlar - astronomiya, tarix bilan shug‘ullanar edi. “xudoning odamlari”, ya’ni darveshlarga alohida hurmat ko‘rasatar edi<sup>763</sup>. Abdullatif ularning so‘zlarini diqqat bilaneshitar, va’z va ma’ruzalarini tinglar edi. Ruhoniylar vakillaridan biri Shamsiddin Muhammad ning guvohligidan misol keltirib, Mirxon hikoya qiladiki, Abdullatif ma’ruzalardan birida muzokaralarda qatnashib, arab tilining *fa’ala* “qilmoq” so‘zi ba’zan zahaba “ketmoq” ma’nosida ishlatilishiga fors tilida *raft* “ketdi” fe’liga misol keltirib, “falon kas nek raft” jumlesi orqali o‘xshash grammatik holat ekanini isbotlaganda olimlar hukmdorning fikrini ma’qullahgan ekan. Jome masjidida juma kunlari, xalifai roshidin davrlaridagi kabi, xutba hukmdorning o‘zi tomonidan o‘ailadigan bo‘ldi. Abdullatif ruhoniylarga bunday munosabat ko‘rsatayotgan sharoitda 1450 yilning bahorida Samarqanddan qochgan Abu Sa’id Buxoro ruhoniylariga umid bog‘lagan edi, ammo ular panohidan boshpana topa olmadi. Buxoro dorug‘si va qozi uni qamoqqa olishni buyurdilar, xatto o‘lim hukmi chiqarmoqchi bo‘lgan paytlarida Samarqanddan Abdullatif o‘ldirilgani haqida xabar kelib qoldi.

Abdullatif davri ruuhoniylar uchun qanchalik farog‘atli bo‘lsa, Ulug‘bek davri qo‘shin va oddiy avom uchun shunchalik og‘r kechdi. Har qanday bo‘yin tovslash shafqatsiz jazolanar edi. Abdurazzoqning yozishicha, u na qarining hurmatini, na yoshning izzatini qilishga yo‘l qo‘ymas edi<sup>764</sup>. Norozilar bosh ko‘tarishga qo‘rqar edilar. Lekin fitna yo‘li tutildi. Uning boshliqlari Ulug‘bekning va Abdul Azizning o‘z bekclarining o‘limi uchun qasos olishni qarz

---

762

763

764

deb bilgan navkarlari edi. Keyinroq Abdullatifning mulozimlaridan biri tarixchi Abdurazzoqqa aytgan gaplariga ko‘ra, bu odam fitna haqida bilgan, lekin uning g‘azabidan qo‘rqib ogoh etmagan.

Abdullatif 1450 yil 8-may, juma kuni tunda yoki erta tongda shahar tashqarisidagi bog‘lardan biridan (Mirxon<sup>765</sup> aytishicha, shaharning janubidagi Bog‘I chinordan) chiqsa, shaharga namozga borayotib, fitna qurboni bo‘ldi<sup>766</sup>. Ma’sud Ko‘histoni<sup>767</sup> Abdullatif tunni shaharning shimol tomonida joylashgan Bog‘i maydonda o‘tkazgan, deb yozadi<sup>768</sup>. Shu muallif o‘sha kecha Abdullatif ko‘rgan tush haqidagi hikoyani ham keltiradi. Tushida unga barkashda o‘zining kallasini keltirib berishgan emish. Qo‘rqib ketib, go‘yo Nizomiyning Hamsasidagi she’rlardan fol ko‘rganmish. Unda yozilganmish: “Padarkushga davlat nasib bo‘lmas, bo‘lsa-da olti oydan oshmas”<sup>769</sup>. Ko‘histoni<sup>770</sup> qotillik manzilini bat afsil bayon etadi: Qotil Abdullatifni shahar handaqi bilan Bog‘i nav orasidagi tor yo‘lakda kutib olgan: “Bog‘i navni shahar atrofidagi devordan qirg‘og‘bo‘lab yo‘l o‘ygan qasr xandaqi ajratib tutar edi”<sup>770</sup>. Qotil birgina kishi bo‘lib, uning ismini Mas’ud Ko‘histoni<sup>771</sup> Bobo Husayn Baxodir deb ataydi. Abdullatifni o‘dirgach, uning hamrohlari hukmdor jasadi ustida uymalashib turganda qotil qochib ulgurgan va Turkistonga borib yetgan. Mirxonning yozishicha, qotillarning qochishiga xojat yo‘q edi. Chunki Abdullatif o‘lishi bilanoq hokimiyat uning dushmanlari qo‘liga o‘tgan edi. Abdullatif “Allo! O‘q tegdi”, deb otdan yiqilishi bilan uninng hamrohlari qochib ketishgan. Fitnachilar yarador ustiga tashlanib, kallasini olishgan va keyin Ulug‘bek madrasasining peshtoqiga osib qo‘yishgan. (Shu madrasanining quruvchisi Ulug‘bek dastavval shu yerga dafn qilingan bo‘lishi ehtimol).

---

765

766

767

768

769

770

771

Fitnachilar tomonidan Mirzo Abdulla banddan ozod qilinib, taxtga o‘tqazildi. Shayx ul-isлом Isom ad-dinning vorisi<sup>772</sup> shayx ul-isлом Burxoniddin<sup>773</sup> Mirzo Abdullaning ashaddiy tarafdorlaridan edi. Ulug‘bekning taxtdan tushirilishida, Abdullatifning hukmronlik qilishida Shayx ul-isломning hatti-harakatlari haqida hech narsa ma’lum emas. Fitna tayyorlashda ishtirok etganligi k o’proq ehtimol. O‘zining hukmronligini Abdulla qo‘singa katta miqdorda Samarqand xazinasidan pul tarqatishdan boshlashi kerak edi<sup>774</sup>. Shu bilan birga fitnachilar mukofotlandilarmi, o‘tgan yil voqealarining ishtirokchilari jazolandilarmi – manbalarda bu haqda xabar berilmagan. Qatl qilishlar bo‘limgan shekilli, aks holda tarixchilarning jimligini tushuntirish qitin bo‘lardi. Abdullatifning qattiqqo‘l siyosatidan keyin Samarqandga Ulug‘bek davridagi singari nisbatan yumshoq boshqaruv qaytgandek edi. Shayxul isлом va Abdulla hamma narsada Ulug‘bekka taqlid qilishga harakat qilishar edi. Ulug‘bekning jasadi Go‘ri Mirga maqbarasiga ayni shu Abdulla davrida ko‘chirib, qayta dafn qilinganligi, qabr toshi tayyorlab, unga Abdullatifning padarkushligini ochiq-oydin qoralab xotirot bitigi yozdirilganligi ehtimoli ko‘proq<sup>775</sup>.

Hokimiyat almashuvini ruhoniyat markazi Buxoroda ruhoniylar muborakbod qilishmadni. Abdullatifning vafoti haqida ma’lum bo‘lishi bilanoq, Abu Sa’id Mirzoni qamoqdan bo‘shatib, dorug’a bilan qozi hukmdor sifatida unga qasamyod qilishga shoshildilar. Buxoro olimlaridan Iftixor ul-ulamo martabasidagi biri Shamsiddin Muhammad Abduknudiy ham Abu Sa’id tomonida edi. Abu Sa’id shu zahotiyoy Samarqandga eurish qildi, lekin talofat ko‘rdi va qochib, cho‘l orqali shimol tomonga jo‘nadi<sup>776</sup>. Bu gal ham Abu Sa’id qo‘zg‘alonini qo’llab quvvatlagani uchun buxoro ruhoniylari jazolandimi yoki yo‘q – bu haqda hech nima deyilmagan.

---

772

773

774

775

776

Abdulla Shopurkon, Balx, va Xisorni bocib olgan, u yerdan yurib Samarqandni olishni ko'zlagan boshqa dushman, ya'ni Alo ud-davla bilan kurashmog'iga to'g'ri keldi. Unga qarshi Abdulla Shahrisabzdan yurish boshladi. Lekin lashkarlar jang qilmayoq tarqab, urush bo'lmadi. Alo ud-davla Balxga qaytdi, Abdulla esa Amudaryodan shimoldagi viloyatlarda ham hokimiyatini o'rnatish choralarini ko'rib, Samqrqandga<sup>777</sup>yo'l oldi. Alo ud-davla 1449-yilda Xurosonga Sulton Muhammad bilan qaytib, undan Gur, Garmser kabi Afg'onistonnig janubi-garbiy qismini oldi. 1450-yilda Sulton Muhammad bilan Abulqosim Bobur o'rtasida ro'y bergen yangi urush vaqtida (mart oyida Sulton Muhammad Bobur ustidan Mashhad yaqinida g'alaba qozongan edi) uning yo'qligidan foydalanib. Alouddavla Hirotni bosib oldi. Shimoli-Sharqqa tomon amalga oshirilgan yurishni u shu yerdan boshlagan edi<sup>778</sup>. Amudaryo bo'yida Abdulla bilan jang qilmay orqaga qaytganining sababi Abulqosim Bobur Xurosonda o'z hokimiyatini taklagani bo'lsa kerak.

Shu vaqtda Abu Sa'id bir to'da tarafдорлари bilan Sirdaryo havzasida Temuriylarning chegara shahri Yassi(Turkiston)ni bosib olishga erishdi<sup>779</sup>. 1451 yilga o'tar qishda Abdulla u yerga qo'shin yuborib, qamal qildi. Abu Sa'id qamalchilarni aldashga muvaffaq bo'ldi: o'zbekcha kiyingan bir necha kishini yuborib, qamalda qolganlarga yordam berish uchun o'zbek xoni Abulkayr kelyapti degan gapni tarqatdi. Shaharda qamalda o'tirganlar bundan xursand bo'lgan ko'rinish uchun qiy-chuv ko'tarishibdi. Abdullaning Samarqand bo'linmasi bor-yo'g'ini, ugurugini otlari, xachirlari bilan tashlab, shoshilinch chekindi. Shundan keyin Abdullaning o'zi Abu Sa'idga qarshi otlanib, qo'shin bilan Sohruxiyaga keldi. Buni eshitgan Abu Sa'id chindan ham Abulkayrdan yordanm so'radi. Abulkayr bundan Samarqandga yana bosqin uyushtirish yo'lida jon deb foydalandi. Abu Sa'id Abulkayr bilan birga Turkistondan Toshkentga keldi, bundan Xo'jandga bordi. Abdullaning qo'shini dushman kelayotganini

---

<sup>777</sup>

<sup>778</sup>

<sup>779</sup>

bilgach, Sirdaryodan nari ketdi. Abu Sa’id va Abulkayi Mirzacho’l orqali o’tib, Abdullaning qo’shinini Bulung‘ur cho‘lida quvib yetdilar. Sheroz qishlog‘i yonidagi 1451 yil iyun oyida bo‘lib o’tgan jangda son johatdan ko‘p Abdullaning qo’shini mag‘lub bo‘ldi. Abdullaning o‘zi matonat bilan jang qilib, oxiri chekinayotganda dushman uni quvib yetdi va u halok bo‘ldi. Boshqa biror qarshilikka uchramay g‘oliblar Samarqandga kirdilar va Abu Sa’id taxtni egalladi.

Bu voqealar haqidagi hikoyalar bizgacha turli xil tavsif va talqinda yetib kelgan. Abulkayrxon hayotini bayon etgan kitobda (Ko‘histoniyning “Tarixi Abulkayrxon”) voqealarning yagona qahramoni Abulkayxonnig o‘zi qilib tasvirlangan: Abu sa’id uning o‘rdasiga borib, tiz cho‘kkan hold axon va’da qilgan yordam uchun shu qadar xokisorlik bilan minnatdorlik izhor etadiki, xuddi 1848-yildagi bosqin paytida Ulug‘bekning noibi (Boyazid qavchin) xon oldiga o‘zini va Ulug‘bekni uning vassali qilib ko‘rsatganidek; Samarqand olinganidan keyin Abulkayrxonning nomiga xutba o‘qilib, ismi eslatilgan tangalar zarb qilingan<sup>780</sup> emish. Bunga mutlaqo zid ravishda Buxoro avliyolarining manoqiblari voqealar bayonida Abulkayrxon nomi umuman eslanmaydi. Muallif hikoya qiladiki, Abu Sa’id va uning qo’shinini naqshibandiy tariqatining Toshkentdagagi vakili shayx Ubaydullohning (boshqacha qilib Xoja Ahror valiy) duosi ruhlantirgan va kuchlariga teng bolmagan ko‘p sonli dushman qo’shinini yengishga muvaffaq bo‘lgan ekanlar. Xoja Ahror Abu Sa’idning nomi hali hech kimga ma’lum bo‘lmagan paytlardayoq uning Toshkentni, Samarqandni, Xurosonni olishi haqida bashorat qilgan ekan; Abu Sa’idning o‘zi esa Xoja Ahrorni tushida ko‘rgan, Ahmad Yassaviy Xoja Ahrorni Abu Sa’idga ko‘rsatgan emish. Song Abu Sa’id Xojaning ismi va qiyofasini eslab qolib, Toshkentga kelganida surishtirsa, Xoja Parkatda ekanlar: Abu Sa’id o‘sha yerga otlanib, shayx bilah korishibdi. Shayx unga agar urushdan maqsading din vau shariatni mustahkamlash, elga mehru muruvvat bo‘lsa, senga zafar yor bo‘lsin deb, duo qilibdi. Shu bilan birga shayx Abu Sa’idga tayinlab aytibdiki, to uning qo’shini

ortida qora quzg‘unlar galasi paydo bo‘lmaguncha, dushmanga hujum boshlamasin ekan. Qo‘sishinlar yuzma-yuz bo‘lganda Abdullaning lashkari Abu Sa’idning o‘ng qanorini parokanda qilib ulgurar va navbatda so’l qanotga hujum qilishga shay turganida ekan, Abu Sa’id qo‘sini ortida birdan qora quzg‘nlar galasi paydo bo‘libdi. Shayx bashorat qilgan belgini ko‘rib, abu Sa’id askarlari ruhlanib bir hamjihat harakat bilan bosib borib, dushmanni uloqtirib tashlabdi. Shu rivoyatning davomida mazkur jang haqida go‘yo unda ishtirok etgan Turkistonning mashhur zodagon xonadoni vakili, jangchi Hasan Baxodir tilidan yana bir rivoyat keltiriladi: Abu Sa’id bilan 7000 jangchi bo‘lgan. Abdullaning lashkari bundan ancha ko‘p va yaxshiroq qurollangan ekan. Abu Sa’id qo‘rqib turgan ekan, birdan uning ko‘zi o‘ngida Xoja Ahrorning jangchilar oldida borayotgan qiyofasi namoyon bo‘lganmish. Hasan Baxodir “Yog‘iy qochdi”<sup>781</sup> deb na’ra tortib, olg‘a tashlanganmish. Jangchilar ham “Yog‘iy qochdi” deya janggi kirganmish va Abdullaning lashkari qochishga tushganmish. Nihoyat o‘sha kuni Samarqand olingan emihs.

Bu hikoya va rivoyatlar, albatta, jang natijasi, Xoja Ahrorning zabit etilgan Samarqanddagi faoliyati ta’sirida yuzaga kelgan. Lashkar yurishing rahbari, aslida xoja Ahror ham emas, Nirzo Abu Sa’id ham emas, balki rivoyatda mutlaqo tilga olinmagan o‘zbek xoni bo‘lgan. Abdurazzoqning<sup>782</sup>, keyinroq Mas’ud Ko‘histoni ham takrorlagan so‘zlariga qaraganda, o‘sha din va shariat himoyachilari deb atalmish jangchilar Mirzacho‘ldan o‘tayotib, shananlik ismi amallarini qilishgan. Askarlar qaqroq cho‘ldan o‘tishda jazirama va suvsizlikdan qiynalmasin deb sehrgarlar *yada*<sup>783</sup> toshi yordamida salqinlik, yomg‘ir va qor chaqirishibdi . Bu holdan Abdullaning askarlari xayron, ayniqsa, *yada* toshining “xossalari” haqida hech narsa bilmaydigan xurosonliklar umuman xayratda qolishibdi.

---

781

782

783

Har holda Abu Sa'idning Xoja Ahror bilan uchrashuvi alohida masaladir. Har ikkovi bilan zamondosh Abdurazzoq ham Abu Sa'id g'alabaga erishmasdan avval Xoja Ahror bilan uchrashgan va taxtni olish fikrini uning ongiga Xoja Ahror singdirgan. Natijada Abu S a'id hukmronlik yillari davomida "Xoja Ahrorga itoatda bo'lgan, ko'rsatmalariga, xatto mumkin bo'lganda ham, qarshilik ko'rsatmagan"<sup>784</sup>.

Toshkentda naqshibandiya tariqati jamoalarining etakchisi bo'lgan Xoja Ahror, shubhasiz, Buxoro ruhoniylari bilan ham aloqada bo'lgan. Ular bilan Abu Sa'id ham yaqin bo'lgan. Xoja Ahror bilan Abu Sa'idning yaqinligi sababi balki shudir. Agar chindan ham taxtga intilish fikrini Abu Sa'idga Xoja ahror singdirgan bo'lsa, unda abu Sa'id Ulugbek hayot vaqtidayoq uchrashib turgan. Abdurazzoq esa Abu Sa'id turli viloyatlarda sarson bo'lib yurgan davri, ya'ni 1450-1451-yilari haqida yozadi. Biroq 1449 yilgacha Abu Sa'id haqida mutlaqo ma'lumotlar yo'qligi sababli masalani hal qilish imkoniy yo'q.

G'lib Samarqandga qarshilikka uchramay kirib keldi. Lekin g'alaba kuniyoq kirib kelgan bo'lishi gumon. Shyxul islom Burxoniddin Abdulla o'ldirilgani xabarini olgach, Abu SA'id kelguniga qadar Samarqandni tark etib ulgurdi. Xurosonda Bobur tomonidan hurmat bilan kutib olindi. Abulxayrxon Ulugbekning qizini xotinlikka olgach, boy in'omlar bilan o'zining cho'llariga chiqib ketdi. Samarqand taxtini Abu Sa'idga qoldirdi<sup>785</sup>. Xalqaro ilmiy hamkorlikda nashr etilayotgan "Islom ensiklopediyasi"da A.S Beverijning Abu Sa'id haqidagi o'ta maqtovparastlik (panegirizm) ruhida yozilgan maqolasi bosilgan. Maqolada aytishicha, Abu Sa'id shaxsan Ulugbek nazorati ostida o'sgan. O'zining o'qishga, ilmga moyilligi bilan Ulugbekning e'tiborini qozongan. Hukmdor sifatida u Zahiriddin Muhammad Bobur, Akbar, Shohjahonlarning munosib ajdodi edi, deb yozilgan. Aslida Abu Sa'id hukmronligi Ulugbek davriga zid o'laroq, madniyatga dushman darveshlar

---

784

785

hukmronligi davri b'ldi. Abu Sa'id Samarqandga Ulug'ek uchun emas, Abdullatig uchun qasoskor sifatida kirib keldi. Abdullatifning qotillarini o'z ishlarini bajargan joylarida qatl qilindi va jasadlari yoqib yuborildi. Ulug'bekning qirq yillik hukmronligi naqshibandiya tariqatining va Toshkentdan chaqirib olingan Xoja Ahrorning qirq yillik hukmronligi davriga aylandi. Shariatning va so'fiylikning ashaddiy himoyachisi Xoja Ahror aslida Turkistonda eshon martabasiga ega ko'plab o'ziga o'xshaganlar qatori oddiy *eshon* edi. Uning panegirik manoqibchilari ham tan olganlaridek, Xoja Ahror dunyoviy, kitobiy ilmga va shu jumladan ilohiyot ilmlariga qarshi edi. Lekin uning shariat asosidagi taqvodor hayoti, shaxsiy joziba kuchi (odamni o'ziga tortuvchi) yoqimli tabiatini bilan din peshvosi va mu'jizakor valiy sifatida katta obro' qozondi. Unga ixlosan keltiriladigan moddiy ehsonlar oqimining sababi ham shu edi. O'zining boyliklari va obro'si bilan u xalq farovonligiga xizmat qilishga harakat qilar edi<sup>786</sup>. Oliy tabaqaning hayoti va intilishlari, bularning eng yorqin ko'rinishi Ulug'bek hayoti misolida, Xoja Ahror uchun tushunarsiz narsalar edi.

(Shu yerida Bartol'd so'fizmni prymolineyniy kommunistlar singari madaniyatni inkor etishda ayblagan Bunga bugun alohida izoh kerak. Yu.Bregel izohini to'ldirish kerak)

### Tomnning 168-sahifasidan davom etyapman

Abu Sa'idning hukmronligi darvtshchilikning mahalliy jamiyatda mavjud qarama-qarshi oqim vakillari ustidan galabasida bosh omilga aylandi. Ushbu oqim vakillari vorisiy shayxul islomlar bo'lib, "Hidoya"ning muallifi (Marg'inoniy) avlodlari edilar. Abu Sa'idning Xoja Ahror ta'siriga tushib, unga so'zsiz bo'ysinib qolishi, Abdurazzoqning xabariga zid ravishda, birdan yoki avval boshdanoq yuzaga kelmagan ko'rindi. Samrqanddan shayxul islom Burxoniddin ketib qolganidan keyin bu yerda "al-Hidoya" muallifining

avlodlaridan shayxul islom Nizomiddin Mau'dud bor edi<sup>787</sup>. Abu Sa'id bilan Abulqosim Bobur o'rtasida urush vaqtida hamda, avval Xisorga Bobur huzuriga, keyin esa, Bobur Samarqandni qamal qilib, omadsiz qaytganida o'rtada sulh bitini tuzib, inchlik o'natalishida bu shayxning xizmati katta bo'lgan edi. Har ikki holatda ham uning yonida Temur davrida sadr vazifasida bo'lgan<sup>788</sup> olim Jamoliddin Fatxulloh Tabriziy bor edi. Ushbu diplomatik muzokaralar uchun bu ikki shaxs tanlangani bejiz bo'limga. Chunki eshon Xoja Ahror sharttaki va qat'iy qarashlarga ega bo'lgan va muzokaralar unga topshirilsa muammo chiqishi ehtimoli ko'zda tuyilgani ehtimoldan holi emas. Mana bir misol: Abulqosim Boburning ishonchli vakili o'z hukmdorini Xoja oldida yuksak sharaflab gapirganda qat'yatli eshon (Xoja Ahror) "Men Boburni bobosi Shohruxning nabirasi bo'lgani uchungina (qarg'may) ayab turibman"<sup>789</sup> degan ekan. Xoja Ahror manoqibining muallifi yozganiga aksincha Boburning qarorgohiga batamom bitim tuzish uchun Abu Sa'id eshonni emas, balki uning shogirdlaridan birini yuborgan<sup>790</sup>. Eshonnig o'ziga xos tabiatи Boburga hamrohlik qilayotganHirot ruhoniylari va ziyoli qatlamlarni ham qiziqtirmay qolmas edi. Shulardan biri tarixchi Abdurazzoq eshon bilan ko'rishish uchun ataylab shaharga jo'nadi. Bu uchrashuv haqida nurli xil dunyoqrash vakillarining fikrlari biz uchun katta qiziqish uyg'otgan bo'lur edi. Afsuski, tarixchi "Undan nimani topgan bo'lsam, shuni topdim, unda njmani ko'rgan bo'lsam, shuni ko'rdim" kabi sirli iboralarni ishlatadi. Aftidan Abdurazzoqning (eshonni ko'rishdan) umidlari chippakka chiqqan va taassurotlarini ochiq yoza olmagan.

1455-yilda Abu Sa'id O'trorda ko'tarilgan qo'zg' lonni bostirishiga to'g'ri keldiki, isyonchilar uning sobiq ittifоqdoshi o'bek xoni Abulxayrxondan yordam olgan edilar. Isyonchilar Buxoro ruhoniylari bilan aloqada bolganlar shekilli, ulardan biri Abu Nasr Pors yonini olgani tufayli jazodan qutulib qolgi. Yana balki Shayxul islom Burxoniddinning o'sha yili Abu Sa'idning taklifi bilan

---

787

788

789

790

Samarqandga qaytishi ham shu bilan bog‘liqdir. Hirotdan Bobur tomonidan shaxsan o‘ziga tegishli palankinini Shayxul islomga sovg‘a qilib tantanali kuzatilgani kabi, uning Samarqandga kirib kelishi ham favqulodda dabdaba bilan kutib olindi. Abdurazzoqning aytishicha, Abu Sa’id tomonidan unga ko‘rsatilgan bunday izzat-hurmatni va mehribonchiliklarni avvalgi hukmdorlar davrida xatto orzu ham qila olmas edi. Shu munosabat bilan Abdurazzoq Orif icmli shoirning Burxoniddin ketishiga bagishlab yozilgan va unda “bu sh’erni o‘zing bilan olib ket, chunki na Samarqandda va na Buxoroda bundayin lazzat topilmas”<sup>791</sup>, - deb yozilgan edi. Bundan ko‘rinadiki, Hirotdiklar nazdida Ulug‘bek fojiasiga olti yil bo‘lganiga qaramay, Samarqand, shu bilan birga Buxoro ham g‘amguzor, qayg‘uga botgan hamda she’riyatga begona joylar degan tasavvur bor ekan.

1445-yildan to Abu Sa’id hukmronligining oxirigacha Samarqand ikkala shayxning, biiri Ulug‘bek davri an’anlarini saqlovchi va ikkinchisi bu an’analarni yo‘q qilguvchi ikki shayxning bir vaqtda yashagan manzili bo‘lib qoldi. Ikkalasi ham shyxul islom martabasida, ikkalasi ham saroyda o‘z ta’siriga ega zotlar edi. Abu Sa’id Movarounnahr isyonchilarini bilan kurashda , 1457-yilda Abulqosim Bobur vafot etganidan keyin Xurosonda o‘hokimiyatini mustahkamlash uchun harakatida o‘rniga, vaziyatiga qarab, goh u, goh bu shayxul islom obro‘sidan foydalanan edi. Masalan, eshon xalq ommasi va qo‘shin oldida katta obro‘ga ega edi. Boshqa jihatdan madaniy jarayonlar vakillarining manfaatlari bilan hukmron doiralar manfaatlari, ayniqsa, ommaning hukmdorga qarshi qo‘zg‘alonlari paytida o‘zaro uyg‘un edi. Abu Sa’idga qarshi qo‘zg‘alon ko‘targan Andullatifning o‘g‘li Muhammad Jo‘qi mustahkamlanib olgan Shohruxiyani uzoq muddat qamai qilinganda bu ikki shayxning haddi harakatlaridagi farqli jihatlari yaqqol ko‘rindi. Qo‘zg‘alon 1461-yilda boshlandi. Birinchi martasida Xuroson va Mozandarondagi voqealar tufayli qamalni bo‘shatib, Muhammad Jo‘qi bilan tinchlik haqida “shartnomaga o‘xshash” kelishuv qilingan<sup>792</sup>. 1462-yili Shohruxiya yana qamal qilindi va butun bir yil o‘tib, 1463-yil kuzida taslim

791

792

bo‘lishga majbur etildi. Qamaldagilarning talabiga binoan samarqanddan ikki marta Xoja Ahror (eshon) keldilar. Ammo muzokara ijobiy natija bermadi. Shundan keyin shayxul islom Burxoniddin kelib, “samarqandliklar kerak bo‘lsa bir necha yil bo‘lsa-da, qamalni davom ettiradilar va shaharni olmay ketmaydilar. Buning uchun Samarqandni qurban qilishga va Shohruxiya yaqinida yangi Samarqand qurishga ham tayyordirlar”, - dab e’lon qildi. Burxoniddinning bayonoti sulltonga ma’qul bo‘ldi. Lekin qamaldagilar muzokara uchun eshonni yana chaqirishni talab qildilar. Xoja Ahror uchinchi bora Shohruxiyaga keldi va sulh maqsadiga erishdi. Biroq Abu Sa’idni qamaldagilarga shafqat ko‘rsatish, jonlariga omonlik berish haqida dinu diyonati bilan qasamyod qilishga majbur qildi<sup>793</sup>. Shahzodadan tashqari barcha qamaldagilarga nisbatan qasamyodga sodiq qolingan ko‘rinadi. Muhammad Jo‘qiga Shohruhiyada va Samarqandda hurmat ko‘rsatilgan. Biroq Hirotg‘a borganidan keyin 1464-yil yanvarida Ixtiyoriddin qal’asi o‘rtasidagi minorasimon qurilgan turmaga qamab qo‘yildi. O‘sha turmada Muhammad Jo‘qi vafot etdi<sup>794</sup>.

Manbalarda shayxul islom Burxoniddin Abu Sa’id ikkinchi marta 1458-1459-yilda Xurosonni istilo qilganda u bilan birga Hirotg‘a borgan va o‘sha yili Samarqandga qaytarib jo‘natilgan paytida esga olinadi. Abu Sa’id Hirotni Samarqandga nisbatan ko‘proq ma’qul ko‘rar edi<sup>795</sup>. Xurosonni zabit eganidan keyin shu shaharni poytaxt qildi<sup>796</sup>. BU yetda ham uning hokimiyati mustahkamlanish jarayoni qotilliklar va rasmiy qatllar Temur davridan-da dahshatliroq tarzda davom etdi. 1457- yilda Abu Sa’idning buyrug‘I bilan qarib qolgan malika Gavharshod, evarasi, ya’ni Alouddavlaning o‘g‘li Sulton Ibrohim bilan yashirin aloqalarda ayblanib o‘ldirildi<sup>797</sup>. 1462-yil yanvari oxirida poraxo‘rlik va harbiy ishlar uchun olinadigan soliqdan urib qolishda soliqchi xoja Mu’iziddin va sarrof Shayx Ahmadlar ayblandilar. Abu SA’id buyrug‘I bilan ark

---

793

794

795

796

797

ostonasida Shayx Ahmadning terisi shilib olindi, Mu’iziddinni tsa qoznda qaynab turgan subga solib pishirildi<sup>798</sup>.

Xoja Ahrorning faoliyati Abu Sa’id Xurosonni zabit etgandan keyin ham Samarqand bilan bo ’liq davom rtdi. 1460-yili Abu Sa’d Buxoroning Nur qishlog‘i yaqinidagi tog‘lardan Nur Sa’id degan kishi Buxoro va Samarqand atroflariga bosqinlar qilayotgani xabarino oldi. Nur Sa’idga ishonchli odam yuborilib, uni itoatga qaytishga kondirish topshiridi. Agar bu harakat befoyda bo‘lib chiqsa, o‘sha ishonchli odam Xoja Ahrorga murojaat etishi lozim edi. Lekin icyonchi na Abu Sa’idning va na uning tog‘lariga borgan Xoja Ahrorning gaplariga qulq soldi. Sundan keyin Samarqand qo‘shinidan qochib cho‘llarga kirib ketdi<sup>799</sup> va ko‘p o‘tmay Muhammad Jo‘qi qo‘zg‘olonchilariga qo‘shilib ketdi. Xoja Ahror Nurdan to‘g‘ri Hirotg‘a borgan va u yerda 8-dan 25-dekabrgacha<sup>800</sup> yashab turgan edi. Xojaning iltimosiga bilan Abu Sa’id Samarqand va Buxorodan tamg‘a solig‘i olmaslikka va kelajakda barcha viloyatlarda shar‘iy bo‘lмаган барча ўигимларни бекор қилишга роzi bo‘ldi.

1467-1468 yil qishini Abu Sa’id Marv atrofida o‘tkazayotganida turkmanlarning qudratli hukmdori Jahonshoh o‘lgani haqidagi xabar ta’sirida G‘arbiy Eronni bosib olish uchun yurish qilishga qaror qildi. Bu niyati haqida maslahatlariga qulq solib o‘rganib qolgan Xoja Ahrorga xabar berdi va uni huzuriga kelishga chorladi. Xoja Marvga keldi na qo‘shin tomonidan tantana bilan kutib olindi. Bir kun u Abu Sa’idning, ertasiga Abu Sa’id uning – bir-birlarining mehmoni bo‘lishdi. Uzoq muzokaralardan keyin harbiy yurish haqidagi masala ma’qullandi. Fevral oyining oxirida<sup>801</sup> Abu Sa’id qishlov manzilidan chiqib, o‘zing va qo‘shinining katta qismi halokati bilan tugagan o‘limi bilan tugaydigan harbiy safarga otlandi.

---

798

799

800

801

Xoja Ahror duosi bilan boshlangan omadsiz urush eshonning obro’siga putur etkazmadigina emas. aksincha eshon, raqibini (Burxoniddinni) butunlay yo‘qotishga erishdi va Samarqandda to‘la-to‘kis hukmronga aylanishiga olib keldi. “Rashahotul ayn ul hayot”ning muallifi (Ali Safiy)ning so‘zlariga qaraganda, Abu Sa’idning o‘limi xaqidagi xabar avvaliga Samarqandda eshonga munosabatni keskin o‘zgartirgan. Xoja Ahrorga qarshi doimo fitna qo‘zg‘zb yurguvchi shayx ul-islom Burxoniddin Abu Sa’idning qaynog‘si<sup>802</sup> Darvesh Muhammad tarxon boshliq bir necha amirlar bilan til biriktirib, eshonning ziyyaratiga bormaslakka, va’zu nasihatlariga quloq solmaslikka qarot qilishdi. Bu fitnaga Darvesh Muhammad tarxonning qarindoshi Abdul Ali tarxongina qo‘shilmadi<sup>803</sup> va bu fitna butunlay maqsadiga erishmasligini bashoart qildi. Shu paytda eshon shaharnning shimol tomonidagi Moturidda edi. Shayxul islom avvaldan yomon niyyati amalga oshuvidan rohatlanishga tayyor holda, bir mehmonini ham o‘zi bilan birga olib, unga “Qarab turing, men hozir bu qishloqi eshonni nima qilaman”<sup>804</sup> degan so‘zlar bilan eshon huzuriga keldi. Moturidda mehmonlarni eshon kutib oldi va o‘z qo‘llari bilan shayxul islomga dasturxon tuzdi. Mehmondorchilik davom etib turganda eshon huzuriga bir odam kelib, kutilmaganda Abu Sa’idning o‘g‘li Mirzo Sulton Ahmad amirlar bilan birga kelganini aytadi. Eshon huzurida o‘tirgani amirlar ko‘z o‘ngida o‘rtalaridagi kelishuvga xiyonat bo‘lib ko‘rinishidan qo‘rqib, eshon Mirzoni kutib olishga chiqqanida Shayxul islom shoshilinch yashirinishga urindi. Shundan keyin eshon Mirzo Sulton Ahmadni va amirlarni huzurida tez-tez, Abu Sa’id davridagidan-da ko‘proq ko‘rib turadigan bo‘ldi. Shayxul islom esa barcha obro‘- e’tiboridan mahrum bo‘lib, Hirotgta ketishga majbur bo‘ldi. Hayotining so‘nggi yillarini amir Chaqmoq madrasasida<sup>805</sup>, kimsasiz yolg‘izlikda o‘tkazdi. “Rashahot”ning muallifi bu ma’lumotlarni ba’zi tafsilotlar bilan to‘ldirib, shayxning oxirgi kasal

---

802

803

804

805

vaqtি va o‘limi oldidan uzrini eshonga yetkazishni iltimos qilib, vafot etgani haqida yozadi.

Shayxul islomning Hirotga ketish sabablari haqidagi tafsilotlar boshqa manbalarda uchramaymiz Abdurazzoqning so‘zlariga qaraganda, u o‘z asarini yozayotgan baqtida shayxul islon hali hayot edi<sup>806</sup>. Lekin Abu Sa’id vafotidan keyin Hirotga kelishi haqida Abdurazzoqda ma’lumot yo‘q. “Rashahot”ning vuallifi bergen ma’lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, Abu Sa’id vafotidan keyin Samarqandda eshonga qarshi harakat boshlangan. Shayxul islam fotihxasi bilan boshlangan harakat Abu Sa’id vorisining eshonga bo‘lgan ixlosi va ishonchi avvalgidek ekanini ko‘rgach, o‘z-o‘zidan tarqalib ketgan.

Abu Sa’idning o‘g‘li Mirzo Sulton Ahmad ayni otasi Samarqandbni olgan yili (855/1451)<sup>807</sup> yilga tug‘ilgan. (Zahiriddin Muhammad) Boburning yozishicha, bu yigit shaharda o‘sib ulg‘aygan ekaniga qaramay, “soddadil turk edi”<sup>808</sup> hech nima o‘qimas edi. Bunday hukmdor otasi Abu Sa’iddan ko‘ra ko‘proq eshonning ta’sirida bo‘lishi tabiiy edi. Shaxsiy hayotida Sulton Ahmad doimo namozni vaqtida o‘qir, may ichishdan tashqari shariatning barcha hukmlariga rioya qilishga harakat qilar edi<sup>809</sup>. U ichkilikka mukkasidan ketib, 20-30 kun tinimsiz mayxo‘rlik qilardi. Lekin bazmlar vaqtida ham namozni kanda qilmas edi. Hukmdor sifatida islam ruhidaadolatli ish yuritishga harakat qilar, biroq el ko‘ziga uning hukmronligi fmflda eshon Xoja Ahror boshqaruvi davri bo‘ldi<sup>810</sup>. Eshon vafotidan keyin u yana bir necha yil yashadi<sup>811</sup>.

Amakisi Sulton Ahmad hukmronligi davri Samarqandning mashhur kishilarini sanar ekan, Bobur Mirzo olimlar yoki shoirlar nomlarini atamaydi. KO o‘rinishidan bu davrda Samarqandda ilmiy va badiiy ijod so‘ngan. “qishloqi shayx” (Xoja ahror) tomonidan engilganshahar madaniyati vakillari Hirotga,

---

806

807

808

809

810

811

Temurning evarasi, Umarshayxning o‘g‘li, Abu Sa’iddan keyin taxtga kelgan Sulton Husaynning muhtasham saroyiga ketishgan. Bobur Mirzoning bo‘rttirib tasvirlashicha, Hirot jahonda tengi yo‘q shaharga aylangan. Sulton Husayn davrida uning ko‘rki o‘n-yigirma barobar oshdi<sup>812</sup>. Kimki Sulton Husayn saroyida bo‘lmasin, barcha biror kasb bilan band va bu kasbni kamolga yetkazishga harakat qilar edi.

Samarqandda ham ijodiy, aqliy hayot butunlay to‘xtab qolmagan edi. Biroq, yo‘llari Ulug‘bek tomonidan belgilab berilgan aniq fanlar Samarqandda o‘rin topmadi. Biroq Sulton Ahmadning vorisi, uning ukasi Slton Mahmud, akalariaga o‘xshamay, eshonga nafrat bilan qarar<sup>813</sup>, matematika sohasida bir qadar bilimga ega edi<sup>814</sup>.

Yuqorida keltirilgan Ulug‘bek asos slogan madrasa faoliyati islom ilohiyoti tarixida Ulug‘bek davri qanchalik chuqur rivojlangani dalolatidir. Kitobiy lohiyot ilm ham darveshlarga ham ta’sir o‘tkazmay iloji yo‘q edi. “Xojai kalon”, “xojai xujjot” deb ulug‘lan mish Eshonning o‘g‘li olimlik darajasi bilan ajralib turar edi. Musulmon sxolastik ilohiyotinin qanchalik salbiy tomonlari bo‘lmasin, uning madaniyatga yanada ashaddiy dushman bo‘lmish darveshchilik bilan olib brogan kurashi shubhasiz insoniyat oldidagi buyuk xizmati edi.

## ILOVALAR

### ULU’BEK HAYOTIY KECHMISHLARINING YILLARI

1394-yil 22 mart. Ulug‘bekning Sultoniyada tug‘ilishi.

1394-1405. Ulug‘bekning malika Saroy Mulk xonim nazorati ostida tarbiyat davri

1394, may.

---

<sup>812</sup>

<sup>813</sup>

<sup>814</sup>

Mirxon nomi bilan ma'lum Muhammad binnixavond shohning "Ravzat us-safo"sidan